

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

METODIKA

2024 Vol. 4 (2)

www.metodika.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir

Marg'uba Abdullayeva

Bosh muharrir o'rinbosarlari

Qozoqboy Yo'ldoshev

Roza Niyozmetova

Mas'ul kotib

Klaraxon Mavlonova

Tahrir kengashi

Fatma Achik (Turkiya), Ayshi Chetin (Turkiya), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Shohida Yusupova, Shahlo Yo'ldosheva, Nusratillo Jumaxo'ja, Nishonboy Xusanov, Gulshan Asilova, Gulnoza Jo'rayeva, Shahnoza Rahmonova, Tursunoy Yusupova, Hoshimjon Ahmedov, Tozagul Matyoqubova, Saodat Qambarova, Sohiba Umarova, Akbar Ro'ziyav, Munira Shodmonova, Mahfuza To'ychiyeva, Matluba Jabborova, Iroda Ishonxanova, Muazzam Dedaxonova, Muhabbat Madaminova, Sanobar Kuldasheva (texnik muharrir).

Jurnal haqida ma'lumot

"Metodika" seriyasi — Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, ta'lim va tarbiya nazariyasi, til va adabiyot o'qitish metodikasi, gumanitar fanlarni o'qitish sohalarini qamrab olgan. "Metodika" seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning global ta'limdagi muammolar, til va adabiyot o'qitishdagi innovatsion yondashuvlar, ta'lim va tarbiya nazariyasi yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

Jurnal bir yilda ikki marta chop etiladi.

O'zbek, ingliz va rus tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"O'zbekiston: til va madaniyat. "Metodika" seriyasi 2022-yildan nashr etila boshlangan.

Manzil: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: metodika@tsuull.uz

Vebsayt: www.metodika.tsuull.uz

MUNDARIJA

GLOBAL TA'LIM MUAMMOLARI: YECHIMLAR VA TAKLIFLAR

Qozoqboy Yo'ldoshev Blum taksonomiyasi nima?.....	5
Gulshan Asilova Mutaxassislik tilini o'qitish bo'yicha magistratura talabalarining loyihaviy faoliyatini model- lashtirish.....	11
Gulnoza Ahmedova Muloqot odobini shakllantirishning jamiyatimiz hayotidagi ahamiyati.....	19
Matluba Jabborova "Layli va Majnun" dostonini o'qitish usullari.....	28
Shoxruh Abdiraimov Maktab ta'limi sifatiga ta'sir etuvchi omillar (PISA 2022 tadqiqoti asosida).....	38

TIL TA'LIMI NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Tursunay Yusupova O'quvchilarni grammatik topshiriqlarni bajartirish orqali matn yaratish faoliyatiga tayyorlash muammosi.....	47
Munira Shodmonova Jahon ta'lim tizimlarini tahlil qilishda qiyosiy pedagogik metodlarning o'rni.....	54
Dilobar Normuminova O'quvchilarda o'qib tushunish ko'nikmasini turli test topshiriqlari orqali rivojlantirish.....	62
Shoxida Quraqova Maishiy obyektlarni bildiruvchi piktografik yozuvning kognitiv-semantik tahlili.....	71
Javhar Tursunova O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda realiyalardan foydalanishning samarali usullari.....	80

ADABIYOT O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Roza Niyozmetova Savol va topshiriqlar tizimini yaratish.....	86
Saodat Kambarova Mutolaa madaniyatini rivojlantirish omillari.....	93

Iroda Ishonxanova

Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi.....102

Oysuluv Musurmonkulova

Adabiy ta’limda zamonaviy yondashuvlar111

Gulhayo Isabayeva

O‘zbek nasrida ona obrazining genezisi va tadriji.....120

GLOBAL TA'LIM MUAMMOLARI: YECHIMLAR VA TAKLIFLAR**BLUM TAKSONOMIYASI NIMA?**Qozoqboy Yo'ldoshev¹**Annotatsiya**

Jamiyat hayotida tezkor o'zgarishlar ta'lim tizimida ham yangilanishlarni talab qilmoqda. Adabiyot darslarida asarlar tahliliga yangicha yondashuv, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash bugungi adabiyot muallimi oldidagi eng dolzarb masalardan biridir. Maqolada "Blum taksonomiyasi" haqida nazariy ma'lumot berilgan. Shuningdek, adabiyot o'quv mashg'ulotlarida ushbu usulni qo'llash bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. Blum taksonomiyasining afzalliklari misollar yordamida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *Blum taksonomiyasi, pedagog, ta'lim, bilim, tushunish, qo'llash, bo'laklash, yig'ish, baholash*

Kirish

Keyingi vaqtlarda o'qitish kechimida ko'p tilga olinadigan tushunchalardan biri Blum taksonomiyasidir. Kimdir uni model, boshqasi texnologiya, yana birov metod, deb ishlatadi. Bu hol uning asl mohiyatini anglab yetish zaruriyatini paydo qiladi. Pedagogik ilm va amaliyotda g'oyat ko'p tilga olinayotgan "Blum taksonomiyasi" hodisasini izohlashga o'tishdan oldin "taksonomiya" tushunchasi nimani anglatishiga to'xtalish maqsadga muvofiqdir.

Umuman, taksonomiya bir qancha bosqichlarni o'z ichiga olgan murakkab tuzilmalarni tasniflash, guruhlarga ajratish haqidagi fandir. Bir vaqtning o'zida u har qanday obyektning quyidan yuqorigacha bo'lgan qurilish tartibini ham anglatadi.

Asosiy qism

Taksonomiya atamasi ilk bor 1813-yilda shvetsariyalik botanik olim Ogyusten Piram Dekandol tomonidan qo'llangan edi. U o'zining "Botikaning boshlang'ich nazariyasi" asarida o'simliklar tasnifini shu so'z bilan atagan edi.

Pedagogika ilmi va amaliyotida faol qo'llanilayotgan Blum taksonomiyasi 1956-yilda tanikli psixolog olim Benjamin Blum (21.02. 1913-13.09. 1999) rahbarligida Chikago universitetining bir guruh olimlari tomonidan yaratilgan. Unga o'qitish jarayoni qanday maqsadlarda tashkil etilishini belgilash va bu maqsadlarga erishilganlik darajasini nazorat qilish mexanizmi sifatida qaralgandi.

Soddaroq qilib aytganda, Blum taksonomiyasi o'quv maqsadlarini "soddadan murakkabga" talabi asosida tasniflash tizimidir. Uning yordamida pedagog ta'lim jarayonining har bir bosqichida o'quvchilar oldiga aniq vazifalar qo'yish va ularga erishilganlik darajasini baholash imkoniga ega bo'ladi. Shuningdek, taksonomiyaga **"obyektlarning tabiiy aloqadorligidan kelib chiqib, ularga xos belgilarning oddiydan murakkabga qarab joylashtirishi ko'zda tutiladigan tizimlash va tasniflash yo'sinidir"** shaklida ham ta'riflanish mumkin.

Aslida "taksonomiya" atamasi jo'ngina "tasniflash", "guruhlarga ajratish" so'zlarining ma'nodoshi, ya'ni sinonimi hisoblanadi. Ammo Blum pedagogik tasnifning o'zga klassifikatsi-

¹ **Yo'ldoshev Qozoqboy Boybekovich** — Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

E-pochta: qashqirli@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-7453-7519

Iqtibos uchun: Yo'ldoshev, Q. 2024. "Blum taksonomiyasi nima?" O'zbekiston: til va madaniyat. 4[2]: 5-10.

Blum taksonomiyasi nima?

yalardan ajralib turishini ta'kidlash maqsadida "taksonomiya" atamasini qo'llashni maqsadga muvofiq, deb hisoblagan.


Aytish kerakki, Blum taksonomiyasi bir tarkibli hodisa emas. U a) **original** va b) **takomillashgan** singari ikki ko'rinishga ega. Blumning tiriklik chog'ida uning rahbarligida yaratilgan original taksonomiya quyidagi olti bosqichdan iborat: asos daraja «**bilim**» bo'lib, undan keyin "**tushunish**", "**qo'llash**", "**bo'laklash**" (tahlil), "**yig'ish**" (sintez) va "**baholash**" ko'nikmalari keladi. Har bir bosqichda o'quvchilarning bilish va intellektual rivojlanishga qaratilgan bir qator xatti-harakatlarni amalga oshirishi kerakligi ko'zda tutiladi. Bunda bir bosqichni bajarmay turib, ikkinchisiga o'tib bo'lmasligi ta'kidlanadi. Ko'rinadiki, 1956-yilda yaratilgan original taksonomiya o'quvchining asosan kognitiv, ya'ni bilim olish va aqliy rivojlanishga qaratilgan faoliyatini qamrab olgan.

2001 yilga kelib Benjamin Blumning kasbdoshi Devid Kretvol hamda Blumning shogirdi Lorin Andersonlar taksonomiyani qayta ko'rib chiqib, davr talabidan kelib chiqqan holda muayyan o'zgarishlar kiritib, takomillashtirdilar. Lekin uning nomini "Blum taksonomiyasi" tarzida qoldirdilar. Hozir butun ochunda asosan ana shu takomillashgan taksonomiyadan foydalaniladi. Ayni vaqtda, original taksonomiya asosida ish ko'radigan pedagoglar ham yo'q emas.

Taksonomiya har bir o'qituvchi o'z shaxsiy dasturi asosida ish yuritadigan ta'lim tizimida o'quv maqsadlarining aniq darajalari hamda shu o'quv fani orqali erishilishi kerak bo'lgan ta'lim natijalari chegarasini belgilab berishga xizmat qiladi.

Blum taksonomiyasining eng muhim xususiyatlaridan biri shuki, u amaliyotchi o'qituvchi qo'lida o'quvchilarga ta'limiy muammolarni hal qilishga o'rgatish vaqtida ham, o'qitish jarayonining natijasini baholash paytida ham birday samarali qurol bo'ladi.

Har ikki taksonomiyada ham o'quv maqsadlarining bosqich yoki darajalari odatda ehrom (piramida) shaklida ifodalanadi. Ehromning quyi qismida asos maqsadlar va shunga mos ko'nikmalar aks etgan bo'lib, yuqori qismidan esa ko'p tarkibli va murakkab o'quv maqsadlari joy oladi.



2001-yilgi Blum taksonomiyasi

Takomillashgan taksonomiyadagi har bir darajada nima ko'zda tutilishi kerakligini aniq bilib olish maqsadga muvofiqdir. Quyidagi chizmaning chap ustunida o'quv maqsadlari dara-

jasining nomi, o'rta ustunda uning mohiyati, o'ngdagi ustunda esa u orqali qanday kognitiv jarayonlar ko'zda tutilishi aks etgan.

Blum taksonomiyasi o'quv maqsadlari darajalarida quyidagilar ko'zda tutiladi

Daraja	Tushuntirish	Kognitiv kechimlar
Eslash (Remembering)	Oldin o'zlashtirilgan ma'lumotlarni faollashtirish uchun xotirasidan faktlar, qoidalar sanalar, nomlarni yodga tushirish. Boshqacha aytganda, birinchi daraja o'quvchi biladigan narsalarni aks ettiradi.	Yodga tushirish, o'ylab topish
Tushunish (Understanding)	Turli manbalardan olingan axborotlarni solishtirish va umumlashtira bilish	Talqin qilish, soddalashtirish, umumlashtirish, solishtirish, tushuntirish
Qo'llash (Applying)	O'zlashtirgan bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmasi	Bajarish, tatbiq qilish yoki qo'shish
Bo'laklash (analiz-tahlil) (Analyzing)	Muayyan materialni bir necha mantiqiy qismga ajrata bilish va bo'lakning butunga munosabatini aniqlay olish qobiliyati	Farqlash, tashkil qilish, taqsimlash, qismning kim yoki nimaga tegishli ekanini aniqlash
Baholash (evaluating)	Materialni muayyan o'lcham va mezonlar asosida baholash, unga tanqidiy yondasha bilish.	Tekshirish va chog'ishtirish, tahlil yoki tanqid qilish
Yaratish (Creating)	Material yoki uning qismlarini yangicha usulda birlashtirish, qandaydir yangilik yaratish	Rejalashtirish, ishlab chiqarish, yaratish

Bunda har bir yangi bosqichning o'zidan oldingi darajani egallagan holda uni davom ettirishi ko'zda tutiladi. Yuqori maqsadlarga o'tish uchun quyi maqsadlar egallanishi shart bo'ladi. Zero, buyuk o'ris yozuvchisi Lev Tolstoyning: ***"Bilim har bir odamda xotiraning kuchi bilan emas, balki tafakkurining urinishlari bilan egallangandagina bilim hisoblanadi"***, degan gapi bejizga aytilmagan. Ma'lumki, yangi bilimlar mavjud bilimlar ustiga quriladi.

Ko'rinadiki, takomillashgan taksonomiyada o'quv maqsadlarining quyidagi darajalari belgilanadi: 1) eslash; 2) tushunish; 3) qo'llash; 4) bo'laklash (analiz — tahlil); 5) baholash; 6) yaratish.

Original taksonomiya ***"bir o'lchamli"*** edi, ya'ni aytilganidek, faqat bilim olish va aqliy rivojlanishga qaratilgan kognitiv faoliyatni qamrab olish bilan cheklanardi. Takomillashgan taksonomiya esa ***"ikki o'lchamli"*** bo'lib, turli xil bilimlar bilan amalga oshiriladigan harakatlarni o'z ichiga oladi.

Original taksonomiyada barcha bosqichlar asosida bilim turishi ko'zda tutilgan bo'lsa-

Blum taksonomiyasi nima?

da, o'sha bilimning qanday tarkibiy tuzilishga egaligi belgilab berilmagan edi. Takomillashgan taksonomiyada o'quvchilar egallaydigan bilimlarning quyidagi to'rt turi ko'rsatib beriladi:

1. **Faktlarni bilish** — o'quvchilarning yangi mavzuni tushunish yoki biror o'quv topshirig'ini bajarish uchun kerak bo'lgan asos materialni egallashi. Bunga atamalar, ta'riflar, ramzlar, sanalarni bilish kiradi.

- **Konseptual bilimlar** — asos materialning unsurlari bilan o'zlashtiriladigan material unsurlari o'rtasidagi aloqadorlikka doir bilimlar. Boshqacha aytganda, bo'lakni butunga bog'lay olish.

- **Qo'llaniladigan bilimlar** — ya'ni ko'zda tutilgan ishni amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan harakatlar, qoidalar, yo'nalishlarga doir bilimlar.

- **Metakognitiv bilimlar** (bilim haqidagi bilimlar) — ta'limga ongli yondashish uchun o'quvchining o'z fikrlash tarzi va imkoniyatiga doir bilimlari.

Bu yerda erishilishi kerak bo'lgan natijalarga olib boradigan topshiriqlar emas, balki aynan natijaga erishiga imkon beradigan bilimlar tarkibi ko'zda tutilgan.

O'quv tahlilida takomillashgan Blum taksonomiyasidan foydalanish

Umumiy o'rta maktab adabiy ta'limida o'quv jarayoni tahlilini amalga oshirish muhim o'rin tutadi. Har bir saboqdagi o'quv maqsadlarini to'g'ri belgilash darslar samaradorligini ta'minlash imkonini beradi. Shu ma'noda Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasini o'rganishda Blum taksonomiyasi bosqichlarida qo'yiladigan maqsadlarga erishish uchun o'quvchilar bajarishlari kerak bo'ladigan topshiriqlar sirasi quyidagilardan iborat tarzida belgilanishi mavzuning teranroq o'zlashtirilishiga xizmat qiladi:

- **Eslash.** Matnning janri, muallifi, unda aks etgan davrga doir ma'lumotlarni egalash.

- **Tushunish.** Hikoya mazmunini o'zlashtirish, zarur bo'lsa, qayta hikoyalay olish.

- **Qo'llash.** Ho'kizi yo'qolgan kampirning dod solishi, Qobil boboning esa yalangbosh, yalangoyoq, yaktakchan og'il eshigi oldida turib, dag'-dag' titrashi sabablarini anglata bilish.

- **Bo'laklash** (analiz — tahlil). Hikoyadagi kampir, bobo, oti aytilmagan odamlar, ellikboshi, amin, tilmocho, pristav, Egamberdi paxtafurush obrazlarining tutumlarini o'zaro solishtirish.

- **Baholash.** Asardagi har bir obrazning xatti-harakatlariga o'z munosabatini bildirish. Hikoyadan xulosa chiqarishga urinish.

- **Yaratish.** Hikoya asosida esse yoki insho yozish.

O'quv tahlilida original Blum taksonomiyasidan foydalanish

Umumta'lim maktablarining 5-sinfi "Adabiyot" darsligida yozuvchi Abdusaid Ko'chimning "Boychechak" hikoyasi berilgan. Hikoyani o'tishda original Blum taksonomiyasidan foydalanish o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikr shakllanishiga xizmat qiladi

1. Bilish.

- Hikoyani kim yozgan?
- Asarning bosh qahramonini ayting.
- Hikoyada yana qanday obrazlar tasvirlangan?

2. Tushunish.

- Hikoya nega "Boychechak" deb atalgan?
- Asarda aks ettirilgan voqealar qaysi faslda yuz berganini ayting.
- Hikoyadagi Murodning harakatlariga qanday qaraysiz?
- Asardagi Qo'zivoy obrazining tabiatiga xos jihatlarni anglating.
- Qo'zivoylarning turmush darajasi qanday?

3. Qo'llash.

- Bahrillaning tutumlarini to'g'ri, deb hisoblaysizmi?

- Hikoyadagi qaysi obraz sizga ko'proq yoqdi? Nima uchun?
- Siz Qo'zivoyning o'rnida bo'lganingizda nima qilgan bo'lardingiz?
- 4. **Bo'laklash** (analiz — tahlil).
 - Shu hikoyani necha bo'limga ajratsa bo'ladi?
 - Asarda tasvirlangan obrazlarni qanday guruhlariga bo'lish mumkin?
 - Qo'zivoy, Bahrilla, Murod obrazlarini o'zaro solishtiring.
- 5. **Sintezlash** (yig'ish, umumlashtirish).
 - Hikoyadagi asosiy fikr nimadan iborat deb o'ylaysiz?
 - Sizning hayotingizda ham shunga o'xshash voqea bo'lganmi?
 - Murodning zo'ravonligiga nisbatan siz nima qilgan bo'lardingiz?
- 6. **Baholash**.
 - Hikoyadagi asosiy obrazlarga baho bering.
 - Asar matniga tayangan holda Tosh tog'aning qanday odamligini ayting.
 - Sizga Bahrillaning tutumlari qanday ta'sir qilganiga to'xtaling.
 - Hikoyadan olgan taassurotingizni so'zlab bering.

Adabiyot nazariyasiga tegishli mavzularni o'rganishda original Blum taksonomiyasidan foydalanish

G'azal

Bilish G'azalga xos xos belgilarni bilish	Tushunish Mohiyatni anglash	Qo'llash Darslikdagidan boshqa obyektga tatbiq qilish
G'azal janrining qoidasini ayting. Uning yetakchi belgilarini ko'rsating	G'azal janriga mansub asarning qofiyalanish tartibini bildiring. Atamaning ma'nosini ayting.	Alisher Navoiy she'rlaridan birini o'qib, g'azal janriga tegishli ekanini isbotlang.
Bo'laklash (analiz-tahlillash) Obyektni mantiqiy qismlarga ajratish	Yig'ish (sintez-umumlashtirish) Ajratilgan bo'laklarni badiiy butunlikka aylantirish	Baholash G'azalning badiiy qiymati va mumtoz adabiyotdagi o'rnini belgilash
G'azalning matla va maqtasini ko'rsating. Misra va baytlarning joylashish tartibini izohlang	Egallagan bilimlaringiz asosida notanish g'azalning qofiyalanish tartibi va shoir taxallusi qo'llanishini tushuntiring.	G'azal janridagi bitikning ifoda tarzidagi go'zallikka to'xtaling

Xulosa

Yuqoridagi ma'lumotlarga tayangan holda, Blum taksonomiyasini ta'lim tizimiga zarur jarayonlardan deb hisoblash mumkin. Badiiy asarni o'quvchilar kengroq tushunishi hamda ularni baholashga xizmat qiladi.

Xullas, Blum taksonomiyasini o'qitish amaliyotiga qo'llash mumkin va kerak. Lekin yodda tutish zarurki, unga har qanday mavzuni o'tishda ham yuqori didaktik natijaga erishish imkonini beraveradigan universal vosita tarzida ortiqcha mahliyo bo'lib qarash to'g'ri emas.

Adabiyotlar

Karimova Y. Adabiy ta'limda kreativ metodlar. -T.: "Oltin kitob", 2024.

<https://skillbox.ru/media/education/taksonomiya-bluma-chto-eto-takoe-i-zachem-ona-pedagogam-i-metodistam/>

Шутова Г. «Кубик Блума» - приём технологии критического мышления. Что это такое и как его использовать? [Электронный ресурс] URL: https://pedsovet.su/metodika/priemy/6001_kubik_bluma_na_uroke.

200 глаголов таксономии Блума [Электронный ресурс] URL: http://roachinthenet.blogspot.com/2016/01/200_21.html#.YXH8phxn0dX

<https://trends.rbc.ru/trends/education/63c117e89a794754801c3f1f>

What is Bloom's Taxonomy?

Kazaqboy Yo'ldoshev¹

Abstract

Rapid changes in the life of society require updates in the education system. A new approach to the analysis of works in literature classes, the use of modern technologies is one of the most pressing issues facing today's literature teacher. The article provides theoretical information about Bloom's Taxonomy. Recommendations for using this method in literature classes are also given. The advantages of Bloom's taxonomy are justified with the help of examples.

Keywords: *Bloom's taxonomy, pedagogy, education, knowledge, understanding, application, segmentation, collection, assessment*

Referenches

Karimova Y. Adabiy ta'limda kreativ metodlar. -T.: "Oltin kitob", 2024.

<https://skillbox.ru/media/education/taksonomiya-bluma-chto-eto-takoe>

Шутова Г. «Кубик Блума» - приём технологии критического мышления. Что это такое и как его использовать? [Электронный ресурс] URL: https://pedsovet.su/metodika/priemy/6001_kubik_bluma_na_uroke.

200 глаголов таксономии Блума [Электронный ресурс] URL: http://roachinthenet.blogspot.com/2016/01/200_21.html#.YXH8phxn0dX

<https://trends.rbc.ru/trends/education/63c117e89a794754801c3f1f>

¹ **Yo'ldoshev Kazoqboy Boybekovich** - professor of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc)

E-mail: qashqirli@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-7453-7519

For citation: Yoldoshev, K. 2024. "What is Bloom's Taxonomy?" *Uzbekistan: language and culture*. 4[2]: 5—10.

**MUTAXASSISLIK TILINI O'QITISH BO'YICHA MAGISTRATURA TALABALARINING
LOYIHAVIY FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH**Gulshan Asilova¹**Annotatsiya**

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ta'lim o'zbek, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida olib boriladi. Qoraqalpoq va rus tillarida ta'lim oluvchi guruhlarda o'zbek tili mutaxassislik tili sifatida o'qitiladi. Talabalarining davlat tilini maqsadli o'rganishlari uchun "O'zbek tili" fanidan har bir ta'lim yo'nalishi uchun o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish hamda joriy qilish borasida OTMlarga erkinlik berilgan. Ammo bugungi kunda OTMlarda amal qilayotgan o'quv dasturlarining barchasi ham zamonaviy metodika va lingvodidaktika talablariga javob beradi deb bo'lmaydi. Ko'plab darsliklar grammatizmga asoslangan eski metodlar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, uzluksiz ta'lim konsepsiyasi, ta'limga kompetensiyaviy yondashuvga amal qilmaydi. Oliy ta'limda o'quv mashg'ulotlarida umumta'lim maktablarida o'zlashtirilgan mavzularning qaytadan o'qitilishi kuzatilmoqda. Ta'lim bunday tarzda amalga oshirilishi natijasida davlat tilini mutaxassislik tili darajasida o'zlashtirish vazifasi bajarilmayapti, bu esa o'zbek tili fanini talabalar uchun "ortiqcha" fanga aylantirib qo'yimoqda. Ushbu muammolarni hal etish uchun metodik yordam sifatida Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistratura talabalari tomonidan nofilologik yo'nalishlar talabalari uchun o'zbek tilidan dars ishlanmalari ishlab chiqildi va to'plam shaklida taqdim etildi. Mazkur o'quv loyihasiga 9 ta yo'nalish uchun dars materiallari kiritilgan. Maqolada loyihaning mazmuni, ish bosqichlari va erishilgan natijalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: *o'zbek tili, mutaxassislik tili, nofilologik yo'nalishlar, davlat tili ta'limi, o'quv-metodik ta'minot, loyihaviy faoliyat.*

Kirish

Dunyoda sifatli ta'limga ehtiyoj ortib bormoqda. Keyingi yillarda mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalari soni, asosan, xususiy universitetlar hisobiga ikki barobardan ziyod ko'paydi. Bu ta'lim sohasida raqobat hamda ta'lim xizmatlari sifatiga e'tibor kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Shu bois bugun malakali kompetent pedagogik kadrlarga ehtiyoj nihoyatda oshgani kuzatilmoqda.

O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarining o'zga tillarda ta'lim beriladigan guruhlari-da o'zbek tili mutaxassislik tili sifatida o'qitiladi. Ularda O'zbekiston fuqarolaridan tashqari, ko'plab xorijiy talabalar ham ta'lim olmoqda. Lingvodidaktik talablarga asosan, bunday guruhlariga o'zbek tili boshlang'ich darajadan boshlab o'qitilishi lozim. Bu esa OTMlarda o'zbek tilini darajalab o'qitishni taqozo etadi va bu o'zbek tilining o'quv-metodik ta'minotida aks etishi kerak. Ammo nofilologik yo'nalishlarning o'zga tilli guruhlari uchun yaratilayotgan o'quv adabiyotlarida bunday farqlanish mavjud emas. Bir necha yil oldin oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun joriy etilgan "O'zbek tili" fan dasturida til ta'limini mutaxassislikka yo'naltirishga e'tibor kuchaytirilgan bo'lsa-da [O'zbek tili. 2017], bugungi kunda ham o'zbek tili ayrim

¹ **Asilova Gulshan Asadovna** — pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: gulshanasilova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8462-7120

Iqtibos uchun: Asilova, G. A. 2023. "Mutaxassislik tilini o'qitish bo'yicha magistratura talabalarining loyihaviy faoliyatini modellashtirish". O'zbekiston: til va madaniyat. 4[2]: 11—18.

o'quv dasturlari bo'yicha umumta'lim maktablarning o'rta sinflari darajasida, boshqalarida esa xorijiy til o'rganuvchilarning boshlang'ich darajasida o'qitilayotganini ko'rish mumkin.

Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasida "xalqaro tajribalardan ke- lib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish" vazifasi belgilangan [O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2019]. Shu munosabat bilan har bir oliy ta'lim muassasasiga unda mavjud ta'lim yo'nalishlari uchun o'quv rejalari va o'quv dastur- larini ishlab chiqish hamda joriy qilish huquqi berilgan. Biroq, amalda ko'plab universitetlarda davlat tilini mutaxassislik tili sifatida o'qitish zamonaviy talablarga javob bermaydi.

Asosiy qism

Davlat ta'lim standartlariga muvofiq, mamlakatimizdagi o'zga tilli umumta'lim maktab- larida o'zbek tili 2-sinf dan 11-sinf gacha o'qitiladi. Oliy ta'lim muassasalarida esa o'zbek tilining talabalar ta'lim oladigan yo'nalish, ularning egallaydigan kasbi, sohasi tili sifatida o'qitilishi belgilab qo'yilgan. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda tibbiyot, yuridik, ikti- sodiy va pedagogik oliy ta'lim muassasalarida talabalar o'zbek tilini egallayotgan kasblariga yo'naltirilgan tarzda o'rganmoqdalar. Ushbu yo'nalishlar uchun yaratilgan o'quv adabiyotla- riga kasbiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mavzular kiritilgan. Xususan, tibbiyot institutlarining rus guruhlar uchun ishlab chiqilgan darslik va o'quv qo'llanmalar bunga yorqin misol bo'la oladi [Turdiyeva, Ahmedova, Mahkamov, Kurambayeva, Akbarxod- jayeva. 2021]. Ularda nutqiy mavzularning aksariyati ("Odam anatomiyasi", "Dorishunoslik", "Tez tibbiy yordam chaqirish", "Tish nima o'zi?", "Anamnez yig'ish", "Yurak kasalliklari", "Nafas olish a'zolari kasalliklari", "Kasbiy deontologiya", "Pediatriya", "Yuqumli kasalliklar", "Ichki ka- salliklar") talabalarining bo'lajak kasbi xususiyatlariga bag'ishlangan.

Ammo qator OTMlarda o'zbek tili ta'limi ushbu talablarga javob bermaydi. Xususan, o'zbek tilining o'quv-metodik ta'minoti, amaliy mashg'ulotlar mazmuni va strategiyasi, amal- dagi o'quv dasturlari zamonaviy lingvodidaktikaga muvofiq emas. Ayrim OTMlarda tuzilgan va amal qilayotgan o'quv dasturlari, asosan, tilining grammatik kursi va umumiy mazmundagi nutqiy mavzulardan iborat bo'lib, o'zbek tilining maktab kursidan deyarli farq qilmaydi. Ush- bu yondashuv talabalarining o'zbek tilidagi nutqiy va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirmasligi bois o'quv kursiga ajratilgan vaqtning behuda sarflanishiga olib kelmoqda. Bu holatga o'zbek tili o'qituvchilarining talabalar egallayotgan sohani bilmasligi, ularning kasbiy terminologi- yasidan xabardor emasligi, mutaxassislik tilini o'qitish metodikasi ustida ishlamasligi sabab bo'lmoqda. Professional filologik va pedagogik ta'limda mutaxassislar filologik va nofilologik OTMlarda o'qitish uchun alohida tayyorlanmaydi. Shuningdek, yaqin vaqtlargacha o'zbek til- ini ona tili yoki xorijiy til sifatida o'qitadigan mutaxassislar ham alohida tayyorlanmaganligi ma'lum. Bu esa mavjud muammoning dolzarb ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Oliy ta'lim muassasalari uchun filolog o'qituvchilarni tayyorlashda mutaxassislik tili- ni o'qitish uchun alohida fan kiritilmagan. Lekin bu sohaning xususiyatlarini bilmaslik no- filologik yo'nalishlarda tilni maqsadli emas, umumiy tamoyillar asosida o'qitishga olib keladi.

"Mutaxassislik tili — til o'qitish aspektlaridan biri bo'lib, ta'lim muassasasida mutaxas- sislikni egallashda o'quv-ilmiy va kasbiy muloqotni ta'minlaydi. Mutaxassislik tilini egallash, odatda, ikkilamchi ko'nikma-malaka sifatida xorijiy tilni umuman egallash asosida paydo bo'ladi. O'rganuvchilar tilning ilmiy uslub, og'zaki ilmiy nutq, muayyan mutaxassislikning leksik-grammatik xususiyatlari kabi tizimlarini o'rganadilar, bu esa tanlangan bilim sohasi- da kommunikativ kompetensiyaning zaruriy darajasini egallashni ta'minlaydi. Mutaxassis- lik tilini o'zlashtirish darajasi kasbga yo'naltirilgan testlar yordamida aniqlanadi" [Азимов, Щукин. 2009: 360]. Mazkur ta'rifdan ko'rinadiki, mutaxassislik tilini o'zlashtirish uning

uslubiy xususiyatlari bilan birga, terminologiyasi va grammatikasining o'ziga xos jihatlarini o'rganishni taqozo etadi.

Yuqorida aytib o'tilgan muammolarning yechimini topish maqsadida joriy o'quv yili-da Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida ochilgan "O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili" mutaxassisligi bo'yicha magistraturaning o'quv dasturiga bo'lajak mutaxassislar uchun zarur bo'lgan zamonaviy o'quv fanlari kiritildi. Xususan, ushbu o'quv rejaga muvofiq, magistraturada ilk bor "O'zbek tilini mutaxassislik tili sifatida o'qitish metodikasi" o'quv fani joriy qilindi [O'zbek tilini mutaxassislik tili sifatida o'qitish metodikasi. 2023]. Uning maqsadlaridan biri bo'lajak mutaxassislarni nofilologik oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'qitishga amaliy tayyorlashdan iborat. Mazkur o'quv fani oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

— oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o'qitishning umumdidaktik, pedagogik, psixologik, lingvistik, sotsiolingvistik va lingvokulturologik asoslari to'g'risida tasavvur hosil qilish;

— o'zbek tilini mutaxassislik tili sifatida o'qitishning yaxlit metodik tizimini yaratish;

— o'zbek tilini nofilologik OTMda o'qitishda mutaxassislikka oid matnlardan didaktik material sifatida foydalanishni o'rgatish;

— o'zbek tilida og'zaki va yozma kasbiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning metod, usul va vositalari bilan ishlash.

Ta'lim davomida nofilologik yo'nalishlar talabalariga o'zbek tilini o'qitishning quyidagi jihatlarini yoritiladi:

- o'zbek tili bo'yicha fan dasturlari va sillabuslarni tuzish tamoyillari;
- kommunikativ ehtiyojga mos ravishda mutaxassislik terminlarini tanlash va ular bilan ishlash xususiyatlari;
- kasbiy nutq madaniyati asoslari;
- og'zaki kasbiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish;
- turli yo'nalishlar uchun o'zbek tilidagi matnlar tanlashning xususiyatlari;
- mutaxassislik tilini o'zlashtirishda o'zbek tilidagi autentik matnlar bilan ishlash metodlari;
- sohaviy hujjatlar bilan ishlash orqali yozma kasbiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish;
- mutaxassislik tilini o'qitish uchun didaktik materiallarni ishlab chiqish;
- mutaxassislik bo'yicha o'zbek tilidagi ma'lumot-axborot materiallari bilan ishlash malakasini rivojlantirish.

"O'zbek tilini mutaxassislik tili sifatida o'qitish metodikasi" fani bo'yicha o'quv dasturida ta'lim jarayoni natijasi sifatida o'quv loyihasini yaratish belgilangan. Ma'lumki, zamonaviy kasbiy ta'limda talabalarining faol loyihaviy-tadqiqot (evristik) o'quv-kasbiy faoliyati samarali metodlardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu bois hozirgi vaqtda til ta'limiga taalluqli barcha fanlar bo'yicha bakalavriatda ham, magistraturada ham o'quv kurslari davomida loyiha ishlarini tayyorlash amaliyoti keng qo'llanmoqda.

Loyiha ishining maqsadi nofilologik yo'nalishlar talabalarining davlat tilida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradigan mashg'ulotlar ishlanmalarini yaratish deb belgilandi. Bunda birinchi navbatda nimaga e'tibor qaratilishi zarur? Nofilologik yo'nalishlarda o'zbek tilini davlat tili sifatida o'qitishga bag'ishlangan tadqiqotlarda davlat tilida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish talablari tahlil qilingan. Jumladan, M. Qaraxodjayevaning fikriga ko'ra: "...davlat tili ta'limi oldida ikki asosiy maqsad turadi:

a) davlat tilida vaziyatga mos ravishda nutqiy aloqaga kirisha olish;

b) davlat tilida mustaqil ish yurita olish, ixtisosiy nutq madaniyatiga ega bo'lish"

[Qaraxodjaeva. 2002: 5]. Ushbu jihatlarini hisobga olgan holda, loyiha mualliflari tomoni-

dan davlat tilida kasbiy kompetensiya og'zaki va yozma nutq madaniyatida namoyon bo'ladi-gan sohalar o'rganib chiqildi. "O'zbek tilini mutaxassislik tili sifatida o'qitish metodikasi" fani bo'yicha loyiha ishining materiali sifatida ta'limning keng sohalaridan quyidagi yo'nalishlar tanlab olindi: iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, huquq, bank-moliya, tabiiy fanlar, arxitek-tura, tarix, tibbiyot, san'at.

O'quv semestri avvalida loyihaviy faoliyatning rejasi tuzilib, ishning bosqichlari belgilab olindi. Talabalarining har biri 9 ta yo'nalish bo'yicha didaktik materiallar ishlab chiqish ista-gini bildirdi, bu ularga tanlangan yo'nalishlarning barchasi haqida atroflicha tasavvurga ega bo'lish imkonini berdi. Birinchi navbatda mutaxassislik tilini o'qitishda o'quv fanlari integ-ratsiyasini ta'minlash maqsadida tanlangan ta'lim yo'nalishlarining amaldagi o'quv rejalari o'rganib chiqildi. Aksariyat OTMlarda "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" yoki "O'zbek tili" fanlari 1-2-semestrlar davomida o'qitilishi, bu davrda talabalarining bo'lajak kasbiga oid qay-si fanlarni o'zlashtirishi hisobga olindi.

Loyiha ishining ikkinchi bosqichida tanlangan yo'nalishlarda mutaxassislik tilining og'zaki va yozma shakllariga xos xususiyatlar o'rganib chiqildi. O'tkazilgan tahlillarga asos-langan holda, loyiha uchun modellashtiriladigan o'quv mashg'ulotlarining mavzulari va maz-muni belgilanib, ta'lim maqsadi, vazifalari va metodik tamoyillar aniqlab olindi.

Loyihaga kiritiladigan dars mashg'ulotlarining mavzularini belgilashda muayyan yo'na-lish, sohaning dolzarb muammolari, o'ziga xos xususiyatlari hisobga olindi. Xususan, *"Xalqa-ro munosabatlarda siyosiy nutq"*, *"Retsept yozishni o'rganamiz"*, *"Iqtisodiyotning asosiy shart-lari"*, *"Sun'iy intellekt"*, *"Muomalaga layoqatlilik nima?"*, *"Rang-tasvir"*, *"Semizligimga havo aybdormi?"*, *"To'lov tizimlari"*, *"G'aroyib binolar"* kabi mavzular shular jumlasidandir.

Loyiha ishining uchinchi bosqichida har bir yo'nalish terminologiyasi, sohaga xos so'zlar va iboralar, nutq qoliplari o'rganilib, tahlil qilindi. Ma'lumki, sohaviy terminlarni o'rgatish talabalarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim amaliy ahamiyatga egaligi bois o'zbek tili ta'limi jarayonida asosan kasbiy terminologiyaga boy materiallardan foyda-lanish, sohaga oid qonun hujjatlaridan misollar keltirish va ularning mazmunini sharhlash, terminlarni kasbiy muloqot doirasida dialogik va monologik nutq tuzishda faol qo'llashga o'rgatish maqsadga muvofiq [Асилова. 2017: 98].

Dars ishlanmalari uchun sohaviy terminlarni tanlashda turli soha va tarmoqlar termin-larining muayyan qismi o'zbek tilida muqobillarga ega emasligi aniqlandi. Ushbu holat so-haviy terminologiya bilan ishlashda nafaqat talabalar, balki o'zbek tili o'qituvchilari uchun ham bir qator qiyinchiliklarni tug'diradi. Shu bois kasbiy terminologiya bilan ishlash sama-radorligini oshirish maqsadida tanlangan har bir yo'nalish bo'yicha o'zbek tili mashg'ulotlari uchun terminologik minimum tuzildi. O'qib tushunish va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan matnlarni tuzishda tanlangan terminlardan foydalanildi, bu esa terminlarning kontekstda o'rganilishiga asos bo'ladi.

Loyihaning to'rtinchi bosqichida turli soha va tarmoqlarda davlat tilida og'zaki kasbiy muloqot xususiyatlariga e'tibor qaratildi. Ma'lumki, aksariyat davlar idoralari va muassasala-rida mijozlar bilan rasmiy muloqot yuritish qoidalari va talablari mavjud. O'zga til vakillarida rasmiy muloqotni o'zbek tilida yuritish ko'nikma-malakalarini shakllantirish mutaxassislik tili ta'limi doirasida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Talabalarda o'rganilayotgan til-da kasbiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishi uchun, avvalambor, o'zbek tili o'qituvchisi ushbu soha tilini bilishi zarur. Buning uchun til o'qitadigan mutaxassisdan talabalar o'rgan-ayotgan soha terminologiyasini o'zlashtirish, o'quv materiallarini tuzishda maxsus terminlar lug'atlaridan foydalanish, sohaga oid qonunchilik tili va maxsus adabiyotlarni o'rganish, so-haning rasmiy ish hujjatlari va ularning xususiyatlarini yaxshi bilish talab qilinadi. Bu, ayniq-sa, leksikasi sezilarli farqlanadigan sohalarining tili, ya'ni mutaxassislik tiliga tegishli [Asilo-va. 2023: 35].

Loyihaning ushbu bosqichida mualliflar tomonidan tanlangan sohalar faoliyatida eng ko'p qo'llanadigan terminlar kiritilgan rasmiy muloqot namunalari ishlab chiqildi. Shu bilan birga, rasmiy uslubga xos nutq, shuningdek, turli kasb vakillarining jonli nutqini aks ettiruvchi audio va videomateriallar banki shakllantirildi. Ular loyihaning har bir mavzusi ichiga QR kodlar ko'rinishida kiritilib, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish talablari bo'yicha rasmiylashtirildi.

Loyihaning beshinchi bosqichida magistratura talabalari tomonidan turli kasbiy sohalar faoliyatiga oid asosiy hujjatlar o'rganib chiqildi. Ulardan sohada eng ko'p qo'llanadiganlari tanlab olindi. Masalan, loyihaga *"Bemorga tayinlangan dori vositalari va uning tibbiy hujjatlari"*, *"Soliq auditini o'tkazish to'g'risida xabarnoma"*, *"Tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma"*, *"Startup loyihalarini tanlab olish va moliyalashtirish tanlovida ishtirok etish uchun ariza"*, *"Muomalaga layoqati cheklanganligini tasdiqlovchi hujjatlar"*, *"Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan zargarlik va boshqa buyumlarni ishlab chiqarish uchun beriladigan litsenziya"*, *"Kadastr pasporti"*, *"Ixtiro haqidagi talabnoma"*, *"Bankdan kredit olish uchun ariza"*, *"To'lov tashkiloti faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani olish to'g'risida ariza"*, *"Ziddiyatlar to'g'risida ma'lumotnoma"* kabi hujjatlar kiritilgan bo'lib, ularni mustaqil tuzish yoki blank ko'rinishidagi hujjatlarni o'zbek tilida to'g'ri to'ldirishni o'rgatish ko'zda tutilgan. Shuningdek, ayrim sohalarga tegishli, mijozlar tomonidan to'ldiriladigan hujjatlar bo'yicha og'zaki tushuntirish berish ham rasmiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantiruvchi vazifalar sirasiga kiradi. Bunday yondashuv o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish talablariga muvofiq ravishda qo'llanishi kerak.

Loyihaning ushbu bosqichida nafaqat soha hujjatlari bilan tanishtirish, balki ular bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan didaktik va muammoli topshiriqlar ham ishlab chiqildi. Masalan:

- *Berilgan videolavhani ko'ring. Unda keltirilgan ma'lumotlar asosida soliq solinmaydigan daromadlarni yozib chiqing.*
- *Shahar supermarketlarining biridasiz. Bir xaridor kassadan chiqib, chekidagi QQS to'lovi xaridordan olinadimi yoki yo'qmi deb, menejerdan ma'lumot so'radi. Menejer bu haqida batafsil ma'lumot bera olmadi. Siz, soliq inspeksiyasi xodimi sifatida bu suhbatga qo'shilib, fikr bildiring. QQS haqiqatan ham xaridordan olinishi va nima uchun ekanligini tushuntirib bering.*
- *Yandex Alisa ovozli yordamchisiga o'zbek tilini qo'shish uchun istalgan mavzuda ovozli matn tayyorlang.*
- *Berilgan suratlarda golland rassomi Van Gogning bir asari rus va o'zbek tillarida tasvirlab berilgan. O'zbek tiliga qilingan tarjimada xatolar mavjud. Shu xatolarni topib, to'g'rilang.*
- *QR kod orqali berilgan ma'lumotdan mualliflik huquqi haqida bilib oling. Qaysi sohalar uchun mualliflik huquqi kerak bo'ladi? O'rganib chiqing va yozing.*
- *O'zingiz uchun qiziqarli bo'lgan teatr spektakliga reklama afishasini tayyorlang.*
- *QR kod orqali berilgan audiolavhani tinglang. Unda ba'zi kimyoviy elementlarning xususiyatlari insonlar xarakteriga qiyoslangan. Elementlar xususiyatlarini jadval shaklida yozing.*
- *Dunyodagi eng yirik banklar o'ntaligi ro'yxatini tuzing, ular haqidagi ma'lumotlarni qisqa ifodalang.*
- *Virtual kartalar haqidagi ma'lumotni tinglang va ularning an'anaviy kartalardan farqli xususiyatlarini jadval ko'rinishida yozing.*

Didaktik materialni ishlab chiqishda til o'rgatishning zamonaviy texnologiyalari, audio va videomateriallardan foydalanildi. Metodik adabiyotlarda ko'p bora ta'kidlanganidek, til va nutq materiallarini taqdim etishda ularning nutqiy vaziyatga mosligini ta'minlash zarur.

Bu ta'lim oluvchilarga leksik birliklar va grammatik qoliplarni tezroq eslab qolish va ular-dan nutqiy faoliyatda samarali foydalanish imkonini beradi [Вербицкий, Григоренко. 2015: 188].

Loyihaning oltinchi bosqichida tinglab tushunish va o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi matnlar tanlandi. Nofilologik yo'nalishlar talabarlari uchun o'zbek tili ta'limida matnlar tanlash borasida J. Yo'ldoshev tomonidan quyidagi fikr bildirilgan: "Texnikaviy va boshqa nofilologik oliy o'quv yurtlarining talabalariga o'zbek tilini o'rgatishda ularning ixtisoslik tili sohasidagi ko'nikma va malakasini shakllantirish hamda rivojlantirish, ularni mutaxassisligi bo'yicha ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorlash muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Ixtisoslikka oid matnning ta'lim birligi sifatida olinishi esa bu yo'nalishda olib boriladigan til o'rgatish jarayonining asosini tashkil etadi" [Жўраев. 2005: 65].

Har bir mashg'ulot uchun autentik matnlar tanlab olinib, loyiha mualliflari tomonidan adaptatsiya qilindi (moslashtirildi). Bunda hozirgi kunda til ta'limida asosiy o'rinni egallagan integrativ yondashuvdan foydalanildi.

Ma'lumki, mutaxassislik tilini o'qitish jarayonida mavzularning maxsus fanlar mavzularidan "orqada qolishi" til mashg'ulotlari samaradorligini keskin pasaytiradi, chunki bu tilni o'rganishga bo'lgan xohishning yo'qolishiga olib keladi [Жукова, Никитина, Комарова. 2012: 25]. Shu bois o'quv materiallarini tanlashda bugungi kunda tanlangan sohalar uchun dolzarb muammolarga e'tibor qaratildi.

Loyihaning yakunlovchi bosqichida tuzilgan dars ishlanmalarini tartiblash, soddadan murakkabga qarab joylashtirish, loyiha dizayni ustida ishlash, materiallarni taqdim etishda texnik va metodik talablarga moslashtirish ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, o'quv mashg'ulotlarida foydalaniladigan barcha terminlarni o'z ichiga olgan glossariy ham ishlab chiqildi. Tayyor bo'lgan loyiha kitob shakliga keltirilib, "Nofilologik yo'nalishlar uchun "o'zbek tili" fanidan namunaviy dars ishlanmalari" deb nomlandi. Uni nashr qilish va elektron shaklda internet resurslariga joylashtirish rejalashtirildi.

Xulosa

Mazkur loyiha ishini amalga oshirish davomida turli oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'qitishda foydalanish mumkin bo'lgan sifatli metodik material yaratildi. Bu kontetnt bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili ta'limida qo'llanayotgan ko'plab samarasiz, ma'nan eskirgan o'quv adabiyotlarining o'rnini bosishi mumkinligini ko'rsatdi. Ushbu faoliyat bilan shug'ullanish jarayonida bo'lajak magistrlar turli yo'nalishlar uchun mutaxassislik tili bo'yicha metodik ta'minot bilan ishlash ko'nikmalariga hamda o'quv qo'llanmalari va terminologik lug'atlarni tuzish tajribasiga ega bo'ldilar. Pirovardida, bunday faoliyat magistratura talabalarini yuqori saviyada ilmiy izlanishlar olib borish, pedagogik faoliyat yuritish, boshqaruvga tayyorlaydi. Ularning tanqidiy fikrlash va tizimli tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun yaxshi imkoniyat beradi. Loyiha faoliyati davomida erishilgan natijalar nafaqat magistrnlarning ilmiy-metodik faoliyatida, balki nofilologik oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili ta'limining sifatini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

O'zbek tili (fan dasturi). 2017. Tuzuvchilar: N.Husanov, M.Abdurahmonova, O'Lafasov, G.Asilova. — Toshkent: OO'MTV. — 17 b.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2019. URL: <https://lex.uz/ru/docs/4545887>

Turdiyeva, K.; Ahmedova, D.; Mahkamov, M.; Kurambayeva, G.; Akbarxodjayeva, F. O'zbek tili. Tibbiyot institutlarining rus guruhlariga uchun darslik. I qism. Toshkent: NIF MSH. 2021. — 178 b.

Азимов, Э. Г.; Щукин, А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). — Москва: Изд-во ИКАР. 2009. — 448 с.

O'zbek tilini mutaxassislik tili sifatida o'qitish metodikasi. 2023 (70111600-O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili magistratura mutaxassisligi uchun fan dasturi). — Toshkent.

Қараходжаева, М. Х. Нофилологик гуруҳ талабаларининг касбий нутқини феъл асосида шакллантириш методикаси: Пед. фан. ном. дисс. — Тошкент: ЎзМУ. 2002. — 156 б.

Асилова, Г. А. Божхона ва солиқ йўналишлари талабаларининг давлат тилида касбий мулоқот юритиш компетенциясини ривожлантириш (рус гуруҳлари мисолида): Пед. фан. докт. дисс. — Тошкент: ТДПУ. 2017. — 276 б.

Asilova, G. Til ta'limida kasbiy mulqot ko'nikmalarini shakllantirish // O'zbekiston: til va madaniyat. № 4 (2). 2023. — В. 30-41.

Жўраев, М. Р. Ўзбек тилини давлат тили сифатида ўргатиш методикасининг шаклланиши (олий ўқув юртларида давлат тили таълими мисолида): Пед. фан. ном. дисс. — Тошкент: ТДПУ. 2005. — 166 б.

Вербицкий, А. А.; Григоренко, О. А. Контекстное обучение иностранному языку специальности: Учебно-методическое пособие. — Москва: РИЦ МГГУ им. М.А. Шолохова. 2015. — 205 с.

Жукова, Г. С.; Никитина, Н. И.; Комарова, Е. В. Технологии профессионально-ориентированного обучения. Учебное пособие. — Москва: Изд-во РГСУ. 2012. — 165 с.

Modeling the project activities of master students in teaching of the Language of Specialty

Gulshan A. Asilova¹

Abstract

Education in higher educational institutions of Uzbekistan is carried out in the Uzbek, Karakalpak, Russian and English languages. Uzbek is taught as the language of specialty in groups with education in Karakalpak and Russian. Universities are free to develop and implement curricula, textbooks and teaching aids in each available field of study regarding the subject "Uzbek language" in order to develop the purposeful study of the state language by students. However, not all curricula operating in universities today can be considered competently structured from modern methodical and linguodidactical point of view. Many textbooks are developed on the basis of old methods based on grammaticism and do not meet the requirements of the concept of continuous education and competence-based approach in education. In higher education, during the teaching process, one can observe re-learning of the material already learned in secondary school. This does not correspond at all to the task of mastering the state language at the level of specialization. Resultantly, the Uzbek language becomes an "excessive" subject for students. As a methodological guide for solving these problems, master students of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature have developed a set of methodological recommendations on the specialty language

¹ **About the author:** Gulshan A. Asilova — Doktor of Pedagogy (DSc), professor, University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: gulshanasilova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8462-7120

SCOPUS ID: 57211624977

For citation: Asilova, G. 2023. "Modeling the Project Activities of Master Students in Teaching of the Language of Specialty". *Uzbekistan: language and culture*. 4[2]: 11—18.

for students of various educational fields of non-philological higher educational institutions. This training project includes training materials in 9 areas. The given article highlights the content of the project, the stages of work and the results achieved.

Key words: *the Uzbek language, the language of specialty, non-philological directions, state language education, educational and methodological support, project activity.*

References

O'zbek tili (fan dasturi). 2017. Tuzuvchilar: N.Husanov, M.Abdurahmonova, O'Lafasov, G.Asilova. — Toshkent: OO'MTV. — 17 b.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2019. URL: <https://lex.uz/ru/docs/4545887>

Turdiyeva, K.; Ahmedova, D.; Mahkamov, M.; Kurambayeva, G.; Akbarxodjayeva, F. O'zbek tili. Tibbiyot institutlarining rus guruhlar uchun darslik. I qism. Toshkent: NIF MSH. 2021. — 178 b.

Азимов, Э. Г.; Щукин, А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). — Москва: Изд-во ИКАР. 2009. — 448 с.

O'zbek tilini mutaxassislik tili sifatida o'qitish metodikasi. 2023 (70111600-O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili magistratura mutaxassisligi uchun fan dasturi). — Toshkent.

Қараходжаева, М. Х. Нофилологик гуруҳ талабаларининг касбий нутқини феъл асосида шакллантириш методикаси: Пед. фан. ном. дисс. — Тошкент: ЎзМУ. 2002. — 156 б.

Асилова, Г. А. Божхона ва солиқ йўналишлари талабаларининг давлат тилида касбий мулоқот юритиш компетенциясини ривожлантириш (рус гуруҳлари мисолида): Пед. фан. докт. дисс. — Тошкент: ТДПУ. 2017. — 276 б.

Asilova, G. Til ta'limida kasbiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish // O'zbekiston: til va madaniyat. № 4 (2). 2023. — B. 30-41.

Жўраев, М. Р. Ўзбек тилини давлат тили сифатида ўргатиш методикасининг шаклланиши (олий ўқув юртларида давлат тили таълими мисолида): Пед. фан. ном. дисс. — Тошкент: ТДПУ. 2005. — 166 б.

Вербицкий, А. А.; Григоренко, О. А. Контекстное обучение иностранному языку специальности: Учебно-методическое пособие. — Москва: РИЦ МГГУ им. М.А. Шолохова. 2015. — 205 с.

Жукова, Г. С.; Никитина, Н. И.; Комарова, Е. В. Технологии профессионально-ориентированного обучения. Учебное пособие. — Москва: Изд-во РГСУ. 2012. — 165 с.

MULOQOT ODOBINI SHAKLLANTIRISHNING JAMIYATIMIZ HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Gulnoza Ahmedova¹

Annotatsiya

Og'zaki nutq dialog va monolog shakllarida ro'yobga chiqadi. Dialogik nutq o'stirish deganda dialog shaklida so'zlashni o'rgatish anglanadi. Dialog nutqiy muloqotni o'rgatish jarayonining (ta'limiy jarayonning) asosini tashkil etadi. E.V.Korotayeva bunday muloqotning tabiati haqida gapirib, shunday yozadi: "...vaziyatlilik (so'zlashuv shart-sharoitiga bog'liqlik), matniylik (o'zidan oldingi aytilganlar bilan shartlanganlik), beixtiyor sodir bo'lishlilik (произвольность) va oz darajadagi tashkil etilganlik (rejalashtirilmaganlik tavsifi) bilan xarakterlanadigan nutq ko'rinishi sifatida tushuniladi".

Dialogning tabiati muloqotning ana shu tavsiflariga mos keladi.

Kalit so'zlar: *vaziyatlilik — sharoitga moslashtirish, nutq ko'rinishlari — nutq turlari, dialog shaklida — ikki kishining muloqoti shaklida, nutqiy etiketi — nutqiy fe'l-atvori (nutq odobi).*

Kirish

O'zbekistonda ham o'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyi va nufuzini oshirish sohasida yangilangan o'qitish metodikasini takomillashtirishga oid tizimli faoliyat joriy etilmoqda. Davlatimiz Farmonlari va boshqa hujjatlarda mazkur sohada juda muhim vazifalar belgilanmoqda. Mamlakatimiz hududidagi alohida til siyosati uni o'qitish tizimiga ham muhim dolzarb talablarni qo'ygan. "Har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiy"² ekanligini o'zbek tili ta'limi oldidagi, ayniqsa, ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'quvchilarning nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish borasidagi dolzarb vazifa tarzida belgilaydi [Mirziyoyev, 2019].

Dunyo tilshunoslari, metodist olimlar ta'lim oluvchilarga ijtimoiy ahamiyatga molik nutqiy muloqot madaniyatini o'rgatish, muloqot jarayonida dialogik nutqqa xos birliklarga, muloqotda o'rinni ravishda muomala odobiga rioya qilish kabi ta'lim-tarbiya muammolarini diqqat markazidan tushirayotganlari yo'q. Shunga ko'ra o'quvchilarning nutqiy muloqot madaniyati komponentlarini rivojlantirish, jumladan muomala odobi yuzasidan mukammal ta'lim berish, shunga xizmat qiluvchi ish turlari va mashqlar tizimini ishlab chiqish borasidagi ilmiy izlanishlar olib borilayotganligi dolzarblik kasb etmoqda.

Asosiy qism

Dunyoda insoniyat olami yaralibdiki, uning nutqi doimo tafakkurining sermazmun jihatlarini ifodalovchi ruhiy hodisa bo'lib keladi. Darhaqiqat, o'z tilining go'zalligi, nafis jozibasini anglagan kishi uning ichki dunyosi sehrini ham nozik ilg'aydi, undan mukammal san'at asari yaratishga intiladi.

¹ **Gulnoza Ahmedova Muxtorovna** - pedagogika fanlari doktori, dotsent v.b. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ona tili ta'limi kafedrasida dotsenti

Email: rsamsung 958@gmail.com.

ORCID: 0000-0003-0468

Iqtibos uchun: Axmedova, G.M. 2024, "Muloqot odobini shakllantirishning jamiyatimiz hayotidagi ahamiyati". 4[2] 19—27.

Dialogik nutq o'stirish mazmunida o'quvchilarga shunchaki gaplar (replikalar) tuzib, fikr almashishni o'rgatish emas, balki tayyor qolip gaplardan foydalanish ham ko'zda tutiladi. Replikalar tayyor gaplar yoki o'quvchi tomonidan tarkibini o'zlashtirish asosida tuziladigan gaplarni ifoda etishi mumkin. O'zbek tilini o'qitish amaliyotida va metodikasi ilmida bu borada bir-biriga qarama-qarshi ikki xil yo'sinda ish olib borish yuzaga kelgan: 1) tayyor replikalarni yod oldirish; 2) mustaqil ravishda gap tuzishga doir bilim, ko'nikma va malakalarni egallash. Bizningcha, ikkinchi yo'lga pirovardida erkin muloqotga o'tish imkonini beradi. Ushbu yo'lni ma'qullagan fikrlar va mushohadalar ham mavjud.

Masalan, metodist olim R.O.Nabiyeva tayyor jumalarni nutqda qo'llay bilish hali kishining o'zga tilda gapira olishidan dalolat bermaydi, deb ta'kidlaydi [Nabiyeva; 1998, 21.]. Darhaqiqat, o'quvchi eslab qolgan gaplarini mos vaziyat kelganda ishlatishi mumkin, xolos. Boshqacha aytganda, u gapni nutqiy vaziyatga moslab o'zgartirib qo'llay olmaydi. Bunday nutqda dialogik replikalar muallaq holda talaffuz qilinadi, ya'ni suhbatdoshga qaratilmaydi. Jonli so'zlashuvga yaqinlashtirish uchun esa muomala odobidan kelib chiqadigan talaffuz xususiyatlari o'zlashtirilishi lozim.

Dialogik nutq o'stirishda replikalar va qolip gaplarni ishlatishni o'rgatishning o'zi kifoya qilmaydi. Metodist olim N.I.Formanovskayaning fikricha, tildan foydalanishda har bir jamiyatda qaror topgan nutqiy xulq-atvor qoidalari, til birliklarini vaziyatga qarab qo'llashning yozilmagan qonun-qoidalari bilan bog'langan nutqiy xulq-atvor qoidalari ham nazarda tutish muhimdir [Formanovskaya; 1982, 3.].

Ta'lim mazmunida leksik va grammatik materiallardan tashqari, muomala odobi qoidalari ham aks etmogi lozim. Shunday ekan, dialogik nutqqa doir ta'lim mazmunini, mashq va topshiriqlarni pishiq-puxta, nutq madaniyatini egallashga yo'naltirilgan holda loyihalash juda katta ahamiyatga molik tadbirdir. Bunda "nutqiy muloqot madaniyati" tushunchasi nimalarni o'z ichiga olishini nazarda tutish loyihaning barkamolligini ta'minlaydi.

Nutqiy muloqot madaniyati tushunchasi muloqot, nutqiy muloqot, og'zaki nutqiy muloqot madaniyati, muloqot madaniyati, muomala odobi (nutqiy etiket) tushunchalarining jamlamasi sanaladi. Ushbu tushunchalar real holatda muloqotning amalga oshuvini belgilab beruvchi omillar bo'la oladi, ularga ishora qila oladi.

Bularni umumlashtirsak, nutqiy muloqot madaniyati deganda odamlarning o'zbek xalqining uzoq tarixiy taraqqiyot davri davomida shakllangan muomala odobi qoidalariga rioya qilib, ijtimoiy shart-sharoit, ijtimoiy munosabatlardan kelib chiqib, shuningdek, shaxsning o'zligini va o'zgalarning (suhbatdoshlarning) shaxsini, ruhiyatini, jamiyatda tutgan mavqeini anglash asosida, nutqning kommunikativligiga e'tibor bergan holda muloqotda ishtirok etishi tushuniladi.

Zero, ijtimoiy hayotdagi nutqiy muloqot uchun so'z tanlash va ishlatish mahoratining o'zi yetarli emas: suhbatdoshlar o'z replikalarida (ular mustaqil ravishda tuziladigan gaplar yoki yod olib ishlatadigan shablon so'z-gaplar, qolip gaplarda) ijtimoiy munosabatlarni ham ko'zda tuta bilishlari darkor. "Nutqiy muloqot madaniyati" degandagi "madaniyat" so'zi ayni shu munosabatlardan kelib chiqish zarurligini bildiradi. Shunga ko'ra ham yoshlar qadriyatlarimizni va ular bilan bog'liq muomala odobi va qoidalari o'zlashtira borishlari muhim.

"Nutqiy muloqot madaniyati" ifodasida "nutqiy" so'zining ishlatilishi bejiz emas. Bu so'z muloqot turlaridan biri — nutqiy bo'lmagan muloqotga nisbat berish maqsadi bilan qo'llangan.

Mavjud adabiyotlarda muloqot turlari bir qadar to'liqlik bilan sanalgan. Tilshunos olim G.G.Vinokurning "Русский язык" nomli o'quv qo'llanmasida [Vinokur, 1989] so'zlashuv sohalari va shakllariga ko'ra nutqiy muloqot quyidagi turlarga ajratiladi:

Nutqiy muloqot turlari

1. Fatik muloqot.
2. Axborot bilan bog'liq muloqot.

3. Verbal va noverbal muloqot.
4. Shaxslararo, guruhli va ommaviy muloqot.
5. Kontakt va distant muloqot.
6. Rasmiy va norasmiy muloqot.
7. Professional (kasbiy) va maishiy muloqot.
8. Bevosita va bilvosita muloqot.
9. Og'zaki va yozma muloqot.
10. Dialogik-monologik muloqot.

Ushbu tasnifdagi muloqot turlaridan verbal va noverbal deb atalgani o'zbek tilida nutqiy va nutqiy bo'lmagan muloqot deb ifodalanadi. Tasnifdagi muloqot turlarining aksariyati nutq vositasida amalga oshadi: fatik muloqot ham, axborot bilan bog'liq muloqot ham, shaxslararo, guruhli va ommaviy muloqot ham, kontakt va distant muloqot ham, rasmiy va norasmiy muloqot ham, professional (kasbiy) va maishiy muloqot ham, bevosita va bilvosita muloqot ham, og'zaki va yozma muloqot, dialogik-monologik muloqot ham asosan nutqiy bo'ladi.

Biz bir gapning o'zini — turg'un iboraday bo'lib qolgan gapni “qolip gap” deb atayapmiz.

Tilshunoslikka doir adabiyotlarda muloqotning so'z yordamida, shuningdek, imo-ishoralar tarzida amalga oshirilishi ta'kidlanadi [Nazarov, 1996, 135]. So'z vositasida amalga oshadigan muloqot ***nutqiy muloqot*** sanaladi. Ikkinchi tilni o'qitish metodikasida nutqiy muloqot verbal muloqot deb atalsa, nutqiy bo'lmagani esa (imo-ishoralar va b. yordamidagi) noverbal muloqot (G.G.Vinokur bo'yicha) deb yuritiladi.

Ba'zan ikki kishining muloqoti uchinchi shaxsning vositachiligida amalga oshadi. Shunga ko'ra ***bevosita va bilvosita muloqot*** ajratiladi. Bunday vaziyat ko'proq bir-biri bilan aralashib qolgan kishilar o'rtasida yuz beradi. Masalan, er-xotin janjallashib qolsa, o'rta farzand aralashtiriladi: er farzandga aytadi, u onasiga yetkazadi va, aksincha, xotin farzandiga aytadi, u otasiga yetkazadi.

Yuqorida sanalgan muloqot turlari ichida eng keng tarqalgani va eng muhimi ***fatik muloqotdir***. Fatik muloqot muloqotni boshlash va davom ettirish uchun suhbatdoshni gapga solish, rag'batlantirib, gaplariga munosabat bildirib turish kabilarni anglatadi. Masalan, ***Xo'sh-xo'sh, yana nima deysiz! Qoyil! Ajabo! Kim ekan u alloma?*** (O.Yoqubov).

Fatik (***yoki aloqa o'rnatuvchi***) muloqot lingvistlar, sotsiolingvistlar, paralingvistlar: R.O.Yakobson, N.D.Arutyunova, T.G.Vinokur va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Ushbu termin dastlab umumiy munosabatlardan kelib chiqib so'zlarni oddiy, kundalik hayotdagi so'zlashuv nutqida qo'llashga nisbatan kiritilgan. Fatik muloqot muloqotning (fikir almashuvning) o'zi emas, balki qobig'idir. Boshqacha aytganda muloqotni fatik deb hisoblash uchun asos bo'lgan narsa uni boshlash, davom ettirish, to'xtatish uchun ishlatiladigan replikalardir. Ularni ***muloqotning tashkiliy omillari*** yoki ***muloqotga munosabat shakllari*** deb atash mumkin. Bunday replikalar nutqiy etiketlar, qoliplar (qolip gaplar), shtamplar deb ham ataladi. Ular muloqotning jamiyat tomonidan shakllantirilgan, suhbatdoshlarning tanlangan vaziyatlardagi nutqiy munosabatini ma'qullovchi, bir-birlariga nisbatan rasmiy va norasmiy sharoitda ularning ijtimoiy vazifalariga mos o'zgarmas formulalar (qoliplar, shakllar) tizimidan tashkil topadi.

O'zbek tilidagi qolip gaplar, shablon so'z va iboralar rus tilida turlicha ifodalanadi:

1. Ikkala tildagi ushbu til hodisalari leksik va grammatik jihatdan to'liq mos kelib, so'zmaso'z tarjimaga imkon beradi. Masalan: *Sog' bo'ling. — Будьте здоровы. Ishlar qalay? — Как дела? Labbay, eshitaman! — Алло, слушаю! Mayli! — Ладно. Marhamat.*

2. O'zbek va rus tillaridagi qolip gaplar leksik jihatdan qisman mos kelmaydi. Masalan: *Oq yo'l! — Светлого нymu! Xayrli tun! — Спокойной ночи! Доброй ночи!*

3. O'zbek va rus tilidagi qolip gaplar bir-biriga leksik jihatdan mos kelgan holda, ba'zan

grammatik jihatdan farqlanadi. Masalan, o'zbek tilidagi "*Sog'-salomatmisan?*", "*Tuzukmisan?*" kabi replikaar rus tilida ikki xil ifodalanishi mumkin: "*Ты здоров?*", "*Как твое здоровье?*" Birinchi variant o'quvchining real holati — salomatligi yomon ko'ringan paytda beriladi. Ikkinchi variantda yashiringan ega (sen) so'zi, unga ishora qiluvchi shaxs-son qo'shimchasi (-san) rus tiliga притяжательный olmoshi bilan tarjima qilinadi.

4. O'zbek tilidagi qolip gaplar rus tilida leksik va grammatik jihatdan butunlay mos kelmaydigan analogiyasi bilan beriladi. Masalan: "*Sog'-salomatmisan?*", "*Tuzukmisan?*" *Hor-mang. — Бог в помощь. — Shukur. — Слава Богу.*

5. Qolip gapdagi so'zning rus tilida asl ekvivalenti bo'lmaydi. Masalan: — *So'rayvering, bemalol.* — Спрашивайте (bemalolning tarjimasi yo'q).

O'zbek va rus tillarida muloqot madaniyati, jumladan, muomala odobi qolip gaplarda bo'lgani kabi mushtarak hamda farqli jihatlar keng yoritilgan. Masalan, ikkala tilda nutqiy muloqot madaniyati muomala odobiga rioya qilish, so'zlash ohangining suhbatdoshga ma'qul tarzda bo'lishiga intilishda o'z ifodasini topadi. Gapirishda odob va odobsizlik muomala tavsifiga bog'liq.

Har bir xalqning o'ziga xos muloqot odobi, kishilarning ijtimoiy shartlangan xulq-atvor qoidalari mavjud bo'lib, bu qoidalar shu shaxslarning egallab turgan lavozimi, mehnat faoliyati bilan shartlangan nutqiy muloqot madaniyatida o'z ifodasini topadi. Ushbu muloqot madaniyati muayyan kommunikativ nutqiy vaziyatlarda bir tipdagi standart so'zlashuv odatlarini ham o'z ichiga oladi.

Til va nutq o'zaro dialektik bog'liq ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-ruhiy hodisalar bo'lib, til aloqa quroli sifatida, nutq esa aloqa usuli sifatida mavjuddir.

Nutq — bu til deb ataluvchi, ijtimoiy-individual noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari, imkoniyatlarining obyektiv borliq, tafakkur hamda vaziyat bilan o'zaro zaruriy, doimiy munosabatda namoyon bo'lishidir.

Nutq — bu asosan rasmiy tildir. U keng ma'noda so'zlardan, so'z birliklari va gaplardan tashkil topadi.

Nutq tafakkur qilishda, fikr yuritishda, muloqotda tildan, so'zdan foydalanish jarayoni, jamiyat vujudga keltirgan o'zaro fikr almashish vositasining har bir kishiga (individda) xos ko'rinishidir.

Nutq, nutq odobi — insonning ma'naviyati va ma'rifatini belgilovchi asosiy mezondir. Demak, kishining odobi, eng avvalo uning nutqida ko'rinadi. Nutq odobi deganda, aytilishi zarur bo'lgan xabarlarini tinglovchini hurmat qilgan holda adabiy til me'yorlaridagi ifodalar bilan yetkazishdir.

Xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor yetkazish mumkin. Buning uchun so'zlovchi o'z tilini mukammal darajada bilishi darkor. Muloyim va yoqimli hamda odobli so'zlashish malakasi ham o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Unga yoshlikdan mahoratli so'zlovchi ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan o'rganish va muntazam ravishda mashq qilish hamda tilga jiddiy munosabatda bo'lish orqali erishiladi.

O'quvchi uchun esa eng yaxshi namuna o'qituvchidir. Buni o'qituvchi har doim his qilib turishi kerak.

Bolaga yaxshilik qilgan, aytilgan ishni, iltimosni bajargan kishilarga o'z vaqtida minnatdorchilik bildirish odobini ham o'rgatib borish lozim. Tilimizda rag'batlantirishni, minnatdorchilikni anglatadigan chiroyli nozik ifodalar bor. Ularni kundalik muomalaga kiritish, o'z o'rnida ishlatish kishi xulqini naqadar bezaydi.

O'qituvchi topshiriqni yaxshi bajargan o'quvchilarni xushmuomala va yoqimli so'zlar bilan rag'batlantirishi lozim: "*Barakalla!*", "*Qoyil!*", "*Balli!*", "*Juda zo'rsan-ku!*", "*Rahmat, yashavor!*". "*Ota-onangga rahmat!*".

Taniqli shoir Shuhratning quyidagi to'rtligi nutq odobiga qanchalar ahamiyat kuchliligini ifodalagan:

Bir og'iz shirin so'z aytding sen kecha,
Ko'nglimga ming bahor zavqi to'lgancha,
Kunduzga aylandi qorong'i kecham.
Bir og'iz iliq so'z qudrati qancha.

Buyuk shoir Yusuf Xos Hojib o'zining nutq odobiga bag'ishlangan ulug' asari "Qutadg'u bilig"da gapirishdan asosiy maqsad so'zlovchi ko'zda tutgan narsa, voqea, hodisalarni eshituvchiga to'g'ri va ta'sirchan yetkazishdir: "Bilib so'zlasa, so'z bilig sanalur" deydi ulug' bobomiz. Mutafakkir tinglovchini so'zning o'rnini bilib, tushungan holda ishlatishga, nutqni tartibli va ravon tuzishga undaydi:

Ugush so'zlama so'z biror so'zla oz,
Tuman so'z tugunini bir so'zla yoz.

Taniqli so'zshunos Ahmad Yugnakiy so'zni gapirganda ming o'ylab, shoshmasdan tuzishga, keraksiz, qo'pol so'zlarni so'zlamaslikka, mazmundor gapirishga chaqiradi. Noo'rin gapirib qo'yib, keyin javob berib yurmaslikka ogohlantiradi:

O'qub so'zla so'zni, ugush so'zlama,
So'zung kizla kedin, boshing kizlama.

Nutq madaniyati, odobiga oid qoidalarda o'rinli va sodda gapirish, ixcham va mazmunli so'zlash, laqma va ezmalikka yo'l qo'ymaslik, ustozlar va kattalar oldida hurmat va nutq odobini saqlash, dadil, rost, ravshan gapirishni ilgari surib, yolg'on va tilyog'lamalikni qoralaydi, so'zlashdagi boshqa shartlarni e'tibordan qochirmaslikni tavsiya qiladi.

Hazrat Alisher Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'at-tayn", "Mahbub-ul qulub", "Nazm ul-javohir" asarlari o'zbek tilida go'zal nutq yaratishning namunalari bo'lishi bilan birga nutq madaniyatining, odobining rivojlanishiga hissa qo'shdi.

Mutafakkir o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida "Til muncha sharaf bila nutqning olatidir va ham nutqdirki, gar nopisand zohir bo'lsa, tilning ofatidir" [Alisher Navoiy] deydi.

Navoiy ulug' so'z ustasi, dono faylasuf sifatida o'z xalqining badiiy barkamolligini, tafakkur teranligini o'zida mohirona mujassamlashtiribgina qolmay, shu bilan birga nutqning mazmunan sara, shaklan turfa, badiiy jihatdan latif, mantiqan izchil bo'lishiga erishgan.

Buyuk so'z san'atkori "Hayrat ul-abror"da so'z ta'rifiga maxsus boblarni bag'ishlagan. So'zni "bashar vujudi, sirining kavkabi (bulbuli) va inson zotining ma'danining javohiri" deb tavsiflagan.

O'z o'rnida ishlatilgan so'z o'likning tanasiga pokiza ruh bag'ishlagudek zo'r ta'sir kuchiga ega: dag'al, qo'pol, noo'rin so'zdan inson qalbi ozor chekadi. Mavlono Mirning ta'riflariga ko'ra, badiiy so'zlash qobiliyati zaif bo'lgan kishilarning nutqi mazmunsiz va sayozdir. Hazrat muloyim, shirinsuxan til haqida o'z fikrlarini qoldirganlar:

Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar,
Har nechaki ag'yor durur, uni yor aylar.
So'z qattig'i el ko'ngliga ozor aylar,
Yumshog'i ko'ngillarni giriftor aylar.

Muallif fikricha, "tiling birla ko'nglingni bir tut; so'zni ko'ngilda pishqormaguncha, ya'ni pishitmaguncha tilingga keltirma, har nimaiki ko'nglingda bo'lsa, uni tilga suraverma" [Alisher Navoiy].

Kattalardan so'ramasdan turib yoshlarning so'z boshlashlari odobsizlik sanaladi. Ishonchli bo'lmagan kishining oldida aytar so'zni o'ylab gapirish ikki baravar muhimdir. Kim boshqalarni huzuriga chorlar ekan, so'zni shu chorlagan kishi boshlashi kerak. Kattalardan so'ramasdan oldin so'z boshlash insoniy odatlarga zid bo'lib, oqillar ta'rifiga ko'ra, bu hayvonlar qatoridagi ish bo'lur edi.

Har bir inson o'z nutqini qo'pol, bema'ni, behayo so'zlardan tiyishi lozim. Darhaqiqat, Mir Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub"da "Tilga e'tibor — elga e'tibor", "Yomon tillik andoqkim, el ko'ngliga jarohat yetkurur, imkoni bor har bir yaxshilik so'z orqalidir" deb o'rgatganlar.

Har bir mutaxassis shuni yaxshi bilsinki, inson qalbi bamisoli gul, uning qalb gavhari shu qadar nozikki, bir og'iz shirin so'z bilan ko'ngilni tog'dek baland ko'tarib ham yuborishi mumkin, bir og'iz qo'pol so'z, haqoratli gap, muomala bilan odam dilini siyoh, kayfiyatini yomon qilishi mumkin. Tan jarohatiga ko'ra, so'z jarohati og'irroqdir. Noo'rin aytilgan har bir so'z o'zining zararli oqibatiga ega. Dag'allik va qo'pol muomala — faoliyat, ish, reja u yoqda tursin insonlarning sog'lig'iga salbiy ta'sir etishi tayin.

Demak, nutq madaniyatining yana muhim tarkibiy qismi — shirinsuxanlikdir. Xushmuomalalilik — inson husnining mezon, hurmatining poydevoridir. Ayniqsa, rahbar yoki pedagog (tibbiyot xodimining) shirinso'zligi jamoa a'zolarining umriga umr qo'shadi, hayot gulshanini bezaydi. Bu xislatlar notiqni, rahbar xodimni yuksakka ko'taradigan fazilatlar bo'lib, ulardan abadiy xotira qoldiradi, barcha sharaflaydigan, hurmat ila tilga oladigan, kishilar qalbida umrbod yashaydigan o'chmas nom qoldiradi.

Ko'rinib turibdiki, nutq odobi masalasi nutqiy muloqot madaniyatining o'zak muammosidir.

Xushmuomalalilik E.Rotterdamskiyning yozishicha: "Xushmuomalalilik xushmuomalalilikni keltirib chiqaradi va chaqiradi". U bilan boshqa ulug' insonlar ham qo'shiladilar:

"Takt yordamida hatto kuch bilan ham hech narsa qilib bo'lmaydigan holatda muvaffaqiyatga erishish mumkin" (D.Lebbok).

"Xushmuomalalilik hech qancha turmaydi, lekin ko'p narsa beradi". (M.Montegyu)

Har bir madaniyatli inson nutqiy etiketning asosiy me'yorlarini nafaqat bilishi va ularga amal qilishi, alohida qoida va o'zaro munosabatlarning zaruriyligini tushunishi lozim.

Maneralar ko'pincha insonning ichki madaniyatini, uning axloqiy va intellektual sifatlarini aks yaqqolroq aks ettiradi. Jamiyatda o'zini to'g'ri tutishni bilish juda katta ahamiyatga ega: u insonlararo kontaktlarni o'rnatishni osonlashtiradi, o'zaro tushunishga erishishni ta'minlaydi, yaxshi va barqaror o'zaro tushunishni yaratadi.

Bir so'z bilan aytganda, jamiyatning haqiqiy a'zosi bo'lish uchun xushmuomala bo'lish zarur.

Etiket belgilarini qo'llashning eng umumiy prinsipi — bu xushmuomalalilik, xarixohlikdir. Shuning uchun ham hech narsa kishilik xulqida tez-tez xayrixoh jilmayishdagiday ta'sir qilmaydi. Jilmayishni hissiyotlarning haqiqiy tabiiy va biologik ifodalanishi deb o'ylamaslik kerak. Turli madaniyat egalari bo'lgan kishilar turlicha kuladilar va jilmayishdan bir xil foydalanmaydilar. Ya'ni yaponlarda u suhbat mavzusiga bog'liq bo'lmaydi. U mijoz bilan rozilik va umumiy xayrixohlikni bildiradi, shuning uchun suhbatdoshlar, qoida bo'yicha jiddiy narsalar haqida gapirganlarida ham jilmayib turadilar.

Yozuvchi Sent-Ekzyuperi fikricha, "Ba'zan kulgu eng asosiy narsa bo'ladi. Jilmayish bilan minnatdorchilik bildiradilar. U bilan mukofotlaydilar. Kulgu bilan senga hayot bag'ishlaydilar. Shunday jilmayish borki, sen uning orqasidan o'limga ham borasan". Mehribonlarcha jilmayish Sent-Ekzyuperida insoniylik va rozilikning ramzi bo'lib hisoblanadi.

Xushmuomalalilik - bu odamlarga hurmat xulqining kundalik me'yori va atrofdagilarga murojaat qilishning odatdagi usulini yaxshi egallagan kishini tavsiflaydigan axloqiy sifatlardir. Xushmuomalalilikni tarbiyalash oiladan boshlanadi. Aynan bu yerda bolani insoniy

muloqot san'atiga o'rgatadilar. Xushmuomalalilik - bu boshqa odamlarga bo'lgan munosabatdagi ishlari miqdori orqali kishining ichki madaniyatining ochilishidir.

Xushmuomalalilik asosida abadiy axloqiy qadriyatlar yotadi: kattalarga hurmat, insoniylik sha'nini tan olish, oxir-oqibat odamlarga xayrixoh munosabat. Xushmuomalalilik formulalari kishilarga birgalikda yashashga, distansiya saqlashga va bir-birlarining huquqlarini hurmat qilishga yordam beradi.

Lekin aslida-chi, hayotda buning aksi bo'lib chiqsa-chi, ya'ni aytadigan bo'lsak, dilimizni yaralaydigan, muomala madaniyatini egallamagan, badiiy so'zlash mahoratiga ega bo'lmagan kishilarning so'zlari aksariyat hollarda ma'nosiz va xira bo'lib, ular zaboni bilan darz ketkazilgan ko'ngilni qaytadan tiklash mushkul bo'ladi.

Ta'kidlash kerakki, tartibli va odobli kishi nafaqat rasmiy tadbirlarda, balki uyda ham o'zini etiket qoidalariга amal qilgan holda tutadi. Haqiqiy xushmuomalalilik u yoki bu sharoitda nima qilish va nima qilmaslik kerakligini bildirib turadigan xayrixohlik, me'yor hissi bilan shartlanadigan mezondir. Muloyimlik etiketlariga amal qiladigan odam hech qachon so'zi bilan jamoat tartibini buzmaydi, xulqi bilan boshqa odamlarni xafa qilmaydi, ularning sha'nini haqorat qilmaydi. Afsuski, oramizda ikki toifali xulq egasi bo'lgan insonlar ham uchraydi: bit-tasi — kishilar o'rtasida, ikkinchisi — uyda. Ishda, tanishlari va do'stlari orasida ular muloyim va ehtiyotkor bo'lib, uydagilar bilan har bir sababga asabiylashaversa — bunda u dag'al, muomalasiz odamdur. Haqiqatan ham, u o'z yaqinlarining fe'l-atvori, ruhiyati, odatlari va xohishlari bilan hisoblashmasa — u odobsiz kishi. Bu holat o'sha insonning nutq madaniyati yuksak emasligi va tarbiyasi yomonligidan dalolat beradi.

Har bir oqil fazilatli inson nutq odobini nafaqat o'z oilasida yoki maktabda, ko'chako'yda olishi, balki u uni o'z-o'zidan ham olishi mumkin. Buning uchun u odob-axloq nimaligini chuqur anglab yetmog'i lozim. Misol uchun ayni yetuk yoshida o'z ota-onalarining yordam berishlarini zaruriy narsa sifatida qabul qilib, ularning o'zlari yordamga muhtojliklarini sezmasa, demak u ham ma'naviyatsiz insondir.

Yuksak madaniyatli kishi — bu boshqalar bilan hisoblashishni biladigan va xohlaydigan, bu shunday odamki, o'z muloyimligi nafaqat odatiy va qat'iy bo'lgan, balki yoqimli bo'lgan insondir. Har taraflama barkamol inson o'zini "baland" tutmaydi, boshqalarning vaqtini tejaydi ("Aniqlik — shohlarning muloyimligidir,- deyiladi maqolda), boshqalarga berilgan va'dasini bajaradi, ko'p gapirmaydi, birovning dilini og'ritmaydi va uyda, maktabda, institutda, ishda, do'konda va avtobusda (har yerda) — har doim bir xilda yuradi.

Barcha yaxshi odatlar asosida kishilarning shunday insoniy fazilatlari yotadiki — hamma birgalikda o'zini yaxshi his qilishi uchun bir-biriga halaqit bermasligi lozim. Bir-biriga halaqit bermaslikni o'rganish zarur. Shuning uchun chaplatmaslik, vilkani tarelkaga taqillatmaslik, o'zi ichayotgan sho'rvani shovqin bilan xo'rillatmaslik, ovqat yeyishda yoki ovqat to'la og'zi bilan baqirib gapirmaslik kerak. Shuningdek, yana qo'shnisiga xalaqit bermaslik uchun stol ustiga tirsaklarini qo'yib o'tirish — juda xunuk ish.

Orasta kiyinish ham shuning uchun zarurki, bunda atrofdagilar, mehmonlarga nisbatan hurmat, yuksak ma'naviyat hamda milliy qadriyat, madaniyat tushunchalari o'z ifodasini topadi. Yana eng muhimi, mezbonlar yoki oddiy o'tkinchilar uchun sizga qarash qiyin bo'lmasin.

Mazkur aytilganlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, yuzlab qoidalarni emas, balki bitta narsani esda saqlash lozim — boshqalarni hurmat qilishga asoslangan munosabatlarning zaruriyligini yodda saqlash. Olloh tomonidan tortiq qilingan, "hayot" deb atalmish kitobda barcha jamiyat a'zolarining o'z o'rinlari va shunga yarasha izzatlari bo'lishi zarur.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, o'zbek tilining go'zal imkoniyatlaridan, badiiy ta'sirchan nutq elementlaridan hamda etiketlaridan o'rinli foydalanish jamiyatimiz yetuk a'zosining vazifasi bo'lib, milliy madaniyatimizning bebaho qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Bunday ko'lamdagi ishlar har bir iymonli, o'zini vatanparvar deb o'ylaydigan avlodning juda muhim burchidir.

Adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasining 2020—2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsensiyasi O'zR Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"-gi PF-5850-son Farmoni. — Toshkent: — "O'zbekiston" NMIU, 2019. — 46 b.

Винокур Г.Г. О некоторых особенностях диалогической речи. Исследования по грамматике русского литературного языка: — Учебное пособие. — Москва: — Издательство "Академия наук Российской Федерации", 1989. 450 с, — С. 41.

Коротаева Е.В. Учебный диалог, технология или искусство? // Русский язык в школе. — Москва: 2008, — № 4. — С. 22—27.

Набиева Р.О. Обучение ситуативному диалогу в речевом общении на занятиях по русскому языку в 5-6 классах таджикской школы: Дисс... на соис. уч. степ. канд. пед. наук. — Ташкент: 1998. — 175 с.

Формановская Н.И. Вы сказали "Здравствуйте!" (Речевой этикет в нашем общении). Издание 3-е. — Москва: — Издательство "Знание", 1982. — 160 с.

Назаров К., Эгамбердиев Б. Ўзбек тили имо—ишора қоидалари: /Пунктуация/: Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун қўлланма. — Тошкент: — "Ўқитувчи" нашриёти. 1996. — 80 б.

THE IMPORTANCE OF COMMUNICATION ETIQUETTE IN OUR SOCIETY

Gulnoza Akhmedova¹

Abstract

Oral speech takes place in the forms of dialogue and monologue. Cultivating dialogic speech means teaching to speak in the form of a dialogue. Dialogue is the basis of the process of teaching speech communication (educational process). Ye.V. Korotayeva talks about the nature of such communication and writes: «... situationality (dependence on the conditions of the conversation), textuality (conditionality with what was said before it), involuntary occurrence (arbitrariness) and a small degree is understood as a form of speech characterized by organization (description of unplannedness)» [Korotayeva; 2008, 22.]. The nature of dialogue corresponds to these descriptions of communication.

Key words: *situationality — adapting to the situation, appearance of speech — types of speech, in the form of a dialogue — communication between two people, speech etiquette — speech behavior.*

References

O'zbekiston Respublikasining 2020—2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsensiyasi; O'zR Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"-gi PF-5850-son Farmoni. — Toshkent: — "O'zbekiston" NMIU, 2019. — 46 b.

Винокур Г.Г. О некоторых особенностях диалогической речи. Исследования по грамматике русского литературного языка: — Учебное пособие. — Москва: —

¹ **Gulnoza Akhmedova Mukhtorovna** — doctor of pedagogy, associate professor, etc. Alisher Navoi, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

Email: rsamsumg 958@gmail.com.

ORCID: 0000-0003-0468

For citation: Akhmedova, G.M. 2024, "The importance of communication etiquette in our society". Uzbekistan: language and culture. 4[2]: 19—27.

Издательство “Академия наук Российской Федерации”, 1989. 450 с, — С. 41.

Коротаева Е.В. Учебный диалог, технология или искусство? // Русский язык в школе. — Москва: 2008, — № 4. — С. 22—27.

Набиева Р.О. Обучение ситуативному диалогу в речевом общении на занятиях по русскому языку в 5-6 классах таджикской школы: Дисс... на соис. уч. степ. канд. пед. наук. — Ташкент: 1998. — 175 с.

Формановская Н.И. Вы сказали “Здравствуйте!” (Речевой этикет в нашем общении). Издание 3-е. — Москва: — Издательство “Знание”, 1982. — 160 с.

Назаров К., Эгамбердиев Б. Ўзбек тили имо—ишора қоидалари: /Пунктуация/: Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун қўлланма. — Тошкент: — “Ўқитувчи” нашриёти. 1996. — 80 б.

“LAYLI VA MAJNUN” DOSTONINI O'QITISH USULLARIMatluba Jabborova¹**Annotatsiya**

Maqolada oliy ta'limning O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabalari uchun asosiy fan sifatida o'qitiladigan “Navoiyshunoslik” fanini o'qitish yuzasidan muammo, jarayon va tavsiyalar berilgan. Mazkur fan doirasida Alisher Navoiyning hayoti, faoliyati, lirikasi, devonlari, dostonlari, ilmiy-nasriy, diniy va tilshunoslik hamda adabiyotshunoslikka oid asarlarini o'qitish rejalashtirilgan. Maqolada hazrat Navoiyning “Layli va Majnun” dostonini o'qitish yuzasidan ayrim mulohazalar taqdim etilgan. Xususan, “Layli va Majnun” dostonini o'qitishda zamonaviy yondashuv va usullardan foydalanishga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim muammolari, metodika, zamonaviy o'qitish, multimediya vositasi, “Layli va Majnun” dostoni, tasavvufiy tushunchalar, lug'at.

Kirish

Ta'lim samaradorligini sifat jihatdan ko'tarish, milliy metodikani yangi bosqichga olib chiqish bugungi kun ta'lim jarayonining qat'iy talablaridan biridir. Chunonchi, “millat ijtimoiy ongidagi evrilishlar, adabiyottanuv ilmi va pedagogik tafakkurdagi tub o'zgarishlar oliy adabiy ta'limni ham tamomila yangicha asoslarda tashkil etishni taqozo qilmoqda.” [Yo'ldoshev. 2023, 320] Bugun adabiyot darslarida badiiy asarni shunchaki mutolaa orqali o'rgatish yoki tahlil etishdan ko'ra, mavzuni turli metodlar orqali: vizual tasvirlar, audio yoki video ishlanmalari vositasida qiziqarli tashkil etish ko'proq samara bermoqda. Ayniqsa, mumtoz asarlarni o'qitishda yangilikka intilish, talabaga oson yetkazish usullarini dars jarayonida ko'proq foydalanish zarur.

Hozirda adabiyot o'qitish metodikasi sohasi rivojlanib, yangi pog'onaga ko'tarilib bormoqda. Soha rivojida metodist olimlarimiz ma'lum natijalarga erishib kelmoqda. Mavzu doirasida ilmiy-metodik tadqiqotlar yaratildi. Jumladan, “Ta'lim tizimida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganishga innovatsion yondashuv” (5—9-sinflar misolida), “Umumta'lim maktablarida o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari” mavzusidagi tadqiqotlar fikrimiz dalilidir. Biroq bu tadqiqotlarning barchasi maktab ta'limi doirasida bo'lib, oliy ta'limda Alisher Navoiy ijodini, umuman, mumtoz asarlarni o'qitish yuzasidan ba'zi uslubiy qo'llanmalardan tashqari aytarliq ilmiy tadqiqot ishi qilinmagan. Oliy ta'limda mumtoz asarlarni, xususan, Alisher Navoiy ijodini o'qitish metodikasi bo'yicha tadqiqot ishlarini yaratish kelgusida bajarilishi zarur bo'lgan vazifalardandir.

Asosiy qism

Ta'kidlaganimizdek, metodika yo'nalishida Alisher Navoiy ijodini o'qitish bo'yicha olib borilgan izlanishlar maktab ta'limini nazarda tutadi. Shunga qaramay, maktabda adabiyot fanini o'qitish jarayonida hanuzgacha Alisher Navoiy asarlarini o'qitishda muammolar mavjud. Demak, bu borada izlanishlarni davom ettirish, “Navoiy “Xamsa”si dostonlaridagi tasavvufiy

¹ **Jabborova Matluba Rustamovna** — Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti “O'zbek tili va adabiyoti” kafedrası dotsent v.b. (PhD).

E-pochta: mdjabborova86@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-9234-6137

Iqtibos uchun: Jabborova, M. 2024. “Layli va Majnun” dostonini o'qitish usullari”. O'zbekiston: til va madaniyat 4[2]: 28—37.

haqiqatlarni anglash va o'quvchilarga tushuntirish uchun fundamental tadqiqotlar olib borilishi kerak". [Qodirov 2019, 44]

Alisher Navoiy ijodini tasavvufdan ayri tasavvur eta olmaymiz. Metodist olim Q.Husanboyeva va R.Niyozmetovanning bugungi kunda mumtoz va tasavvufiy asarlarni maktab ta'limida o'qitishdagi asosiy muammo — o'qituvchining mavzu bo'yicha to'liq tushunchaga ega emasligi, degan fikrlari asosli, deb o'ylaymiz. Ayniqsa, metodist olimalarimizning mavzuni o'qitishdagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalari e'tiborga molik. O'qituvchi:

- 1) tasavvufiy manbalar bilan chuqurroq tanishishi;
- 2) tasavvufiy ramzlarning mohiyatini yaxshi anglashi;
- 3) tasavvufiy ma'lumotlarni didaktik maqsadlarga yo'naltira olishi;
- 4) tasavvufiy bilim berish uchun shariat qoidalarini bilishi;
- 5) mavzu bo'yicha yangiliklardan boxabar bo'lishi, adabiy nashrlarni muntazam o'qib borishi;

6) tasavvufiy istilohlar mazmunini ochib berishi kerak. [Husanboyeva, Niyozmetova (b) 2022, 79]

Keltirilgan tavsiyalardan anglashiladiki, maktab ta'limida ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Alisher Navoiy ijodini, umuman mumtoz asarlarni o'qitishda maxsus bilim va tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak. V.Qodirov ham mumtoz asarlarni maktab ta'limida o'qitishga oid tadqiqot ishida, mavzu bo'yicha ko'pgina muammolarni ochiqalaydi va muammo yechimiga oid ba'zi tavsiyalarni aytib o'tadi. Bu tadqiqotda Alisher Navoiy ijodini o'qitishda suhbat uyushtirish orqali fanga oid adabiy-nutqiy kompetensiyani; doston g'oyasi, obrazlar tizimi va voqealarni tahlil qilish orqali badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini; asar mohiyatini anglashga yo'naltirish orqali milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish mumkinligi ta'kidlangan. [Qodirov 2019. 77] Biroq mazkur tavsiyalar "Layli va Majnun" dostonini maktab ta'limida o'qitish yuzasidan berilgan bo'lib, oliy ta'lim jarayoni nazarda tutilmagan.

Oliy ta'limda bu muammoning yechimiga qaratilgan ba'zi tavsiyalarni keltiramiz. Yuqorida qayd etgan muammolarimiz oliy ta'limga to'g'ri kelmasligi tabiiy. Masalan, oliy ta'limda "Navoiyshunoslik" fani bo'yicha dars mashg'ulotlarini Alisher Navoiy ijodi bo'yicha maxsus izlanishlar olib borgan, mavzu yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni o'rgangan, umumiy qilib aytganda fanni ichiga kirgan olim tashkil etadi. Ya'ni maktab o'qituvchisidan farqli fan va fan atrofidagi ilmiy tadqiqot, ilmiy xulosalardan xabardor mutaxassis.

Ma'lumki, oliy ta'limda dars o'tish jarayonida o'qituvchi asosan ta'limiy vositalarga, ilmiy manbalarga tayanadi. Navoiyshunoslik fani doirasida yaratilgan ta'limiy vosita — amaldagi darslik akademik Sh.Sirojiddinov va boshqalar tomonidan tayyorlangan "Navoiyshunoslik" darsligidir. Mazkur darslikda "Layli va Majnun" dostoni bo'yicha 1) "Layli va Majnun" — pok va yuksak muhabbat ifodasi; 2) dostonning tarkibiy tuzilishi, g'oyaviy mundariyasi va timsollar olami; 3) dostondagi bosh qahramonlar hayoti; 4) doston badiiyati kabi rejalar asosida mavzu chuqur tahlil qilingan — yoritilgan.

Dars mavzusi va rejasidan so'ng, dars hikmati o'qituvchi tomonidan e'lon qilinadi. Talabalarining diqqati Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonidagi so'z qudratiga oid baytlarga qaratiladi. **Dars hikmati:** *So'z buyuk ne'mat. Hazrat Navoiy komil inson kamolotida so'zning o'rnini beqiyos bilgan.*

*Ey so'z, ne balo ajab guharsen,
Gavhar neki, bahru mavjvarsen.*[Navoiy 2021, 31]

*Aytib sovumas tarona sen-sen,
Olib qurumas xizona sen-sen.* [Navoiy 2021, 32]

“Layli va Majnun” dostonini o‘qitish usullari

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqidagi ma’lumotlar avvalgi darslarda o‘tilganligi bois ushbu darsda asosiy urg‘u “Layli va Majnun” dostoniga qaratiladi. Talabaga maktab ta’limida Alisher Navoiy ijodi, “Xamsa” dostonlari adabiyot fani doirasida o‘rgatilgan. Masalan, hozir amaldagi adabiyot fani kalendar rejasiga ko‘ra maktab ta’limida Navoiy ijodi bilan bog‘liq mavzular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

5-sinf	Alisher Navoiyning hayoti va ijodi. “Hayrat ul-abror” dostonida berilgan “Sher bilan Durroj” hikoyatini o‘qish	1soat
	“Sher bilan Durroj” hikoyatini tahlil qilish	1soat
	“Hayrat ul-abror” dostonidagi egrilik va to‘g‘rilik tushunchalari yuzasidan suhbat	1soat
6-sinf	Alisher Navoiy hayoti va ijodi. Navoiy ruboiylarini o‘qishga tayyorlanamiz	1soat
	Alisher Navoiy ruboiylari	1soat
	Qofiya va radif. Alisher Navoiy hikmatlari	1soat
7-sinf	Alisher Navoiy hayoti va ijodi. Navoiy qit‘alari tahlili	1soat
	Alisher Navoiy fardlari tahlili	1soat
	Mumtoz adabiyotdagi janrlarni qiyoslaymiz	1soat
8-sinf	Alisher Navoiy. Shoirning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Ruboiylari tahlili. Nazariy ma’lumot: ruboiy	2 soat
	Tuyuqlari tahlili	1soat
	Fardlarni o‘qib, tahlil qilish. Nazariy ma’lumot: fard	1soat
9-sinf	Alisher Navoiy. “Xamsa” asari. “Xamsa” — o‘zbek badiiy tafakkurining cho‘qqisi	1soat
	“Farhod va Shirin” dostonining “Xamsa”da tutgan o‘rni. Matn ustida ishlash	2 soat
	Dostonning obrazlar tizimi. Farhod shoir ideali tajassumi sifatida. Komillik yo‘liga kirgan inson manzillari tasviri	2 soat
	Shirin obrazi. Unda ayollarga xos ma’naviy fazilatlar talqini	2 soat
	Dostondagi boshqa obrazlar. Doston qahramonlaridagi ma’naviy xususiyatlar	2 soat
10-sinf	Alisher Navoiy. “Xamsa: Saddi Iskandariy” dostoni	1soat
	Alisher Navoiy. “Saddi Iskandariy”. Asar matni bilan ishlash	1soat
	Alisher Navoiy. “Saddi Iskandariy”. Asar matni bilan ishlash	1soat
	Alisher Navoiy haqidagi bilimlarni umumlashtirish	1soat
11-sinf	Alisher Navoiy. “Saddi Iskandariy” dostoni. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi. Navoiyning epik asarlari. “Xamsa” — besh dostonni o‘z ichiga olgan asar	1soat
	“Saddi Iskandariy” dostonining ma’rifiy va adabiy ahamiyati. Dostonda yoshlik va qarilik haqidagi qarashlarining badiiy tahlili. Dostonning poetik xususiyatlari	1soat

Demak, talabalar maktab ta’limida fan yuzasidan ma’lum bilimga ega bo‘lishgan. Biroq “Layli va Majnun” dostoni maktab ta’limida o‘qitilmagani bois, talaba uchun yangi mavzu hisoblanadi. Darsning yangi mavzuni tushuntirish bosqichini quyidagicha tashkil etish mum-

kin. Birinchidan, “Layli va Majnun” dostonining yozilish tarixi va genezisini yoritishda turli usullardan, masalan, grafik organayzerlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Grafik organayzerlar vositasida mavzuga oid ma’lumotlarni ko’rgazmali taqdim etish mumkin [Kambarova 2022, 19]. Bunda adabiy-nazariy tushunchalar, biografik ma’lumotlar yoki asar qahramonlari bilan bog’liq faktlar kompyuter dasturlari asosida tizimli ko’rinishda rasm yoki jadval asosida taqdim etiladi.


Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni yaratilgunga qadar yozilgan xamsanavis salaflarning shu nomdagi dostonlari, “Xamsa”ning ayrim dostoniga javob qaytargan shoirlar va birgina “Layli va Majnun” yo’nalishida ijod qilgan shoirlarni bir chizmada aks ettirib taqdim etish orqali dostonning umumiy genezisi bo’yicha yaxlit tasavvur hosil qilish mumkin.



Xuddi shu metoddan foydalanib navoiyshunos olimlar haqidagi jamlanma-ma’lumotni ham taqdim etish mumkin. Ya’ni o’zbek, rus, xorij adabiyotshunos olimlari tomonidan navoiyshunoslikning, xususan, “Layli va Majnun” dostonining qaysi jihatlarini tadqiq etilgan, qanday ilmiy tadqiqotlar yaratilgan — barchasini birgina chizma asosida bersa bo’ladi. Bunda talaba “Layli va Majnun”ni shunchaki ishqiy-badiiy asargina emas, balki necha asrlar davomida buyuk ijodkorlar tomonidan qayta va qayta ishlangan, tasavvufiy jihatdan ancha zalvorli asar ekanligini his qiladi. Bu jarayon bevosita talabani doston tahliliga tayyorlaydi.

Ikkinchidan, talabaga “Layli va Majnun” dostoni bosh qahramonlarining tarixi, dostonidagi boshqa obrazlar tasnifi haqida qisqacha videorolik namoyish etish mumkin. Darsni shu tarzda multimedia vositalaridan foydalanib tashkil etish talabalarni darsga qiziqtirish uchun bir omil bo’la oladi. “Multimedia”li darsning maqsadlaridan biri ham shu. Chunonchi, “multimedia” deganda (inglizcha multi — ko’p, media — muhit), ya’ni bir maqsadga xizmat qiladigan turli ko’rinishdagi axborotlar (matn, tasvir, ovoz, video, animatsiya)dan iborat bo’lgan yaxlit bir muhit, sharoit va tizimni umimlashtirgan holda ekranda namoyish etish jarayoni tushuniladi [Husanboyeva, Niyozmetova (a) 2022, 311].

Bu jarayonda ixtiyoriy video emas, dars uchun maxsus tayyorlangan yoki mos ravishda tanlangan video, audio, ko’rsatmali didaktik vositalar dars sifatini oshiradi.



Videorolik davomida asardagi ramziy obrazlarga to‘xtalganda, dastlab asosiy ramzlar — Majnun, Layli va Ibn Salom haqida eslatish lozim. Videolavha orqali mana shu uch obrazni markazga keltirib, umumiy va xususiy qirralarini yoritish, izohlash lozim. Qolgan ramzlarni — rang bilan bog‘liq, joy va hayvonot olami tasvirini ushbu qahramonlarning atrofida, ularni to‘ldirib turuvchi unsurlar ekanligini ko‘rsatish kifoya. Masalan, Majnun — majzubi solik; Layli — haq mazhari; Ibn Salom — avom ishqining vakili va h.k.

Asarning muqaddimasida tun ta’rifiga alohida bob ajratilgan. Bunda tasvirlar tun — ishq — Majnun — Layli ta’rifi bilan rivojlanadi. Hali asosiy voqea boshlanmasidan bunday “kirish” qismining berilishiga sabab, muallif aytilajak doston shunchaki an’anaga muvofiq yoziladigan voqea emas, zotan ungacha bitilgan “Layli va Majnun”larda “an’anaviylik” saqlangan. Navoiy “ishq vodiysining yo‘lboshchisi va ishq maskanining fuqarosi” sifatida bu darddan ogoh, shu boisdan, boshqalarni ham Majnun va Laylining ishq g‘amidan ogoh etmoqchi. Ko‘rinadi-ki, dostonda dard-g‘am haddan ortiq ekanligini qora rang vositasida ko‘rsatish orqali, kitobxonni doston voqealariga tayyorlaydi. Chunonchi, qora rang ta’rifidan so‘ng muallif Laylining manzilu makoni ishq vodiysi ekanligini ta’kidlaydi.

*Bu dasht anga maqom-u maskan,
O‘ti — gul-u xori dashti — gulshan.*

*Bir nodira ishq i mubtalosi,
Ne nodirakim, jahon balosi.*

*Andin Ajam-u Arab alamda,
Yo‘q misli Arab bila Ajamda.*

*Ishq ichra nechukki ul yagona,
Bu husnda ofati zamona. [Navoiy 2021, 51]*

Shuningdek, qora rang muallif holatini ham tasvirlaydi: Men zim-ziyolik gumbaziga qamalgach, bu zulmat eshikni berkitgan edi. Zamonni qora mumday bulut qoplab, tunning zulmatiga yana qorong‘ulik qo‘shilgandi. Vujudim shu zulmatga asir bo‘lib, ko‘nglimni falak zulmati makon qilgan edi.[Navoiy 2021, 51]

*Men gunbazi qirgunda mahbus,
Ul qir etibon eshikni madrus.*

*Davron uza abri qirmonand,
Tun qiri yuziga qirpayvand.*

*Jismim bo'lubon bu qir asiri,
Ko'nglumga maqar sipehr qiri.*[Navoiy 2021, 51]

Keyin esa bu rang qahramon ruhiyatiga ko'chadi. Qaysning hijrondan azoblanishi tasvirlari qora rang orqali ifodalanadi:

*Hijron qora shomi zor-u mahzun,
Chekkan kibi o'tluq oh Majnun.*[Navoiy 2021, 53]

Dars jarayonida yuqorida keltirilgan rang bilan bog'liq lavhalarni tasvir va suratlar orqali berish mumkin.

Asardagi ramziy joy tasviri deyilganda, dasht-u sahro ko'z oldimizda gavdalanadi. Qays har gal junun holatiga tushgach, sahroga chiqib ketadi, kenglik bag'riga singib ketishni istaydi. Dasht-u sahro, bepoyon kenglik tasvirini ekran orqali ko'rsatib, talabalar uchun muammoli savollarni o'rta tashlash mumkin. Masalan: Ba'zi qahramonlar ishqqa muhtalo bo'lsa, ko'kragini zaxga berib yotishadi. Qays esa ishqqa duchor bo'lgach, nima uchun sahroga chiqib ketadi? Majnun va sahro o'rtasida qanday bog'liqlik bor?



Majnunning it bilan do'st tutinishi, kiyiklar bilan hamroh bo'lishida ham o'ziga xos ramziylik bor. "Ma'lumki, it sadoqat, vafodorlik ramzi sanaladi. Dostonda Majnun o'z sadoqati, vafosidan ko'ra itning sadoqatini ustun qo'yadi, chunki it Majnunga qaraganda Layliga ancha yaqin turadi. U ham Majnun kabi oshiq, yorining oyog'i ostida yotib o'z vafodorligini, sadoqatini namoyon qiladi..."[Sirojiddinov va boshqalar 2019, 129] Demak, multimedia vositasida bu kabi jihatlarga urg'u berish mumkin.

Uchinchidan, "Layli va Majnun" dostonini o'rganish jarayonida dostonidagi tabiat va ruhiyat uyg'unligi, fanlararo integratsiya, axloqiy-ta'limiy g'oyalar tarannumiga alohida urg'u berish muhimdir. Mavzuni fanlararo integratsiyaga ham bog'lash mumkin; bunda asardagi geografik joy nomlari yoki peyzaj va portret namunalari tasviriy san'at orqali tahlil etiladi.

Masalan, asardagi ba'zi geografik joy nomlarini izohi bilan ekranda namoyish etish mumkin: Yasrib — Madina shahri shunday deb ham yuritilgan. Najd — Iroq va Hijoz o'rtasidagi joy nomi. Shom — Suriya va Damashqning sharq qo'lyozmalarida uchraydigan nomi. Ajam — Arab xalqlari va mamlakatlaridan boshqasi (ko'pincha Eron mamlakati va xalqiga aytiladi). Va shu nomlar bilan bog'liq baytlar talabalarga havola qilinadi.

Asarda tabiyat tasviri o‘ta jonli ifodalangan. Masalan, muallif peyzaj orqali ikki qahramon uchrashgan bog‘ tasvirini go‘yoki mohir rassomlardek chizib ko‘rsatadi:

*Bog‘e edi ravzadin nishona,
Shom ahli yasab nishotxona.*

*Har naxli falakka tegurub bosh,
Parvin bila xo‘sha aylabon fosh.*

*Najd etagidin chiqib bulog‘i
Kim, toza bo‘lub bu nav‘ bog‘i. [Navoiy 2021, 80]*

“Ul gulshan jannatga o‘xshagan bo‘lib, Shom ahli uni shodlik makoni qilib olgan edilar. Bu bog‘da o‘sgan har bir daraxt shunday yuksalgan ediki, Hulkar yulduzi uning mevasidek ko‘rinardi. Najd tog‘ining etagidan chiqqan buloq bu bog‘ni yashnatar edi.” [Navoiy 2021, 80] Ushbu tasvirlar ekran orqali ko‘rsatilsa, talabada hazrat Navoiyning peyzaj ustasi ekanligiga guvoh bo‘ladi. “Tasvirlardagi rang-baranglik kishini hayratga soladi, tabiat tasviri — peyzajlar kishini hudud bilmas tuyg‘ular olamiga boshlaydi... Shu jihatdan Alisher Navoiyning tabiatga qarashi, uning asarlaridagi tabiat tasviri masalalarini o‘rganish o‘sha serjoziba mahoratning ayrim qirralarini yoritishga katta imkon yaratadi.” [Erkinov 1988, 4]

Yoki dostonida Layli timsoli ham portret san‘ati orqali o‘ta mahorat bilan haroratli tasvirlangan. Hazrat Navoiy Laylini Arabiston-u Ajamda tengsiz go‘zal deb ta‘riflaydi. Majnun ishqda yagona bo‘lgani singari Layli ham husnda tengsiz “ofati zamona” deb baho beradi. Layli obrazining to‘lqonli tasvirini dostonning 11-bobida uchratamiz. Muallif o‘quvchiga Layli qiyofasini shunchaki ta‘riflab bermaydi, uning tasvirini so‘z orqali chizadi. Natijada Laylining betakror portreti ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi.

Badiiy asarda qahramon portreti muhim ahamiyatga ega. Nazariy jihatdan qahramon portreti — qahramonning tashqi ko‘rinishi, o‘zini tutishi, gapirishi, harakatlari tavsifi. Qahramon portreti faqat tashqi ko‘rinish bilan o‘lchanmaydi. Suvrat va siyrat uyg‘unligi badiiy portretning bosh shartidir.[quilt-patterns.com] Layli portreti orqali buni ko‘rish mumkin.

Adabiyotshunos olimlar badiiy portret va uning asardagi vazifasiga turlicha ta‘rif berishgan. Adabiyotshunoslikka oid lug‘atlarda portret ta‘rifi quyidagicha keltiriladi: “Portretning eng muhim xarakteri uning ko‘proq psixologik portret bo‘lishidadir. Psixologik portret yozuvchiga personajning tashqi qiyofasi orqali uning ruhiy dunyosini ochishga yordam beradi. Shuning uchun aytish mumkinki, portret yozuvchining shaxsiy uslubi, mahorati va maqsadiga bog‘liq holda turlicha darajada berilishi mumkin. Masalan, ba‘zan shaxsning tashqi qiyofasi va xatti-harakati juda batafsil tasvirlansa, ba‘zan obrazning yo tashqi qiyofasiga yoki uning xatti-harakatiga oid muhim bir detalni tasvirlash orqali ham berilishi mumkin” [Hotamov, Sarimsoqov 1983, 252].

Dilmurod Quronov portretga “personajning so‘z vositasida tasvirlangan tashqi ko‘rinishi(qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko‘z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), o‘quvchi tasavvurida jonlanadigan to‘laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri” deb ta‘riflaydi va portretni a) statik, b) dinamik turlarga ajratadi. Statik portret mufassal tasvir, dinamik portret esa harakat davomida berilib boriluvchi ayrim tasvirlardir” [Quronov va boshqalar 2013, 226].

Darhaqiqat, “Layli va Majnun”dostonida Layli portreti betakror chizilgan. Hazrat Navoiy 32 baytni Layli tasviriga bag‘ishlaydi. Laylini shunchaki tasvirlamaydi, Layli portretini tabiatdagi mavjud go‘zallik asnosida chizadi. Portret tasviri qomat — yuz — lab — zulf — xol — qosh — o‘sma — ko‘z — kiprik... tarzida rivojlanib boradi. Quyida kiprik tasvirini ko‘rib o‘tamiz:

*Mujgon safining qaro balosi,
Ko'zlar uza soyaning qarosi.*

*Yo'q soyaki, to'rt saf chekib zang,
Majmui libosi surmai rang.*

*Ochquncha yumub ko'z ul sipah tez,
Bir-birga tegib qilurg'a xunrez.*

*Dema bu sipahni xayli hindu,
Chin dashti kiyiklariga mo'ndu.*

*Mushk oncha sochib bu ohuyi Chin
Kim, ayladi mo'ndularni mushkin. [Navoiy 2021, 68]*

Kiprik saflari qoraligidan ko'zlarning ustiga soya tushib turgandek. Soya ham emas, go'yo to'rt qator saf tortgan askarlardek. Ko'z har safar yumilib-ochilganda, bu askarlar bir-biriga tashlanadi. Yo'q, bular askarlar emas, kiyiklar uchun qo'yilgan qopqonlar. O'ljasi tarovatidan mast bo'lgan qopqonlar... Obrazli tasvir o'ta go'zal, o'ta hayratlanarli. So'z orqali chizilgan bu go'zallikni, rassom ham bu qadar mahorat bilan tasvirlay olmasa kerak. Darhaqiqat, muallif uchun portret chizish badiiy tasvir vositasi, xarakterni ochish usulidir. Yozuvchining poetik so'z bilan "o'ymakorlarcha" chizgan portreti uning tasvirlanayotgan obrazga qanday munosabatda bo'lganini ham ko'rsatadi. [Homidiy va boshqalar. 1970, 167]

Layli portreti — tasvirini "rasmi lug'at" vositasida taqdim etish mumkin. Bunda "Navoiy asarlari izohli lug'ati" dan so'zlarning ma'nolari keltirilgan izoh hamda uning tasvirini parallell holda beriladi. Ya'ni Power Point dasturida yaratilgan slaydga lug'at ostiga surat biriktiriladi, lug'atdagi so'z belgilansa, surat namoyon bo'ladi.

RASMLI LUG'AT

*Mujgon safining qaro balosi,
Ko'zlar uza soyaning qarosi.
Yuz, ravzai xulddin nishona,
Xol anda fireb etarga dona.*

1. Mujgon – kipriklar



Xulosa

Oliy ta'lim bosqichida Alisher Navoiy asarlarini, xususan, "Layli va Majnun" dostonini o'qitish, bo'lajak o'qituvchilarga asarning mohiyatini yetkazish professor-o'qituvchidan tinimsiz izlanish, yuqori pedagogik mahorat va texnik imkoniyatlardan unumli foydalana olishni talab etadi. Metodika yo'nalishida olib borilayotgan mavjud tadqiqotlarning aksariyatida asosiy e'tibor maktab ta'limi muammolariga qaratilgan bo'lib, ular doirasiga oliy ta'limda O'zbek adabiyoti, Navoiyshunoslik, Adabiyotshunoslik nazariyasini o'qitish bilan bog'liq muammolarni kiritish maqsadga muvofiq. Aslida o'qituvchi darsni zamonaviy usullar asosida tashkil eta olsa, talaba ham "transmissiya" — tinglovchilik bosqichidan "transformatsiya" — ta'lim jarayonida qatnashish va "transaksiya" — ta'lim jarayonida ishtirok etish bosqichiga ko'tarilar edi.

Adabiyotlar

- Erkinov, Aftondil. 1988. Navoiy — peyzaj ustasi. — Toshkent: Fan.
- Jabborova, Matluba. Modern approaches to studying epics. International Bulletin of Applied Sciences and Technology. 2023. Volume 04, Issue 6.
- Homidiy, Hamidjon va boshqalar. 1970. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. —Toshkent: O‘qituvchi.
- Hotamov, N., Bahodir Sarimsoqov. 1983. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. — Toshkent: O‘qituvchi.
- Husanboyeva, Qunduzoy, Roza Niyozmetova. 2022 (a). Adabiyot o‘qitish metodikasi. 1-kitob. — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo.
- Husanboyeva, Qunduzoy, Roza Niyozmetova. 2022 (b). Adabiyot o‘qitish metodikasi. 2-kitob. — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo.
- Kambarova, Saodat. 2022. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. — Toshkent: Mahalla va oila nashriyoti.
- Navoiy, Alisher. 2021. Layli va Majnun. — Toshkent: Tamaddun.
- Qodirov, Valijon. 2019. Umumta’lim maktablarida o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari. P.f.d.diss. — Namangan.
- Quronov, Dilmurod va boshqalar. 2013. Adabiyotshunoslik lug‘ati. — Toshkent: Akadem-nashr.
- Sirojiddinov, Shuhrat va boshqalar. 2019. Navoiyshunoslik. — Toshkent: Tamaddun.
- Yo‘ldoshev, Qozoqboy. 2023. Jilovlanmagan tafakkur mahsuli. — Toshkent: Tafakkur.
- <https://quilt-patterns.com/17331571-portrait-in-literature-concept-technique-for-describing-the-hero-and-examples#menu-1>

Methods of teaching the epic “Layli and Majnun”

Matluba Djabborova¹

Annotation

The article demonstrates problems, procedures and recommendations concerning the teaching of the subject “Navoiyshunoslik”, which is taught as the main subject for students of the Uzbek language and literature department of higher education. Within this subject it is planned to teach Alisher Navoi’s life, work, poems, devans, epics, scientific prose, religious, linguistic and literary works. In this work some comments on the teaching of Alisher Navoi’s epic “Layli and Majnun” are presented. Special attention is given to the use of modern approaches and methods in teaching the epic “Layli and Majnun”.

Key words: *educational problems, methodology, modern teaching, multimedia tool, “Layli and Majnun” saga, mystical concepts, dictionary.*

References

- Erkinov, Aftondil. 1988. Navoiy — peyzaj ustasi. — Toshkent: Fan.
- Jabborova, Matluba. Modern approaches to studying epics. International Bulletin of

¹ **Djabborova Matluba Rustamovna** — Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Associate Professor (PhD) of the Department of Uzbek Language and Literature.

Email: mdjabborova86@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-9234-6137

Iqtibos uchun: Djabborova, M. 2024. Modern approaches to teaching the epic “Layli and Majnun”. *Uzbekistan: Language and Culture*.4[2]: 28—37.

Applied Sciences and Technology. 2023. Volume 04, Issue 6.

Homidiy, Hamidjon va boshqalar. 1970. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. —Toshkent: O'qituvchi.

Hotamov, N., Bahodir Sarimsoqov. 1983. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. — Toshkent: O'qituvchi.

Husanboyeva, Qunduzoy, Roza Niyozmetova. 2022 (a). Adabiyot o'qitish metodikasi. 1-kitob. — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo.

Husanboyeva, Qunduzoy, Roza Niyozmetova. 2022 (b). Adabiyot o'qitish metodikasi. 2-kitob. — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo.

Kambarova, Saodat. 2022. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. — Toshkent: Mahalla va oila nashriyoti.

Navoiy, Alisher. 2021. Layli va Majnun. — Toshkent: Tamaddun.

Qodirov, Valijon. 2019. Umumta'lim maktablarida o'zbek mumtoz adabiyoti namunalari o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. P.f.d.diss. — Namangan.

Quronov, Dilmurod va boshqalar. 2013. Adabiyotshunoslik lug'ati. — Toshkent: Akadem-nashr.

Sirojiddinov, Shuhrat va boshqalar. 2019. Navoiyshunoslik. — Toshkent: Tamaddun.

Yo'ldoshev, Qozoqboy. 2023. Jilovlanmagan tafakkur mahsuli. — Toshkent: Tafakkur.

<https://quilt-patterns.com/17331571-portrait-in-literature-concept-technique-for-describing-the-hero-and-examples#menu-1>

MAKTAB TA'LIMI SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

(PISA 2022 tadqiqoti asosida)

Shohruh Abdiraimov¹**Annotatsiya**

Ma'lumki, ta'lim jarayoni maktab va oila kallobaratsiyasi asosida tashkil etiladi. Maktabdagi ta'lim sifatini yaxshilashda, o'quvchilarni rivojlantirishda maktab bilan bog'liq bo'lgan va maktab bilan bog'liq bo'lmagan omillar ta'sir qiladi. Bunda oila va u bilan bog'liq bo'lgan omillar alohida hamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan ushbu maqolada oilaning ta'lim natijalariga qanday ta'sir qilishi PISA 2022 xalqaro baholash tadqiqotlarida o'zbekistonlik o'quvchilarning qayd etgan natijalari asosida tadqiq qilindi. Tadqiqotda matematik-statistik tahlil metodidan foydalanildi. Ta'lim sifatiga oiladagi ta'lim muhiti, oilaning farovonlik darajasi, ota-ona va farzandlar muloqoti, oiladagi farzandlar soni hamda o'quvchilar ota-onasining bolalari o'qishi va o'rganishi bilan bog'liq masalalarda qabul qilgan qarorlari ta'sir qiladi, to'g'ri qarorlar o'qitish natijalarini yaxshilanishiga olib kelishi mumkin.

Kalit so'z: *ta'lim natijalari, ta'lim sifati, maktab bilan bog'liq bo'lmagan omillar, PISA 2022, O'zbekiston natijalari*

Kirish

Ma'lumki, ta'lim — serqirra, ko'p komponentli jarayon. U bir-biri bilan bevosita va bilvosita bog'liq bo'lgan bir qator jarayonlar uzvidir. Shuning uchun ham yalpi ta'lim sifatiga erishish oson emas. Boisi ta'lim sifatiga bir qator omillar ta'sir qiladi. Jumladan, pedagoglar faoliyati, kasbiy kompetentligi, ta'lim muassasasida yaratilgan shart-sharoitlar, moddiy-texnik baza, jamoa o'rtasidagi munosabatlar, ta'lim muhiti, ota-onalar bilan hamkorlik, kontent sifati, darslik va o'quv materiallari sifati, o'qituvchilarning o'z kasbiy faoliyatidan qoniqish hissi va boshqalar. Shular qatorida ta'lim natijalariga oiladagi ta'lim muhiti, oilaning farovonlik darajasi, ota-ona va farzandlar kommunikatsiyasi va kallobaratsiyasi, oiladagi farzandlar soni hamda o'quvchilar ota-onasining ularni o'qishi va o'rganishi bilan bog'liq masalalarda qabul qilgan qarorlari ta'sir qiladi.

Sifatli ta'limga erishish kompleks yondashuvni taqozo etadi [Arafat, 13]. Buning uchun davlat faqat tashkiliy jarayonlarni rejalashtirish, amalga oshirish yetarli emas, balki ta'limdagi har bir jarayonga ilmiy yondashish, muvaffaqiyatli jihatlarni yanada rivojlantirish, kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rishi kerak. Bunda xalqaro benchmarkingning (PIRLS, PISA, TIMSS v.b) o'rni beqiyos. Biz ham tadqiqotimizda ushbularni tahlilga tordik.

Asosiy qism

Ta'limni rivojlantirishda ilmiy yondashish, har bir komponentning o'quvchilar o'zlashtirishiga ta'sirini ilmiy tadqiq qilish, tadqiqot xulosalari asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish, "maktab—oilah—mahalla" kolobaratsiyasini ta'minlash lozim. Mazkur tadqiqotimizda o'quvchining oilasi, undagi ta'lim muhiti, ota-onasining o'qishi va o'rganishi bilan bog'liq masalalarda qabul qilgan qarorlarining ularning o'zlashtirishiga ta'sirini O'quvchilarni xalqaro

¹ **Abdiraimov Shohruh Samad o'g'li** — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.


E-mail: abdiraimovshohruh6@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-9741-3124

Iqtibos uchun: Abdiraimov, Sh. 2023. "Maktab ta'limi sifatiga ta'sir etuvchi omillar (PISA 2022 tadqiqoti asosida)". O'zbekiston: til va madaniyat. 4[2]: 38—46.

baholash dasturi (PISA 2022) natijalari asosida ilmiy tahlilga tortdik. Bunda PISA 2022 tadqiqotlarida o'quvchilarning natijasi va so'rovnomaga bergan javoblarini birlashtirib, tahlil etdik. Buning uchun o'zbekistonlik o'quvchilarning PISA 2022 tadqiqotida erishgan natijalarini tahlil uchun tayyorlab oldik. Bunda ishtirok etgan o'quvchilar ichidan so'rovnomaga javob bermasdan o'tkazib yuborgan yoki so'rovnomani bajarish uchun vaqti yetmagan o'quvchilar natijasini umumiy natijadan chiqarib tashladik. Shundan so'ng quyidagi maktab bilan bog'liq bo'lmagan omillarning ta'lim natijalariga ta'sirini aniqlashga harakat qildik. (1-chizmaga qarang.) Bunda quyidagi gipotezalarni ilmiy tekshirib ko'rdik:

- ta'lim natijalariga oiladagi ta'lim muhitining o'rnini aniqlash (G1);
- ta'lim natijalariga oiladagi farovonlik darajasining ta'sirini aniqlash (G2);
- ta'lim natijalariga ota-ona va farzandlar muloqotining ta'sirini aniqlash (G3);
- ta'lim natijalariga oiladagi farzandlar sonining ta'sirini aniqlash (G4);
- ta'lim natijalariga o'quvchilar ota-onasining ularni o'qishi va o'rganishi bilan bog'liq masalalarda qabul qilgan qarorlari ta'sirini aniqlash (G5).



1-chizma. O'qitish natijalariga ta'sir qiluvchi maktab bilan bog'liq bo'lmagan omillar

Tadqiqotimizda PISA 2022 xalqaro baholash dasturida o'zbekistonlik so'rovnoma egalarining baholashdan qayd etgan natijalarini birlashtirish orqali ilmiy gipotezalarimizni aniqlashga, tasdiqlashga urinib ko'rdik. [PISA 2022.] Bunda OECD tashkiloti tomonida e'lon qilingan natijalardan O'zbekiston natijalarini ajratib oldik. Shundan so'ng natijalarni tadqiqot uchun tayyor holatga keltirib oldik: o'qish, matematika va tabiiy fanlardan 10 ta tekshiruvchi tomonidan baholangan natijalarni o'rtacha qiymatini hisoblab oldik. So'ngra, so'rovnoma savollari tarkibidan gipotezalarimizga oidlarini aniqlab olib, natijalar bilan birga tahlil qildik.

O'quvchining ta'limdagi natijalariga nafaqat maktabda yaratilgan shart-sharoitlar, davlat tomonidan sifatli ta'lim berishning yo'lga qo'yilganligi, balki oiladagi ta'lim muhiti, uyda, turar joyida ham maktabda olingan bilim va egallangan ko'nikmalarni mustahkamlash, yanada rivojlantirish uchun mavjud shart-sharoitlar va oila a'zolarining turtkisi, rag'batlantirishining o'rnini bor. Shu nuqtayi nazardan o'zbekistonlik o'quvchilarning PISA 2022 xalqaro baholash dasturidagi natijalarini tahlil qilib ko'rdik. Bunga ko'ra maktabda berilgan vazifalarni bajarish uchun uyda kompyuter, noutbuk yoki plansheti mavjud bo'lgan o'quvchilarning natijasi bunday imkoniyat mavjud bo'lmagan o'quvchilarnikidan o'rta hisobda **7—10 ball** yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. (1-jadvalga qarang.)

Maktabda berilgan vazifalarni bajarish uchun o'quvchilar uyida foydalanadigan kompyuter (noutbuk, ish stoli kompyuteri yoki planshet) qurilmalari mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash yuzasidan berilgan savolga o'zbekistonlik o'quvchilari-ning javobi va qayd etgan natijalari

1-jadval

Kompyuter qurilmalari mavjudligi	O'qish savodxonligi	Matematik savodxonlik	Tabiiy fanlardan savodxonlik
Ha	342	369	359
Yo'q	333	367	355

Shu bilan birga, uyda ta'lim olishda internetning roli yuqori. Negaki bugungi kunda jahon internet tarmog'ida maktab fanlari bo'yicha ko'plab kontentlar mavjud. Bu esa ta'lim olish samaradorligiga ta'sir qiladi. Shu nuqtayi nazardan o'zbekistonlik o'quvchilarning xalqaro baholash dasturidagi natijalarini tahlil qilib, uyida internetga ulanish imkoniyati (masalan, Wi-fi tarmog'iga v.b.) mavjud bo'lgan o'quvchilarning natijasi bunday imkoniyat mavjud bo'lmagan o'quvchilarnikidan o'rta hisobda **5—7 ball** yuqori ekanligiga amin bo'ldik. (2-jadvalga qarang.)

O'quvchilarning yashash joyida internetga ulanish imkoniyati mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash yuzasidan berilgan savolga o'zbekistonlik o'quvchilarning javobi va qayd etgan natijalari

2-jadval

Internetga ulanish imkoniyati mavjudligi	O'qish savodxonligi	Matematik savodxonlik	Tabiiy fanlardan savodxonlik
Ha	341	370	360
Yo'q	334	363	355

O'quvchilarning oilada ta'lim olishida nafaqat internetning, balki kitoblarning ham o'rni beqiyos. Bola kitobga muhabbat qo'yishni olasidan, yaqinlaridan o'rganadi. Ota-onalar bolalariga o'qish uchun qancha ko'p kitob olib bersa, ularning kitob o'qishini nazorat qilsa, albatta, bu natijasini beradi. Buning yorqin ifodasi xalqaro baholash natijalarida ham o'z aksini topgan. Tadqiqot shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchilarning uyida o'qish uchun ko'plab kitoblar mavjud bo'lgan va kitoblari mavjud bo'lmagan o'quvchilarning natijasi bir-biridan keskin farq qiladi. Uyida kitoblar mavjud bo'lgan o'quvchilarning natijasi bunday imkoniyat mavjud bo'lmagan o'quvchilarnikidan o'rta hisobda **50 — 60 ball** yuqori ekanligiga amin bo'ldik. (3-jadvalga qarang.)

O'quvchilarning yashash joyida ko'plab kitoblar mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash yuzasidan berilgan savolga o'zbekistonlik o'quvchilarning javobi va qayd etgan natijalari

3-jadval

Uyingizda nechta kitob mavjud?	O'qish savodxonligi	Matematik savodxonlik	Tabiiy fanlardan savodxonlik
Mavjud emas	302	304	326
1-25 tacha kitob	341	361	353

26-100 tacha kitob	353	381	369
100 dan ortiq kitob	347	367	355

Ko'rinadiki, o'quvchining oilasida ta'lim olishi uchun yaratilgan yaxshi shart-sharoitlar, ijobiy ta'lim muhitining ularning fanlardan o'zlashtirishiga sezilarli ta'sir qiladi.

Oiladagi farovonlik o'quvchilarning ta'lim olishiga ta'sir qiladi. Shu nuqtayi nazardan PISA 2022 xalqaro baholash dasturida ham ushbu gipotezani asoslashga harakat qilingan. Bunga ko'ra, o'quvchilardan moddiy jihatdan farovon yashayotganligi tasdiqlash so'ralgan. Bunda farovonlik darajasi 10 taga ajratilgan. 10-daraja moddiy farovonlik jihatidan eng yuqori daraja (Olasidagilari ko'proq pul ishlab topadilar, yaxshi ta'lim oladilar va eng yuqori lavozimlarda ishlaydilar.) ekanligi uqtirilgan. O'quvchilarga oilasini ushbu darajalardan qaysi biriga kirishi so'ralgan.

Biz tahlilda ushbu darajalarni moddiy farovonlik nuqtayi nazaridan uch guruhga ajratib oldik, *quyi daraja* (1,2,3); *o'rta daraja* (4,5,6,7) va *yuqori daraja* (8,9,10).

Oilasi *quyi darajada farovon* bo'lgan o'quvchilardan *o'rta darajada farovon* bo'lgan o'quvchilarning natijasi o'rta hisobda **35–40 ball** yuqori ekanligini, oilasi *yuqori darajada farovon* bo'lgan o'quvchilarnikidan esa **5–10 ball** baland ekanligini ko'rishimiz mumkin (4-jadvalga qarang).

O'quvchilarining oilasi moddiy farovonligiga ko'ra tasnifi va ular qayd etgan natijalari

4-jadval

Farovonlik darajasi	O'qish savodxonligi	Matematik savodxonlik	Tabiiy fanlardan savodxonlik
<i>Quyi daraja (1,2,3)</i>	318	335	329
<i>O'rta daraja (4,5,6,7)</i>	352	374	364
<i>Yuqori daraja (8,9,10)</i>	350	368	360

Shu ayon bo'ladiki, oilasi o'rta darajada farovon bo'lgan o'quvchilarning natijasi boshqa guruhlarinikidan yuqori bo'lar ekan. Bir so'z bilan aytganda, o'quvchining oilasidagi farovonlik uning ta'lim olishiga, fanlardan o'zlashtirish darajasiga sezilarli ta'sir qiladi. Biroq haddan tashqari farovonlik o'quvchilarning ta'lim olishiga bo'lgan motivatsiyasini yo'qotishi mumkin.

Ma'lumki, kapitalistik jamiyatda ota-onalar farovonroq yashash uchun muntazam ish faoliyati bilan shug'ullanadi. Ularning farzandlariga maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablar ta'lim-tarbiya berish bilan shug'ullanadi. Ertadan kechgacha ishlagan ota-onaning aksariyati ishdan charchab kelib, farzandlari bilan shug'ullanishga vaqt va hafsala topa olmaydi. Buning natijasida ta'lim ham, tarbiya ham o'qituvchilar zimmasida qolib ketadi, maktablarda dars berish, o'qituvchilik qilish kundan kunga og'irlashib boraveradi. Shunday bo'lishiga qaramay, farzandlari kelajakda raqobatbardosh bo'lishini istagan, yanada yaxshiroq natijaga erishishini xohlagan ota-onalar, farzandlari bilan kallobaratsiyani va kommunikatsiyani yaxshi yo'lga qo'yadi. Farzandining ta'limi, tarbiyasi bilan muntazam qizib turadi, unga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Bu esa natijalarda ham o'z aksini topadi. Jumladan, xalqaro baholash natijalarida ham buni tasdiqlamoqda. Tadqiqot shuni ko'rsatmoqdaki, o'g'il-qizining maktabdagi o'qishini muntazam muhokama qilib, uni yaxshi baholar olishga har doim undaydigan ota-onalarning farzandlari bolasining taqdiriga mutlaq befarq ota-onalarning farzandlaridan ko'ra o'rta hisobda **40 — 45 ball** yuqori natija qayd etgan. (5-jadvalga qarang.)

Ota-onasi o'quvchilarning maktabdagi o'qishini muhokama qilib, uni yaxshi baholar olishga undash yoki undamasligini aniqlash yuzasidan berilgan savolga o'zbekistonlik o'quvchilarining javobi va qayd etgan natijalari**5-jadval**

Farovonlik darajasi	O'qish savodxonligi	Matematik savodxonlik	Tabiiy fanlardan savodxonlik
Hech qachon	315	345	339
Ba'zan	343	367	356
Har doim	358	380	370

Ko'rinadiki, ota-ona o'g'il-qizining ta'lim olishiga befarq bo'lmasa, uning maktabdagi faoliyati bilan doim qiziqib tursa, natijalarini yaxshilash uchun yordam bersa, shunga undasa, ularning fanlardan o'zlashtirishi sezilarli darajada yuqori bo'ladi.

Qadimdan o'zbek xalqi bolajon xalq. O'zbek oilalari esa katta oila bo'lib kelgan. So'ngi yillarda globallashuv va kapitalistik jamiyat talablari ta'sirida oilalardagi farzandlar soni ham planlashtiriladigan darajaga kelmoqdamiz. Buning ta'sirida oilada farzandlar soni qancha kam bo'lsa, shuncha sifatli avlodni tarbiyalash mumkin degan qarash mavjud. Biroq xalqaro baholash tadqiqotlari buni tasdiqlamayapti.

PISA 2022 xalqaro baholash dasturida o'quvchilardan oiladagi farzandlar sonining ta'lim natijalariga ta'sirini aniqlash maqsadida "Nechta yaqin qarindoshlaringiz bor (jumladan, aka-uka, opa-singil, o'gay aka-uka, o'gay opa-singil)", deya savol so'ralgan. Natijalar tahlil shuni ko'rsatadiki, oilasida yolg'iz farzand bo'lgan o'quvchilardan ko'ra oilasida uch farzanddan biri bo'lgan o'quvchilarning natijasi o'rta hisobda **30 ball** yuqori. (6-jadvalga qarang.)

Oilasidagi farzandlar sonini aniqlash yuzasidan berilgan savolga o'zbekistonlik o'quvchilarining javobi va qayd etgan natijalari**6-jadval**

Farzandlar soni	O'qish savodxonligi	Matematik savodxonlik	Tabiiy fanlardan savodxonlik
Bitta	313	343	334
Ikkita	338	366	358
Uchta	342	372	362
To'rt va undan ko'p	333	361	351

Umuman, oiladagi farzandlar soni o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirish darajasiga sezilarli ta'sir qiladi. Oilada uch nafar farzand bo'lishi o'quvchilarning ta'limdagi natijalariga eng yaxshi ta'sir qilar ekan. Biroq yakka farzandlik, oilada yolg'iz farzand bo'lish bolaning ta'limiga ham salbiy ta'sir qilishi mumkin ekan.

Har bir ota-ona farzandini o'zidan ko'ra yaxshiroq sharoitda yashashini, o'zidan ko'ra muvaffaqiyatliroq bo'lishini xohlaydi. Shu bois farzandlarini ertaroq ta'limga berishga, uning tarbiyasi bilan muntazam shug'ullanishga harakat qiladi. Albatta, bu o'z natijasini beradi. Zamonaviy dunyoda bolalar maktabga bormasdanoq bolalar bog'chasida o'qish, yozish, turish-yurish tartiblari yuzasidan muayyan darajada xabardor bo'ladi. Bu esa ularning maktab ta'limidagi muvaffaqiyatini kafolatlaydi.

Xalqaro baholash dasturida bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiya olishining maktabdagi ta'lim natijalariga ta'sir qilish darajasini aniqlash maqsadida ulardan necha yoshda maktabgacha ta'limni boshlagani so'ralgan. Tadqiqotimizda amalga oshirilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, bola qancha erta maktabgacha ta'limga jalb etilsa, ta'lim natijalari shuncha yaxshi bo'ladi (7-jadvalga qarang).

O'quvchilar maktabgacha ta'lim(bolalar bog'chasi)ni boshlaganida, necha yoshda ekanligini aniqlash yuzasidan berilgan savolga o'zbekistonlik o'quvchilarining javobi va qayd etgan natijalari

7-jadval

Yosh	O'qish savodxonligi	Matematik savodxonlik	Tabiiy fanlardan savodxonlik
3 yoshdan kichik	352	368	360
3 yosh	347	375	362
4 yosh	345	368	361
5 yosh	340	367	359
6 yosh	307	338	330

Ko'rinadiki, **3 yoshda** bolalar bog'chasiga borgan o'quvchining natijasi **6 yoshda** maktabgacha ta'limga jalb etilgan o'quvchining natijasidan o'rta hisobda **35 — 40 ball** yuqori. Biroq tabiiy fanlardan 3 yoshda va 5 yoshda bolalar bog'chasiga borgan o'quvchilarning ta'limdagi natijalari deyarli farq qilmaydi. Bundan, shunday birlamchi xulosaga kelish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning tabiiy fanlardan savodxonligini rivojlantirish tizimli emas. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda tabiiy fanlardan savodxonligini shakllantirish mazmunini qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, ta'lim natijalariga o'quvchilarning maktabga chiqish yoshi ham ta'sir qiladi. Quyida shu masalani tahlilga tortamiz.

Farzandi maktab yoshiga yetgan har bir ota-onada tabiiy ushbu savol tug'iladi. Bolamni necha yoshdan maktabga bersam? Ba'zi ota-onalar farzandini ertaroq maktabga berish kerak, deb hisoblashadi, ayrim ota-onalar esa farzandni kechroq maktabga berish kerak deb o'ylashadi.

Farzandini ertaroq maktabga berish payida bo'lgan ota-onalar bolasining tengqurlaridan ertaroq muvaffaqiyatga erishishini xohlashadi. Farzandini kechroq maktabga yuborishni istaydigan ota-onalar o'g'il-qizim sinfdoshlari ichida qiynalmasin, u boshqa bolalardan o'qish va o'rganishda, faoliyatda ustunroq bo'lishini istashadi. Biroq tanganing ikki tomoni bo'lga-nidek, har ikki tanlovning o'ziga xos oqibatlari yuzaga keladi. Biz o'quvchilarning maktabga chiqish yoshini ularning o'zlashtirishiga ta'sirini PISA 2022 tadqiqotlari natijasi misolida tahlil qilib ko'rdik. Natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchilarni 6 yoshda maktab ta'limiga jalb etish nisbatan samarali ekan. (8-jadvalga qarang.)

O'quvchilar boshlang'ich ta'limni boshlaganida, necha yoshda ekanligini aniqlash yuzasidan berilgan savolga o'zbekistonlik o'quvchilarining javobi va qayd etgan natijalari

8-jadval

Yosh	O'qish savodxonligi	Matematik savodxonlik	Tabiiy fanlardan savodxonlik
5 va undan kichik yosh	321	351	344
6 yosh	347	373	363
7 yosh	339	367	358
8 va undan katta yosh	305	334	331

Ko'rinadiki, 5 va undan kichik yoshda maktab ta'limini boshlagan o'quvchilar 7 yoshda maktab jalb etilgan o'quvchilardan qariyb *20 ball past* natija qayd etmoqda. 8 va undan katta yoshda maktab ta'limini boshlagan o'quvchilar 7 yoshda maktab jalb etilgan o'quvchilardan qariyb *30 ball past* natija qayd etmoqda. 6-yoshda maktab ta'limini boshlagan o'quvchilar esa matematika, o'qish savodxonlik va tabiiy fanlardan 7 yoshda maktab jalb etilgan o'quvchilardan qariyb *6-7 ball yuqori* natija qayd etmoqda.

Dastlabki empirik tekshirishlar shu ko'rsatmoqdaki, o'quvchilarni 5 va undan kichik hamda 8 va undan katta yoshda maktab ta'limini boshlashi o'quvchining fanlardan o'zlashtirish darajasiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. O'quvchilarni 6 yoshda maktab ta'limiga jalb etish nisbatan samaraliroq ekan. Vakolatli idoralar bu masalada ham taqiqlarni qayta ko'rib chiqishi maqsadga muvofiq.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillardan quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin:

birinchidan, maktabda berilgan vazifalarni bajarish uchun uyida kompyuter, noutbuk yoki plansheti mavjud bo'lgan o'quvchilarning natijasi bunday imkoniyat mavjud bo'lmagan o'quvchilarnikidan yuqori bo'ladi;

ikkinchidan, uyida internetga ulanish imkoniyati (masalan, Wi-fi tarmog'iga v.b.) mavjud bo'lgan o'quvchilarning natijasi bunday imkoniyat mavjud bo'lmagan o'quvchilarnikidan yuqori bo'ladi;

uchinchidan, uyida o'qish uchun turli-tuman kitoblar mavjud bo'lgan o'quvchilarning natijasi bunday imkoniyat mavjud bo'lmagan o'quvchilarning natijasidan sezilarli darajada yuqori bo'ladi;

to'rtinchidan, oilasi o'rta darajada farovon bo'lgan o'quvchilarning natijasi oilasi past yoki yuqori darajada farovon bo'lgan o'quvchilarning natijasida ancha yaxshi bo'lar ekan;

beshinchidan, ota-ona o'g'il-qizining ta'lim olishiga befarq bo'lmasa, uning maktabdagi faoliyati bilan doim qiziqib tursa, natijalarini yaxshilash uchun yordam bersa, shunga undasa, ularning fanlardan o'zlashtirishi boshqa tengdoshlarinikidan sezilarli darajada yuqori bo'ladi;

oltinchidan, oiladagi farzandlar soni o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirish darajasiga sezilarli ta'sir qiladi. Oilada uch nafar farzand bo'lishi o'quvchilarning ta'limdagi natijalariga eng yaxshi ta'sir qilar ekan;

yetinchidan, bola qancha erta maktabgacha ta'limga jalb etilsa, ta'lim natijalari shuncha yaxshi bo'ladi;

sakkizinchidan, o'quvchilarni 6 yoshda maktab ta'limiga jalb etish o'qitish natijasi nisbatan samarali yuqori bo'ladi.

Adabiyotlar

Abdiraimov, S. (2023). O'quvchilarni autentik yondashuv asosida baholash ahamiyati. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(20), 138-141.

Arafat, Y., & Puspita, Y. (2021, July). The Effect of Classroom Management and Teacher Work Ethics on Student Learning Outcomes. In *International Conference on Education Universitas PGRI Palembang (INCoEPP 2021)* (pp. 261-265). Atlantis Press.

Ekperi, P., Onwuka, U., & Nyejirime, W. (2019). Teachers' attitude as a correlate of students' academic performance. *International Journal of Research and Innovation in Social Science (IJRISS)*, 3(1), 205-209.

Harrell, K (1998). *Attitude is Everything: 10 Life-Changing Steps to Turning Attitude into Action*. HarperCollins: New York City, New York, United States.

PISA 2022 Results The State of Learning and Equity in Education. https://read.oecd-ilibrary.org/view/?ref=1235_1235421-gumq51fbgo&title=PISA-2022-Results-Volume-I [2024.03.05.]

Şahin, M. G., & Yıldırım, Y. (2016). PISA 2012 Türkiye örnekleminde matematiksel davranış ve matematik okuryazarlığını etkileyen değişkenlerin çok gruplu hibrit modelleme ile incelenmesi. *Eğitim ve Bilim*, 41(187).

Yıldız Yıldırım, Melek Gülşah Şahin, Elif Sezer. PISA 2012 Türkiye Örnekleminde Okul Özelliklerinin Matematik Okuryazarlığına Etkisi. <https://dergipark.org.tr/tr/pub/ilkonline/issue/30528/330244> [2024.03.05.]

FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF SCHOOL EDUCATION (based on PISA 2022)

Shokhrukh Abdiraimov¹

Abstract

It is known that the educational process is organized based on school and family cooperation. School-related and non-school-related factors affect the improvement of the quality of school education and the development of students. Factors related to family are of particular importance. From this point of view, in this article, the influence of the family on learning outcomes was studied based on the results of Uzbek students in the PISA 2022 international assessment program. The research used the method of mathematical and statistical analysis. The quality of education is influenced by the educational environment created in the family such as the level of well-being of the family, the communication between parents and children, the number of children in the family, and the decisions made by parents of students regarding their children's education and learning can lead to improvement of learning outcomes.

Keywords: *learning outcomes, quality of education, non-school related factors, PISA 2022, results of Uzbekistan.*

References

Abdiraimov, S. (2023). O'quvchilarni autentik yondashuv asosida baholash ahamiyati. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(20), 138-141.

¹ **Abdiraimov Shokhrukh Samad ogli** — Doktor of Pedagogy (PhD), University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: abdiraimovshohruh6@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-9741-3124

For citation: Abdiraimov, Sh. 2023. "Factors affecting the quality of school education (based on the PISA 2022)". *Uzbekistan: language and culture*. 4[2]: 38—46.

Arafat, Y., & Puspita, Y. (2021, July). The Effect of Classroom Management and Teacher Work Ethics on Student Learning Outcomes. In International Conference on Education Universitas PGRI Palembang (INCoEPP 2021) (pp. 261-265). Atlantis Press.

Ekperi, P., Onwuka, U., & Nyejirime, W. (2019). Teachers' attitude as a correlate of students' academic performance. International Journal of Research and Innovation in Social Science (IJRISS), 3(1), 205-209.

Harrell, K (1998). Attitude is Everything: 10 Life-Changing Steps to Turning Attitude into Action. HarperCollins: New York City, New York, United States.

PISA 2022 Results The State of Learning and Equity in Education. https://read.oecd-ilibrary.org/view/?ref=1235_1235421-gumq51fbgo&title=PISA-2022-Results-Volume-I[2024.03.05.]

Şahin, M. G., & Yıldırım, Y. (2016). PISA 2012 Türkiye örnekleminde matematiksel davranış ve matematik okuryazarlığını etkileyen değişkenlerin çok gruplu hibrit modelleme ile incelenmesi. Eğitim ve Bilim, 41(187).

Yıldız Yıldırım, Melek Gülşah Şahin, Elif Sezer. PISA 2012 Türkiye Örnekleminde Okul Özelliklerinin Matematik Okuryazarlığına Etkisi. <https://dergipark.org.tr/tr/pub/ilkonline/issue/30528/330244> [2024.03.05.]

TIL TA'LIMI NAZARIYASI VA AMALIYOTI**O'QUVCHILARNI GRAMMATIK TOPSHIRIQLARNI BAJARTIRISH ORQALI MATN YARATISH FAOLIYATIGA TAYYORLASH MUAMMOSI**Tursunay Yusupova¹**Annotatsiya**

Ushbu maqolada ona tili ta'limida qo'llanadigan matn, matn mazmuni, matn turlarining o'zaro farqlari hamda ularni yaratish jarayoniga tayyorlashda foydaliladigan topshiriqlarning turlari va mazmuni haqida ma'lumot keltirilgan. Ona tili ta'limida qo'llaniladigan grammatik topshiriqlarning o'rni, ahamiyati va turlari haqida metodist olimlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarga tahliliy munosabat bildirilgan. Shuningdek, hozirgi kunda maktabda ona tili ta'limida qo'llanilayotgan grammatik topshiriqlarning darsliklarda berilgan holatlariga ham munosabat bildirildi. Grammatik topshirlarning mazmuni, shuningdek, undan matn yaratish va matn ustida ishlash jarayonida qo'llaniladigan topshiriqlarning turlari yoritilgan va tayyorgarlik jarayoni haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *matn, grammatik topshiriqlar, matn turlari, matn yaratish jarayoni, yondashuv.*

Kirish

DTS talablari asosida ona tili ta'limi mazmunining yangilanishi sohadagi tub islohotlarda nazariy bilimlarni egallash barobarida nutq o'stirishning birinchi yo'nalishida o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish, ikkinchi yo'nalishda imlo va talaffuz me'yorlarini, shuningdek, so'z turkumlari va sintaktik tuzilishlarning uslubiy imkoniyatlarini tushunish, uchinchi yo'nalishda fikrni og'zaki va yozma bog'lanishli bayon qilish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish nazarda tutilgan. [Xampoev, 2022:72] Har bir yo'nalish talablarini bosqichma-bosqich shakllantirib borish egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni yozma nutqda erkin qo'llay olishga va o'quvchiga biror mavzu doirasida mustaqil matn yaratish imkoniyatini yaratadi.

DTSda ona tili fanini o'qitishdan maqsad o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, ijodiy fikrlash malakasini, kitobxonlik va nutq madaniyatini rivojlantirish ekanligi belgilangan bo'lib, bunda fan doirasida berilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash maqsadiga yo'naltirishga xizmat qiladigan tayanch kompetensiyalar va fanga oid kompetensiyalar bilish darajalariga mos ravishda shakllantiriladi. Bunda fanga oid lingvistik kompetensiyalar (FK1) fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid nazariy bilimlar talablarini, nutqiy kompetensiya esa (FK2) tinglab tushunish, o'qish, so'zlash, yozishga doir talablarni qamrab olishi belgilab qo'yilgan [Milliy o'quv dasturi].

Asosiy qism

DTSning Milliy o'quv dasturi asosida takomillashtirilishi o'quvchilarni aynan amaliyotda qo'llashga qaratilgan bilimlar bilan qurollantirish imkoniyatini yuzaga keltirdi. O'quvchilarni hayotiy ko'nikmalarga tayyorlaydigan amaliy mavzular salmog'i kengaydi. Ona tili

¹ **Yusupova Tursunay Axmedovna** — Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitet dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

E-pochta: tursunoyyusupova@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0001-9434-5189

Iqtibos uchun: Yusupova, T. 2024. "O'quvchilarni grammatik topshiriqlarni bajartirish orqali matn yaratish faoliyatiga tayyorlash muammosi". O'zbekiston: til va madaniyat. 4[2]: 47—53.

ta'limida nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish bosh darajaga ko'tarilib, tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish kompetensiyalariga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi. Xususan, ona tili ta'limida tinglab tushunishning fahmlash, anglash kabi bosqichlari ustida ishlash orqali nutqiy ko'nikmalarni kognitiv bilimlar bilan bog'lab olib borish bo'yicha tadqiqot ishlari ham olib borila boshlandi. Bularning barchasi o'quvchilarning bog'lanishli nutqqa doir ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilganligini qayd etish mumkin.

1999-yildagi DTS talablari asosida yaratilgan darsliklarda tilning nazariy bilimlari (FK1) ni egallash, shu asosida malaka va ko'nikmalarni shakllantirish birinchi darajali hisoblangan. Har bir mavzuga doir mashqlarda yangi bilimlarni mustahkamlash uchun topshiriqlar keltirilgan. Masalan, 6-sinf "Ona tili" darsligida "So'z yasovchi qo'shimchalar" mavzusida -zor, -iston, -li qo'shimchalari yordamida olcha, o'zbek, iroda asoslaridan yangi so'zlar yasash, asosdan anglashilgan ma'no bilan yangi yasalgan so'z ma'nosini farqini izohlash topshirig'i berilgan, 65-68- mashqlardagi topshiriqlar ham so'z yasovchi qo'shimchalarni aniqlash va belgilashga qaratilgan. Faqat 67-mashqning 2-shartidagina "Matndagi fikrga qo'shilasizmi?" savolini uchratish mumkin. Matndagi asosiy fikr — shijoatli farzandlar yurt kelajagini belgilashi haqida bo'lib mushohada yuritishga yo'naltiruvchi topshiriqlar berilmagan. 2021-yildagi DTS talablari va Milliy o'quv dasturi mazmunida sof nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish nazarda tutilgan. Uzoq yillar davomida ona tili ta'limi mazmunining grammatik tushunchalarni o'rganishga qaratilganligi, keyin esa bu bosqichning nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga tomon o'zgarishi o'quvchilar tomonidan ona tili ta'limini egallashda bo'shliqlarni yuzaga keltirdi. Bu metodist olim A.G'ulomov tomonidan ta'kidlab o'tilgan edi: "Ma'lumki, ko'p hollarda ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar egallayotgan ko'nikmalar, asosan, tilning grammatik qurilishini o'rganishga qaratiladi, ularning so'z boyligini oshirish, so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish, fikrni bayon qilishning samarali yo'llarini aniqlash kabi foydali amaliy ko'nikmalar birmuncha e'tibordan chetda qoladi. Shuning uchun ona tili dasturi o'quvchilarni ko'proq ana shu foydali amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirishga yo'naltirilishi lozim" [DTS, 5—9-sinf; Xampoev, 2022:72; Mahmudov, 2017:25].

O'quvchilar ona tilidan mahorat bilan samarali foydalana olsa, o'z fikrlarini ta'sirchan, tushunarli bayon qila olsa, ajdodlardan qolgan boy ilmiy, badiiy merosni chuqur anglash darajasida o'z tilini bilsa, ana shunda ona tili ta'limi o'z maqsadiga erishgan bo'ladi. Buning uchun ona tili darslarida foydalaniladigan o'quv materiallari til ko'nikmalarni kompleks tarzda shakllantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bir paytning o'zida ham talaffuz, ham imlo, ham so'z boyligini oshirish, qolaversa, mustaqil fikrlashga yo'naltirishga sharoit yaratish til ko'nikmalarini mustahkamlash nutqiy mahoratni oshiradi. Ona tili darslarining asosiy maqsadi hisoblangan o'quvchilarning bog'lanishli nutqiy malakalarini shakllanish, unga zamin yaratuvchi fonetika, orfoepiya, orfografiya, punktuatsiya mashqlaridan muntazam foydalanish, topshiriqlarni va mashqlarni maqsadli yo'naltirish bu jarayonda samarali natija beradi. Ona tili ta'limi o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda mustaqil fikrlash bilan bog'liq ijodiy faoliyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratishni talab etadi. Bu borada metodist olima Sh. Yusupovaning olib borgan tadqiqot ishi va u tomonidan tavsiya qilingan mashq va topshiriqlarning ahamiyati nihoyatda katta.

Ko'rinadiki, o'quvchilarni bog'lanishli nutqqa tayyorlashda ularning ijodiy mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o'stirish ham, grammatik bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan mashq va topshiriqlarning ham ahamiyati katta. Bu ikki yo'nalishni uyg'unlikda olib borish o'quvchilarning yozma bog'lanishli nutq malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa ularda matn tuzish ko'nikmalarini shakllantiradi. 5-sinf o'quvchilari fonetik hodisalar, talaffuz va imlo qoidalari, so'zning ma'no xususiyatlarini o'rganar ekan, doimiy ravishda qo'llanilayotgan so'zning mazmun-mohiyatini anglashda lug'atlarga murojaat qilishadi. Buning globalashuv sharoitida yosh avlodni intellektual salohiyatga ega, yuksak ma'naviyatli,

umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida tarbiyalashda o'quv lug'atlariga ehtiyoj seziladi. Zero, "tilshunoslik oldiga muhim ijtimoiy-siyosiy buyurtma — ona tildan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish va xorijiy tillarni tezkor o'rgatishga xizmat qiluvchi maktab lug'atlarini yaratish vazifasi qo'yildi". 6-sinf uchun mo'ljallangan topshiriqlar namunalari 5-sinfda o'rganilganlarni takrorlash, yangi bilimlarni nutqiy vaziyatda qo'llashga asoslandi. So'z juftliklarini topish, yangi so'zlarni qo'llab gaplar tuzish, gaplardan bog'lanishli matn tuzishda o'quvchilardagi tirishqoqlik, izlanuvchanlik, mantiqiy fikrlashning samarali natijalari kuzatiladi. 7-sinfda o'quvchilar "Morfologiya" bo'limiga oid bilimlar bilan to'liq tanishib chiqadilar. Bu sinf uchun mo'ljallangan topshiriqlarni ishlashda kelishik, egalik, ko'plik kategoriyalarining, vazifadosh yordamchi so'zlarning matnda qo'llanishiga doir topshiriqlarni yaratish maqsad qilindi. 8-sinf uchun mo'ljallangan topshiriqlar asosan kommunikativ-kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishga asoslandi. O'quvchilarning bog'lanishli matnga tayyorlash bu davrda o'z natijasini ko'rsatdi. Xulosa qilib aytganda, bog'lanishli matn yaratishga yo'naltiruvchi grammatik topshiriqlarni bajarish orqali o'quvchilar mustaqil fikr yuritish layoqatiga ega bo'ladilar. Bu esa o'quvchilarni matn yaratish faoliyatiga tayyorlashda o'ta muhim hisoblanadi.

Hammanizga ma'lumki, matn ustida ishlashga qaratilgan grammatik topshiriqlar, ya'ni kengaytirish, ixchamlash, tahrir qilish, qiyoslash, xulosalash masalalari matn ustida ishlashning eng e'tiborli jihatlari hisoblanadi. Yosh avlodda ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish muhimdir. O'quvchining o'quv materialini o'zlashtirishi murakkab jarayon bo'lib, til hodisalarini kuzata olish, izlanish, qiyoslash, umumiylik va alohidalikni aniqlash, farqlarni topish, tasnif etish, hukm chiqarish, qo'llash bilan bog'liq. Bu bog'liqlik, ayniqsa, o'quvchilar bilan tayyor matnlar ustida ishlash jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi hamda lingvistik bilimlarini boyitish bilan birga nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. O'quvchilarni matn ustida ishlashga o'rgatishda, ya'ni kengaytirish, ixchamlash, tahrir qilish, qiyoslash, xulosalash kabi amaliy ishlarni bajartirishda ijodiy bayonning o'rni va ahamiyatini ta'kidlash zarur. Chunki bayonning bu turida o'quvchi matnga tasvir usullarini qo'shib yoki lisoniy hamda imloviy topshiriqlar kiritgan yoxud o'qituvchi boshlab bergan hikoyani davom ettirgan holda bayon yozishi mumkin. Jarayon o'quvchini matn ustida ishlashga yo'naltiradi.

Ona tili darslarida o'quvchilar hikoya matni, tasviriy matn, muhokama matnlari ustida ishlash orqali quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ko'zda tutiladi:

- matn mazmunidan kelib chiqib, unga sarlavha qo'yish;
- matnni ilmiy mushohada qilib, unda aks ettirilgan g'oyani qayta bayon qilish;
- matndan ko'zlangan maqsadni anglash;
- muayyan predmet yoki voqea-hodisalarni ta'riflash va tavsiflashga imkon yaratish;
- matn yuzasidan mulohazaga kirishish;
- mulohazalardan xulosa chiqarish;
- mulohaza hamda xulosalar atrofida bahslashish.

Matn ustida ishlash jarayonida muayyan bir matn yuzasidan atroflicha fikr yuritish, matn mazmunini kengaytirish, matndan chiqarilgan xulosani ixchamlashtirish, matnni tahrir qilishga e'tibor qaratiladi. Ona tili darsliklarida berilgan barcha matnlarni tayyor matn sifatida qabul qilmay, shu matnni yanada kengaytirish, tahrir qilish, qiyoslash, xulosalash kabi yo'nalishlarda faoliyat yuritish maqsadga muvofiq. Matn ustida ishlashni tashkil etish o'quvchilarni mustaqil ijodiy fikrlashga, o'z bog'lanishli nutqini rivojlantirishga yo'llaydi [Гурмонов, 1997:4; Гуломов, 1995:4; Юсупова, 1998:137; Бахриддинова, 2020:14; Юсупова, 2020:7; Юсупова, 2021:11].

Ona tili darslarida, matnni kengaytirish jarayoniga oid topshiriqlar o'quvchilarning matn ustida ishlash, tahrir va tahlil imkoniyatlarini oshiradi. O'quvchining matn ustida ishlash faoliyatida fikrni izchillikda bayon etish, kengaytirish, matn tili va uslubini muvofiqlashtirish orqali amalga oshirilsa, o'quvchi nutqiy kompetensiyasi shakllanishiga hamda uning ongida

o'z qo'llash mahorati, vaziyatni boshqara olish, axloqiy qarashlarini to'g'ri rivojlantirishga qaratilgan kognitiv va psixolingvistik qarashlarni shakllantirishga xizmat qiladi. T.Ziyodova matnni ixchamlash xususida to'xtalar ekan, "matn mazmunini o'zgartirmagan holda matnda mavjud bo'lgan ortiqchaliklar: shaxs va narsabuyumning to'liq tasviri, tarjimai hol, portret, peyzaj ko'rinishlari ifodasini maksimal darajada kamaytirish, matnni takrordan tozalash, imloviy, mantiqiy, uslubiy xato so'z, gap, iboralarni topish, ularni bartaraf etish, sodda gaplarni qo'shma gaplarga aylantirish, qo'shma gaplarni so'z va gap kengaytiruvchilaridan xoli qilib, uyushiq bo'lakli gaplarga aylantirish, lirik chekinish, badiiy tasvirlarning o'rinli-o'rinsizligini aniqlash, matn mazmuniga mos kelmaydigan ma'lumot va kiritmalardan voz kechish yoki ularni kamaytirish, abzaslarni birlashtirish va.h." [Ziyodova, 2007:43] nazarda tutadi. Matn ustida ishlash jarayonida matnni ixchamlash o'quvchida to'g'ri, o'rinli, ravon gap tuzish, ijodiy fikrlash, yozma nutq kompetensiyalarini mustahkamlashga olib keladi. Matnni ixchamlash matn mazmunini saqlab, uni takrordan tozalash, imloviy, mantiqiy, uslubiy xatoliklarni bartaraf etish, qo'shma gaplarni sodda gapga aylantirishga olib keladi. O'quvchini izchil, mantiqiy fikrlashga, o'zgalar fikrini tinglash va anglashga, fikr mahsulini muayyan uslub va adabiy me'yorlar asosida, to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatishda, tilning nutqiy imkoniyatidan foydalanish kompetensiyasini shakllantirishda matnni tahrir qilishning ahamiyati katta. G.Blinovning "Punktuatsion xatolar tavsifi" [Блинов, 1970:116] maqolasida o'quvchi matn tahriri ustida ishlashini osonlashtirishda samarali foydalanish mumkin bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada tavsiya qilinishicha, o'quvchi avval matnni to'liq o'qib chiqishi va matnning mazmunini tushunib olishi lozim. Birinchi o'qishdanoq tuzatishlar kiritishga shoshilish matn muallifi g'oyasini anglamasdan amalga oshirilishi oqibatida xatoliklarga olib kelishi mumkin. Matn turi va mazmuni haqida tasavvurga ega bo'lingandan keyin, matn li-soniy jihatdan tahrir qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu o'rinda so'zlarning imlosi, tinish belgilari, uslubiy kamchiliklarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Tahririy tuzatishlar jarayonida asosiy matndagi ba'zi o'rinlar kengaytirilishi, olib tashlanishi, ishlov berilishi, o'zgartirilishi mumkin. Ona tili ta'limida asosiy e'tibor o'quvchilar yaratgan matnlarda kuza-tiladigan imloviy, punktuatsion, uslubiy xatolarni tahrir qilishga qaratiladi. Mumtoz matn-larni o'rganishda o'quvchi bugungi me'yordan farqlanuvchi so'z va qo'shimchalarni ham tahrirlaydi. Xususan, matnni xulosalash murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammoli xarakterdagi matnni o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Matnni xulosalashda mavzu doirasida o'quvchilarning fikrlari muhokama etiladi. Masalan, matnda aks etgan muammoning ijobiy va salbiy tomonlari, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu ja-rayon tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quv-chilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. Bugungi kun ona tili ta'limida asosiy e'tibor o'quvchilarda matn ustida ishlash orqali nutqiy ko'nikmalarni egallashga qaratilgani bois, ona tili darsliklarida matndagi axborot, unda aks etgan g'oyani test topshiriqlari shaklida bajarish matn mazmuni-ni tez va oson o'zlashtirishga imkon yaratadi. Matn ustida ishlashning bu yangi yo'nalishini takomillashtirish, o'quvchilarni PISA xalqaro baholash tizimiga tayyorlash maqsadida 8-sinf darsligida berilgan matnlar asosida nutqiy va grammatik ko'nikmalarni shakllantirishga xiz-mat qiladigan test namunalarini ham tavsiya qilish mumkin.

Matn yaratishning o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni ijodiy va mustaqil bajarish asosida bog'lanishli matn-ga yo'naltirilgan tizimli faoliyat bayon qilingan. Matnlar maqsadi, vazifasi, murakkablik da-rajasi, kimga (individual yoki jamoa uchun) mo'ljallanganligiga qarab, bir-biridan farq qiladi. Matn yaratish jarayonida tanlangan mavzularning ilmiyligi, tizimliliigi, o'quv materiallarining qiziqarliligi, amaliyot bilan bog'liqligi, fanlararo aloqadorligi, shuningdek, beriladigan matnlar va topshiriqlarning ijodiy xarakterga egaligi muhimdir. Mustaqil o'rganilayotgan mavzuning

amaliyot bilan uzviyligi, ilmiyligi va o'quv materiallarining qiziqarliligi, mavzularning tizimligi, topshiriq hamda vazifalarning ko'p qirraliligi, o'zaro bog'liqligi muhim o'rin tutadi. Ammo, eng asosiysi, o'quvchilarning matn yaratish faoliyatini tashkil etish bo'lib, bunda ularning in-tilish va qiziqishlariga alohida e'tibor qaratish zarur. Insoniyat o'z tarixiy taraqqiyoti davomida to'plagan ijtimoiy tajribalarining muayyan qismini mustaqil o'quv faoliyati asosidagina egal-lab olishi mumkin. Yaxshi tayyorgarlikka ega bo'lgan iqtidorli o'quvchilar ijodiy va izlanish xu-susiyatiga ega bo'lgan matnlarni qiynalmay yaratadilar. Tayyorgarligi lozim darajada bo'lma-gan o'quvchilarning matnlari soddaroq mazmun kasb etadi, bog'lanishli matn yaratish ustida muntazam ishlash ularda matn yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa

O'quvchilarni matn yaratishga o'rgatishda quyidagi metodik tavsiyalarni e'tiborga olmoq lozim:

- matn yaratishda o'quvchilarning yosh psixologiyasi, nutqiy qobiliyati hamda imkoni-yatlarini hisobga olish;
- matn yaratish jarayonida ona tilini boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda o'rganish tamoyiliga asoslanish;
- til hodisalarini qiyoslash, farqlash, tanlash, guruhlash, analiz va sintez qilish;
- matn yaratishda o'quvchi sezgirligini oshiruvchi savollar bilan murojaat etish;
- og'zaki va yozma nutqni ilmiylik va tushunarliklik, uzviylik va uzluksizlik tamoyili aso-sida rivojlantirish;
- darslikka qo'shimcha sifatida nutq o'stirish mashqlari, muammoli o'quv topshiriqlari, psixolingvistik testlar, mavzu asosida nazorat savollari tuzish mashqlarini kiritish va ularni uzluksiz takomillashtirib borish.

5-sinf "Ona tili" darsligining yangi nashrida "Tabiat va biz", "O'zbekni mashhur qilgan "Al-lapinin", "Ulkan portlash", "Qutb yulduzi", "Telefonda gaplashish madaniyati", "Alp Er To'nga", "Ko'priklar", "Konstitutsiya nima?", "Baliqlarda aql bormi?", "Algoritm asoschisi", "Qadimiy shaharlar" kabi tarix, matematika, tibbiyot, geografiya kabi fanlarga oid matnlar kiritilgan. Bu ona tili ta'limini nutqiy faoliyat turlarini (tinglash, o'qish, so'zlash, yozish) muloqotning barcha sohalarida to'g'ri foydalanishga yo'naltirish desak, yangilashmaymiz. 2022-2023-o'quv yilida 6-, 7-sinflar uchun Milliy o'quv dasturi asosidagi yangi darsliklar asosida ona tilini o'qitish yo'lga qo'yildi. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturida til ta'limida integra-tiv yondashuv asosiy planga chiqarilgan. Bu Milliy o'quv dasturida: "Fanlarni o'zaro bog'lab o'rganish, u yoki bu fan bo'yicha o'rganilayotgan voqea-hodisa haqida o'quvchida jonli mush-ohada qilish malakasini o'stiradi. Bu bilan o'quvchi voqea-hodisa haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi", — deya ta'kidlanadi. Dasturda "Men, sen, u va ular", "Tabiat ne'matlari", "Sog'tanda — sog'lom aql", "Kasbim — faxrim", "Yosh iqtisodchi", "Fan va texnologiyalar", "Til va dil", "Tarix xazinalari", "San'at va madaniyat", "Huquqimiz — haqimiz" kabi boblarda beril-gan matnlarni o'rganish samaradorligini oshirish uchun matn asosida tuzilgan test savollari, muhokama mavzulari, loyiha ishlari keltirilgan. Bundan ko'zlangan maqsad nutqiy kompi-tentlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, jarayon o'quvchilarni PISA, PIRLS kabi xalqaro ba-holash tizimlariga tayyorlaydi. Bunday yondashuv o'quvchilarda matn yaratish va uni uslubiy tahrir qilish ko'nikmalarini hosil qiladi va mustahkamlaydi.

Adabiyotlar

G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. — Toshkent: O'qituvchi, 1995. — 160b.

Mahmudov N. va boshqalar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun ona tili darsligi. — Toshkent: Tasvir, 2017. — 208b.

Ona fani tili Milliy o'quv dasturi. Respublika Ta'lim Markazi. 2022/2023-o'quv yili.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili Adabiyot. (5—9-sinf) // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. — Toshkent; 2017, 14 (774)-son. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. — Toshkent: Fan, 2007. — 143b.

Баҳриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: фил. фанл. докт. (DSc)... дисс. автореферати. — С., 2020.

Блинов Г. Классификация пунктуационных ошибок. — Москва: Высшая школа, 1970. — 116 с.

Нурмонов А., Абдураимова М., Юсупова Ш. Баёнлар тўплами (Умумтаълим мактабларининг V-IX синфлари учун). — Тошкент: Ўқитувчи, 1997. — 136б.

Ҳамроев Ғ. Она тили таълимида ўқув топшириқларини ишлаб чиқишнинг лингводидактик асосларини такомиллаштириш: Пед. фан. докт. (DSc) ... дис-яси. — Тошкент, 2022. — 223б.

Юсупова Т. А. THE FORMS OF INTERRELATION WITH TOPICS OF SYNTAX IN REVISING MORPHOLOGY // Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 7, 2020 (Skopus).

Юсупова Т. А. To develop students' knowledge, skills and competencies in the organizational and technical aspects of essay // ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492

Юсупова Ш. Она тили таълими самарадорлигини оширишда илғор педагогик технологияларни жорий этиш: пед фан. ном-ди дисс. — Т., 1998. — 120б.

THE PROBLEM OF PREPARING STUDENTS FOR TEXT CREATION ACTIVITIES BY COMPLETING GRAMMAR TASKS

Tursunay Yusupova¹

Annotation

This article provides information about the text used in mother tongue education, the content of the text, the differences between text types, and the types and content of tasks useful in preparing them for the creation process. The content of grammar tasks, as well as the types of tasks used in the process of creation. An analytical response was given to the opinions expressed by Methodist scientists about the role, importance and types of grammatical tasks used in mother tongue education. At the same time, there was also a reaction to the cases of grammar tasks that are currently used in mother tongue education in school. The content of grammar tasks, as well as the types of tasks used in the process of creating a text and working on the text, and recommendations on the preparation process are given.

Keywords: *text, grammar tasks, text types, text creation process, approach.*

Referens

G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. — Toshkent: O'qituvchi, 1995. — 160b.

Mahmudov N. va boshqalar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun ona tili darsligi. — Toshkent: Tasvir, 2017. — 208b.

¹ *Yusupova Tursunay Akhmedovna* — Associate Professor of Tashkent State Uzbek Language and Literature University named after Alisher Navoi, Candidate of Pedagogical Sciences

E-mail: tursunoyyusupova@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0001-9434-5189

For citation: Yusupova, T. 2024. "The problem of preparing students for text creation activities by completing grammar tasks". Uzbekistan: *Language and Culture* 4[2]: 47—53.

Ona fani tili Milliy o'quv dasturi. Respublika Ta'lim Markazi. 2022/2023-o'quv yili.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili Adabiyot. (5—9-sinf) // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. — Toshkent; 2017, 14 (774)-son.

Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. — Toshkent: Fan, 2007. — 143b.

Баҳриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: фил. фанл. докт. (DSc)... дисс. автореферати. — С., 2020.

Блинов Г. Классификация пунктуационных ошибок. — Москва: Высшая школа, 1970. — 116 с.

Нурмонов А., Абдураимова М., Юсупова Ш. Баёнлар тўплами (Умумтаълим мактабларининг V-IX синфлари учун). — Тошкент: Ўқитувчи, 1997. — 136б.

Ҳамроев Ғ. Она тили таълимида ўқув топшириқларини ишлаб чиқишнинг лингводидактик асосларини такомиллаштириш: Пед. фан. докт. (DSc) ... дис-яси. — Тошкент, 2022. — 223б.

Юсупова Т. А. THE FORMS OF INTERRELATION WITH TOPICS OF SYNTAX IN REVISING MORPHOLOGY // Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 7, 2020 (Skopus).

Юсупова Т. А. To develop students' knowledge, skills and competencies in the organizational and technical aspects of essay // ACADEMICIA A n I n t e r n a t i o n a l M u l t i d i s c i p l i n a r y R e s e a r c h J o u r n a l (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492

Юсупова Ш. Она тили таълими самарадорлигини оширишда илғор педагогик технологияларни жорий этиш: пед фан. ном-ди дисс. — Т., 1998. — 120б.

JAHON TA'LIM TIZIMLARINI TAHLIL QILISHDA QIYOSIY PEDAGOGIK METODLARNING O'RNI

Munira Shodmonova
Karlygash Ashirkhanova¹

Annotatsiya

Amaliyotdan ma'lumki, ta'limning dolzarb muammolarini hal qilish uchun xalqimizning madaniy me'rosini o'rganish, chet el tajribalarini o'zlashtirish talab etiladi. Shuning uchun oliy o'quv yurtida pedagogika fanining strategik yo'nalishlari: ta'lim-tarbiyada pedagogik merosni o'rganish va uni hozirgi bosqichdagi ta'lim bilan taqqoslash; o'qituvchilarning amaliy tayyorgarlik saviyasini oshirish; qobiliyatli, iste'dodli o'qituvchilarni aniqlash; umumiy yo'nalishlar va kasb-hunar ta'limini innovatsion texnologiyalar bilan boyitish zarur. Yurtimiz ta'lim sohasida erishilgan yutuqlarni yanada yuksaltirish, bu sohada rivojlangan davlatlar bilan raqobatbardosh bo'la olish uchun ta'limni isloh qilishni davom ettirish, uni modernizatsiyalash, ta'limni rivojlantirish borasidagi zamonaviy nazariyalarni o'rganish, taqqoslash, tahlil qilish va o'quv tarbiyaviy jarayonga tatbiq etish, bo'lajak tadqiqotchilarga bugungi kun mafkurasi talablari asosida jahon pedagogikasining aktual masalalari ayniqsa, rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi, ta'limning turlari, ta'lim-tarbiya jarayonlarini o'ziga xos xususiyatlari va tashkil etish shakllari, amalga oshirish yo'llari haqida ma'lumot berish va shu orqali ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash, ta'lim mazmunini rivojlantirish zarurati mavjud.

Hozirgi pedagogika fani hamda ta'lim muassasalari oldida o'rganish, taqqoslash, xulosalash zarur bo'lgan qator muammolar turibdi. Ularni hal qilish, samaradorligini oshirish va ta'lim tizimiga joriy qilish muhimdir.

Maqolada quyidagi fikr-mulohazalar bayoniga o'rin ajratilgan:

1. Ta'lim tizimi rivojlanishini rag'batlantiradigan qonunlar qanday bo'lishi kerak?
2. Ta'lim va tarbiya vositalarining samaradorligini oshirish uchun nima qilish zarur?
3. Kelajakni ta'minlash va erishilgan yutuqlarni yo'qotmaslik uchun ta'lim mazmuni qanday bo'lishi kerak?
4. Yetarli darajada yuqori saviyali ilmiy bilim berish uchun nima qilish kerak?
5. O'qitish jarayoniga innovatsiyani qanday joriy etish, ta'limda ulkan amaliy tajribalarni qaysi usulda umumlashtirish zarur?

Kalit so'zlar: *qiyosiy pedagogika, xorijiy tajriba, tasvirllovchi, tarixiy, ijtimoiy, statistika, qiyoslash metodlari, komparativist, kuzatish va faktlarni to'plash, so'rov metodi, tasniflash, tahlil qilish, umumlashtirish, tarixiy-pedagogik metod.*

Kirish

Butun dunyoda ta'lim sifatiga e'tibor qaratish har qachongidan ham dolzarblik kasb eta boshladi. Bu borada O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim-tarbiya tizimini mutlaqo yangi bosqichga ko'tarishga qaratilmoqda. Bu esa tizimda erishilgan muvaffaqiyatga asoslanishdan tashqari umume'tirof qilingan xalqaro talablar va

¹ **Shodmonova Munira Burxonovna** — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent. Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

Karlygash Ashirkhanova — PhD, H.Dosmuhamedov nomidagi Atyrau universiteti dotsenti.

E-pochta: shodmonovamunira@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-2485-3943

Iqtibos uchun: Shodmonova, M.B. 2024. "Jahon ta'lim tizimlarini tahlil qilishda qiyosiy pedagogik metodlarning o'rni". O'zbekiston: til va madaniyat. 4[2]: 54—61.

standartlar, xalqaro dasturlarsiz amalga oshirilishi mumkin emas. Xalqaro ta'lim dasturlarining standartlarida qayd etilgan kompetensiyalar, o'tgan-yillarda o'tkazilgan xalqaro ta'lim dasturlarida taqdim etilgan topshiriqlar tahlili, xalqaro ta'lim dasturlarini o'zida mujassamlashtirgan innovatsion metodlar asosida dars ishlanmalarini ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirish kabi masalalar, nafaqat, hozirgi kunda ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan fan o'qituvchilari, balki pedagogik faoliyatga ilk qadamini qo'yayotgan talabalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o'zbek tilini o'rgatishning zamonaviy vositalari bilan tanishish, maktabga ana shu vositalar bilan qurollangan holda kirib borishingiz yanada ahamiyatliroqdir. Mazkur maqola zamonaviy talablar asosida oliy ta'lim muassasalari talabalalarining pedagogik bilimlarini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi. Shuningdek, u talabalarning pedagog bilim darajasini rivojlantirish, ularning ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishlari hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishi, xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimida zamonaviy yondashuvlar haqida ma'lumot beradi, kasbiy-pedagogik rivojlanishda interaktiv metodlar, pedagoglarning tahliliy, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion metodikalar, mustaqil ta'lim olishni kengaytirishni nazarda tutuvchi texnika va texnologiyalardan foydalangan holda mashg'ulotlar olib borish malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish nazarda tutadi.

Asosiy qism

So'nggi vaqtlarda respublikamizda jahon ta'lim tizimini qiyosiy o'rganish va ilg'or tajribalarni respublikamizda ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ana shu sababli hozirgi kunda "qiyosiy pedagogika" atamasi keng ommalashdi. Shuningdek, mazkur tushuncha turli davlatlar ta'lim tizimida ham o'ziga xos talqiniga ega. Jumladan, nemis tilida "vergleichende- Pedagogik", fransuz tilida "pedagogie cotparee" atamaları bilan izohlanadi. Ingliz tili asosiy til hisoblangan davlatlarda "comparative ta'lim" tushunchasini qiyosiy pedagogika bilan sinonim sifatida foydalaniladi. Ana shu sababli olimlar o'rtasida qay bir tushunchani qo'llash o'rinli bo'ladi degan munozarali fikr mavjud. "Comparative ta'lim" tushunchasi tarafdorlari taqqoslash obyekti sifatida ta'lim tizimi aks etishini ta'kidlaydilar. Biroq qiyoslash ma'lum bir pedagogik muammoga tegishli narsa-hodisa va jarayonlarni qiyosiy o'rganishi, buning uchun ilmiy-pedagogik tahlilga asoslanishi lozim. Qiyosiy pedagogika xuddi ana shu masalani hal etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishdek muhim vazifani bajarishi lozim.

Hozirgi kungacha qiyosiy pedagogika va chet el pedagogikasi - bir fan sohasining turlicha nomlanishi bo'lib, sinonim tushunchalardir degan qarash mavjud. Biroq mazkur yondashuv aniq tuzatish kiritishni talab etadi. Chet el pedagogikasi tavsifiy xarakterga ega bo'lib, uning asosiy maqsadi - chet el ta'limining o'ziga xosligini tavsiflovchi hodisa va dalillarni to'plash va tizimlashtirishdir. Shubhasiz, bu jahon pedagogik tajribasini chuqur va har tomonlama to'liq o'rganishning muhim jihati va zaruriy sharti. Biroq qiyosiy pedagogika o'zida zaruriy nazariy- metodologik komponentlarni tashkil etadi. To'g'ri ayrim holatlarda qiyosiy pedagogika axboriy funksiyani ham bajaradi, biroq uning asosiy funksiyasi turli mamlakatlardagi o'ziga xosliklarni hisobga olgan holda ta'limni rivojlantirishning muhim global qonuniyatlari va tendensiyalarini aniqlash hamda tahlil etishdir.

Qiyosiy pedagogika tushunchasiga komparativist olimlar turlicha ta'rif beradilar. Rus olimi M.Sokolova qiyosiy pedagogikani ta'lim-tarbiya pedagogik nazariyasi va amaliyoti rivojlanishining yo'nalishlari, umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadigan, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy asoslari hamda milliy o'ziga xoslikni ochib beradigan soha deb qaraydi. N.Belkanov qiyosiy pedagogikani ta'limdagi globallashtirish, baynalmilallik va integratsiya natijasi deb qaraydi. Uning fikricha, qiyosiy pedagogikada taqqoslash — bu ta'lim va pedagogika sohasida dunyo tendensiyalari bilan aloqadorlikni anglash demakdir. K.Musmining ta'kidlashicha, qiyosiy pedagogika dunyoning turli davlatlarida turli tarixiy davrlarda

ta'lim-tarbiya pedagogik nazariyasi va amaliyotining holatini o'rganadi, pedagogika va maktab amaliyotining xalqaro tajribasini o'rganish va foydalanish yo'llari hamda shaklini aniqlaydi, o'z davlatida ta'lim-tarbiya modelining kelajagini bashorat qiladi. B.L.Vulfson esa qiyosiy pedagogikani pedagogik fanlarning sohasi deb qaraydi va u qiyosiy aspektida turli davlat, hudud umuman dunyo miqyosida, turli tarixiy davrlarda pedagogik nazariya va amaliyotning mavjud holati, rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlarini o'rganadi, deb ta'riflaydi.

Ijtimoiy hayotning turli sohalarida integratsion jarayonlarning rivojlanishi olimlar oldida xalqaro tadqiqotlarni o'tkazishning qanday eng maqbul shakl va usullarini topish, qo'lga kiritilgan natijalardan milliy ta'lim tizimining o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda samarali foydalanishni qay tarzda ta'minlash, xalqaro tadqiqotlar ishtirokchilarining nuqtayi nazarlari va qarashlarini uyg'unlashtirishga qanday qilib erishish kabi qator savollarni ko'ndalang qo'yimoqda. Mazkur savollarga aniq va to'liq javobni qiyosiy pedagogikaning nazariy-metodologik mummosi sifatida qarash orqali olish mumkin.

Qiyosiy pedagogika metodlari — metodologik yondashuvlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular asosida amalga oshiriladi. Kompravistika uchun: tasvirlovchi, tarixiy, ijtimoiy, statistika, qiyoslash kabi metodlar ulkan ahamiyatga ega.

Qiyosiy pedagogika yondosh fanlarda qo'llanadigan tadqiqot metodlaridan ham foydalanadi. Tadqiqot jarayonida bu metodlar bir-biriga o'zaro ta'sir qilib bog'lanib ketadi. Qiyosiy pedagogikaning o'ziga xosligi shundan iboratki, uning asosiy tadqiqot metodi qiyoslash metodidir.

Chet elda ta'limni rivojlantirishning haqiqiy jarayonlarini aks ettiruvchi eng yangi va kam ma'lum bo'lgan faktlarni tizimli tavsiflash muhim mustaqil ilmiy vazifalardan biri va qiyosiy pedagogik tadqiqotning muhim elementi sifatida xizmat qilishi mumkin. Tadqiqotni oqilona tashkil etish uning ishtirokchilari vazifalarini taqsimlashni o'z ichiga olganligi sababli, faktik materiallarni to'plash va dastlabki ishlov berish ishlari juda mas'uliyatli sanaladi. Albatta, dalillarning takrorlanmasligi va dalillarni manbalar asosida taqqoslash va tanqidiy tahlil qilish orqali batafsil tekshiriladi.

Ammo qanday qilib dalillar "olinadi"? Bu yerda qiyosiy pedagogika muhim o'ziga xoslikni ochib beradi. Ko'pgina fanlarda tadqiqot asosan "birinchi qo'l", ya'ni olingan ma'lumotlarga asoslanadi. Tadqiqotchining o'z tajribalari natijasida, uning eksperimental ishlari, to'g'ridan-to'g'ri kuzatuvlari va boshqalarni keltirish mumkin. Ko'plab fanlar, shu qatorda bir qator pedagogik fanlarning rivojlanishi uchun juda muhim bo'lgan eksperiment qiyosiy pedagogik tadqiqotlarda kam qo'llanilgan. Axir, ilmiy bilish usuli sifatida eksperimentning o'ziga xos xususiyati shundaki, aksariyat hollarda u o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarga bevosita ta'sir qilish imkoniyatini ta'minlaydigan boshqariladigan sharoitlarda amalga oshiriladi. Ammo xorijiy tajribani o'rganayotganda bunday imkoniyat deyarli yo'q. Comparativist o'z tadqiqot mavzusiga jiddiy ta'sir o'tkaza olmaydi. Biroq, mustaqil ravishda tajriba o'tkazmasdan, qiyosiy chet el olimlari tomonidan o'z mamlakatlarida o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijalaridan foydalanishi mumkin emas; bu uning milliy ta'limga qaratilgan xulosalari va tavsiyalarining asoslarini oshirishga imkon beradi.

Pedagogikada keng qo'llaniladigan usullar, masalan, so'rov va anketalar, qiyosiy tadqiqotlardagi o'ziga xoslikni ochib beradi.

Yangi ma'lumotni olish uchun tadqiqotchi so'rov usulidan foydalanishi mumkin: tadqiqotchini qiziqtirgan savollar bo'yicha so'rovnoma (anketa) tuziladi va kerakli ma'lumotlarga ega bo'lgan muassasalarga yoki shaxslarga yuboriladi. Ushbu usul YUNESKO va IBE organlari tomonidan ta'limga oid tematik yilnomalarni tayyorlashda keng qo'llaniladi.

Taqqoslash uchun albatta, yuqori malakali mutaxassislarning o'zlarining tadqiqotlari va ko'p yillik pedagogik faoliyati natijalariga asoslangan holda, ta'lim bo'limlari va o'quv yurtlari rahbarlarining javoblari qiziqish uyg'otadi. Shu bilan birga, professional bo'lmaganlarning,

xususan, o'quvchilarning ota-onalarining fikrlari va baholarini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Ular ommaviy ongning kayfiyatini namoyish etadi, jamiyatning ta'lim muassasalari faoliyatini qanday baholayotganini aniqlashga imkon beradi. Ammo bu maxsus anketalarni ishlab chiqishni talab qiladi; maxsus terminologiyani, murakkab til islohotlarini va boshqalarni ishlatmaslik kerak. Boshqacha aytganda, o'rganilayotgan muammoni ma'lum darajadan o'tkazish kerak.

Qiyosiy metodistlar tomonidan keng qo'llaniladigan umumiy ilmiy tadqiqot usullari muayyan metodlar bilan bir qatorda qiyosiy pedagogikada ham qo'llaniladi. So'rov, kuzatish, suhbatlashish va savol javob har doim pedagogik tadqiqotlarda qo'llanilgan usullardir.

So'rov metodidan foydalanganda, maxsus so'rovnoma, so'rovnomaning respondentlarga maxsus tayyorlangan savollar bilan taqsimlashni ko'zda tutadigan so'rovnoma shaklida, ya'ni pochta orqali anketa holida keng qo'llaniladi. Anketalarni standartlashtirish axborotini qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida amalga oshiriladi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ushbu usul keng qo'llaniladi, ayniqsa YUNESKO faoliyati doirasida. Kuzatuv so'rovlari ma'lumot to'plash va ta'limning turli obyektiv va subyektiv omillarini tahlil qilish uchun muhimdir.

Kuzatish va faktlarni to'plash pedagogik qiyosiy tadqiqotlar usullaridan keng foydalaniladi. Tasniflash, tahlil qilish, umumlashtirish bo'lmasa, o'z-o'zidan dalillar unchalik muhim emas.

Suhbatlashish, qoida tariqasida, ta'limning dolzarb muammolarini va ijtimoiy norozilikni keltirib chiqaradigan zaiflik zonalarini aniqlashda muhim bo'lgan subyektiv omillar bilan bog'liq.

Manba tahlili zamonaviy dunyoda ularning xilma-xilligi bilan murakkablashgan qiyosiy tadqiqotlarning eng qadimiy va an'anaviy usullaridan biridir. Turli xil manbalar qatorida me'yoriy va huquqiy manbalar bo'lishi mumkin — qonunchilik bazasini aks ettiruvchi, ilmiy (maqolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar va boshqalar), arxiv manbalari shular jumlasidan. Ba'zi badiiy yoki jurnalistik manbalar ham muhim bo'lishi mumkin. Bundan tashqari har yili turli shakllarda nashr etiladigan turli xil statistik manbalar alohida o'rin tutadi.

Shuningdek bu yerda matematik statistika usullari ham katta ahamiyatga ega. Qiyosiy pedagogika fanlararo fan vazifasini o'taganligi sababli, u tegishli fanlarning usullaridan foydalanadi, bundan tashqari, tadqiqotchilar taqqoslashning turli usullarini ko'rib chiqadilar. Ular orasida umumiy ilmiy tadqiqot usullari ham qayd etilgan.

Qiyoslash usuli asosiy metodlardan biri hisoblanadi, uning yordamida ta'lim tizimlarining o'xshashlik va farqlari xususiyatlari aniqlanadi, pedagogik qonuniyatlarning umumiy va o'ziga xosliklari o'rganiladi. Uslubiy yondashuvlar ham asosan ular tomonidan belgilanadi. Ko'rinib turibdiki, asosiy metod qiyosiy tahlildir. Bundan tashqari, taqqoslash shunga o'xshash ta'lim tizimlarini tahlil qilish uchun qo'llaniladi va taqqoslash uchun muhim asoslar bo'lmagan taqdirda qo'llanilmaydi.

Rim imperiyasi davrida lotin tili ta'siri ostida rivojlanib kelgan G'arbiy Yevropaning turli mamlakatlari ta'lim tizimlarini taqqoslash juda maqbuldir. Lotin tili bir vaqtning o'zida ko'plab Yevropa tillarining shakllanishiga asos bo'ldi. Bundan tashqari, ko'plab Yevropa mamlakatlarida o'xshash ta'lim an'analari mavjud, masalan, universitetlarni rivojlantirish. Bolonya jarayoni barcha Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining oliy ta'lim tizimiga yagona standartlar va talablarni belgilab berdi, ammo har bir mamlakatda uning o'ziga xosligi va milliy ta'lim xususiyatlarini yo'q qilmadi.

Shu bilan birga, taqqoslovchilar ba'zan o'ziga xosligini yanada aniqroq namoyish etish uchun qarama-qarshilik deb ataladigan usulidan foydalanadilar, o'xshash bo'lmagan va turli sivilizatsiyalarga tegishli bo'lgan davlatlarni ataylab taqqoslaydilar. Bu yerda taqqoslashga ustuvor ahamiyat beriladi, bu ko'pincha taqqoslash uchun yetarlicha muhim umumiy

asoslarga ega bo'lmagan ta'lim tizimlarini tahlil qilish uchun ishlatiladi, ya'ni turli madaniy an'analarga asoslangan.

Ta'riflash metodi muayyan faktlarni tahlil qilish va talqin qilish, ularni guruhlash, tizimlashtirish, tasniflash va hokazolar uchun zarur va yetarli ma'lumotlarni qidirish va to'plashni talab qiladi. Biroq, ko'pincha tavsiflash usuli turli mamlakatlarda ta'lim va tarbiya jarayonini eng yorqin tavsiflarini taqdim etadi, ularni ilmiy adabiyotlarda ham, san'at asarlarida ham uchratish mumkin. Shu bilan birga qiyosiy pedagogikaning o'ziga xos usullari ham ajralib turadi. Shunday qilib, G.M.Morozova qiyosiy pedagogik tadqiqotning quyidagi usullarini aniqlaydi, ular orasida biz umumiy va o'ziga xos usullarni ko'ramiz: manbalarni o'rganish, statistik ma'lumotlarni o'rganish, adabiy manbalarni o'rganish, suhbat, intervyu, qiyosiy usul.

M.L.Rodionov qiyosiy pedagogikaning beshta asosiy usulini aniqladi: tavsifiy, tarixiy, sotsiologik, statistik, qiyosiy. M.L.Rodionov ushbu usullarning o'ziga xosligini quyidagicha ta'rifladi: "Ta'riflash usuli aniqlikni, guruhlash, faktlarni tizimlashtirish va talqin qilishni, tahlil qilish uchun zarur va yetarli ma'lumot to'plashni, ta'lim tizimidagi yagona va tipiklikni aniqlashni talab qiladi; ushbu usulning dinamikasi tadqiqot boshlanishining nisbati izchil o'sishda namoyon bo'ladi.

Tarixiy-pedagogik metod muammolar rivojlanishining genezisi va xususiyatlarini tahlil qilish; o'rganilayotgan pedagogik hodisaning zamonaviy holatini chuqurroq anglashga hissa qo'shadi.

Masalan, taniqli rus jurnalisti va yozuvchisi V.V.Ovchinikovning publitsistik asarlarida "Emanning ildizi (Angliya va Britaniyaliklar haqidagi taassurotlar va mulohazalar)" va "Sakura filiali (Yaponiyaliklar qanday odamlar ekanligi haqidagi hikoya)" Buyuk Britaniya va Yaponiyadagi bolalar tarbiyasi va ijtimoiylashuvining xususiyatlarini aks ettiruvchi tavsiflar keltirilgan. XVIII asrning axloqshunos faylasufining mashhur kitobida F.S.Chesterfildning "O'g'ilga maktublari" bizga o'sha davrning dunyoviy yoshlari tarbiyasining ahamiyatli yo'nalishlarini topishga imkon beradi, ular bugungi kunda psixologlar ham muhim deb hisoblaydilar.

Tarixiy metod turli mamlakatlarda ta'limning rivojlanish jarayoni va xususiyatlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Bu uning rivojlanishining tarixiy muammolarni o'z ichiga qamrab olgan majmua hisoblanadi. Ularning batafsil tahlili pedagogika fanlariga oid ixtiyoriy soha-ning ilmiy tadqiqotlari nazariy metodologik darajasini mukammallashtiradi. Odamning kasbiy va aqliy kamolotida muhim ko'rsatkichga aylanadi. Bularning bari qiyosiy pedagogikaga ham to'la aloqador hisoblanadi.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, chet el manbalarida ko'proq — qiyosiy pedagogika emas, balki — qiyosiy ta'lim atamasi ishlatiladi. Zero, — ta'limning. — education) so'zi pedagogika (— pedagogie) so'ziga nisbatan keng ma'noda qo'llaniladi. Chet el pedagogik an'anasi-ga ko'ra — ta'lim so'zi rivojlanish, ta'lim va tarbiya birligini anglatadi. Shu bilan bir qatorda pedagogika faqat bolalarning ta'limi va tarbiyasiga taalluqli tushuncha sifatida qo'llaniladi.

Turli mamlakatlardagi ta'lim nazariyasi mazmuni va tashkilotlarinigina emas, shuningdek, ta'lim metodlari, shakllari, vositalari, ta'lim muassasalari, boshqaruv, ta'lim qadriyatlari va hokazolar.

Turli mamlakatlardagi ta'lim va tarbiya tizimi taraqqiyoti va amal qilish qonuniyatlarini taqqoslash, ularning o'xshash va farqli tomonlarini ajratib ko'rsatish orqali tadqiq qiladi. Ta'lim tizimi va uning rivojlanish dinamikasini muayyan davlatning madaniy tarixiy va ijtimoiy-siyosiy xususiyatlarini inobatga olgan holda solishtiradi va qiyoslaydi.

Ta'limni rivojlantirishda global va milliy tendensiyalarni aniqlash qiyosiy tahlilchini didaktikaning muammolarini hal qilishga undaydi. Ma'lumki, didaktika — bu o'quv jarayoni-ning mazmunini o'rganadigan pedagogika sohasi. Didaktika maqsadlarga ilmiy asos beradi, ta'lim mazmunini tanlash, o'qitish usullari va ta'limni tashkil etish shakllarini belgilab beradi. Shu munosabat bilan zamonaviy qiyosiy pedagogik tadqiqotlar ichki va xorijiy didaktika tu-

shunchalarini bilishni, shuningdek, xorijiy davlatlar maktablarida o'quv jarayonini modernizatsiya qilish tajribasini tahlil qilishni talab qiladi.

Shu bilan birga, qiyosiy pedagogika ilmiy bilimlarning boshqa sohalarida olingan tadqiqotlar natijalariga asoslanadi: falsafa va sotsiologiya, iqtisodiy va siyosiy fanlar, tarix va madaniyatshunoslik.

Qiyosiy pedagogika bugungi kunda ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotining rivojlantirish qonuniyatlari va tendensiyalarining farqli xususiyatlarini qiyosiy o'rganadi. Qiyosiy pedagogika mamlakatda tanlangan maktab siyosatini yangilash va hayotiyalashtirish yo'llarini belgilashda maslahat berish, qabul qilingan qarorlar natijalariga ta'sir ko'rsatadigan shart-sharoit, tanlangan siyosatning oqibatlarini va uni amalga oshirish yo'llarining to'g'riligini oldindan ko'ra bilish kabi vazifalarni tahlil qiladi.

Komparativistikaning rivojlanishi turli ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tizimlardagi qizg'in o'zgarishlar, ziddiyatlarga to'g'ri keldi. Bu davrda qiyosiy pedagogikaga oid tadqiqotlar bilan shug'ullanadigan tashkilot tarmoqlari ancha kengaydi. Binobarin, xalqaro ta'lim byurosi tashkil etilib, u qiyosiy pedagogikaga oid tadqiqotlarni munofiqlashtiruvchi markaz sifatida faoliyat ko'rsata boshladi.

Xulosa

Shuni e'tirof etish kerakki, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sohasida ulkan o'zgarishlar sodir bo'layotgan bir davrda, bizda ta'lim mazmunini yangilash, uni boshqarish, yangi pedagogik texnologiyani maktab hayotiga tatbiq etishda hamon kamchiliklar mavjud. Ta'lim-tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyustiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirishda davlat xizmatini hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning muhim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish ayni muddaodir.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limniig, mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan-yilga oshib bormoqda.

Yaponlarda, masalan, «maktab muvaffaqiyat va farovonlik timsoli»gina bo'lib qolmay, «u insonlarni yaxshilaydi», degan fikr ishonch va e'tiqodga aylangan.

Ta'lim to'g'risidagi g'amxo'rlik taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat-e'tiborida bo'lgan. Shuning uchun ham AQSHning sobiq Prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M.Techcherni, Fransiya Prezidenti F.Mitteranlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb, bejiz aytishmaydi. F.Mitteran maktabni «Jamiyatni harakatlantiruvchi kuch» deb hisoblagan.

Asosiy o'quv dasturlariga ma'lum cheklanishlarni kiritish, alohida predmetlarni o'rganishni kuchaytirib, ularni chuqur o'zlashtiradi va o'quvchilarni ortiqcha «yukdan xalos qiladi. Bu masalani ijobiy hal etishda o'quv kurslari integratsiyasini amalga oshirish yordam beradi.

Adabiyotlar

Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. — T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2015-y.

Abdusamatova N. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fanidan ma'ruza matni. T.: Namangan — 2018-y.

Shodmonova Sh., Ergashev P. Qiyosiy pedagogika. Metodik qo'llanma. — T.: TDPU, 2005.
Фаниев Ф. Хорижда таълим. Т.: Шарқ, 1995.

Muxtorov A. va b. Ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, may, 2012. 32

И. Н. Зорников, Л. П. Волкова. Проблемы и перспективы международной интеграции высшего образования.-Воронеж, 2009. С.13-18.

Richard Arum, Melisa Velez. Improving Learning Enviroment: School Discipline and Comporative Perspestive. Stanford Universiy Press, USA: 2012.

H.Fry, S. Ketteridge, S.Marshall. Handbook For teaching and Learning in Higher Educa-tion. New York, Routledge, 2009.

THE ROLE OF COMPARATIVE PEDAGOGICAL METHODS IN THE ANALYSIS OF WORLD EDUCATION SYSTEMS

Munira Shodmonova
Karlygash Ashirkhanova¹

Abstract

It is known from practice that in order to solve the current problems of education, it is necessary to study the cultural heritage of our people and learn foreign experiences. Therefore, the strategic directions of the science of pedagogy at the higher educational institution are: the study of the pedagogical heritage in education and its comparison with the education at the current stage; increase the level of practical training of teachers; identifying capable and talented teachers; it is necessary to enrich general directions and vocational education with innovative technologies. In order to further improve the achievements of our country in the field of education, to continue to reform education, to modernize it, to be competitive with developed countries in this field, to study, compare, analyze and study modern theories of education development. application to the educational process, current issues of world pedagogy based on the requirements of today's ideology to future researchers, especially the educational system of developed countries, types of education, specific features of educational processes and forms of organization, there is a need to provide information about ways to improve and thus improve the educational process, develop the content of education. Current science of pedagogy and educational institutions face a number of problems that need to be studied, compared, and concluded. It is important to solve them, improve their effectiveness and introduce them into the educational system. The article includes the following comments:

1. What should be the laws that encourage the development of the education system?
2. What should be done to improve the effectiveness of education and training tools?
3. What should be the content of education in order to ensure the future and not to lose the achievements?
4. What should be done to provide sufficiently high-level scientific knowledge?
5. How to introduce innovation into the teaching process, in what way is it necessary to generalize vast practical experiences in education?

Key words: *comparative pedagogy, foreign experience, descriptive, historical, social, sta-*

¹ **Shodmonova Munira Burkhonovna** — Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor. Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

Karlygash Ashirkhanova — PhD, Atyrau University after named Kh.Dosmukhamedov.

E-mail: shodmonovamunira@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-2485-3943

For citation: Shodmonova M.B. 2024. "The role of comparative pedagogical methods in the analysis of world education systems". Uzbekistan: language and culture. 4[2]: 54—61.

tistics, comparative methods, comparativist, observation and collection of facts, survey method, classification, analysis, generalization, historical-pedagogical method.

References

Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. — T.: Alisher Navoiy nomida-gi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2015-y.

Abdusamatova N. Maktabgacha ta'lim qiyosiy pedagogikasi fanidan ma'ruza matni. T.: Namangan — 2018-y.

Shodmonova Sh., Ergashev P. Qiyosiy pedagogika. Metodik qo'llanma. — T.: TDPU, 2005.

Фаниев Ғ. Хорижда таълим. Т.: Шарқ, 1995.

Muxtorov A. va b. Ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, may, 2012. 32

И. Н. Зорников, Л. П. Волкова. Проблемы и перспективы международной интеграции высшего образования.-Воронеж, 2009. С.13-18.

Richard Arum, Melisa Velez. Improving Learning Enviroment: School Discipline and Comporative Perspeptive. Stanford Universiy Press, USA: 2012.

H.Fry, S. Ketteridge, S.Marshall. Handbook For teaching and Learning in Higher Educa-tion. New York, Routledge, 2009.

O'QUVCHILARDA O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI TURLI TEST TOPSHIRIQLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH

Dilobar Normuminova¹

Annotatsiya

O'qib tushunish savodxonligi mashq va topshiriqlar yordamida rivojlanadigan asosiy ko'nikmalardan biridir. Ushbu kichik tadqiqotda o'qish savodxonligi nazariy va amaliy jihatdan o'rganilgan. Xorij tajribasi o'rganilib chiqib, u asosida tajribalar o'tkazildi. Tajribada shu narsa ma'lum bo'ldiki o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishda matn tanlashning ahamiyati, u asosida tuzilgan topshiriqlar muhim ahamiyatga ega ekan. O'quvchi dars jarayonida o'rgangan lingvistik bilimlari matnni o'qib tushunishda qay darajada yordam berishini guvohi bo'ldi. Agar u nazariy bilimlarni o'qib o'zlashtira olmasa matn mazmunini tushuna olmasligi kuzatildi. Tushunish ko'nikmasini rivojlantirish uchun matn oldi topshiriqlar va matndan keyin turli rivojlantiruvchi topshiriqlar berib borildi. Har dars o'quvchilarda tushunish ko'nikmasi o'sgani kuzatildi. Tadqiqot obyekti uchun 30 nafar o'rta maktab o'quvchilari tanlab olindi va turli test topshiriqlari ishlab chiqildi. Ular bilan muntazam mashg'ulotlar olib borildi. Yig'ilgan ma'lumotlar tahlil qilinib, bir necha qiziqarli topshiriqlar orqali matn ustida ishlagan o'quvchilar boshqa guruhga qaraganda o'qib tushunish ko'nikmasi sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Maqolada tadqiqot natijalari va xulosalari yoritilgan. O'quvchining o'qish qobiliyatiga ko'plab omillar, jumladan, boshlang'ich bilim, qobiliyat, uy muhiti, maktab tajribasi va qiziqish darajasi ta'sir qilishi mumkin. O'quvchi yo'l qo'ygan xatoning psixolingvistik asosini tushunish mazkur kamchilikni tuzatish uchun samarador mashqlar tizimini ishlab chiqishga imkon berdi.

Kalit so'zlar: *o'qish, tushunish, topshiriq, matn, kognitiv qobiliyat, dekodlash.*

O'qish savodxonligi nafaqat ta'lim tizimida, balki boshqa sohalarda ham yutuqlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning kitob o'qish qobiliyatiga e'tibor qaratish, jumladan, ularning ma'lumotlarni tanlay bilishlari, tushunish, talqin qilish qobiliyatlarini rivojlantirish tadqiqotning asosiy masalalaridan biridir. O'qish savodxonligi — shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topish maqsadiga erishishi yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati demakdir. O'qish savodxonligi doirasidagi anglash, o'z navbatida o'quvchilarning o'qish savodxonligidagi bilim saviyasini baholash uchun mo'ljallangan savol va topshiriqlarda aks etgan bo'lishi kerak.

Pourhosein Gilakjani Ahmadi o'qishning asosiy maqsadi matndan to'g'ri xabar olish ekanligini ta'kidlaydi. O'qish strukturasi to'g'ri hal etish (ya'ni so'zlarning o'zaro munosabati, qaysi so'z gapdagi asosiy tushunchani, qaysilari unga tobe tushunchalarni ifodalayotganini anglash), shuningdek, matn mazmuniy bloklarining o'zaro bog'lanishi matnni tushunish, uning mazmuniy proyeksiyasini ongda hosil qilgunga qadar kechadigan jarayonlar bo'lib, matnni o'qib chiqqan har bir o'quvchi mazkur darajalardan o'tib matnni to'liq tushunadi deb bo'lmaydi. Har bir o'quvchining qabul qilish qobiliyati har xil bo'lgani uchun matnni

¹ **Normuminova Dilobar** — Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili ta'limi kafedrasida stajyor-o'qituvchisi

E-manzil: normuminovadilobar@navoiy-uni.uz

ORCID: 0009000779610707

Iqtibos uchun: Normuminova D. 2024, O'quvchilarda o'qib tushunish ko'nikmasini turli test topshiriqlari orqali rivojlantirish. O'zbekiston: til va madaniyat. 4[2]: 62—70.

bir xilda o'qib chiqqanlar tushunishning har xil darajasida turgan bo'ladi.

Iroda Azimova ta'kidlaganlariday har qanday dars psixolingvistik jarayon, chunki bola unda til vositasida berilgan ma'lumotni dekodlaydi yoki o'z bilimini ifodalash uchun kodlaydi. Insonning har qanday kognitiv ko'nikmasi tajriba asosida shakllanadi.

O'qishni tushunish — bu bir qator kognitiv va lingvistik jarayonlarga bog'liq bo'lgan murakkab vazifadir. Bu murakkablikni ikkita ko'nikma: dekodlash va lingvistik tushunish tashkil qiladi. O'qishning asosiy maqsadi tushunishdir. Ayrim so'zlarni aniqlashdan tortib matnda to'liq tasvirlanmagan vaziyatlar haqida xulosa chiqarishgacha bo'lgan jarayon kognitiv va lingvistik operatsiyalarning butun majmuasidir. Bu murakkablik shuni anglatadiki, "o'qishni tushunish qanday rivojlanadi" va "nima uchun ba'zan muvaffaqiyatsiz bo'ladi" kabi savollarga oddiy javob topish tezda imkonsiz vazifaga aylanadi. O'qishni tushunish uchun dekodlash ham, lingvistik tushunish ham zarur. Agar o'quvchi matndagi so'zlarni tushuna olmasa, og'zaki nutq sohasida qanchalik murakkab bo'lmasin, yozma tilni tushunish qobiliyatiga ega bo'lmaydi. Bolalar ulg'aygan sari va dekodlash qobiliyatlari oshgani sayin lingvistik tushunish va o'qishni tushunish o'rtasidagi bog'liqlik kuchayadi. Bu shuni ko'rsatadiki, dekodlashdan so'ng, o'qishni tushunish odamning og'zaki tilni qanchalik yaxshi tushunishi bilan cheklanadi. [Pearson,P.D;Johnson,D; 1978.27]

O'qish savodxonligi — insonning yozilgan matnlarni tushunish va ulardan foydalanish, ular haqida o'ylash va maqsadlariga erishish, bilim va imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun o'qish bilan shug'ullanish qobiliyatidir.

Bernardez tushunishning to'rtta darajasini tasniflagan: so'zma-so'z, izohlash darajasi, tanqidiy daraja va qo'llash darajasi. So'zma-so'z darajada, o'quvchilar o'qigan narsalarining asosiy ma'lumotlarini tushunishlari kerak, bu hikoyadagi qahramonlarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Ikkinchi daraja, talqin qilish, izohlash darajasi, bunda o'quvchilar o'qish parchasida yozuvchining ma'lum bir vaziyatga nisbatan nimani nazarda tutmoqchi ekanligini bilishlari kutiladi. Tanqidiy darajada o'quvchilar yozuvchining ishini muhokama qilishlari yoki tanqid qilishlari kerak. Misol uchun, o'qituvchi o'quvchilardan yozma ish uchun oxiri yoki sarlavhasi mos keladimi yoki yo'qligini so'rashi mumkin va ular javoblarini asoslashlari kerak. So'nggi darajada o'quvchilar o'qiganlarini turli xil tadbirlar orqali qo'llashlari kutiladi. Masalan, o'quvchilar ma'lum bir yozma ish mavzusi haqida qisqacha matn yozadilar. O'qish va matndagi ma'lumotlarni tushunish orqali tushunish rivojlandi. Tushunishni rivojlantirish o'quvchilardan hikoya va izohli matnni tahlil qilish, izohlash va javob berish talab qilinadi. [De leon, 2009.18]

So'z ma'nosini bilish va matnni tushunish o'qish tushunchasining muhim elementlari hisoblanadi. O'quvchi o'zi o'qigan so'zlarni tushunmasa, u butun matnni tushunmaydi.

O'qish, albatta, o'quvchi uchun materialni talab qiladi. O'qib tushunishda o'sha materiallarda matn bo'laklari yoki muayyan topshiriqqa asoslangan matnlar jamlanmasini o'quvchi o'qib, topshiriqda berilgan masalani yechishi uchun yetarli ma'lumot berilgan bo'lishi lozim.

O'quvchilar matnlar bilan ishlash uchun zarur bo'lgan maxsus o'qish qobiliyatlariga ega bo'lishlari kerak.

- matndan ma'lumot olish va uning asosida eng sodda fikrlarni shakllantirish uchun to'liq matnga asoslangan ko'nikmalar;
- ma'lumot topish va to'g'ridan-to'g'ri xulosalarni shakllantirish qobiliyati;
- matndan aniq(ochiq ifodalangan) ma'lumotlarni topish;
- matn asosida, oddiy xulosalar chiqarish; o'qilgan narsalar haqida o'z fikrlariga asoslangan ko'nikmalar chiqarish;
- matn ma'lumotlarini o'quvchining o'z bilimlari bilan birlashtirish, izohlash va baholash;
- muallif tomonidan ifoda etilmagan aloqalarni o'rnatish;

O'quvchilarda o'qib tushunish ko'nikmasini turli test topshiriqlari orqali rivojlantirish

- to'g'ridan-to'g'ri ularni matnning umumiy g'oyasi bilan bog'liq holda izohlash.

Bugungi kunda maktabda o'qish va yozishni o'rgatish faqat akademik maqsadlar bilan chegaralanib qolmaydi, u kundalik hayot va ish bilan bog'liq funksional va operatsion maqsadlarni o'z ichiga olishi kerak.

O'qish savodxonligini rivojlantirish uchun matn tanlashda bir qancha mezonlarga rioya qilinadi:

- tanlangan matn tushunarli bo'lishi;
- matn turli ko'rinishlarda (diagramma, rasm, xarita, jadval, chizma) aks etishi;
- matn badiiy asarlardan parchalar, biografiyalar, shaxsiy xatlar, hujjatlar, gazeta va jurnallardagi maqolalar, reklama e'lonlari, geografik kartalardan taqdim etilishi mumkin;
- Tilni tizimli o'rganishda tilning serqirra imkoniyatlari, jumladan, boy madaniy meros: she'r, qo'shiq, hikoya, qissa, roman, rivoyat, doston singari tayyor matnlardan samarali foydalanish;
- matn badiiy asardan parcha, ma'rifiy, rasmiy ish qog'ozlari: tilxat, tavsifnoma ko'rinishida bo'lishi;
- o'quvchilarni fikrlashga, izlanish va mulohaza qilishga, muammoning yechimini topib, xulosa chiqarishga yo'naltiradigan matn bo'lishi;
- matn mavzularining turlicha bo'lishi.

Jacquelynn S. Popp matn tanlashda quyidagilarni tavsiya qilgan:

1. Matnning turli xillaridan foydalanish.
2. G'oya va ma'lumotlarning boyligi, chuqurligi, yuqori sifatli matn tanlash.
3. So'zni tanib olish va tushunish qiyin bo'lgan matnni tanlanishi.
4. Matn tanlashda uning lingvistik talablarini hisobga olish kerak. (so'z, dekodlash, jumlaning murakkabligi...).

O'qib tushunish jarayonlarini shakllantirish va o'qib tushunish malakasini shakllantirishda matn juda muhim. Jim Xoffman va uning hamkasblari olib borgan tadqiqotida shu narsa aniq bo'ldiki, matn tanlashda o'qituvchi avvalo maqsadni to'g'ri qo'ya olishi kerak. O'quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqib ular uchun ozgina qiyinroq matn tanlansa, ishlash samaradorligini oshiradi.

Matnda asosiy fikrni samarali aniqlash uchun birinchi navbatda matn mavzusi nima ekanligini aniqlashlari kerak. Keyin ular yozuvchi ushbu mavzu bo'yicha nimani tushunishimizni xohlayotganini aniqlashlari kerak. Bu asosiy g'oyani qanday aniqlashning mohiyatidir. O'quvchilar asosiy g'oya har doim ham aniq bo'lmasligi va matn nimani anglatishini aniqlash uchun ko'p mehnat qilishlari mumkinligini tushunishlari kerak. Asosiy g'oya aniq yoki yashirin bo'lishidan qat'i nazar, har bir paragraf asosiy g'oyaga ega bo'ladi va o'quvchilar uni boshida, o'rtasida, oxirida joylashtirishadi.

Ona tili ta'limida matnni o'qib tushunish malakasini baholashda quyidagi indikatorlarga — konstruktarga asoslanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz: matnda aniq ifodalangan ma'lumotni topa olish va tushunish; matnda o'z ma'nosida ishlatilgan leksik birliklarning ma'nosini tushunish; matnda ko'chma ma'noda ishlatilgan leksik birliklarning ma'nosini tushunish; matndagi ibora, maqol, ibratli so'zlarni tushunish; matndagi grammatik vositalarning ma'nosi va matndagi vazifasini tushunish; matndagi gaplarning mazmun-mohiyatini fahmlash, matnning grammatik qurulishini anglash; matnda aniq va yashirin ifodalangan ma'lumotlarni tushunish; matndagi chizma va diagrammalarda berilgan vizual ma'lumotlari o'qish; matndagi verbal va vizual ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liklarni tushunish; matndagi mazmuniy bog'liklarni anglash; matnning yoki uning qismlarining ma'nosini tushunish; matnni mazmuniy bloklarga ajratish; matnda muallif amqsadini aniqlash; matn g'oyasini anglash; matn mazmunini tushunish va talqin qilish; matndagi voqealar o'rtasidagi sabab-oqibat, ziddiyat, qiyoslash qonuniyatlarini idrok qilish; matndagi fikrlar va muallif nuqtayi nazarining

aniqligini baholay olish; o'quvchining avvaldan mavjud bilimi hamda matndan olingan ma'lumotni ma'lum darajada integratsiyalash; matndan olingan bilim va tushunchalarni amalda tatbiq qila olish. Mazkur konstruktlar matnni o'qib tushunish murakkab jarayon ekanligini dalillaydi [Sh.Abdiraimov, 2021.15].

Shularni hisobga olgan holda ushbu tadqiqot turli matnlar ustida ishlash orqali test topshiriqlarini tuzish o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradimi degan savolga javob berishga qaratilgan.

Biz ushbu tajriba tadqiqimizda mashqlar orqali o'quvchining o'qib tushunish malakasini rivojlantirish maqsadida quyidagi vazifa va topshiriqlardan foydalandik. Mazkur test topshiriqlari o'quvchilarning aniq yoki ochiq bayon etilgan bir yoki bir nechta mustaqil bo'laklarni topish, muallifning maqsadini bilib olish, asosiy g'oyani aniqlash, munosabatlarni tushunish so'z yoki iboraning ma'nosini tushunish uchun matnning bir nechta qismlarini birlashtirish, mazmuni yoki shakli notanish bo'lishi mumkin bo'lgan uzun yoki murakkab matnlarni aniq tushunish, mustaqil fikrlay olish, xulosalar chiqarish, taqqoslash, bir yoki bir nechta matnni to'liq va batafsil tushunish, bir nechta matnlardan ma'lumotlarni birlashtirish kabi ko'nikmalari tekshiriladi.

Tajriba sinovi Toshkent shahri Yashnobod tumaniga qarashli 216-maktabda olib borildi. Tajriba 4-fevraldan boshlanib, 14-martgacha davom etdi. 9- A sinf o'quvchilari tajriba sinovida qatnashishdi. Tajriba uchun 15 ta o'quvchi saralab olindi. Tajriba sinovining birinchi darsida guruhdan boshlang'ich nazorat ishi olindi. Tajriba darslari davomida o'quvchilarga turli mavzu, shakldagi matnlar bilan birga ularning o'qib tushunish darajasini aniqlash va yaxshilash maqsadida turli topshiriqlar bajartirildi. Bunday tajriba darslari haftada bir marotaba o'tkazildi.

Matnlarning har biri 4-5 ta topshiriqdan iborat bo'lib, o'quvchilar oldin matnlarni 2-3 marotaba o'qiydilar, keyin esa topshiriqlarni bajaradilar. O'quvchilar bilan olib borilgan tajriba darslarida esa quyidagicha topshiriq turlaridan foydalanildi: taqqoslash va qarama-qarshi qo'yish, fakt va fikrni farqlash, sarlavhasiz fotosuratlar, ha-yo'q savollar, to'g'ri yoki noto'g'ri savollar, moslashtirish, ochiq turdagi savollar, tuzatish, lug'atlar ustida ishlash, matnni to'ldirish (yetishmayotgan so'zlar, iboralar yoki jummalarni to'ldirish), tartibga solish (matnning chalkash segmentlarini mantiqiy yoki vaqt ketma-ketligida joylashtirish), guruhlash (matn segmentlarini toifalar bo'yicha guruhlash), jadvalni to'ldirish (satr va ustun sarlavhalari bo'lgan jadval kataklarini to'ldirish yoki katakchalar allaqachon to'ldirilgan satr va ustun sarlavhalarini taqdim etish), bashorat qilish faoliyati (keyingi qadamni yozing yoki matnni tugatish, matnni belgilash (ma'lum ma'noga ega matn qismlarini toping va tagiga chizing, matnni segmentlash va etiketlash (matnni mazmunli bo'laklarga va yorliqlarga ajratish), jadval konstruksiyasi (sarlavhalarni tanlash va to'ldirish uchun ma'lumotlardan foydalangan holda jadval tuzing, diagramma qurish (matn mazmunini tushuntiruvchi diagramma tuzing, masalan, jarayonni tushuntirish uchun oqim sxemasini yoki qanday qilib tasvirlash uchun tarmoq diagrammasini chizish, savol berish (o'qituvchining savollariga javob berish yoki matn yuzasidan savollar ishlab chiqish), xulosa qilish.

O'quvchilarning mashg'ulot davomida yozgan javoblarining tahlili bilan tanishamiz. Tajriba sinovining birinchi darsida "Ekoturizm" matni asosida topshiriqlar berildi. Birinchi va oxirgi nazoratda topshiriqlar bir xil berildi.

O'qishdan keyingi topshiriqlar

I. Turizmga oid 10 ta so'z yoki iborani yozing

Ko'nikma: So'z boyligining oshishiga yordam beradi.

II. Savollarga javob berish orqali quyidagi sarlavhalarining har biridagi asosiy

fikrni aniqlang. Fikringizni ixcham ifodalang.

1. Turizm dunyoga qanday ta'sir qildi?
Turizm dunyoni kichikroq va qulayroq qildi.
2. Kelajakda turizm qanchalik tez o'sishi kutilmoqda?
3. Pandemiya turizmga qanday ta'sir qildi?
4. Turizmning atrof muhitga ta'siri qanday?
5. Ekoturizmning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?

Ko'nikma: Notanish leksik ma'noli so'zlarning ma'nosini tushunish, o'z jarayonlarini tahlil qilish qobiliyati, xulosa chiqarish, matn qismlari o'rtasidagi munosabatlarni tushunish. Fikrlarini erkin ifodalay olish.

III. Quyidagi jummalarga mos variantni belgilang.

1. Ekoturizmning kelib chiqishi sabablarini belgilang.
 - A. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning muvozanatdaligi.
 - B. Turizmning ommaviy va tartibsiz holatlarda rivojlanishi.
 - D. Mamlakatlar iqtisodiyotining o'sishi.
 - E. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi, global ekologik inqirozlarning halokatli rivojlanishi. Tabiiy muhitni va tabiat resurslarini muhofaza qilish va saqlab qolishda ekoturizmni rivojlantirish.
2. Ekoturizmning yuzaga kelish va shakllanish davrini aniqlang.
 - A. XX asrning o'rtalari.
 - B. XX asrning oxiri.
 - D. XXI asrning boshlanishi.
 - E. XX asrning so'nggi choragi.
3. Global ekologik inqirozdan chiqishning eng maqbul yo'llarini aniqlang.
 - A. Insoniyatning bugungi hayoti va kelgusi avlodlar uchun sayyoramizda saqlanib qolgan tabiiy boyliklarni muhofaza qilishda ilg'or fikrli olimlarning xulosalari bo'yicha global inqirozdan chiqish yo'llaridan eng muhimi — aholida ekologik bilim va madaniyatni shakllantirish.
 - B. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganib borish.
 - D. Turizmni rivojlantirish.
 - E. Ekologik dasturlar ishlab chiqish.
4. BMT qachon "xalqaro ekoturizm" yilini e'lon qildi?
 - A. 2002-yilda.
 - B. 1994-yilda.
 - D. 2004-yilda.
 - E. 1998-yilda.
5. Ekoturizmning turi nechta?
 - A. 10 ta.
 - B. 6 ta.
 - D. 4 ta.
 - E. 8 ta.

Ko'nikma: Matn qismlari o'rtasidagi munosabatlarni tushunish.

IV. Quyidagi fikrlardan qaysi biri to'g'ri (T) va qaysi biri noto'g'ri (F) ekanligini ko'rsating.

1. ____ Ekoturizm 1970-yillardagi ekologik harakatdan kelib chiqqan.

2. ____ Ekoturizm turizm industriyasining eng tez rivojlanayotgan sohasidir.
3. ____ Ekoturizmning atrof-muhitga salbiy ta'siri yo'q.
4. ____ Ekoturizm qayta ishlash, energiya tejash, muqobil energiya va madaniy sezgirlik.
5. ____ Ekoturizm sayohatchilar uchun hashamat va qulaylikning etishmasligini o'z ichiga oladi.
6. ____ Turizm kabi ekoturizm ham bitta xalqaro tashkilot tomonidan qat'iy tartibga solinadi.

Ko'nikma: Matndagi so'zma-so'z tafsilotlarni eslab qolish uchun yaxshi harakatdir. O'quvchilar noto'g'ri deb bilishlari uchun matnni ma'nosini yaxshi bilishlari lozim.

V. Quyidagi savollarga to'liq gaplar bilan javob bering.

1. Turizm jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatishiga to'rtta misol keltiring
2. Ekoturizm va barqaror turizm o'rtasidagi farq nima?
3. Ijtimoiy-madaniy resurslarning butun saqlanishiga nima xavf sola boshladi?

Ko'nikma: Mulohaza yuritish. Matnning kommunikativ qiymatini tushunish.

VI. Asosiy g'oyalarni aks ettiruvchi jumlar ostiga muhim tafsilotlarni, bayonotlarni yozing. To'g'ridan to'g'ri matndan ko'chirmang, fikrlaringizni bildirish uchun o'z so'zlaringizdan foydalaning. Asosiy fikrlarni umumlashtiring.

Ekoturizm tushunchasi

Ekoturizm tamoyillari

Ekoturizmning muvaffaqiyatli namunalari

Ekoturizmning xavf-xatarlari

Hukumatlar ekoturizmni qanday qo'llab-quvvatlaydi?

Ekoturizmni qo'llab-quvvatlash uchun individual turistlar nima qilishi mumkin?

Ko'nikma: Faktlarni fikrlardan ajratish, matndan asosiy fikrlarni ajratib olish.

1-jadval. Tajriba guruhining dastlabki va oxirgi nazoratdagi ko'rsatkichlari

O'quvchi tartib raqami	To'g'ri javoblar soni	Noto'g'ri javoblar soni	To'g'ri javoblar soni	Noto'g'ri javoblar soni
1	5	5	9	1
2	4	6	8	2
3	3	7	10	-
4	6	4	9	1
5	7	3	8	2
6	8	2	9	1
7	3	7	10	-
8	4	6	7	3
9	5	5	6	4
10	4	6	8	2
11	4	6	9	1

O'quvchilarda o'qib tushunish ko'nikmasini turli test topshiriqlari orqali rivojlantirish

12	5	5	9	1
13	6	4	10	-
14	7	3	9	1
15	5	5	10	-
Jami:	70	69	103	19

Birinchi va oxirgi nazorat natijalarini tahlil qilganimizda:

$$\begin{aligned}
 &|V1-V2|/[(V1+V2)/2] \times 100 = |98-109|/[(98+109)/2] \times 100 = \\
 &= |98-109|/[(98+109)/2] \times 100 = |98-109|/[(98+109)/2] \times 100 \\
 &= |-11|/[2072] \times 100 = |-11|/[2072] \times 100 \\
 &= 11103.5 \times 100 = 11103.5 \times 100 \\
 &= 0.10628 \times 100 = 0.10628 \times 100 \\
 &= 9.628\% \text{ difference} = 9.628\% \text{ difference}
 \end{aligned}$$

Birinchi nazorat bilan oxirgi nazorat o'rtasida 10.628%ga o'sish bo'lgan.

$$\begin{aligned}
 &|V1-V2|/[(V1+V2)/2] \times 100 = |102-136|/[(102+136)/2] \times 100 = \\
 &= |102-136|/[(102+136)/2] \times 100 = |102-136|/[(102+136)/2] \times 100 \\
 &= |-34|/[2382] \times 100 = |-34|/[2382] \times 100 \\
 &= 34119 \times 100 = 34119 \times 100 \\
 &= 0.285714 \times 100 = 0.285714 \times 100 \\
 &= 28.5714\% \text{ difference}
 \end{aligned}$$

Tajriba guruhida esa birinchi nazorat bilan oxirgi nazorat o'rtasida 28.57% o'sish bo'lgan. Mazkur farqni hisoblash uchun biz calculator.php manzilidagi foiz farqini hisoblab beruvchi kalkulyatordan foydalandik.

Natijadan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhining o'qib tushunish bo'yicha ko'rsatkichlari qariyb 30 foizga o'sgan. O'tkazilgan tajriba shuni ko'rsatadiki, ishning nazariy qismida qo'yilgan gipoteza amaliyotda o'z tasdig'ini topdi. Oxirgi jadval o'quvchilarning olgan ballarini solishtirish imkonini berdi. Ko'rinadiki 1-tajribamizda olingan baholar so'nggi tajribada olingan baholardan farq qiladi.

O'quvchilar ushbu mashg'ulotimizda berilgan ma'lumotlarni tartibga sola oldi, matnda qo'llangan leksik, sintaktik birliklar, badiiy tasvir vositalarining vazifasini tushuna oldi; tanqid qilish va munosabat bildirishda nisbatan umumiyyroq fikrlarni bildirishdi; berilgan matnni tushuna olishdi. Topshiriqlar ularga matnni o'qib tushunishda amaliy ko'nikmalar berdi. Har bir topshiriq matnning ma'lum bir jihatiga e'tibor qaratishni talab qiladi. Matnning nafaqat mazmuniga, voqealar rivojiga nisbatan e'tiborli bo'lishga, balki matnni o'qish jarayonida o'quvchi gaplarning tuzilishiga, uning tarkibidagi gap bo'laklari yordamchi so'zlar va boshqalarning qo'llanishiga ham diqqat qaratishlari kerakligiga urg'u beradi. Bunday topshiriqlar o'qish savodxonligining oshishiga ko'maklashadi.

Ma'lumki, o'quvchilarning matnni o'qib tushunishida pedagogning roli ham muhimdir. Pedagog avvalo matn tanlashda bolaning yoshini, qiziqishlarini ham hisobga olgan holda, o'quvchiga o'rgatmoqchi bo'lgan ko'nikma haqida aniq tasavvurga ega bo'lmog'i lozim. Ya'ni o'qituvchi o'zi xohlagan natijaga erishmoq uchun aniq strategiyalar tuzib chiqmog'i va bu strategiyalar kerakli natijaga erishishda o'qituvchi bilan o'quvchining o'rtasida ko'priki vazifasini o'tashi kerak.

Ushbu kichik tadqiqotda bolaning o'qish qobiliyatiga ko'plab omillar, jumladan, boshlang'ich bilim, qobiliyat, uy muhiti, maktab tajribasi va qiziqish darajasi ta'sir qilishi mumkin. Biroq, sof o'qish qobiliyati bolaning beshta erta savodxonlik qobiliyatiga ega bo'lgan muvaffaqiyati bilan bevosita bog'liqdir; fonemik xabardorlik, alifbo prinsipi, ravonlik, so'z boyligi va tushunish. Ota-onalar va o'qituvchilar ushbu beshta asosiy ko'nikmalarni tushunish va tarbiyalash orqali muvaffaqiyatli o'qishni yaxshiroq rag'batlantirishlari mumkin. O'quvchi

yo'l qo'ygan xatoning psixolingvistik asosini tushunish mazkur kamchilikni tuzatish uchun samarador mashqlar tizimini ishlab chiqishga imkon beradi.

Ona tili ta'limida o'qib tushunish savodxonligini rivojlantirish uchun o'quvchilar matnlar bilan ishlash uchun zarur bo'lgan maxsus o'qish qobiliyatlariga ega bo'lishlari kerak. Matnni idrok etish qobiliyatini takomillashtirishning asosiy usuli bu matn tahlili. Matn bilan ishlashning ko'plab usullaridan foydalanish lozim.

Matn yuzasidan berilgan topshiriqlar o'quvchilarning aniq yoki ochiq bayon etilgan bir yoki bir nechta mustaqil bo'laklarni topish, muallifning maqsadini bilib olish, asosiy g'oyani aniqlash, munosabatlarni tushunish so'z yoki iboraning ma'nosini tushunish uchun matnning bir nechta qismlarini birlashtirish, mazmuni yoki shakli notanish bo'lishi mumkin bo'lgan uzun yoki murakkab matnlarni aniq tushunish, mustaqil fikrlay olish, xulosalar chiqarish, taqqoslash, bir yoki bir nechta matnni to'liq va batafsil tushunish, bir nechta matnlardan ma'lumotlarni birlashtirish kabi ko'nikmalari tekshiriladi.

Tajriba ishlarini tekshirish davomida shunday xulosaga kelindiki, o'quvchilarning o'qigan matnlarining tushunilishini ta'minlash o'qituvchi tomonidan beriladigan topshiriqlarning to'g'ri tanlanishi va tahlil qilinishiga, ularning natijalariga ko'ra faoliyatni yaxshilashga bog'liq. Masalan, savollarga javob berish topshirig'i o'quvchidan savolni tashkil qilayotgan so'zlarning har biriga diqqatni qaratgan holda undan so'ralgan bitta faktga aniq javob berishni talab qiladi. Shu sababli darslar davomida o'quvchilarga savolda nima so'ralayotganligi o'qituvchi tomonidan tushuntirilishi kerak. Savolning mohiyatini tushunish unga to'g'ri javob qaytarishga olib keladi.

Adabiyotlar

Azimova I. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. // Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. III an'anaviy respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi material. — Toshkent. 2019

Anderson, R. C., & Freebody, P. Vocabulary knowledge. In: J. T. Guthrie (Ed.), *Comprehension and Teaching: Research Reviews*. Newark, DE: International Reading Association. 1981.

David Pearson va Gina Cervettining "The roots of reading comprehension instruction" maqolasi, Volume 79, 2017.

Lesaux, N. K., Lipka, O., & Siegel, L. S. (2006). Investigating cognitive and linguistic abilities that influence the reading comprehension skills of children from diverse linguistic backgrounds. *Reading and Writing*, 19, 99—131

Sh. Abdurahimov. Ona tili ta'limida o'qib tushunish malakasini baholash. Toshkent-2021

Zwaan, R.A., & Singer, M. (2003). Text comprehension. In A.C. Graesser, M.A. Gernsbacher, & S.R. Goldman (Eds.), *Handbook of Discourse Processes* (pp. 83-122). Mahwah, NJ: Erlbaum.

**Development of Reading Comprehension skills in students
through different test tasks**

Normuminova Dilobar¹

Abstract

Reading comprehension is one of the basic skills that can be developed through exercises and assignments. This small study examines reading literacy from a theoretical and practical perspective. Foreign experience was studied and experiments were conducted based on it. In the experiment, it became clear that the importance of choosing a text and the assignments based on it are important in the development of students' reading literacy. The student witnessed how the linguistic knowledge he learned during the lesson helps him to read and understand the text. It was observed that if he cannot read and learn theoretical knowledge, he cannot understand the content of the text. To develop comprehension skills, pre-text tasks and various developmental tasks were given after the text. It was observed that students' comprehension skills increased every lesson. 30 high school students were selected for the research object and various test tasks were developed. Regular training was conducted with them. After analyzing the collected data, it was found that students who worked on the text through several interesting tasks significantly increased their reading comprehension skills compared to the other group. The results and conclusions of the research are covered in the article. Many factors can influence a student's reading ability, including background, ability, home environment, school experience, and interest level. Understanding the psycholinguistic basis of the error made by the student made it possible to develop an effective system of exercises to correct this deficiency.

Key words: *reading, understanding, task, text, cognitive ability, decoding.*

References

- Azimova I. The psycholinguistic basis of the development of linguistic competence in mother tongue education. // Development of global education and national methodology. Material of the 3rd traditional scientific-practical conference of the republic. - Tashkent. 2019
- Anderson, R. C., & Freebody, P. Vocabulary knowledge. In: J. T. Guthrie (Ed.), *Comprehension and Teaching: Research Reviews*. Newark, DE: International Reading Association. 1981.
- "The roots of reading comprehension instruction" by David Pearson and Gina Cervetti, Volume 79, 2017.
- Lesaux, N. K., Lipka, O., & Siegel, L. S. (2006). Investigating cognitive and linguistic abilities that influence the reading comprehension skills of children from diverse linguistic backgrounds. *Reading and Writing*, 19, 99—131
- Sh. Abdurahimov. Assessment of reading comprehension skills in mother tongue education. Tashkent-2021
- Zwaan, R. A., & Singer, M. (2003). Text comprehension. In A.C. Graesser, M.A. Gernsbacher, & S.R. Goldman (Eds.), *Handbook of Discourse Processes* (pp. 83-122). Mahwah, NJ: Erlbaum.

¹ **Normuminova Dilobar** is an intern-teacher at the Department of Mother Tongue Education of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

E-mail address: normuminovadilobar@navoiy-uni.uz

ORCID: 0009000779610707

For citation: Normuminova D. 2024, *Development of Reading Comprehension skills in students through different test tasks. Uzbekistan: language and culture*.4[2]: 62—70.

MAISHIY OBYEKTЛАRNI BILDIRUVCHI PIKTOGRAFIK YOZUVNING KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILI

Shoxida Quraqova¹

Annotatsiya

Piktogramma va belgilarning inson hayotida atrof-muhitni tushunishda, obyektlardan o'z maqsadlari uchun foydalanishda va ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda qanchalik muhim ekanligi barchamizga ayon. Bugungi kunda esa piktogrammalarning zarurati ortib bormoqda, ayniqsa, ko'p madaniyatli sohalarda, chunki ular yozishdan ko'ra tasvirlar orqali muvaffaqiyatli muloqot qilishlari mumkin. Piktogrammalarning tarixdagi o'rni va ularning yozuv bilan aloqasi yozuv paydo bo'lgan paytlarga asoslanadi. Piktogrammalar omma bilan bir zumdagi muloqot qilish qobiliyati mavjudligi tufayli umumiy gavjum joylarning, ayniqsa kasalxonalar, aeroportlar va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarining asosiy vizual tiliga aylandi.

Ushbu maqolada piktografik yozuv va jamiyatda uning aloqa vositasi sifatidagi o'rni hamda maishiy obyektlarda qo'llanilayotgan piktografik yozuvlarning kognitiv-semantik tahlili haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada piktogramma va ramzlarning ta'sirlarini, ma'nolari va o'zgaruvchanligini o'rganish, insonlar hayotida ma'lumot almashish va izohlash jarayonlarida juda foydali va samarali ekanligi haqida asosli ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: *piktogramma, aloqa vositasi, muloqot, maishiy obyekt, kognitiv-semantika.*

Kirish

“Ma'lumki, dunyodagi barcha tirik mavjudotlar o'z hayotini davom ettirish jarayonida belgilar, harakatlar va tovushlar kabi belgilardan tashkil topgan turli xil tizimlardan foydalanish holda boshqa tirik mavjudotlar bilan aloqa qiladilar” [Elden, 2009: 21].

Piktografiya (lotincha *pictus* — chizilgan, tasvirlangan va grafiya-yozaman) narsa-buyum, ish-harakatlarni shartli belgi-rasmlarda aks ettirishlardan iborat ibtidoiy yozuv turi. Piktografik yozuv, asosan, hamma narsa chizmalar bilan ifodalanadigan yozuv shakli ekanligi bilan tavsiflanadi. Ushbu chizmalar, dastlab toshlarda yoki daraxtlarda tasvirlangan, ammo keyinchalik ular loy taxtalari, hayvon terilari yoki qog'oz kabi boshqa buyumlardan foydalanilgan. Piktogrammalar toshlarga tasvirlanganida, ularga tosh san'ati deb ham ataladigan *petrogramm* nomi beriladi. Toshlarga o'yilgan holda ularni *petrogliflar* deb ham atashadi.

Piktografik yozuvning eng muhim xususiyati shundaki, u universaldir. Turli populyatsiyalar yoki jamiyatlarning tilidan qat'i nazar, chizmalarining ma'nosini tushunish oson, chunki u fonetik yoki lingvistik me'yorlarga asoslanmaydi. Bundan tashqari, piktogrammalarda tasvirlash uchun mo'ljallangan narsalar aniqdir. Tasvirlar yoki chizmalar kommunikativ maqsadga ega va ahamiyatsiz bo'lgan tafsilotlar chiqarib tashlanadi. U fonetik yozuvdan juda aniq farq qiladi, chunki piktogrammada ramzlar predmetlarni yoki g'oyalarni, fonetikada esa tovushlarni ifodalaydi. Piktogrammalar kerakli xabarni aniq bera olish sifatiga ega, bu yozuv bilan ifodalashni talab qilmaydi [Bolek-Cowgill, 2003: 10]. Chunki yozuvni to'g'ridan to'g'ri

¹ **Quraqova Shoxida Dagar qizi** — Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi.

E-pochta: shquraqova@gmail.com

ORCID ID: [0000-0001-5879-9829](https://orcid.org/0000-0001-5879-9829)

Iqtibos uchun: Quraqova Sh. 2024, Maishiy obyektlarni bildiruvchi piktografik yozuvning kognitiv-semantik tahlili. O'zbekiston: til va madaniyat. 4[2]: 71—79.

o'qish mumkin emas, balki ma'lum bir tilni bilish orqali o'qish mumkin; boshqa tomondan, hatto o'qish va yozishni biladiganlar orasida ham, ushbu tilni bilmaganlar uchun uni o'z tillarida qayta yozish kerak. Ushbu asosiy cheklovlar tufayli yozma muloqot omma bilan muloqot qilishda ustuvor tanlov bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun, reklama kabi katta umid va harajatlarga ega bo'lgan aloqa tadqiqotlarida yozish (matn) o'rnatishga harakat qilinayotgan aloqa tarafdori bo'lib, xabarni olib boruvchi voqea harakatlanuvchi (video) yoki harakatsiz (foto-illyustratsiya) tasvirlar bilan aytiladi. Piktogrammada aloqa xabarini olib boradigan tasvirning o'zi piktogrammadir. Uning tuzilishi, nutq tillaridan mustaqil ravishda, u olib boradigan xabarni u bilan muloqot qiladigan har bir kishi tomonidan qabul qilinishini ta'minlaydi.

Piktogrammalar omma bilan bir zumda muloqot qilish qobiliyati mavjudligi tufayli umumiy gavjum joylarning, ayniqsa, kasalxonalar, aeroportlar va maishiy xizmat ko'rsatish shahobchalarining asosiy vizual tiliga aylandi. Piktografik tilning funkcionalligi va ko'p qirraliligi sababli nafaqat xalqaro ahamiyatga ega joylarni loyihalashda qo'llaniladi, balki bugungi kunda axborot uzatishning boshqa tillararo darajalari ham muhim: global tarmoq internet, mobil telefonlar piktogrammali, monitorlar, printerlar va boshqa kompyuter uskunalari, turli paketlardagi piktogrammalar, teglar yoki jurnallar. Belgilar shriftlaridan faol foydalanib kelinayotganligi uchun ham bu yozuvga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda.

Piktografik yozuv obyektlarni tasvirlash uchun grafik belgilar va simvol tizimlari qo'llab yozish uchun ham ishlatiladi. Bu tizim obyektlarni tasvirlash uchun resurslarni minimal o'z ichiga oladi va boshqa tushunchalarga ega bo'lmagan insonlar orasida kommunikatsiya o'rniga foydalanish uchun juda mos. Piktogrammalar muammoli masalalar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan global yoki alohida maydonlarga xabar yetkazish uchun ham foydalaniladi.

Kognitiv-semantik tahlil esa bu piktografik yozuvning ma'nolari va ulardagi tushunchalarni o'rganishga qaratilgan tadqiqot va tahlil uslubidir. Bu tahlilning asosiy maqsadi, biror bir piktogramma yoki piktografika dastlabki yozuvdagi belgilarning insonlarning o'zaro aloqalarini tasvirlashida o'z vazifasini bajarishi va ularning ma'noni o'rganishga yordam berishidir.

Kognitiv-semantik tahlilning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

Ko'rsatkich belgilar: Piktogrammalar va boshqa simvollar o'zgartirilgan holatlarini ko'rsatadigan belgilarni o'z ichiga oladi. Ushbu belgilar ma'nolarni ta'kidlash, aniq vaqtli voqelikni ifodalash va tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlarni yashirish kabi vazifalarni bajarishi mumkin.

Semantik belgilash: Piktogrammalar yoki piktografik yozuvning ma'noni ta'kidlash uchun asosiy belgilash jarayonlaridan biri ham semantik belgilashdir. Ushbu belgilash, belgilarning boshqa obyektlar bilan bog'liqlikni yashirish va ularning ma'nolarini ko'rsatishga yordam beradi.

Ma'no kategoriyalari: Kognitiv-semantik tahlil, asosan, piktogrammalarini ma'no kategoriyalariga bo'lishni o'rganadi. Bu obyektlar, masalan, hayvonlar, o'simliklar, mehmonlar, yoqimli moddalar, shartnoma belgilari, instruksiyalar va boshqalar kabi kategoriyalardan iborat bo'lishi mumkin.

Kognitiv modellash: Kognitiv-semantik tahlil, insonning o'zgartirilgan holatlarga, obyektlarga yoki modellarga bo'lgan reaksiyalarini va ulardan kelib chiqadigan tushunchalar va asosiy qabul qilishlarni o'rganishga asoslangan model va tizimlarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Bu piktogramma yoki piktografik yozuvdagi belgilar va simvollar bilan bog'liq tushunchalarni yaxshilashga imkon beradi.

Kognitiv-semantik tahlil piktogrammalarining obyektlarni tasvirlashda, ma'nolarni ko'rsatishda va o'zaro aloqalarni ta'riflashda o'z vazifasini o'rganadi. Ushbu tahlil, asosan, kognitiv psixologiyadan, semantika va lingvistikadan foydalanadi. Ushbu tahlilning amaliyo-

ti, belgilar va simvollar orqali o'zgartirilgan holatlarni tushunish va ma'noni bilishga yordam beradi. Bu piktogrammalar orqali o'zgartirilgan holatlarni tushunish, o'zgartirilgan holatlardan kelib chiqadigan ma'noni boshqarish, obyektlar va tushunchalar orasidagi bog'lanishlarni tushunish kabi ko'rsatkich vazifalarni bajarish uchun foydalaniladi. Bundan tashqari, kognitiv-semantik tahlil piktogrammalarining eng sodda va oqilona tushunchalar bilan birgalikda yetarli, to'g'ri ko'rsatilishi va tushunchalarning obyektlar hamda tushunchalar orasidagi aloqalarini o'rganishga yordam beradi.

Asosiy qism

1-rasm.



Dastlab tasvir odamlarga fiziologik yoki psixologik ta'sir ko'rsatishi uchun odamlar birinchi navbatda bu belgini ko'rishlari kerak. Belgini ko'rgandan so'ng ko'zda jismonan boshlangan vizual hodisa nervlar orqali va u yerdagi hujayralarni rag'batlantirish natijasida fiziologik ravishda miyaga uzatiladi; psixologik ta'sirlarning paydo bo'lishi bilan insonning xatti-harakati ham paydo bo'la boshlaydi. Natijada insonning fikrlash jarayonlariga, ma'noni tushuntirishga va tasvir etishga o'rnatilgan kognitiv protsesslarga ta'sir qiladi. Bu jarayonning yuzaga

kelishi uchun esa tasvirdagi leksemalarning semantik ma'nolarini bilishimiz kerak bo'ladi.

Belgida ifodalangan leksemalarning "O'zbek tili izohli lug'ati"dagi ma'nolariga to'xtalib o'tamiz:

Bosh — tananing bo'yindan yuqorigi, oldingi (odamda, hayvonlarda) qismi; kalla. Bosh kosasi (anat.). Boshmiya. Bosh kiyimlar magazini. Do'st boshga boqar, Dushman — oyoqqa. Maqol. O'zbek oyim boshi bilan keliniga rizolik bildirib, "barakalla!" deb qo'ydi. (A. Qodiriy, "O'tgan kunlar").

— Badanim o't bo'lib yondi, boshim og'rib, ko'zlarim tindi, — dedi Hoji xola. (M. Ismoilov, "Farg'onada tong otguncha"). — U shoshib, ot boshini chap tarafga burdi. (S. Ahmad, "Ufq").

Soch — 1. Odamning bosh terisida o'sadigan qil tolalar qoplamasi va ularning har biri. Siyrak soch. Quyuq soch. Boshida bitta ham soch yo'q. Soch oldirmoq. Silkinish orqasida uning — [qizning] yuzini to'zg'igan soch tolalari o'rab olib, jonsiz bir suratga kirgizdi. (A. Qodiriy, "O'tgan kunlar"). 2. Biror tarzda o'stirilgan va tartibga solingan shunday tolalar majmui. O'rtadan farq ochib qo'yilgan soch. Kalta qilib qirqilgan soch. O'rilgan soch. U — [Kumush] bu kechasi ko'rgan ba'zi tushlarini Otabekning bu kun kelishiga yo'ydi-da, ertalabdan turib, sochlarini yechdi. (A. Qodiriy, "O'tgan kunlar"). 3. Ko'chma Tola, nur singari narsalar haqida. Qorli tog'lar orqasidan Atlas sochin tarab quyosh, Goh mo'ralab o'ynatar qosh, Xanda sochar dudog'idan.

Qaychi — yupqa narsalarni, mato, qog'oz va shu kabilarni kesish uchun ishlatiladigan, o'rta yeridan bir-biriga vint bilan biriktirilgan ikki tig'dan iborat dastali asbob. ♦ O'tkir qaychi. Tok qaychi. Kampirning qo'lidagi konvertni oldi-da, kichkinagina qaychisi bilan qirg'og'ini kesdi. (I. Rahim, "Chin muhabbat"). ♦ Qaychi bilan chimdib qirqilgan mo'ylovi tagiga yashiringan lablari pichirlar. (S. Anorboyev, "Oqsoy").

Taroq — 1. Soch, soqol tarash uchun ishlatiladigan, yog'och, metall, suyak va sh.k. dan yasalgan tishli buyum. ♦ Shamshod taroq. Temir taroq. Mayda tishli taroq. Tal'at shimining cho'n-

tagidan taroq olib, sochini tekislarkan, tag'in jilmaydi. (O'. Hoshimov, "Qalbingga quloq sol").

2. Matoga bosiladigan shu nusxadagi naqsh, taram-taram gul. ♦ Jonoqi olmalarning ikki betidagi naqsh Marg'ilon atlasining mayda taroqlarini eslatadi. (S.Akbaryi, "Shodlik davomi").

Bu binodagi tasvirda ifodalangan piktogrammalar ma'no jihatdan bir biriga bog'liqdir. Odamning bosh terisida o'sadigan qil tolalar qoplamasini, ya'ni sochini yoki soqol va mo'ylovini taroq bilan tekis taragan holda qaychi yordamida kesish harakati ifodalangan. Bu leksemalarning semantik ma'nolarini bilish piktogrammalarni o'qish va tushuntirishni osonlashtiradi hamda ma'no berishni yanada samarali qilishga yordam beradi.

Biz bu maishiy obektdagi piktografik tasvirga qaraganimizda dastlab insonning bosh qismi va sochi ko'zga tashlanadi. Bu rasmni ko'rganimizda birinchi o'rinda e'tiborimizni insonning sochiga qaratamiz. Shundan so'ng uning yonidagi qo'shimcha obyektlar, ya'ni qaychi va taroq bu tasvirni tushunishimizga qo'shimcha vosita bo'lib xizmat qiladi. So'ngra, biz bu tasvirlarni ongimizda birlashtirib, belgilarni o'qish va tushunish jarayonlarini o'rganishga harakat qilamiz. Natijada bu obyekt go'zallik saloni yoki erkaklar sartaroshxonasi ekanligini anglaymiz.

2-rasm



Bu maishiy obyekt stomatologiya bo'lib, uni nomlashda qo'shimcha tasvirlardan, ya'ni piktogrammalardan foydalanilgan. Bu piktogrammalarni dastlab semantik, so'ngra kognitiv tahlil qilamiz.

Belgida ifodalangan leksemalarning "O'zbek tili izohli lug'ati"dagi ma'nolariga to'xtalib o'tamiz:

Tish — 1. Ovqat yeyish, tishlash, chaynash, tutib turish uchun xizmat qiladigan a'zo. Kurak tish. Oziq tish. Fil tishi. Tilla tish. Tish cho'tkasi. Tish pastasi. Tish dok-

tori. Tish tozalamoq. Tish qo'ymoq. Tishni sug'urmoq (olmoq). Tish yormoq. 1) tishi ko'rina boshlamoq, chiqqa boshlamoq (yosh bola, go'dak haqida); 2) gap bilan bildirmoq, og'iz ochmoq; aytmoq. Bu to'g'rida qo'shnimizga tish yorgan edim, u bitta-yarimtasining tomog'ini moylamabsiz-da, — dedi. ("Mushtum"). 2. Qurol, asbob, mashina qismlari va sh.k. ning (tishga o'xshash) o'tkir, uchli qismi. Arraning tishi. Qirg'ichning tishi. Taroqning tishlari. Omochning tishi.

1-rasmda tasvirlangan tish piktogrammasi o'zining 1-semantik ma'nosi bilan, ya'ni tish doktori, tish tozalamoq, tish qo'ymoq, tishni sug'urmoq (olmoq) kabi ishlarni bajaradigan obyekt ekanligini ifodalab turibdi. Kognitiv tomondan tahlil qilganimizda inson tishning tashqi tasviriy xususiyatlari shakli va oq rangini ko'rib obyekt va tish o'rtasidagi bog'liqlikni tushunib oladi.

*O'rindi*q — 1. O'tirish uchun mo'ljallangan maxsus moslama (mas., stul, kreslo, divan va sh. k.). O'rindiqa o'tirgan qiz sakrab yerga tushdi. (M. Nazarov, "Sirli xat"). Mehrixon opa ingraganicha, "Moskvich"ning orqa o'rindig'ida yotardi. (N. Qobil, "Bemorlar").

— Xizmat, — dedi Karimiy darvoza og'zidagi taxta o'rindiqa puflab va Bashirjonni o'tirishga taklif etdi. (N. Aminov, "Suvarak").

2. Shunday narsalarning orqa qo'yib o'tiriladigan joyi, qismi. Yodgorning ko'z o'ngi qorong'ilashdi-yu, yiqilib qolmaslik uchun, stul o'rindig'ini changallab oldi. (O'. Hoshimov, "Qalbingga quloq sol").

Odam — [a. — Odamato; inson] 1. Fikrlash, so'zlash va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan, shu tufayli boshqa hamma maxluqotdan ustun turuvchi jonli zot; kishi, inson. Ibtii-

doiy odam. 2. Kishilik jamiyatining ayrim bir a'zosi, shaxs. Yaxshi odam. Halol odam. Asl odam. Odam borki, odamlarning naqshidir, odam borki, hayvon undan yaxshidir. (Maqol). 3. Jamoa xo'jaligi, oila a'zolarining har biri; jon. Odam boshiga besh so'mdan. Xarajat va daromadlarni odamga qarab taqsimlamoq.

Lampa I — [fr. lampe < yun. lampos — mash'ala; yoritqich; chiroq] Yoritish uchun ishlatiladigan, yonayotgan (pilikli) qismini o'ziga xos shakldagi shisha qoplab turadigan asbob; chiroq. Elektr lampa. Ra'no ayvon labida qo'lini kerosinga bulg'ab, lampa yoqish harakatida edi. (H. Nazir, "So'nmas chaqmoqlar"). O'rtadagi taxta polli ayvonga osma lampa osib qo'yilibdi. (S. Anorboev, "Oqsoy").

Ammo 2-rasmda ko'rsatilgan obyektida tish tasviri bilan birgalikda odamning o'rindiqda o'tirgan holda unga lampaning qaratilgan tasvirini ham ko'rishimiz mumkin. Bu piktogramma ham obyektning vazifasini to'liq ochib berish uchun xizmat qilgan. Ya'ni piktogrammada ifodalangan o'rindiq, odam va lampa leksemalari semantik ma'no jihatdan bir-biriga bog'liq hisoblanadi. Kognitiv jihatdan tahlil qilinganda inson bir tomonda ko'rsatilgan tish tasvirini ko'rib bu yerda tish doktiri borligini va ikkinchi tomonda ifodalangan piktogrammani ko'rib esa tishning qay holatda davolanishi haqidagi tasavvurni ongiga keltirib bu jarayonni anglab oladi.

3-rasm.



Bu maishiy obyekt insonlar ovqatlanishi uchun mo'ljallangan oshxonadir. Bu obyektini nomlashda ham piktogrammalaridan foydalanilgan. 1-rasmda maishiy obyektga "oilaviy" deb nom qo'yilgan bo'lib, uning yonidan yurak tasviri ichiga ota-ona va bola tasviri joylangan. Bu piktogrammalarni semantik va kognitiv tahlil qilamiz.

Yurak — 1. Odam va hayvonlar ko'krak qafasi ichida joylashgan, ularning qon aylanish sistemasidagi

muskul qopchiqqa o'xshash markaziy a'zo. Sog'lom yurak. Yurakning urishi. Yurak kasalligi. Yurak klapani. ♦ Yurak bir-biri bilan tutashmaydigan ikki qismdan iborat bo'lib, bu qismlar bir-biridan yaxlit to'siq bilan ajralgan ("Anatomiya").

2. Kishining his-sezgisi, ruhi, kechinmalarining ramziy markazi, ular saqlanadigan joy; qalb, dil. ♦ Paxtazorda bo'lib o'tgan janjal Oyqiz yuragida chuqur iz qoldirdi. (Sh. Rashidov, "Bo'rondan kuchli").

3. Qo'rqmaslik, jasorat va sh.k. ramzi. ♦ Obbo siz-e, hali shu yurak bilan yuribsizmi ("Mushtum").

Yurak so'zining lug'atdagi 2-ko'chma ma'nosi bu obyektning piktogrammasi uchun asos bo'lmoqda. Insonning his-tuyg'ulari, ruhiy kechinmalari, albatta, uning yuragida joylashadi. Ya'ni insonning oilasi, ota-onasi, farzandlari, shuningdek, yaqin do'st-birodarlariga bo'lgan his-tuyg'ulari, mehr-muhabbati uning yuragida saqlanadi. Xalq orasida "yuragimga yaqin kishilar" iborasi ham bejizga paydo bo'lmagan. Bu piktogramma maishiy obyekt nomi bilan o'zoro semantik jihatdan bog'liqdir.

Kognitiv jihatdan tahlil qilinganda maishiy obyektning nomi ham piktogramma ham qizil rangda berilgani insonning e'tiborini tortadi. Bu xususiyat esa belgini tushunishga xizmat qiladi. Dastlab qizil rangni so'ngra yurak va uning ichida ifodalangan ota-ona va farzand tasvirini ko'rgan inson bu yerda yuragiga yaqin kishilar, ya'ni oila a'zolari bilan kelib, ovqatlanib ketadigan joyni tushunadi.

2-rasmdagi maishiy obyektida ham piktogramma ishlatilgan. Bu piktogramma ham obyektning xususiyatini ochib berishga xizmat qilgan. Birinchi o'rinda obyektning nomiga e'tibor bersak, *fayz* so'zining izohli lug'atdagi ma'nosiga e'tibor beramiz.

Fayz — [a. — to'kilish, yoyilish; mo'l-ko'lchilik; saxovat, muruvvat] 1. O'ziga jalb qilishlik, quvonch baxsh etuvchi jozibadorlik. Suhbatga fayz kirdi. Bazmning fayzi ketdi. Orombaxsh "Cho'li iroq" polizning sehrli oqshomiga yana ham fayz kiritdi. (N. Fozilov, "Diydor"). 2. Baraka, mo'llik. Fayz yog'ildi O'zbekistonga, Bu dilrabo bog'-u bo'stonga. (X. Rasul. "Baxt nash'asi").

Tarelka — 1. Cheti bir oz ko'tarilgan, tubi keng, yassi oshxona idishi; likopcha. Chinni tarelka. Bir tarelka holvaytar.

2. Bir-biriga uriluvchi ikkita metall barkash shaklidagi urma cholg'u asbobi.

3. Afsona tarzidagi, tarelkaga o'xshash, osmonda uchib yuruvchi noma'lum jism.

◆ Uchar tarelkalar. ◆ Yulduz desa, yulduz emas, Yo yo'ldoshmi bir daydi. Har holda, u shovshuv solgan Tarelkaga o'xshaydi. (A. Oripov, "Yillar armoni").

Sanchiqi — 1. Dengiz hayvonlarini ov qilishda qo'llanadigan maxsus asbob; nayza. Pirnafas aka qayiq, to'r, cho'lpi va sanchki sotib oldi. (J. Sharipov, "Xorazm").

2. Temirjon bir ko'lida kitob, ikkinchisi bilan sanchqida chuchvara ilib yeya boshladi. (J. Abdullaxonov, "Oriyat").

Qoshiq — dasta va shu dastaning bir uchidagi kichkina tovoqchadan ibrat, suyuq, yarim suyuq yoki to'kiluvchi (guruch, mosh kabi) taom suzishga, yeyishga va aralashtirishga mo'ljallangan anjomdir.

Fayz so'ziga lug'atda berilgan izohlar bu leksemaning maishiy obyektga semantik jihatdan mos kelganligini ko'rsatib turibdi. Ya'ni bu leksema oshxonamiz fayzli va taomlarimiz mo'l-ko'l, barakali ma'nolarini tashimoqda. Bu mo'l-ko'l taomlar, albatta, mijozga oshxona



4-rasm. Next savdo majmuasidagi eskalatordan foydalanish uchun qo'yilgan piktogramma.

idishlari, ya'ni likobchalarda beriladi va qoshiq, sanchqilarda tanovvul qilinadi. Bundan ko'rinib turibdiki, tanlangan piktogramma obyekt uchun ham uning nomi uchun ham mos va semantik jihatdan bo'liqdir.



Kognitiv jihatdan tahlil qilganimizda obyektidagi piktogramma, ya'ni likopcha, qoshiq va sanchiqini ko'rganimizda ongimizda ovqat tanavvul qiladigan joy gavdalanadi.

Bu piktogramma maishiy obyektida joylashgan eskalatordan to'g'ri foydala-

nish uchun mo'ljallangan. Bu leksemaning ma'nosini lug'atdan ko'ramiz:

Eskalator (lot. - zinapoya) — uzluksiz harakatlanuvchi qiya zinapoyalardan iborat polotnoli ko'tarish tashish qurilmasi; konveyer. Odamlar va yuklarni pastdan yuqoriga va, aksincha, eltish hamda tashish uchun xizmat qiladi. Eskalator metropoliten stansiyalari (tunnel E.) va ko'p qavatli jamoat binolari: magazin, teatr va vokzallarda (qavatlararo E.) ishlatiladi.

Bu so'zning izohida piktogramma aks etgan barcha belgilarning xususiyatlari ifodalan-gan. Ya'ni eskalatordan odamlar va yuklarni pastki qavatdan yuqori qavatga chiqarish yoki



yuqoridan pastki qavatga olib tushish vazifasini bajaradi. Piktogrammada aks etgan eskalator, odam va uning bolasi, aravacha hamda kiyim leksemalari semantik jihatdan o'zaro bir-biriga bog'liqdir.

Kognitiv jihatdan tahlil qilinganda birinchi o'rinda bu piktogrammaning eskalator yonida turishi ma'noni tushunishga dastlabki asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan ko'rishimiz mumkinki, piktogrammaning ma'nosini anglashda uning o'rni ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunda tasvirning tuzilishi, shakli va ularning bir biriga semantik jihatdan bog'liqligi belgilarni o'qish hamda tushunishga yordam beradi. Masalan, 1-piktogrammada eskalator va unda harakatlanayotgan odam aks etgan. Bu tasvirni ko'rgan inson ongida eskalatorning bir tomoniga minish va uni ushlagan holatda harakatlanish kerakligi haqidagi axborot paydo bo'ladi. 2-tasvirda eskalatorida bir vaqtning o'zida bola va aravacha bilan harakatlanish mumkin emasligi haqidagi axborot anglashilayapti. 3-tasvirda esa odam bir qo'lida bolasini, ikkinchi qo'lida eskalatorning bir yonida turib undan ushlagan holda foydalanishi kerakligi aks etgan. 4-tasvirda odam eskalatorida harakatlanayotganda yonbosh holda yoki o'tirgan holda foydalanishi mumkin emasligi haqidagi axborotni angelaydi. 5-piktogrammada odam bolasining qo'lidan tutgan holda harakatlanishi va 6-tasvirda eskalatorga yugurib minmaslik holati aks ettirilgan. 7-piktogrammada esa eskalatoridan foydalanganingizda ehtiyot choralari ko'ring kabi ma'lumotlarni anglab olamiz.

Xulosa

XX-XXI asrda piktogrammalarning qo'llanilish doirasi jamiyatning axborotlashtirish va globallashtirish jarayonlari bilan bog'liq. Zamonaviy piktogrammalarni qo'llashning asosiy yo'nalishlarini aniqlab (navigatsiya piktogrammasi, sport piktografiyasi, ma'lumotnoma axborot, reklama-axborot, yoshlar subkulturasini piktogrammasi...) ularni tizimlashtirish zamonaviy tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biridir. Yuqoridagi ma'lumotlardan ham ko'rishimiz mumkinki, maishiy obyektlarni nomlash jarayonida ham piktogrammalar faol qo'llanilib kelinmoqda va obyekt nomining tushunilishiga, shuningdek, dizayniga qo'shimcha vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Bilamizki, piktogrammalar bugungi dunyoda tezlik, xilma-xillik va cheklovlar tufayli yuzaga keladigan aloqa bo'shliqlarini bartaraf etish qudratiga ega. Buning uchun har bir piktogramma dizaynini to'g'ri bajarish uchun juda ehtiyot bo'lish kerak. Amalga oshirish jarayonida maqsadli auditoriyani hech qachon orqaga qaytarmaslik va ularning jarayonda faol ishtiroki ta'minlanishi kerak. Shuningdek, piktogrammalarga tegishli, tushunarli elementni umumiy prinsip deb aytish mumkin emas. "Piktogramma maqsadli auditoriya kontekstida tezda tushunilishi kerak" qoidasini to'liq qo'llash mumkin emas. Xuddi ramzlardagi konsensus singari, piktogrammalarning belgilar sifatida tasniflangan qismi foydalanuvchilar tomonidan oldindan ma'lum bo'lishi kerak. Ushbu elementni hisobga olmagan holda yaratilgan obyekt dizaynlari tushunarli bo'lmaydi va vizual idrok etishda yozma muloqotdan orqada qolib to'siqlar yaratishi mumkin.

Shuningdek, ta'lim tizimida ham dars jarayonini noan'anaviy tarzda tashkil etishda zamonaviy va ommabop piktogrammalardan foydalanish mumkin. Ular bolalarni tez fikrlashga, topqirlikka va ijodkorlikka o'rgatadi. Shu bilan birgalikda, piktogrammalardan dars jarayonida foydalanish o'quvchida ijodiylik, mustaqil fikrlash malakalarini rivojlantirib, ijodiy fikrlarini nutq vaziyatiga mos hollarda to'g'ri va aniq ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Ta'lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishi uchun o'qituvchi qanchalik qiziqish va xohish bilan ta'lim berishga harakat qilsa, o'quvchi ham xuddi shunday ishtiyoq bilan bilim olishga kirishadi

Adabiyotlar

- Abdullah Rayan and Hubner. Pictograms, Icons and Signs. Thames Hudson, 2006. — 138 b.
- Ambrose G., Harris P., Görsel Grafik Tasarım Sözlüğü, İstanbul. Literatür Yayınları, 2010.
- Elden, M. (2009), Reklamcılık İletişim Dizisi 1: Reklam ve Reklamcılık, İstanbul: Say Yayınları.
- Evans, V., Bergen, B., & Zinken J. (2007). The cognitive linguistics reader. London : Equinox Publishing.
- Cowgill J., Bolek J., "Symbol Usage In Health Care Settings for People with Limited English Proficiency", Yyy. SEG Press, 2003
- Quraqova Sh. Reflection of semiotics in Pictographic Signs. Open Academia: Journal of Scholarly Research. Volume 1, Issue 3, June, 2023.
- Cooper, R.; Wayfinding For Healthcare, AHA Press, 2010.
- Quraqova Sh. Semiotik maydondagi piktogramma va ramzlar. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(5), may, 2023.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
- Yusupov K. O'zbek adabiy tilining taraqqiyoti va yozuv masalasi. O'zbekiston, —Toshkent. 1979

Cognitive-semantic analysis of pictograms representing objects

Quraqova Shoxida¹

Abstract

It becomes clear how important picrograms and signs are in human life in understanding the environment, using objects for their own purposes, and organizing social relations.

The need for icons today is undoubtedly important, especially in multicultural fields, because they can communicate more successfully through images than through writing. The place of pictographs in history and their relation to writing is based on the time when writing appeared. Pictograms have become the primary visual language of public spaces, especially hospitals, airports, and public service facilities, due to their ability to communicate instantly with the public.

This article discusses pictographic writing and its role as a means of communication

¹ **Quraqova Shoxida Dagar qizi** - Teacher of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

E-pochta: shquraqova@gmail.com

ORCID ID: <https://orcid.org/my-orcid?orcid=0000-0001-5879-9829>

For citation: Quraqova Sh. 2024, Cognitive-semantic analysis of pictograms representing objects. Uzbekistan: language and culture. 4[2]: 71—79.

in society, as well as cognitive-semantic analysis of pictographic writing used in household objects. Also, the article provides reasonable information that studying the effects, meanings and variability of icons and symbols is very useful and effective in the processes of information exchange and interpretation in people's lives.

Key words: *icon, communication tool, communication, household object, cognitive-semantics.*

References

- Abdullah Rayan and Hubner. Pictograms, Icons and Signs. Thames Hudson, 2006. — 138 b.
- Ambrose G., Harris P., Görsel Grafik Tasarım Sözlüğü, İstanbul. Literatür Yayınları, 2010.
- Elden, M. (2009), Reklamcılık İletişim Dizisi 1: Reklam ve Reklamcılık, İstanbul: Say Yayınları.
- Evans, V., Bergen, B., & Zinken J. (2007). The cognitive linguistics reader. London : Equinox Publishing.
- Cowgill J., Bolek J., "Symbol Usage In Health Care Settings for People with Limited English Proficiency", Yyy. SEGD Press, 2003
- Quraqova Sh. Reflection of semiotics in Pictographic Signs. Open Academia: Journal of Scholarly Research. Volume 1, Issue 3, June, 2023.
- Cooper, R.; Wayfinding For Healthcare, AHA Press, 2010.
- Quraqova Sh. Semiotik maydondagi piktogramma va ramzlar. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(5), may, 2023.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
- Yusupov K. O'zbek adabiy tilining taraqqiyoti va yozuv masalasi. O'zbekiston, —Toshkent. 1979

O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA REALIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI

Javhar Tursunova¹

Annotatsiya

O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish boshqa xorijiy tillar kabi keng tarqalmagan bo'lsa-da, tilimizni o'rganuvchilar soni yil sayin ortib bormoqda. Bu metodistlar oldiga qator vazifalarni qo'yadi. Avvalo, tilimizni o'qitishni dunyo tan olgan metodikalardan foydalanib amalga oshirish muhim hisoblanadi. Bunday metodikalardan biri xorijiy til sifatida o'qitishda milliy realiyalar bilan ishlash metodikasidir. Milliy o'ziga xos so'zlar deb ham nomlanuvchi bunday so'zlar til o'rganuvchilarga o'sha tilning egasi bo'lgan xalqning turmushi, tarixi, madaniyati, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayoti haqida batafsil tushuncha hosil qilishida ko'mak beradi. Shuning uchun xorijliklarga o'zbek tilini milliy realiyalardan foydalangan holda o'qitish metodikasi juda ham dolzarb sanaladi.

Kalit so'zlar: *realiya, o'zbek tili, xorijiy til, autentik matn, lingvomamlakatshunoslik, lingvokulturologiya.*

Kirish

Dunyoda ona tilimizga bo'lgan e'tiborning yildan yilga ortib borishi uning mavqeyini na faqat O'zbekiston, balki jahonda ham oshirishdek katta mas'uliyatni yukladi. Shuning uchun ham yurtimizda o'qiyotgan va o'qish istagini bildirayotgan o'zga tilli kishilarga tilimizni madaniyatimiz bilan uyg'unlashtirgan holda o'rgatish o'zbek tilida og'zaki va yozma muloqot qilish kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Zero, har bir millatning tili uning madaniyatida o'z aksini topadi. Shu nuqtayi nazardan, tildagi asrdan asr-ga saqlanib kelayotgan milliy realiyalarni tasniflash va tahlil qilish ahamiyatlidir.

Asosiy qism

Realiyalar tilshunoslikka yangi yo'nalishi sifatida kirib kelgan, lingvokulturologiyaning muhim tushunchalari sirasiga kiradi va ular muqobilsiz leksika doirasida o'rganiladi. Muqobilsiz leksika tushunchasini L.S.Barxudarov bir tildagi leksik birliklarning boshqa tilda to'liq yoki qisman muqobilga ega bo'lmasligidir, deya ta'riflagan [Бархударов Л.С. 1975: 94]. Shuningdek, olim realiyalarga muqobilsiz leksikaning bir turi sifatida qarab, ularning boshqa tillarda so'zlashuvchi xalqlarning hayotida bo'lmagan predmet, tushuncha va holatlarni ifodalovchi xususiyatiga e'tibor qaratadi. Tilda narsa, predmet nomlaridan tashqari, holatni ham ifodalab keluvchi realiyalar ham uchraydi. Bunday realiyalarni S.Florin va S.Vlaxovlar situativ realiyalar deya ataydilar [Sadiqov Z. 2021: 21]. Ma'lum bir xalqning o'zaro muloqot asnosida qo'llaniladigan bir holatning nomi ayni o'zidek emas, boshqacha yo'sinda aytilishi bu tilni o'rganayotganlar uchun bir qadar chalkashliklarga olib kelishi aniq. Masalan,

Qulog'im rosa qiziyapti-ya, nima qilgan ekanmanki, kimningdir og'ziga tushibman.

Bu holatni eshitgan yoki o'qigan o'zga til vakili qulog'i qizimoq holatidan kimdir uni gapirayotgani haqida tushunchani olishi juda qiyin bo'lsa kerak.

¹ **Tursunova Javhar Bakir qizi** — Abdulla Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy tadqiqot instituti doktoranti.

E-mail: javhartursunova508@gmail.com

Iqtibos uchun: Tursunova, J. 2024. "O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda realiyalardan foydalanishning samarali usullari". O'zbekiston: til va madaniyat. 4[2]: 80—85.

Dasturxon boshida ko'p gapirmasdan, ovqatingi jimgina yeb ol.

Bu gap ham xorijiy til vakilida taajjub uyg'otishi aniq, chunki o'zbeklarda "dasturxonning boshi" tushunchasi, Yevropa xalqlarining odatlaridan birmuncha farqlanadi.

Ayrim holatlarda realiyalarning ba'zan noverbal tarzda, ya'ni turli imo-ishoralar orqali ham ifodalanishini kuzatish mumkin. Shunday noverbal holatlar borki, turli xil madaniyatlarda bir-biriga zid bo'lgan ma'nolarni anglatadi. Masalan, o'zbeklarda bosh barmog'ini ko'tarish biror fikrni ma'qullash ma'nosida kelsa, yunonlarda, ya'ni Gretsiyada, jim bo'lishni talab qilishni anglatadi.

Fransiyada an'anaviy "ok" belgisi qadrsiz odamni anglatga, Yaponiyada esa bu pul ma'nosini anglatadi.

Har bir xalqning o'ziga xos odatlari va turmush tarsi xususiyatlari borki, ularning tilini o'rganayotganda albatta shu xalqning madaniyati bilan ham tanishishni taqozo etadi.

Tilda o'z aksini topgan milliy realiyalarni lingvomamlakatshunoslik deb ataluvchi fan o'rganadi. Realiza (lotincha) "real" — "haqiqiy narsalar" ma'nosida borliqda mavjud narsalarni ifodalaydi. Realizalarni tadqiq etishga XX asrning 50-yillaridan e'tibor qaratila boshladi. O'zbek tilshunosligida realizalar asosan lingvokulturologik jihatidan o'rganilgan va bu borada qator tadqiqotlar o'tkazilgan. Jumladan, D.Agzamova, Z.Xolmonova, G.Asilova, Z.Sodiqovlar realizalarni turli yondashuvlar asosida tahlilga tortganlar. Lekin o'zbek tilini o'qitish metodikasida lingvomamlakatshunoslik kompetensiyasini mustahkamlovchi omil sifatida realizalar hali o'rganish obyekti qilib olinmagan.

Jahon tilshunosligida qilingan tadqiqotlar natijasida shuni anglash mumkinki, realizalarga tarjimashunoslik, lingvomamlakatshunoslik nuqtayi nazarlaridan yondashuvlar mavjud. 1941-yilda Andrey Fyodorov realizat tushunchasini dastlab madaniyatga xos narsa va hodisa sifatida rus tarjimashunosligiga kiritdi va ularni "realiza so'zlar" deb atadi. Uning fikricha, realizalar ijtimoiy hayot va moddiy turmush tarzini ifodalovchi, boshqa xalqlar turmushi va tafakkurida mavjud bo'lmagan so'zlardir [Фёдоров А.В. 1983: 160]. Realizalar boshqa tildagi autentik matnlarni tushunishda muhim rol o'ynaydigan madaniy birlik hisoblanadi. Buning boisi shuki, til o'rganish jarayonida shu tilga xos bo'lgan milliy, madaniy, siyosiy va xalq og'zaki ijodiga tegishli so'zlar zahirini anglash lingvomamlakatshunoslik kompetensiyasini mustahkamlaydi.

Realizalarning ba'zilari lisoniy hodisa sifatida jamiyatning o'zgarishi bilan istorizm ko'rinishidagi realizalarga aylanib, ularning o'rnini neologizm realizalar egallashi mumkin. Neologizm realizalar ko'proq yoshlar o'rtasida keng yoyiladi, lekin bunday realizalar tez orada unutilish ehtimoli katta.

A.Shveytser realizalarni boshqa til va madaniyat tashuvchilari bilim fondidan tashqaridagi, ya'ni ular uchun yot tushunchalar sanalishini ta'kidlaydi [Швейцер А.Д. 1988: 153].

Realizalar bir nechta guruhga ajratiladi:

1. Geografik tushunchalarni ifodalovchi realizalar (*afg'on shamoli va b.*).
2. Etnografik tushunchalarni ifodalovchi realizalar (*atlas, palov, beshik va b.*).
3. Mehnat faoliyatini ifodalovchi realizalar (*etikdo'z, kashtado'z, kulol, zargar, obi mo'yqalam va b.*).
4. San'at va madaniyatga oid realizalar (*dutor, nay, karnay, chanqovuz va b.*).
5. Etnik obyektlarni ifodalovchi realizalar (*qalmoqlik, qo'ng'iroq va b.*).
6. O'lchov va pul birliklarini ifodalovchi realizalar (*tiyin, chaqa va b.*).
7. Ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalovchi realizalar (*daha, ayvon, xon va b.*).
8. Harbiy unvonlarni ifodalovchi realizalar (*bosh qo'mondon, sardor va b.*).

Bunday guruhlash o'zga til vakillari uchun tilni o'rganish jarayonida birmuncha qulayliklar yaratadi. Ularning qaysi bir soha yoki ijtimoiy muhitdagi mulot jarayoniga qarab o'ziga kerakli bo'lgan tushunchalarni osongina topish va tushinish imkoni bu qulayliklarning eng muhimidir.

S.I.Vlaxov va S.P.Florin realizaga quyidagicha ta'rif beradilar: "Realizalar — muayyan bir

O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda realiyalardan foydalanishning samarali usullari

xalqning hayoti, turmushi, urf-odatlar, madaniyati, ijtimoiy taraqqiyotiga oid narsa, predmet, voqea-hodisalarni ifodalovchi so'z va so'z birikmalari bo'lib, ular milliy va davriy xususiyatga egadirlar" [Влахов С.И., Флорин С.П. 2009: 8]. Realialar o'zining tarixiylik belgisiga ega ekani bilan milliy koloritimizni tub mohiyati bilan o'zida aks ettiradi. Bunday so'zlar ishtirok etgan matnlar til o'rganuvchilar uchun yangi tilni o'rganishi bilan birga bir xalqning turmush tarzi va madaniyati bilan ham to'liqroq tanishish imkonini yaratadi. Shuning uchun ham biror tilni xorijiy yoki ikkinchi til sifatida o'qitishda milliy o'ziga xos so'zlar bilan ishlash metodikasini yaratish bugunning eng muhim vazifalaridan biri sanaladi.

M.L.Vaysburd realialarga mamlakatshunoslik nuqtayi nazaridan to'xtalib, shunday ta'rif beradi: "Bu muayyan mamlakat ijtimoiy va madaniy hayoti voqealari, ijtimoiy korxona yoki tashkilotlarning nomlari, kundalik buyum nomlari, tarixiy shaxslar nomlari va yana boshqa ko'plab narsalar nomlaridan iborat" [Вайсбурд М. Л. 1972: 99]. Realialar biror-bir predmet yoki narsa nomini atab, ma'lum bir etnosning turmushi, tarixi va madaniyatini ko'rsatadigan belgi hisoblanadi. Shuning uchun ham u mamlakat ijtimoiy yoki madaniy hayoti bilan bog'liq yoki umuman biror-bir ism yoki tashkilot nomi bo'lsin, uning negizida shu xalq haqida ma'lumot beruvchi qism mavjud hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan yuqorida keltirilgan Vaysburdning ta'rifi realialarga berilgan munosib ta'rifdir. Masalan,

Beshikdanoq "Alla" bilan qulog'imizga singdirilgan bobolarimiz, momolarimiz yodi bugun yurtimizda ko'plab *To'maris-u Shiroqlarni, Alpomish-u Barchinlarni* tarbiyalashda muhim *debocha* hisoblanadi. (intervyudan).

Keltirilgan misolda *beshtik, alla* o'zbek xalqi maishiy turmushida ishlatiladigan narsa-buyumlar hisoblanib, bu narsalar o'zga xalqlar turmushida xuddi aslidek takrorlanmaydi. *To'maris, Shiroq, Alpomish, Barchin* kabi tarixiy shaxslar va xalq qahramonlari faqat o'zbek xalqining tarixigagina daxldor sanaladi hamda shu xalqning qahramonlik, jasurlik, sadoqat timsollari bo'lib gavdalanadi. Shuning uchun ham bu o'zbek millatining haqiqiy milliy koloriti namunasi hisoblanadi.

O'zbek tilini o'zga madaniyat vakillariga o'qitishda tilni til egalaridek idrok etish qobiliyatini shakllantirish jarayonida milliy realialarni o'rgatish juda muhim jihat hisoblanadi. Realialarni o'rganish til o'rganuvchida shu tilda yozilgan har qanday autentik materiallarni hech qanday qiyinchiliksiz o'qib, mazmunini tushunish imkonini beradi. Bu esa tilni o'zlashtirishning eng muhim jihatlaridan sanaladi. Shu o'rinda milliy realialarni qanday qilib bu madaniyatdan xabari yo'q o'quvchiga yetkazish mumkin, degan savol har kimda ham paydo bo'lishi aniq. Shuning uchun bu borada til ta'limida samarali natijalarga erishishga yordam beradigan bir qator usullarni ko'rib chiqamiz.

1. Avvalo, milliy realialarni o'zlashtirishda o'zga tilli o'quvchining til bilish darajasini aniqlash juda muhim hisoblanadi. Bu o'qituvchiga til o'rgatishni qaysi qadamdan boshlash kerakligini belgilab beradigan omildir, chunki tilni o'zlashtirishda lug'at boyligi zarur. Xorijlik o'quvchining o'rganayotgan tildagi so'z boyligi qanchalik ko'p bo'lsa, til o'rganish jarayoni tezlashishi bilan birga, milliy madaniyatimizni anglashi ham birmuncha osonlashadi. Bunda shu til vakillari bilan boshlang'ich muloqot qilish jarayoni kuzatiladi. Masalan, salomlashish, hol-ahvol so'rashish, ehtiyoji uchun zarur bo'lgan narsalarni so'rash (manzil, qiziqarli hodisa yoki makon va hokazo) kabilar shular jumlasidandir. Shu kabi boshlang'ich bilimlar orqali o'zga til vakili asliyatimizdan xabardor bo'lishni boshlaydi. Masalan:

— *Kechirasiz, aytolmaysizmi, musiqa maktabi qayerda joylashgan?*

— *Biroz to'g'riga yurib, birinchi chorrahadan o'ngga qayrilasiz, keyin taxminan 20 metr narida chap qo'lda joylashgan sariq bino chiqadi.*

Bu dialog, masalan, ingliz yoki amerikalik til o'rganuvchilar uchun g'ayritabiiy bo'lishi mumkin, chunki odatda ularda biror-bir manzil so'ralganda kompas yo'nalishi bo'yicha tushuntiriladi. Quyida bunga misolni ko'rishimiz mumkin:

— *Excuse me, can you tell me, where school is located music school?*

— *After a short walk you will turn west at the first intersection, then about 20 meters to the south is the yellow building.*

Bundan ko'rinadiki, oddiy muloqot jarayonida ham xorijliklar milliy madaniyatimiz uchun xos so'zlardan beixtiyor foydalanishni boshlaydilar.

Til o'rganish samarasini o'sha tilda ijro etilgan milliy qo'shiqlarni tinglash orqali ham oshirish mumkin. Ma'lumki, milliy qo'shiqlar aynan shu xalqning turmush tarzi, kundalik hayot tarzi va e'tiqodidan kelib chiqib dunyoga keladi. Masalan, "Yor-yor", "Sust xotin", "Xo'p hayda", "Alla" kabilar fikrimizga dalil bo'ladi:

Sust xotin, suzma xotin,

Ko'lankasi maydon xotin!

Yomg'ir yog'dir, ho'l bo'lsin,

Yer-u jahon ko'l bo'lsin.

Maysalar quloq yozsin,

Sut-u qatiq mo'l bo'lsin!

Bu qo'shiq o'zbek folklorining mavsum marosim qo'shig'i hisoblanib, unda xalqning uzoq o'tmishdagi mehnat tajribalari, orzu-istaklari ifodalangan. Bunday qo'shiqlar xorijliklarni bizning ota-bobolarimiz faoliyati va turmush tarzidan xabardor qiladi.

To'ylar o'tdi biz tomonda xo'p davomlik

To'ylar o'tdi, sarpo keldi zar choponlik,

Xo'p yomonlik qildima men, xo'p yomonlik,

Hamon mendan sovchi kutar qiz qo'qonlik.

Ushbu qo'shiq orqali ham xorijlik tinglovchi millatimizga xos bo'lgan milliy o'ziga xos so'zlarni o'rganishi mumkin. Bu kabi qo'shiqlar til o'rganuvchilarda milliy urf-odatlarimizga xos so'zlarning tasvirini bera olmasa-da, ular haqida xabar bera olishi va e'tiborini jalb qilishi bilan ahamiyatlidir.

2. Milliy realialardan foydalanishning yana bir samarali usuli tilni multimedialar yordamida o'rgatishdir. Bunda til o'rganuvchiga o'zbek tilidagi badiiy filmlar, multfilmlardan foydalanish maqsadga muvofiq. O'zbek xalqining milliy ruhi to'la-to'kis aks etgan "Zumrad va Qimmat" multfilmi misolida yondashadigan bo'lsak, bu multfilmning boshidan oxirigacha realialarga boy ekanligini ko'rish mumkin. Masalan: *tandir, eshak arava, obdasta, sandiq, o'sma, zardevor, belbog', do'ppi, beqasam, ko'rpa* va hokazolar.

Kadrdagi shu kabi ijtimoiy-maishiy buyumlarning mavjudligi o'zga madaniyat sohibiga asliyatimiz haqida tasavvur hosil qilishiga yordam beradi va bunday narsalar nima maqsadda ishlatilishi haqida ham ma'lumot bera oladi.

3. Autentik matnlardan foydalanish til o'rganuvchilarning milliy madaniyatimizni qabul qilishiga yordam beradigan bilimlarni olishiga ko'makchi hisoblanadi. Bunday matnlarda yurtimizning geografiyasi, iqtisodi, ijtimoiy hayoti va boshqa jabhalari haqida ma'lumotlar yetarlicha topiladi. Adabiyotshunoslar realiyalar badiiy asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan deb hisoblaydilar. Metodistlar uchun esa milliy ruhda yozilgan har qanday matn realiyalarni o'rgatish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Autentik matnlar faqat til egalariga xos bo'lganligi uchun unda "moslashtirish" yo'q. Shuning uchun ham bunday matnlarning tilimiz barobarida asliyatimizni ham o'rganuvchilar uchun muhimlik darajasi yuqori hisoblanadi. Bunday matnlarga biz badiiy asarlarni, interv-yular, telelavhalar, maqola va sharhlar, e'lonlar kabilarni namuna sifatida olishimiz mumkin [Asilova G.A. 2023: 176].

Autentik matnlar ma'lum bir xalqning tafakkuri, qadriyatlari va qarashlari haqida ham ma'lumot bera oladi. Buni mashhur shaxslardan olingan intervyular misolida yaqqol ko'rish mumkin. O'zbek jurnalistlari mashhur xonandadan intervyu olish jarayonida savollar banki-

O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda realiyalardan foydalanishning samarali usullari

ning aksariyati uning shaxsiy hayotiga qaratilgan bo'ladi, chunki xalqimiz uchun shu axborot qiziq. Xorijda esa, aksincha, insonlarning ko'proq shaxsiyati bilan emas, faoliyati, yutuqlari bilan qiziqishadi. Ko'rinib turibdiki, birgina autentik matn millatning xususiyatlari haqida xabardor qilmoqda.

4. Realialardan foydalanib, turli xil o'yin shaklida qo'llanadigan metodlar ham til o'rgatishda ahamiyatli sanaladi. Bunda til o'rganuvchi o'z ustida ko'proq ishlashga harakat qiladi va olgan bilimlarini qay darajada o'zlashtirganini ko'rsatish imkoniga ega bo'ladi. "Klaster", "Yashirin qahramon", "O'yla, izla, top" kabi qator metodlar yordamida til o'rgatish ta'limdan ko'zlangan maqsadga tezroq yetib borishga, o'quvchining til bilimlari samarali mustahkamlanishiga olib keladi.

5. Ko'rgazmali materiallardan foydalangan holda dars o'tish ham til o'rganuvchida milliylikimizga xos bo'lgan narsa va buyumlarni ko'rish orqali ular haqida tasavvur hosil qilish imkonini yaratadi. Bunda turli xil slaydlardan, rasmlari kartochkalardan yoki haqiqiy buyumning o'zidan foydalanish mumkin. Masalan, *so'zana* yoki *zardevorni* rasm orqali ko'rsatib, uning nima ekanligi va nima maqsadda ishlatilishi haqida ma'lumot berish xorijlik til o'rganuvchining xotirasida ushbu tushunchalarning tezroq shakllanishi ehtimolini oshiradi, chunki insonda ko'rib eslab qolish qobiliyati boshqa layoqatlarga qaraganda kuchliroq bo'ladi.

Konfutsiy "Men eshitaman — men bilaman, men ko'raman — men eslab qolaman, men bajaraman — men tushunaman" degan ekan. Yuqorida keltirilgan barcha usullar realialardan foydalanishning, qomusiy olim ta'biri bilan aytganda, bilish, eslab qolish va tushunishga qaratilgan eng samarali usullardan hisoblanadi.

6. Bizga ma'lumki, milliy o'ziga xos so'zlar muloqot jaroyonida o'zining to'la-to'kis o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham xorijlik til o'rganuvchiga amaliy ko'nikma sifatida unga xalq vakillari bilan o'zaro muloqot qilish imkonini yaratib berish, ma'lum bir vaqt davomida uni shu xalq vakillari ichida, ular bilan bir davrada bo'lish imkonini yaratib berish ham o'z samarasini tezkorlik bilan ko'rsatadi. Bunda, masalan, muayyan til sohibiga mansub o'quvchining oilasi yoki o'qituvchining tashabbusi talab qilinadi.

Xulosa

Realialarning takrorlanmas xoslik xususiyatiga ega ekani ularni o'qitishda ham bir qator qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Buning sababi realialarda o'ziga xos milliylik va davriylik kabi jihatlar mavjud ekanligi, ularning diniy, dunyoqarashga oid, milliy urf-odatlar kabi jihatlarini o'zida mujassamlashtirishidir. Shu bois ham yuqorida sanab o'tilgan usullarning davomiyligini ta'minlash va bu haqida fikr yuritish o'zbek tili ta'limida e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan vazifalar hisoblanadi. Zero, xorijlik til o'rganuvchilar tilimizning tarixi, buguni va kelajagi naqadar buyuk ekanligini va uning jozibadorligini bizning milliy o'ziga xos so'zlarimiz orqali anglab yetishi biz uchun ham foyda, ham o'zbek xalqini dunyoga tanitishda asosiy manba bo'ladi. Qolaversa, milliylik — bugun va kelajak uchun, shuningdek, xalqning o'z asliyatini saqlab qolishida eng muhim jihatdir.

Adabiyotlar

Бархударов Л.С. 1975. Язык и перевод. — Москва: Международные отношения. — 230 с.

Sadiqov Z. 2021. Qadimgi turkiy realiyalar tarjimasini. Monografiya. — Namangan: Vodiy media. — 121 b.

Фёдоров А.В. 1983. Основы общей теории перевода. — Москва: Высшая школа. — 348 с.

Швейцер А.Д. 1988. Теория перевода, статус, проблемы, аспекты. — Москва: Наука. — 212 с.

Влахов С.И., Флорин С.П. 2009. Непереводимое в переводе. — Москва: Р. Валент. — 360 с.

Вайсбурд М.Л. 1972. Реалии как элемент страноведения // Русский язык за рубежом. №3. — С. 98—100.

Asilova G.A. 2023. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallarni tanlash tamoyillari // O'zbekistonda xorijiy tillar. — № 6 (53). — B. 172-185.

Effective Methods of using Realities in teaching uzbek as a foreign language

Javhar Tursunova¹

Abstract. Teaching the Uzbek foreign language is not as widespread as teaching other foreign languages; the number of people studying our language is increasing every year. This poses a number of challenges for linguists. First of all, it is important to teach our language using internationally recognized methods. One of these methods is working with national realities when teaching a foreign language. These words, which are also known as nation-specific words, help language learners gain a detailed understanding of the life, culture, social, economic, political and cultural life of the native speakers of that language. Therefore, the methodology of teaching the Uzbek language to foreigners, taking into account national realities, is considered very relevant.

Key words: *Realia, Uzbek language, foreign language, authentic text, linguistic and cultural studies.*

References

Бархударов Л.С. 1975. Язык и перевод. — Москва: Международные отношения. — 230 с.

Sadiqov Z. 2021. Qadimgi turkiy realiyalar tarjiması. Monografiya. — Namangan: Vodiy media. — 121 b.

Фёдоров А.В. 1983. Основы общей теории перевода. — Москва: Высшая школа. — 348 с.

Швейцер А.Д. 1988. Теория перевода, статус, проблемы, аспекты. — Москва: Наука. — 212 с.

Влахов С.И., Флорин С.П. 2009. Непереводимое в переводе. — Москва: Р. Валент. — 360 с.

Вайсбурд М.Л. 1972. Реалии как элемент страноведения // Русский язык за рубежом. №3. — С. 98—100.

Asilova G.A. 2023. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallarni tanlash tamoyillari // O'zbekistonda xorijiy tillar. — № 6 (53). — B. 172-185.

¹ **About the author:** Tursunova Javhar Bakir kizi — a doctorate student of the National Research Institute of Professional Development of Teachers and Training in New Methodologies named after Abdulla Avloni.

E-mail: javhartursunova508@gmail.com

For citation: Tursunova, J. 2024. "Effective methods of using realities in teaching Uzbek as a foreign language". *Uzbekistan: language and culture*. 4[2]: 80—85.

ADABIYOT O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR**SAVOL VA TOPSHIRIQLAR TIZIMINI YARATISH**

Roza Niyozmetova,
Yarmuxammad Madaliyev¹

Annotatsiya

Adabiyot darslarida savol va topshiriqlar tizimi o'quvchilarning aqliy va emotsional rivojlanishiga qaratilgan bo'lishi, badiiy matnni o'rganish jarayonida muloqotning qulay vaziyatini yaratish uchun sharoit ta'minlashi darkor.

Ushbu maqolada savol va topshiriqlar, ularning tasnifi, tizimini yaratish, o'quvchilarning matn tahlili jarayonida nazariy bilimlar qanday ahamiyatga ega ekanligini sezishlari, ma'lumotlarni tushunishlari va ulardan foydalana bilishlari, asta-sekin bu bilimlarni tizimga solishlari, o'zbek adabiyotiga xoslari bilan boyitib borish malakalarini egallashlariga erishish masalalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *savol va topshiriqlar, tasnif, adabiy tayyorgarlik, mustaqil mutolaa, badiiy tahlil, badiiy timsol, badiiy matn, badiiy idrok, izohli o'qish, yangicha tizim, nutqiy malaka.*

Kirish

Savol va topshiriqlar o'quvchilarning aqliy va emotsional rivojlanishiga qaratilgan bo'lishi, badiiy matnni o'rganish jarayonida muloqotning qulay vaziyatini yaratish uchun sharoit ta'minlashi darkor.

Buning uchun birinchi navbatda darslik va qo'llanmalarda alohida e'tibor berish zarurati bor. Ularning "... adabiy qahramonlarning xarakteri, ichki olamini anglab yetishga yo'naltirilgan, o'quvchilarning mustaqilligini oshirishga va baho hamda mushohadalarning motivlanganini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi" [Ganjenko 1981, 16], maqsadga muvofiq bo'ladi.

Savol va topshiriqlar tizimini yaratishda adabiy asarni bir butunicha tahlil qilish prinsipi asosiy qoidalar sifatida ajratiladi. Shunga ko'ra ham darslikda obraz-personaj xarakterini anglashga yo'naltirilgan savol va topshiriqlardan keng foydalanish, bir turkum savol va topshiriqlar asosida o'quvchilarni badiiy asar tilini o'rganishga safarbar etish, shuningdek, o'rganilayotgan asarning janr xususiyatini hisobga olish zarur bo'ladi.

Savol va topshiriqlar badiiy matnni o'rganishning eng to'g'ri va ratsional yo'llarini tanlash imkonini beradi, adabiy material ustida ishlash jarayonida ta'lim, tarbiya va o'quvchilarni rivojlantirish vazifalarini yaxlit holda hal etishga yordam beradi, boshqacha aytganda metodik yo'nalish beradi, nutq o'stirish uchun ham xizmat qiladi. Ular o'quvchilarning adabiyotga oid tasavvur va bilimlarini oshirishga ham, ularning nutqini o'stirishga ham asosiy vosita va omil bo'ladi [Ganjenko 1981, 19].

Yosh ruhshunosligi sohasidagi tadqiqotlarda o'spirinlarga xos aniqlangan xarakterli xu-

¹ **Niyozmetova Roza Xasanovna** — pedagogika fanlari doktori, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori.

Madaliyev Yarmuxammad — pedagogika fanlari doktori, Muxtor Avezov nomidagi Qozog'iston universiteti professori

E-pochta — Roza@navoiy-uni.uz

ORCID ID:0000-0000-7766-5295

Iqtibos uchun: Niyozmetova, R. Madvaliyev Y. 2024. "Savol va topshiriqlar tizimini yaratish". O'zbekiston: Til va madaniyat. 4[2]: 86—92.

susiyatlar (o'z-o'zini anglashni shakllantirish va rivojlantirish, atrofdagilarning axloqiy-psixologik xislatlarini bilish va baholashga yo'nalganlikning paydo bo'lishi, o'zini, o'z tuyg'ulari va kechinmalarini bilib olish ehtiyoji, mustaqillikka intilish va hokazolar) M.B.Ganjenkoga darslikda adabiy qahramonlarning xarakteri, ichki olamini anglab yetishga yo'naltirilgan, o'quvchilarning mustaqilligini oshirishga va baho hamda mushohadalarning motivlanganligini rivojlantirishga qaratilgan savol va topshiriqlar bo'lishi zarur, degan xulosa chiqarish imkonini bergan [Ganjenko 1981, 16]. Olim ruhshunoslarning badiiy matnni idrok etish xususiyatlari haqidagi ma'lumotlari asosida darslikdagi barcha savol va topshiriqlar o'quvchilarning qayta yaratuvchi va ijodiy tasavvurlarini o'stirishga, adabiy matnni o'rganish jarayonida o'smirlarning emotsional ta'sirchanligini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi didaktik maqsadga muvofiq kelishini asoslab bergan.

Asosiy qism

Savol va topshiriqlar tizimini yaratishda adabiy asarni bir butunicha tahlil qilish prinsipi asosiy qoidalar sifatida ajratiladi. Shunga ko'ra ham darslikda obraz-personaj xarakterini anglashga yo'naltirilgan savol va topshiriqlardan keng foydalanish, bir turkum savol va topshiriqlar asosida o'quvchilarni badiiy asar tilini o'rganishga safarbar etish, shuningdek, o'rganilayotgan asarning janr xususiyatini hisobga olish zarur bo'ladi.

Savol va topshiriqlar tasnifi muammolari (didaktikada) hal etilgan (D.D.Zuyev, V.F.Palamarichuk, T.S.Golubeva va b.). Savol va topshiriqlarni tasnif etishning asosiy prinsipi sifatida badiiy matnni o'rganish jarayonida o'quvchilar o'quv faoliyatining mustaqillik darajasi ilgari suriladi. Shu prinsipga muvofiq savol va topshiriqlarning quyidagi uch asosiy guruhlar ajratiladi:

- 1) reproduktiv tavsifdagi savol va topshiriqlar;
- 2) reproduktiv-ijodiy tavsifdagi savol va topshiriqlar;
- 3) ijodiy tavsifdagi savol va topshiriqlar. O'rta bo'g'in uchun reproduktiv-ijodiy tavsifdagi savol va topshiriqlarning ahamiyatli ekanligi ko'rsatiladi [Ganjenko 1981, 19].

Savol va topshiriqlar badiiy matnni o'rganishning eng to'g'ri va ratsional yo'llarini tanlash imkonini beradi, adabiy material ustida ishlash jarayonida ta'lim, tarbiya va o'quvchilarni rivojlantirish vazifalarini majmuaviy hal etishga yordam beradi, boshqacha aytganda metodik yo'nalish beradi, nutq o'stirish uchun ham xizmat qiladi.

"Yuqoridagilarga muvofiq o'quvchilarning kitobxonlik malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan savol va topshiriqlar (matnni tahlil qilishga doir savol va topshiriqlar) va ko'p jihatdan o'quvchilarning nutqiy malakalarini rivojlantirishga mo'ljal berilgan savol va topshiriqlar (nutq o'stirishga doir savol va topshiriqlar) ajratiladi. Bu bo'linish shartli bo'lib, tasnifning aniq bo'lishi taqozosi bilan qilingan. Aslida barcha tipdagi savol va topshiriqlar o'zaro bog'langan, o'zaro shartlangan bo'lib, kursning ikki yagona markaziy vazifasini — bir vaqtda o'quvchilarning adabiy va nutqiy rivojlanishini hal etishga yordam beradi" [Ganjenko 1981, 19]. Qay birining ustuvorligi matn taqozosi bilan belgilanadi.

Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda badiiy asarlardan olingan parchalar, she'riy asarlarni o'qib mazmunini tushunish ularni estetik idrok etishning muhim jihati hisoblanadi.

O'zbeklarning obyektiv olamni qanday idrok etishi bilan bog'liq xususiyatlar o'zbek tili va shu tilda yaratilgan asarlarda o'z aksini topgan. Ayniqsa, mumtoz adabiyotni idrok etish til egalari uchun ham muayyan qiyinchiliklar tug'diradi, shunga ko'ra, bunday asarlar rusiyzabon o'quvchilar nuqtayi nazaridan qaraganda, mazmunan zamonaviy bo'lishi kerak.

Sh.M.Iskandarova o'zbek leksikasining "mazmuniy maydoni" haqida so'z yuritar ekan, shunday yozadi: "...inson obyektiv olam elementlarining umumlashgan obrazini ongda aks ettiradi va ularning umumlashgan obrazini aks ettirish jarayonida har qaysi olam predmetining umumiy va xususiy belgilarini ajratadi" [Iskandarova 1999, 22]. Tabiiyki, o'zbeklar yashayotgan makro va mikro olam Rossiyada yashovchilar olamidan ayrim tomonlari: geografik

joylashuvi, iqlimi, hayvonot va o'simliklar dunyosi va boshqalardagi tafovutlari bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Bu o'ziga xoslik ularning tiliga ham, adabiyotiga ham ko'chgan bo'ladi. Garchi rusiy zabon o'quvchilar O'zbekistonda yashab ulg'ayayotgan bo'lsalar-da, ularning badiiy timsollarni idrok etishida rus adabiyoti ta'siri hal qiluvchi rol o'ynaydi. Zero, "Har bir xalqning o'z tarixiy taraqqiyotidagi eng noyob va mukammal boyligi uning tilidir. Til xalqning taqdiri, yashash tarzi, ma'naviy boyligi hisoblanadi" [Musayev 2000, 7]. Rusiy zabon o'quvchilar rus tilida fikrlagani uchun ham o'zbek tilidagi badiiy asarlarni idrok etishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy.

Ta'lim rus tilida olib boriladigan akademik litseylarga ham, kasb-hunar kollejlariga ham o'zbekcha nutqi deyarli bir xil darajada o'sgan rusiy zabon o'quvchilar o'qishga kiradilar. Lekin, e'tirof etish kerakki, ushbu ikkala o'quv yurtida o'zbek tilida bemalol fikr almasha oladigan talabalar ozchilikni tashkil etadi. Ularning ko'pchiligi sanoqli gaplarni ayta oladi, xolos. (O'zbek tilini amaliy biladigan millat vakillari bundan mustasno.) Akademik litseylarga intellektual salohiyati kuchli o'quvchilar o'qishga kirgan bo'lsa-da, o'zbek tilida so'zlay olish yoki so'zlasha olmaslik umumiy o'rta ta'lim maktabida o'zbek tili darslarining qanday tashkil etilayotganiga bog'liq.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining o'zbek tili darslarida olib boriladigan ishlar sirasida matn ustidagi ishlar haddan tashqari ko'p vaqtni egallaydi. Bu ishlarning muayyan qismi matnni rus tiliga tarjima qilib o'qish, matndagi yangi va tushunarsiz so'zlarga lug'at tuzish bilan bog'liq bo'ladi. Alohida ta'kidlash lozimki, bunday tipdagi ishlarni umuman foydadan xoli deb bo'lmaydi. Ammo bunday o'qish asosan, grammatik bilim va so'z boyligini shakllantirishga ma'lum darajada yordam bersa-da, adabiy asarning yaxlit butunlik va san'at asari sifatida idrok etilishiga juda kam hissa qo'shadi.

Ma'lumki, asar tahlili — metodikaning markaziy muammosi, binobarin, ushbu muammoga metodik ishlarning katta qismi bag'ishlangan. Tahlil yo'llari, asar turi va janriga, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va imkoniyatlariga, maktabda adabiyotning boshlang'ich va sistematik kursi tizimiga ko'ra uning xususiyatlari keng ishlab chiqilgan.

Tahlilning mohiyati shundaki, u o'quvchini asar mazmuniga chuqurroq kirib borishga, shu maqsad bilan uni qayta o'qib chiqishga undaydi, yozuvchining shoirona fikrida qanday mantiq borligini, obrazlarning mantiqiy aloqadorligini, voqea-hodisalarning, qahramonlarning hayotga nechog'lik yaqinligini anglashga ko'maklashadi. "Darsda yaxshi tahlil qilingan har bir inson obrazi o'quvchilar ko'z o'ngida jonli kishidek namoyon bo'ladi" [Oxunova 1982, 23].

O'quvchilarning matn tahlili jarayonida nazariy bilimlar qanday ahamiyatga ega ekanligini sezishlari, ma'lumotlarni tushunishlari va ulardan foydalana bilishlari, asta-sekin bu bilimlarni tizimga solishlari, o'zbek adabiyotiga xoslari bilan boyitishlari g'oyatda muhimdir.

"Albatta, bunda o'quvchilarning kitobxonlik tajribasi va kuzatishlarini jalb etishning sodda shakllari: ifodali o'qish, yozuvchi haqida ma'lumot berish, syujet mazmunini qisqa qayta hikoya qilish, lavha tahlili, sevimli qahramon haqida hikoya qilish, illyustratsiyalarni sharhlashdan ham foydalanish zarur" [Nesturx 1980, 121].

Bularning hammasi o'qituvchiga adabiy-badiiy asarni o'rganish ishlarini tashkil etish, darsning metodik strukturasi belgilash, adabiy asarda ko'tarilgan rang-barang g'oyalar, masalalar, obrazlar orasidan sinfdan muhokama qilish lozim bo'lgan muammolarning aniq doirasini ajratishga yordam beradi.

"Ammo shuni ham borki, har qanday tahlil, yozuvchining badiiy mahoratiga doir izoh asar mutolaasining o'rnini bosolmaydi" [Matjon 1996, 102]. Insoniy fazilatlar haqidagi tushunchalar adabiy matnni o'qish va chuqur anglab yetish, axloqiy masalalardan bahs yuritish jarayonida sodir bo'ladi. Bunda o'qituvchi darsni erkin fikr yuritish uchun tramplina, start maydonchasiga aylantirmaydi; bahs adabiy material mazmunidan kelib chiqadi, lekin undan nari ketmaydi. Ammo, O.Musurmonovning haqli ogohlantirishicha, "...badiiy asarning tarbi-

yaviy tabiati e'tiborga olinmay, undagi ma'naviy-axloqiy xulosalar badiiy vositalardan tashqarida izlansa, bunda ma'naviy madaniyatni tarbiyalashga oid ishning samarasi bo'lmaydi, albatta" [Musurmonova 1993, 17].

M.Mirqosimovanning "Biz o'z tajribamiz va ilmiy kuzatishlarimizga asoslangan holda badiiy asarlar tahlili adabiy janr talablari asosida quyi va yuqori sinflarda shakl jihatdan farqli, ammo mazmuni va maqsadiga ko'ra tadrijiy ko'rinishda: avval oddiyoq, so'ngra murakkabroq usullarni qo'llash tarzida tashkil etilishi lozim, deb hisoblaymiz. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, quyi sinflarda adabiy tahlil jarayoni:

- a) asarni ifodali o'qishga o'quvchilarni o'rgatish;
- b) asarning g'oyasini belgilash va mazmunini bayon etish;
- d) yetakchi qahramonlarga tavsif berish va ularning asar badiiy to'qimasida tutgan o'rni, badiiy qimmatini yoritishga erishish;
- e) xilma-xil asarlarni janr jihatidan farqlashga doir nazariy tushunchalarni singdirish;
- f) asardan olgan taassurotlariga tayangan holda o'quvchilarni uning badiiy qimmatini belgilashga o'rgatishni qamrab olishi lozim" [Mirqosimova 1993, 5].

Bizningcha, bunday adabiy tahlilni yuqori sinflarda ham davom ettirish maqsadga muvofiqdir. Lekin ushbu tahlilda adabiyot nazariyasiga doir tushunchalarni o'rganish, yozuvchining mahoratini belgilash kabilar qorishgan. Ular adabiyot darslarida tahlildan oldin yoki keyin o'rganiladigan, lekin tahlil jarayonida o'zining amaliy qo'llanishini topadigan, ya'ni tahlil quroliga aylanadigan, tahlillar pirovardida amalga oshadigan masalalardir. Lekin asarning g'oyasini, undagi tagzaminni anglamaslik ifodali o'qishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday paytda o'quvchi qahramonlarining qanday ohangda gapirishini ajrata olmasligi mumkin.

Yozuvchining mahoratini baholash ijodkorlarning uslublarini o'zaro farqlash, asarning badiiy qimmatini aniqlash malakasi, shuningdek. akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda asarlarning til xususiyatlarini farqlay olish zamirida shakllanadi.

V.V.Ivanixin o'quvchilarga o'qituvchi beradigan izoh va sharhlar haqida gapirib, hamma narsada "o'quvchidan", uning shaxsiy, ko'pincha tushuntirib bo'lmaydigan holatlaridan, ba'zida esa umuman g'alati savollaridan kelib chiqish lozimligini uqtiradi [Ivanixin 1990, 14]. Muallifning bu fikridan asar tahlilida, g'oyasi, yozuvchining mahoratini aniqlashda o'quvchilarning estetik tuyg'ulari, dardlariga quloq solish kerak, degan ma'no anglashiladi.

Yuqoridagi tahlilda adabiyot nazariyasiga doir tushunchalarni o'rganish, yozuvchining mahoratini belgilash kabilar qorishgan. Ular adabiyot darslarida tahlildan oldin yoki keyin o'rganiladigan, lekin tahlil jarayonida o'zining amaliy qo'llanishini topadigan, ya'ni tahlil quroliga aylanadigan, tahlillar pirovardida amalga oshadigan masalalardir.

Badiiy matnni tahlil qilishda bir qator maqsadlar ko'zda tutilishi mumkin. Jumladan,

- muhim tafsillarga: matnning uslubiy xususiyatlariga e'tiborni qaratish;
- o'quvchilarni izohlashga, sharh berishga undash;
- bundan keyingi maqsad sari yo'nalgan o'qish va anglash uchun muammolarni ilgari surish;
- ruhiyatga oid terminlar boyligini kengaytirish, insonning ichki olamiga bo'lgan diqqatini kuchaytirish;
- muallif nuqtayi nazari qanday namoyon bo'layotganini, uning ifodalanish xususiyatlarini aniqlash;
- e'tiborni asarning janr xususiyatlariga va kompozitsiyasiga qaratish;
- mustaqil xulosa va baho berishdek ijodiy faoliyatni rag'abatlantirish" [Pustoshkina 2003, 352].

O'quvchilarning asarga nisbatan bo'lgan emotsional munosabatini saqlagan, ularning taassurotlari, matnni bilishlari, malakalariga tayangan holda o'qituvchi ta'lim-tarbiyaviy jihatdan qimmatli, ko'pchilikni qiziqtirib qo'ygan u yoki bu axloqiy yoki estetik muammoni

Savol va topshiriqlar tizimini yaratish

ajratadi, sinfga o'ylab chiqish uchun savol va topshiriqlar seriyasini taklif etadi, turli xildagi mustaqil ish turlarini tavsiya qiladi (yakka tartibdagi yoki guruhli). Bunday darslarni tashkil etishda o'quvchilarning oldindan ko'radigan tayyorgarlik ishlari hajmi ortadi, ularga o'z fikrlarini asoslash uchun sahnalar, epizodlarni tanlash huquqi beriladi hamda tanqidiy adabiyotlardan keng foydalanish imkoniyati beriladi, ya'ni evristik metod reproduktiv va tadqiqotchilik elementlari bilan qo'shib tashkil etiladi. O'quvchilar asar ustida mushohada yuritish, uni qayta-qayta o'qish, badiiy-uslubiy o'ziga xosligiga kirib borish, muammolarni ijtimoiy hayot hodisalari bilan bog'lashga o'rganadilar [Niyazmetova 2006, 6—10]. Har bir asar muayyan insoniy xislatlarga, ijtimoiy munosabatlarga bag'ishlangan bo'ladi. Masalan, "Gilam paypoq"da onaga mehr-muhabbat, "Jasur qiz"da zulm va zo'ravonlikka nafrat va hokazo. Bu asarlarni o'rganishda ularning shu yo'nalishlariga tayaniladi. Boshqacharoq aytiladigan bo'lsa, materialning mazmuni dars turini ham tayin etadi. Insoniy munosabatlar, ijtimoiy hodisalar, asarning til xususiyatlari, yozuvchining mahorati, asarning yaratilish tarixi kabi qator masalalarga e'tiborning oz-ko'pligi dars turlarini tanlashga sabab bo'ladi.

Ta'lim rus tilida olib boriladigan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining o'zbek tili mashg'ulotlari tarkibida adabiy matnni o'qib o'rganish badiiy asardan estetik zavq ola biladigan kitobxonni tarbiyalash uchun xizmat qilibgina qolmay, badiiy adabiyotning mazmunini tashkil etuvchi milliy an'analar, ma'naviy qadriyatlarni singdirish maqsadini ham ko'zda tutadi. O'zbek tilidagi asar o'zbek xalqining ruhiyati, hayot tarzini anglashga, urf-odatlarini, udumlari bilan tanishishga yordam beradi. Shunga ko'ra ham adabiy matn ustidagi ishlarni pedagogik va metodik jihatdan to'g'ri uyushtirish har jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

O'spirinlik yoshida o'z-o'zini anglash, atrofdagilarning axloqiy-ruhiy fazilatlarini bilish va baholash, o'z his-tuyg'ulari va kechinmalarini tushunishga ehtiyoj paydo bo'ladi, bu holat tufayli ana shu ehtiyojni qondira oladigan adabiy matnlarni o'qib o'rganish istagi yuzaga keladi. O'quvchi asar muallifining niyatini, qahramonga munosabatini, voqea va hodisalarining sabab va natijalarini mushohadadan o'tkaza boshlaydi. Bu jarayon turmush haqiqatini tadqiq etish bilan bog'liq holda kechadi. Uning mustaqil izlanishlari to'g'ri yo'ldan borsa va to'g'ri yechimga olib kelsagina, o'z ishidan qanoatlanadi, bu ishni davom ettirish sari ruhlanadi. Ana shu izlanishlarda o'quvchiga to'g'ri yo'nalish beradigan, ba'zan ikki yo'ldan birini tanlash vaziyatiga soladigan, chuqur mushohadaga undaydigan turtkilar kerak bo'ladi, xolos. Matnga doir beriladigan savol va topshiriqlar ana shunday turtki vazifasini bajarmog'i lozim.

Asarni o'qishdan oldin berib qo'yiladigan savol va topshiriqlar o'quvchilarning oldindan (ilgarilab) tayyorgarlik ko'rishlarini taqozo etadi. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, darsda daf'atan beriladigan savol va topshiriqlarga qaraganda oldinroq ma'lum qilinadigan savol va topshiriqlar chuqurroq anglanadi, ularni bajarishda onglik yuqori bo'ladi.

Adabiy asarning mazmuni o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Kuzatishlardan ma'lumki, darsda o'qib ulgurilmagan, oz qismi qolgan adabiy parchani qo'ng'iroqdan keyin ham qolib oxirigacha o'qib chiqish xohishini bildiradigan sinf o'quvchilari ham uchrab turadi. Badiiy matnlarning hissiz o'quv matnlariga nisbatan afzalligi ham shunda.

Badiiy matnni ko'rgan o'quvchilarni hamisha adabiyotni o'rganish zarurligi haqidagi fikr-o'ylar cho'chitib turadi.

Rusiyazon o'quvchi topshiriq shartini o'qigandan keyinoq o'zidagi hadikning asossiz ekanligini ko'ngliga tugib qo'yishi kerak. Zero, savol va topshiriqlarni adabiyot nazariyasini emas, balki badiiy asarning o'zini o'rganishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiqdir. Aslida ham shunday: savol va topshiriqlar matn mazmunini, uning timsollarini tadqiq etish orqali hayotning badiiy aksi bo'lmish asarga chuqurroq kirib borish uchun xizmat qiladi, xolos. Bu ishlarning esa adabiyot nazariyasini o'rganishga bevosita aloqasi yo'q. O'zbek tili darslari tarkibida adabiy materiallarni o'qish tom ma'noda nazariy jihatdan adabiy tayyorgarlik ko'rishning aynan o'zi ham emas, balki matn mazmunini badiiy-estetik idrok etishni ta'min-

lovchi vositadir. Shunga ko'ra ham savol va topshiriqlar o'quvchilarning estetik tafakkuri va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam bermog'i lozim.

Xulosa

O'zbek tilidagi adabiy matn ustidagi ishlar o'quvchining rus adabiyoti darslarida olgan bilim, egallagan ko'nikma va malakalarini ko'chirish, ulardan foydalanish, o'zbek tilidagi asarga tatbiq etish mazmunidagi ishlarni ifoda etadi. To'g'ri, ba'zan rus adabiyoti darslarida o'tilgan nazariy ma'lumotlarni esga olish zaruriyati ham tug'ilar, lekin bu narsa nazariy mashg'ulot — shaklbozlik tusini olmasligi darkor.

Adabiyotlar

Ганженко, М., Б. 1981. Проблема оптимизации методического аппарата учебника русской литературы для нац.школы. АКД пед.наук. — Москва.

Искандарова, Ш. 1999. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс майдони). Филол.фан.номз. ... дисс.автореферати. — Тошкент, 22 б.

Мусаев, А. 2000. Ўзбек сўзлашув нутқи услубида гап бўлаклари тартиби. Филол. фан.номз. ... дисс.автореферати. — Тошкент.

Охунова, М. 1982. Адабий ўқиш дарсларида эстетик тарбия: Ўқитувчи тажрибасидан. Проф. А.Зуннунов таҳрири остида. — Т.: Ўқитувчи.

Нестурх, Я., Г. 1980. Уроки внеклассного чтения: Пособие для учителя. — М.: Просвещение.

Матжон, С. 1996. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар: Ўқитувчилар учун методик қўлланма. — Т.: Ўқитувчи.

Мусурманова, О. 1993. Адабиёт дарсларини ташкил этишнинг самарали усуллари. — Т.: Ўқитувчи.

Мирқосимова, М. 1993. Адабий таҳлил методикаси (Адабиёт ўқитувчилари ва талабалар учун қўлланма). — Т.: РЎММ.

Иванихин, В., В. 1990. Почему у Ильина читают все: (Об учителе ... Е.Н.Ильине). — М.: Просвещение.

Пустошкина, А., А., Филатова, Е., А. 2003. Современные открытые уроки литературы. 8—9-е классы. — Ростов-на-Дону: Феникс.

Ниязметова Т.Р. 2006. Адабий таълимда компьютер ва ахборот технологияларидан фойдаланиш // Тил ва адабиёт таълимида янги педагогик технологиялар. 1-қисм. — Т.: ТДПУ, 6—10. б.

Creating a system of questions and assignments

Roza Niyozmetova,
Yarmuxammat Madaliyev¹

Abstract

In literature classes, the system of questions and assignments should be aimed at the mental and emotional development of students, and should provide conditions for creating a

¹ *Niyozmetova Roza Xasanovna* — Doctor of Pedagogy, professor of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

Yarmuxammat Madaliyev — professor, Kazakhstan university named after M. Avezov.

E-mail: Roza@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0000-7766-5295

For citation: Niyozmetova, R. 2024. "Creating a system of questions and assignments". *Uzbekistan: Language and Culture*. 4[2]: 86—92.

comfortable situation of communication during the study of the literary text.

In this article, questions and tasks, their classification, creating a system, students' perception of the importance of theoretical knowledge in the process of text analysis, understanding of information and being able to use it, gradually systematizing this knowledge, enriching it with the features of Uzbek literature the issues of achieving the skills to go are considered.

Key words: *questions and assignments, classification, literary preparation, creative reading, independent reading, artistic analysis, artistic image, artistic text, artistic perception, interpretive reading, new system, speaking skills.*

References

Ганженко, М., Б. 1981. Проблема оптимизации методического аппарата учебника русской литературы для нац.школы. АКД пед.наук. — Москва.

Искандарова, Ш. 1999. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс майдони). Филол.фан.номз. ... дисс.автореферати. — **Тошкент**, 22 б.

Мусаев, А. 2000. **Ўзбек сўзлашув нутқи услубида гап бўлаклари тартиби. Филол.фан.номз. ... дисс.автореферати. — Тошкент.**

Охунова, М. 1982. Адабий ўқиш дарсларида эстетик тарбия: Ўқитувчи тажрибасидан. Проф. А.Зуннунов таҳрири остида. — Т.: Ўқитувчи.

Нестурх, Я., Г. 1980. **Уроки внеклассного чтения: Пособие для учителя.** — М.: Просвещение.

Матжон, С. 1996. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар: Ўқитувчилар учун методик қўлланма. — Т.: Ўқитувчи.

Мусурманова, О. 1993. Адабиёт дарсларини ташкил этишининг самарали усуллари. — Т.: Ўқитувчи.

Мирқосимова, М. 1993. Адабий таҳлил методикаси (Адабиёт ўқитувчилари ва талабалар учун қўлланма). — Т.: РЎММ.

Иванихин, В., В. 1990. Почему у Ильина читают все: (Об учителе ... Е.Н.Ильине). — М.: Просвещение.

Пустошкина, А., А., Филатова, Е., А. 2003. Современные открытые уроки литературы. 8—9-е классы. — Ростов-на-Дону: Феникс.

Ниязметова Т.Р. 2006. Адабий таълимда компьютер ва ахборот технологияларидан фойдаланиш // Тил ва адабиёт таълимида янги педагогик технологиялар. 1-қисм. — Т.: ТДПУ, 6—10. б.

MUTOLAA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Saodat Kambarova¹

Annotatsiya

O'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishi global tendensiya bo'lib, ko'plab davlatlar bu borada o'z strategiya va dasturlarini amalga oshirmoqdalar. Unga qarshi kurashishning samarali usullarini qidirmoqdalar, chunki kitob o'qish har qanday davlatning rivojlanishi uchun muhim rol o'ynaydi. Biroq turli mamlakatlarda maqsadlar tabiati, vazifalar hajmi va mazmunini hal qilishda ishtirok etuvchi institutlar tomonidan turlicha vositalar qo'llaniladi. Respublikamizda aholining mutolaa madaniyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar keng ko'lamli va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, natija katta yoshli kitobxonlarning saviyasi bilan o'lchanadi. Zero, kitobxon bobo-buvi, ota-ona yoxud kitobxon aka-opalarning faoliyati bu borada ibrat maktabidir. Aynan shu masalaga bag'ishlangan mazkur maqolada ta'lim oluvchilarni mutolaaga qiziqtirish mazmuni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *badiiy asar, muallif, o'qish madaniyati, o'qish faoliyati, o'qish modeli, mutolaa, kitobxon, so'z san'ati.*

Kirish

Badiiy asarni o'rganish zamirida doimo o'qish turadi. Unga so'z san'atini estetik idrok etish jarayoni sifatida qaraladi. Zamonaviy o'qituvchilar, odatda, o'qishga ikki jihatdan: o'quvchilarning asarni haqiqiy o'qishi hamda adabiyot bilan tanishtirishga pedagogik yo'naltirilgan o'quv jarayoni sifatida munosabatda bo'ladilar. Bunday jarayonning maqsadi o'quvchilarning estetik tuyg'ulari, kitobxonlik madaniyatini, ekstensiv o'qish faoliyatini rivojlantirish, shuningdek, o'qilgan asarni to'g'ri va chuqur anglash qobiliyatini o'stirishdir. Muallif ijodiy dunyosi ortidagi xoslikni ko'ra bilishda o'quvchiga o'qish madaniyatining muhim elementlarini shakllantirishga katta ahamiyat qaratish joiz.

Asosiy qism

O'qish madaniyati o'zaro ta'sir qiluvchi uchta komponent va darajalardan iborat bo'lib, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Kitobxon-o'quvchi tafakkuri darajasi, eruditsiya adabiy bilimlar zaxirasini o'z ichiga oladi. Bu adabiyotshunoslikka oid yangi tushunchlarni, tahlil mantig'ini o'zlashtirishni o'zida ifodlaydi.

2. His-tuyg'ular darajasi, baholash yo'nalishlari o'quvchilarning estetik didi, idrok qobiliyati singari birlamchi ko'rsatkichlariga asoslanadi. San'at asarlariga baho berish malakasi adabiy-estetik ideallari misolida rivoj topadi.

3. Mutolaa, kitobxonlik madaniyati rivojlanishi darajasi asar tanlash, badiiy matn ishlash, adabiyotlarni tavsiya qilish kabi amaliy-ijodiy faoliyatga jalb qiladi. Mustaqil o'qib-o'rganish orqali bilimlarni uzatishga tayyorlaydi.

O'qish faoliyati keng tushuncha sanaladi. Bunda muallif nuqtayi nazarini idrok etish orqali o'quvchi uning ideallariga qo'shiladi, qahramonlarga hamdardlik tuyg'ulari uyg'onadi. Natija-

¹ **Kambarova Saodat Ikinovna** — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek adabiyoti ta'limi kafedrasida dotsenti.

E-pochta: saodatkambarova73@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-9700-0685

Iqtibos uchun: Kambarova S.I. 2024. "Mutolaa madaniyatini rivojlantirish omillari". O'zbekiston: til va madaniyat. 4[2]: 93—101.

da intellekti, axloqiy sifatlari va estetik didi o'sadi. Badiiy asarlarni o'qish va adekvat idrok etish, avvalo, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va chuqurlashtiradi. Ikkinchidan, bilim zaxirasi va his-tuyg'ularini boyitadi, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Uchinchidan, nutqini sayqallaydi va rivojlantirishga hissa qo'shadi. Professor M.Mirqosimova ta'kidlaganidek, "...o'qish davomida ijodkor yaratgan tafakkur tarzi anglanadi, o'zlashtiriladi, muhokama qilinadi, kitobxon ko'z o'ngida yaratilgan poetik manzara yoki holat ham tashqi, ham ichki harakatlar, tuyg'ular orqali idrok etiladi, his qilinadi. O'sha ta'sirchan manzarani yaratishda shoir yo yozuvchi qo'llagan tasvir vositalariga sirdan ahamiyat berilmaydi, asosiy e'tibor o'qish jarayonida mazmunga, obrazning ichki ma'nolariga jalb etiladi" [Mirqosimova 2006, 18].

So'z san'ati sifatida adabiyot o'quvchilar shaxsi va madaniyati yuksalishiga faol ta'sir ko'rsatadigan, asar qahramonlari kechinmalari, his-tuyg'ulari, intilishlari tasviri badiiy in'ikos topgan, muayyan hayotiy nuqtayi nazarlarning bitmas-tuganmas manbayidir. Aynan adabiyot fani o'quvchilarning hissiy sohasini maqsadli va izchil rivojlantirish uchun shug'ullanishga mo'ljallangan. Adabiyotning o'rni tarixan Forobiy, Beruniy, Yugnakiy, Navoiy; Suqrot, Platon, Gegel kabi donishmandlarning falsafiy asarlarida belgilab berilgan. Ular ijodida adabiyotga haqiqatni ochish vositasi sifatida qaralgan, muallif dunyosining namunasi sifatida tan olingan.

Psixologiyada hissiyot va emotsional holatlar muammosi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, bu borada L.S.Vigotskiy, M.S.Kagan, I.S.Kon, A.A.Leontev, P.M.Yakobson kabi mutaxassislar tomonidan hissiyotning shaxsiyat rivojlanishiga ta'siri o'rganilgan. L.S.Ayzerman tomonidan badiiy adabiyotning hissiy ta'siriga jiddiy e'tibor berilgan [Ayzerman 1990, 80]. R.I.Albetkova [Albetkova 1991, 175], G.I.Belenkiy [Belenkiy 1990, 192], V.A.Domanskiy [Domanskiy 2002, 82], E.V.Karsalova [Karsalova 1996 192] lar umuminsoniy qadriyatlarni anglash va o'zlashtirish jarayoni o'z-o'zidan sodir bo'lmasligi, o'quvchi adabiyot fanini o'qitish orqali ularning mavjudligini qaytadan yaratishi kerak deb biladilar.

B.Ziyomuhamedov, A.Saidov, A.Umarov, A.Mavrulov, J.Tulenovlarning tadqiqot ishlarida badiiy asar bilan muloqot jarayoni ichki ijodiy faoliyat bo'lib, empatiya orqali o'quvchida o'ziga va atrofidagi dunyoga yangi hissiy munosabati yuzaga kelishi haqidagi qarashlari mavjud.

Bizningcha, adabiy manba bilan uchrashish jarayonida hissiyotlar subyektning ichki tuyg'ulari va tajribasi orqali namoyon bo'ladi. Bu jarayon o'quvchilarga hayot haqidagi tushunchalarini yoritishga, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, shaxsiy muammolarini hal qilish yo'llarini topishga va dunyo haqidagi nuqtayi nazarlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Adabiyot o'qitish jarayonini bilim, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga molik hissiy tajriba orqali o'zgartirish o'quvchining o'zini-o'zi ijodiy rivojlantirishga hissa qo'shadi. Shu bois o'smirlikni dinamik o'zgaruvchan manfaatlar, qadriyatlar, shaxsiy yo'nalishlar va ehtiyojlariga muvofiq idrok etish zarurati mavjud.

O'smirlikni tarixan shakllangan ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tushunish hozirgi vaqtda turli xil psixologik-pedagogik konsepsiyalarda o'z aksini topadi. Bu bizga uni ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. O'smirlik fenomenining qiymati kattalar yordamida va ular bilan munosabatlarda inson taraqqiyotini ta'minlovchi madaniy boyliklarni o'zlashtirish; ijtimoiy olamning funksional, mazmunli va mohiyatan aniqlangan maxsus hodisasi sifatida; madaniy taraqqiyot va madaniy ijod davri sifatida; o'quvchi va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir mohiyatining ikki tomonlama tabiati haqida olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Bunda o'quvchi, bir tomondan, rivojlanish jarayonida o'z ruhiyatida "o'sadigan" madaniyat qadriyatlarini tushunsa, boshqa tomondan, uning o'zi madaniyatga tomon intiladi.

Faylasuflar, o'qituvchilar yoki san'at ahli zamonaviy o'quvchi bilimli bo'lib ulg'ayishi zarurligini ta'kidlashadi, ammo bu ularning o'z-o'zini rivojlantirishiga, chuqur bilim olishlariga yetarli emas. Buning uchun aniq amaliy faoliyat zarur. Hozirgi bolalar agar chinakam

rivojlanayotgan madaniy muhitga kirsalar, juda tez rivojlanadilar. Ko'plab tadqiqotlarda shaxsiyatni rivojlantirish muvaffaqiyati va o'qish hajmi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik ko'rsatiladi. Ya'ni qanchalik ko'p o'qilsa, shunchalik yaxshi rivojlanish bo'ladi, degan xulosalarga kelinadi.

Madaniyat va kitobxonlik bo'yicha taniqli sotsiolog S.N.Plotnikov turli tadqiqotchilarning kitobxonlar va "o'qimaganlar" o'rtasidagi tipik farqlar to'g'risidagi ma'lumotlarini umumlashtiradi va madaniy shaxsni rivojlantirish uchun kitobxonni rivojlantirish muhimligini isbotladi [Plotnikov 1999, 46]. Olimning so'zlariga ko'ra, kitobxonlar o'qimaydiganlardan aql-idroki rivojlanishi darajasi bilan ajralib turadi. Ular mulohazalarda tanqidiy, muammolar doirasida mustaqil fikr yurita oladilar, butunni tushunadilar va qarama-qarshiliklarni aniqlaydilar, vaziyatni adekvat baholaydilar. To'g'ri yechimlarga tezroq keladilar, katta xotira sig'imiga, faol ijodiy tasavvurga ega bo'ladilar. O'rinli gapirishlari, erkin yozishlari o'zaro aloqalarni osonlashtiradi. Kitobxonlik, haqiqatan ham, ma'naviy yetuk, ma'rifatli, madaniyatli va ijtimoiy qadrlı inson fazilatlarini shakllantiradi.

Adabiyotning tarbiyadagi o'rniga yetarlicha baho bermaslik, o'qish doirasi cheklanganligi, bir tomondan, uning vazifalarini yaxshi tushunmaslik, boshqa tomondan, o'quvchida kitobxonlik ko'nikmasi yaxshi shakllanmaganligi natijasidir. O'quvchilarni adabiyot va o'qish jarayoni bilan tanishtirishdagi oqsashlar o'qimaslik, kitobga hurmatsizlik va aql-zakovat darajasining pasayishidan yuzaga keladi. Adabiy til, tasavvur, xotira, e'tibor madaniyatning individual modelini ishlab chiqishdagi qiyinchiliklar kabi aqliy jarayonning sifat jihatidan farq qiladigan yo'nalishidir. Ko'rinadiki, o'qish madaniyatining tizimli inqirozi kitobxonlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha ishlarga kompleks yondashilmaganligi natijasidir.

Olimlar axloqiy-estetik tarbiya tizimida kitoblarning o'rnini mediamahsulotlar egallayotganini ta'kidlaydilar. Xususan, I.I.Tixomirova bugungi kunda bolalar kitobxonligi negativizmi, ularning majburiy adabiyotlarni o'qishdan bosh tortishi, badiiy mukammal va saviyasi past asarlarni farqlay olmasligi bilan tavsiflanadigan inqirozli modeli haqida to'xtaladi. O'qish madaniyatini dayjestlar bilan almashtirish, bolalarning til tuyg'usini yo'qotish past saviyali o'qish demakdir [Tixomirova 2004, 248]. Shubhasiz, bular jamiyatning madaniy tanazzulga uchrashiga, aholining umumiy madaniy va kasbiy malaka darajalari pasayishi kabi salbiy oqibatlariga olib keladi.

Shaxs kamoloti kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga har jihatdan bog'liq bo'lib, mam-lakatimizda mazkur muammo pedagogik, sotsiologik va falsafiy aspektda maxsus tadqiq etilgan. Xususan, S.Matchonov, M.M.Nigmatova, O.A.To'raqulova, D.A.Muminova, Ch.H.Mirxoliqova, A.A.Umarov, A.Abdulazizov, E.Yo'ldoshev, S.Chiniyeva, D.A.G'aniyevalarning ilmiy ishlarida muto-laaning jamiyat a'zolari tafakkurini charxlovchi, aqlini peshlovchi, didini noziklashtiruvchi vosita ekanligi yoritilgan, kitobning tarbiyadagi o'rni belgilangan. Kitobga ongli munosabatni uyg'otishga doir zarur tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bugun o'quvchi madaniy kontekstdan tashqarida rivojlanmoqda. Aksariyat oilalarda kattalar o'qimaydilar, o'qisalar ham bu haqda gapirishni istamaydilar. Tabiiyki, bolalar kitobdan faqat maktabda faol foydalana boshlaydi, bunda ham faqat o'quv adabiyotlari bilan ishlash orqali shug'ullanadi. Badiiy adabiyot bilan muloqotga kirishishni ehtiyoj deb bilmaydiganlar soni ortib bormoqda. Shu o'rinda o'quvchilarning kichikligidan kompyuterga, elektron manbalardan foydalanishga odatlanganini qayd etgan holda ularning badiiy matn bilan muloqotining boshqa ko'rinishlari xususida so'z yuritish maqsadga muvofiq.

Matnni elektron manba orqali idrok etish turi amalda to'liq o'rganilmagan, bu esa o'quvchining fikrlash tarziga ta'sir qiladi. Kutubxonachi O.L.Kabachek to'g'ri ta'kidlaganidek, "bugungi yoshlar idrokining tarqoqligi, fikrlashi yuzakiligi, aqliy mehnatdan tez charchashi, voqealar va faoliyat turlarini o'zgartirishga tashnaligi, ehtimol, aynan kitobsiz o'tgan maktabgacha yoshdagi bolalik davridan kelib chiqqandir" [Kabachek 2003, 90]. Biz bu tarkibga

qo'shimcha tarzda aynan maktab davri va oila muhitini kiritishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Tadqiqotimiz jarayonida kitobxonlikka doir muammolarni o'rganish va tahlil qilish orqali o'quvchilar o'qishida kuzatilgan uchta aniq tendensiyaning ko'rsatishimiz mumkin.

Birinchi tendensiya o'quvchilarning o'qish madaniyati darajasiga ko'ra kuchli tabaqalanishi bo'lib, u kitoblar bilan ta'minlash imkoniyatiga ta'sir qiluvchi mintaqaviy farqlarga bog'liq. Oila budjeti, sifatli ta'lim, kitoblar, Internet va ma'lumotlarning boshqa manbalari mavjudligi kabilar.

Ikkinchi tendensiya — o'qish modelining o'zgarishi (o'qish maqsadlari va vazifalari). Bu yerda gap kitobxonlik obro', o'qimaslik uyat, deb qaraladigan jamiyatning kitobga asoslangan modeli haqida ketmoqda.

Tajribalaramiz davomida o'quvchilarga bo'sh vaqtlarida nima bilan shug'ullanishni yoqtirishlari haqidagi savol bilan murojaat qilindi. 2020-yilda kitob o'qish muammosi teledasturlarni tomosha qilish, o'yin o'ynash va kompyuterda ishlashdan keyingi o'rinlarda turgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich nisbatan yuqori pog'onaga ko'tarildi. Bu esa hukumatimiz tomonidan turli ko'rinishdagi rag'batlantirishlar joriy qilinganining mahsulidir. Hozirgi yosh kitobxonlar o'qish paytida his-tuyg'ularga berilishni yoqtirmaydilar, qahramonga hamdard bo'lishni bilmaydilar. Natijada bugun adabiyotni texnik jihatdan o'qiydigan, lekin ayni paytda o'qishni yaxshi bilmaydigan avlodni ko'ryapmiz. Ularda kitobdagi fikrni umuman ko'rmaslik, o'qishdan zavqlanmaslik holatlari seziladi.

Uchunchi tendensiya — bolani o'rab turgan muhit o'zgarishi sababli o'qish sifatining susayishi. Birgalikda mutolaa qilishga sharoit yaratish o'quvchilarning madaniy kitobxon bo'lib ulg'ayishi, ijodda o'zini anglay olishiga erishish mumkinligini ko'rsatadi.

Kitobning mohiyatini uni ko'p qirrali o'rganish asosida aniqlash mumkin, chunki mazkur muammo hozirgi vaqtda ijtimoiy fanlar e'tibor hududidadir. Kutubxonashunoslikda, avvalo, kitobxonni ijtimoiylashtirish va rivojlantirish vazifalari hal etiladi. Psixologiyada o'qish yosh jarayoni sifatida o'qish faoliyatining mohiyati nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Filologiyada uzluksiz adabiy ta'lim jarayoni o'rganiladi, pedagogikada o'qishga o'rgatish metodikasi va texnologiyalari ishlab chiqilmoqda. Adabiy ta'limda mutolaani kundalik ehtiyojga aylantirish muammolariga yechim izlanmoqda. Mutaxassislar va jamoatchilik fikr-mulohazalari mutolaa bilan bog'liq inqirozni qayd etishdan tortib, axborot jamiyatida o'qishning yangi modelini o'rnatishgacha qamrab olinmoqda.

Tan olish joizki, so'nggi paytlarda adabiy ta'limning o'zi ham "kitob — adabiyot — mutolaa" tushunchalari o'rtasida zarur bog'liqlikni o'rnata olmayapti. Shunga qaramay, adabiyot va uni o'qish ajralmas hodisadir. Binobarin, har ikkisi uyg'unlashib madaniyatga aylanadi. O'qilma-gan kitobning "sukut saqlashi" — bir uyum qog'oz bo'lgani kabi badiiy adabiyotsiz o'qish ham sof mexanik hodisadir. Mutolaa chog'ida o'quvchi bilan badiiy matn o'rtasida funksional aloqa o'rnatiladi. Mazkur holatda o'quvchining butun shaxsiyati ishtirok etadi.

Tadqiqot ishimiz muammosi o'qish madaniyati fenomenini turli rakursdan o'rganishga har jihatdan bog'liq. Shu nuqtayi nazardan o'qishning yuqori samaradorligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy buyurtmani bajarish quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Adabiy ta'limning kulturologik paradigmasida badiiy asardagi milliy va umuminsoniy qadriyatlar fenomenologik yondashuv doirasida tadqiq etiladi.

2. Adabiy ta'limda nazariy-metodik asos sifatida madaniy, fenomenologik (umumiy ilmiy daraja), faollik, aksiologik va akmeologik (maxsus ilmiy daraja) yondashuvlar yig'indisi sanaladi.

3. O'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasi turli fanlar chorrahasida birlashgan tamoyillarga asoslanib shakllantiriladi. Ular o'zida mutolaa madaniyatining mohiyatini ifoda etadi. Ushbu holatda o'qish madaniyati kulturologik yondashuv kontekstida ijtimoiy-pedagogik; adabiy ta'lim jarayonida tarbiyaviy; mutolaa xususiyatlari doirasida faoliyat hodisasi sifatida mujassamlanadi.

4. O'rganilayotgan jarayonning samaradorligi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar majmuyi: *mazmun* (o'quv dasturlari, o'quv va metodik qo'llanmalar ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish, rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkichlarini belgilash), *protssessual va texnologik* (o'qituvchilarda o'qish malakalarini rivojlantirish, ularning ta'lim subyektlari bilan ijtimoiy-pedagogik munosabatini ta'minlash asosida maxsus tashkil etilgan kitobga yo'naltirilgan rivojlanuvchi muhit) jarayonni yaratish orqali ta'minlanadi.

O'qish madaniyatini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishning metodik asosi sifatida umumiy ilmiy yondashuvlar yaxlitligi (fenomenologik, madaniy yondashuvlar) va aniq ilmiy darajadagi asosiy yondashuvlardan kompleks foydalanish (aksiologik, akmeologik, faoliyat yondashuvlari) taklif etiladi. O'qishning o'ziga xosligi ilmiy-pedagogik kontekstga "adabiyot bilan tanishish", "o'qishni o'rganish", "o'quvchini tarbiyalash" tushunchalari bilan bir qatorda "kitobxonlik madaniyati" tushunchalarini ham kiritishni taqozo etadi. O'quvchilarni o'qish jarayoniga jalb qilishning ijtimoiy, pedagogik va faoliyat asoslari bir vaqtning o'zida o'qish madaniyatini rivojlantirish jarayonini tavsiflaydi. Bu jarayon ta'siri ostida bolalarning o'qishga bo'lgan munosabati o'zgarishi nazarda tutiladi.

O'quvchi badiiy matn bilan "muloqot"ga kirishgan dastlabki daqiqalardan boshlab uni chuqurroq tushunish sari qadam qo'yiladi. "Matn mazmunini tushunish estetik kechinmalar bilan birlashib, analitik-sintetik faoliyatni ifoda etadi, badiiy idrokka tutashadi. O'quvchi asar mazmunini tushunib o'qishga harakat qilganda, o'zi esda olib qolayotgan voqea-hodisalarining aniq bo'lishiga intiladi. Badiiy idrok jarayoni kelib qo'shilganda esa, mazmun muayyan o'zgarishlar bilan qabul qilinadi. Adabiy tayyorgarlik ko'rayotgan o'quvchi asta-sekin shu darajani egallay boshlaydi" [Niyozmetova 2007, 29].

O'qish madaniyatini rivojlantirish modeli agar kattalar farzandlariga kitob bilan "muloqot qilish", matnni qanday o'qishni o'rgatishni bilishsa va o'qituvchi-fasilitator pozitsiyasini egallasa samarali ishlaydi. O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda bir qator mezon va ko'rsatkichlarga tayanish zarur. Bu mezonlar:

1. O'quvchining o'qish faoliyati: kitobni kuzatish, o'qish va o'rganish uchun mazmunli kitob tanlashga tayyorlik.

2. O'qishga shaxsiy munosabat: o'qish, adabiy-ijodiy faoliyat motivatsiyasi, o'qilgan asardan qimmatli va semantik ma'lumotlarni topish qobiliyati.

3. Adabiy asar matnini idrok etish darajasi: matnni estetik idrok etishga tayyorlik.

4. Badiiy asar matnini idrok etish tabiati: o'qilgan asarga munosabat.

5. *Shaxsiy o'zgarishlar*: o'quvchilar kognitiv sohasini rivojlantirishda sodir bo'lgan o'zgarishlar, qadriyat yo'nalishlari tabiati, o'zi, tengdoshlari, kattalar, oilasi va yashayotgan mamlakati haqidagi fikrlar.

6. *Kitob va adabiyot haqidagi bilimlar*: kitobning maqsadi haqida fikrlari mavjudligi, yoshiga mos adabiy-nazariy bilimlarni egallash.

O'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mezonlari o'qishga shaxsiy munosabatining namoyon bo'lish ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Jumladan: a) badiiy asar matnini idrok etish darajalari (bosqichlari) orqali; b) o'quvchining o'qish faolligi ko'rsatkichlari orqali; d) o'zlashtirilgan elementar o'qish ko'nikmalari orqali; e) o'quvchi shaxsiyatini o'zgartirish ko'rsatkichlari orqali.

O'qish madaniyati takomilida adabiy ta'limdagi zamonaviy tendensiyalar, nazariyalar va o'quvchilar yosh xususiyatlariga tayaniladi. Konseptual metodning nazariy asosi tilshunos, adabiyotshunos va kulturolog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, markazida nazariy tushunchalar kategoriyasi yotadi. Konsepsiya inson ruhiy olami va madaniyatining asosiy birligidir. Insonning dunyo haqidagi shaxsiy bilimlari konseptual tizim doirasida rivojlantiriladi. Bilim shaxsning obyektiv faoliyatiga doir tushuncha va operatsiyalar haqidagi ma'lumotlar bilan bog'liq. Ongdagi mavjud tushunchalar, o'z navbatida, yangilariga ehtiyoj

tug'diradi. Konsepsiya lingvistik muloqot va shaxsning voqelikni mustaqil bilishidan boshlanadi. D.S.Lixachevning ta'kidlashicha, "badiiy dunyo haqiqatni, matndagi ma'nolarning ayrim potentsiallarini ma'lum darajada aks ettiradi. Ijoddagi tushunchalar tizimi sifatida muallif (yoki aks ettirilgan davr) nuqtayi nazarini ham ifodalaydi" [Lixachev 1997, 283].

Umumta'lim tizimida jiddiyoq e'tibor qaratishni taqozo qiladigan tushunchalar mavjud bo'lib, ularni shartli ravishda: universal (dunyo, hayot, o'lim, boqiylik, haqiqat); ijtimoiy (nizo, jinoyat, jazo, hokimiyat, urush, tinchlik, jamiyat, shaxs, oila); axloqiy (yaxshilik, yomonlik); estetik tushunchalar (chiroyli, xunuk, ideal, badiiy, obraz, garmoniya, disgarmoniya)ni tanlash mumkin bo'ladi.

Badiiy asarlarda alohida guruhlar tarzidagi madaniy va qadriyat tushunchalari ajratiladi. Oldimizda turgan vazifa mazkur tushunchalar tipologiyasini taqdim etishdir. Masalan, "ezgulik" va "yovuzlik" tushunchalarini o'rganish misolida ularning ma'nosi ustida ishlash mazmuniga to'xtalamiz. Bu tushunchalarni global jihatdan ko'rib chiqish mumkin. Masalan, "sadoqat" tushunchasini ekzistensial daraja tushunchasi, ijtimoiy darajadagi "xiyonat"ning qarama-qarshiligi va shaxs ichki dunyosi uchun ahamiyatli tushuncha sifatida ko'rish mumkin. Shu o'rinda umumiy o'rta ta'lim maktablari 10-sinfida A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan parchani o'rganish darslarini metodik jihatdan tashkil qilishda ayrim tushunchalar ustida ishlashning mantiqiy ketma-ketligini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Adibning "hamma asarlarida ham — hajviymi, fojia viymi, ulug'vorlikmi — hammasida qandaydir sehrli his, shekspirona ehtiros sezilib turadi. Bu ehtiros doim hayotdan tanlab olingan realistik voqealar asosida quriladi. Yozuvchi asarlarida kitobxon his-tuyg'ularini tirnash, uyg'otish uchun atayin harakat qilmaydi. Balki buni u o'zining san'atkorlik ehtirosi bilan namoyon qiladi" [Qo'shjonov 1982, 44-45]. Mana shu jihatni e'tiborga olib, adib ijodini o'rganishda insoniylik (lafz, insof, sadoqat) va unga zid (beburdlik, loqaydlik, hasad) tushunchalar ma'nolariga aniqlik kiritiladi. Adabiyot o'qitishni o'quvchi shaxsiga yo'naltirish asosidagi yondashuv umumlashtiruvchi darslarni talab qiladi. O'quv materiali bir qarashda an'anaviy mavzuga nisbatan qiziqishni kuchaytiradi.

Yuqoridagilar o'quvchilarga ekzistensial tushunchalarning ma'no darajalari potentsial ochiqligi, ularni shaxsiy talqin qilish imkoniyati haqida xulosa chiqarishga sharoit yaratadi. Biroq, bu turdagi dars samarali bo'lishi uchun katta hajmdagi dastlabki ishlar amalga oshirilishi kerak. Ilk darsda, avvalo, asarning birlamchi idroki haqida kirish suhbatini o'tkazish, so'ngra boshlang'ich o'qish darajasidan boshlab, roman nomining ma'nosini tushuntirish vazifasini berish mumkin. Masalan, "Tilshunoslar" guruhi lug'atlarga asoslanib, asar nomi bilan bog'liq tushunchalar talqinlarini tanlashlari; "Adabiyotshunoslar" guruhi roman matni va ularning matndagi ma'no darajalarini ajratib ko'rsatishlari mumkin bo'ladi. "Biograflar" nomi bilan ish ko'ruvchi boshqa guruh muallif haqidagi biografik ma'lumotlarni tahlilga tortishlari yoxud adib shaxsiyati, bitiklari, ijodining sharhiga murojaat qilishlari va xulosa chiqarishlari ko'zda tutiladi. Bir guruh "Psixolog"lar tengdoshlarining "qora kunlar", "qonliq bulutlar", "najot farishtasi" kabi iboralar, ularning nimaga ishora ekanligi haqidagi va mutolaa davomida dastlabki fikrlari bilan yakuniy fikrlari qay darajada o'zgarishlarini kuzatadilar. Muallif nuqtayi nazarini va bu o'zgarishlarning sabablarini tushuntirishlariga harakat qiladilar.

O'quvchilar darsdan tashqari vaqtlarda ham faoliyatini davom ettirishlari mumkin. Agar dars soatlari yetarli bo'lmasa, ikkita juftlik mashg'ulotlar tashkil etiladi. O'quvchilar ish natijalarini og'zaki va yozma variantda taqdim qilishlari lozim. Guruhlarning chiqishlari og'zaki taqdimot shaklida 5—7 daqiqa uyushtiriladi. Yakunlangan vazifalar natijasi yozma hisobot yoki taqdimot holida taqdim etiladi. Aniq, lo'nda, ilmiy usulubda tayyorlanadi hamda jadval, diagramma, raqam va imzolar bilan hisobot ko'rinishini oladi. "Tilshunoslar" guruhi turli lug'atlar ("Mumtoz asarlar lug'ati", "O'zbek tilining izohli lug'ati", "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi")dan foydalanib, romandagi tayanch yoki bugungi kun o'quvchisi uchun notanish

soʻzlar maʼno variantlarini guruhlab taqdim etadilar (1-jadvalga qarang). Bunda asarda tasvirlangan davrga oid roʻzgʻor anjomlari, xalq ichida urf boʻlgan rasm-rusumlar yoki qaysidir sohaga tegishli soʻzlar uyalarga birlashtirilib izohlanishi, kontekstdagi maʼnosiga aniqlik kiritilishi oʻquvchilarning tasavvurlarini yanada yorqinlashtiradi. Adabiyotshunoslar” guruhi arxaizm, dialektizmga asardan misollar tanlashi, lugʻatlardan foydalanishi mumkin boʻladi.

1-jadval

Soʻz maʼnolari ustida ishlashga oid izohli jadval

Maʼnosi	Misollar
Dodxoh. Forscha daʼvogar, odillik istovchi. 1. Adolattalabetuvchi, adolat istovchi, daʼvogar. 2. Buxoro xonligida adolat, haq-huquqini istovchilardan amir nomiga ariza qabul qiluvchi va uning javobini arzhilarga yetkazuvchi lavozimli kishi. 3. Qoʻqon xonligida qozixona ishlari ustidan nazorat olib boruvchi amaldor. 4. Oʻtmishda Fargʻona vodiysi va Toshkentda mingboshi va boshqa amaldorlarni ulugʻlash uchun ishlatilgan soʻz (D harfi. 104-b.).	Raimbek <i>dodxoh</i> ning yonidagi bizga tanish olabayroq toʻnlik kishi Hasanalini koʻrishi hamono: — Haa, bizning Hasanali-ki! — dedi... (52-b.).
Parvonachi. Tarixiy soʻz. Xonliklar davrida: hukmdor farmoni va buyruqlarni bituvchi kotib; oliy darajadagi saroy mansabdorlaridan biri (P harfi. 24-b.).	Shuning bilan Aziz <i>parvonachining</i> istiqboliga lozim va vojib boʻlgan barcha tartib va tantana hozirlangan boʻlindi.
Ponsad. Forscha besh yuz. Xonliklar davrida: askar boshliqlaridan biriga berilgan unvonlardan biri va shu unvonga ega boʻlgan, odatda, 500 kishidan iborat harbiy qismga boshchilik qilgan shaxs (P harfi. 99-b.).	Shu gapdan keyin qushbegi maktubni oʻziga yaqin oʻlturgan Azim <i>ponsad</i> boshiga uzatdi... (59-b.).
Qutidor. Ar.fors. quti egasi. 1. Quti-quti puldunyosi boʻlgan yirik boy; sarmoyador. 2. Qoʻqon xonligida: oliq-soliqlardan toʻplan-gan pullarni qabul qilib oluvchi, saqlovchi va xon xazinasiga topshiruvchi amaldor (Q harfi. 196-b.).	<i>Qutidor</i> boʻlsa chin oʻlik tusiga kirgan edi (56-b.).
Qushbegi. Tarixiy soʻz. Amir va xonlar saroyida bosh vazir yoki huquqi vazirga teng boʻlgan yirik amaldor; hokim (Q harfi. 200-b.).	<i>Qushbegining</i> buyrugʻi bilan ikki gunohkor tiz choʻkib oʻlturdilar (61-b.).
Shohichi. Aynan. Shoyifurush (Sh harfi. 72-b.) [Oʻzbek tilining izohli lugʻati www.ziyo.uzcom kutubxonasi].	Ziyo <i>shohichi</i> bilan oʻgʻli Rahmat bu bogʻiyliqdan xabardor boʻlaturib, vaqtida hukumatka maʼlum qilmagʻanlari uchun bir yildan zindon jazosiga mahkum boʻlurlar! (56-b.) [Toʻxliyev 2017, 26-64].

Xulosa

Agar oʻqituvchi oʻquvchilarni asarning yaratilish tarixi, muallifning ijodiy va shaxsiy hayotidagi oʻrni, adabiy tanqidda ochiladigan maʼno tahlili haqidagi faoliyat turlariga qiziqтира, u shaxsiyatga yoʻnaltirilgan boʻladi. Oʻquvchilarga oʻz-oʻzini tahlil qilish, iqtidorini yuzaga chiqar-

rish uchun beriladigan motivatsiya kognitiv qiziqishning uygʻonishiga olib keladi. Oʻquv muammolarini hal qilishga qaratilgan natijalarni taqdim etishda dialog yoki yozma nutq, vizual maʼlumotlar bilan ifodalangan xabarlar (diagramma, jadval, rasmlar koʻrinishida) hamda multimedia imkoniyatlari asosida tayyorlangan taqdimotlar oʻz samarasini beradi.

Adabiyotlar

Альбеткова, Р.И. 1991. Активные формы преподавания литературы. Москва: Просвещение.

Айзерман, Л.С. 1990. "С углубленным изучением литературы". Педагогика и психология 11: 80—85.

Беленкий, Г.И. 1990. Приобщение к искусству слова: (Раздумья о преподавании лит. в shk.). Москва: Просвещение.

Доманский, В.А. 2002. "Литература и культура. Культурологический подход к изучению". Словестности в школе 4: 82—91.

Кабачек, О.Л. 2003. "Влияние новых информационных технологий на читательскую культуру дошкольника". Детский сад от А до Я 1: 90—93.

Карсалова, Е.В., Леденов А.В., Шапавлова Ю.М. 1996. Серебряный век русской поэзии. Москва: Новая школа.

Лихачев, Д.С. 1997. Концептосфера русского языка // Русская словесности к структуре текста. Москва: Академия.

Ниезметова, Р.Х. 2007. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. Тошкент: ФАН.

Плотников, С.Н. 1999. Чтение и экология культуры. Москва: Дом интеллектуальной книги.

Қўшжонов, М. 1982. Адабий портретлар. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.

Тихомирова, И.И. 2004. Психология детского чтения от, А до Я: Методический словарь-справочник для библиотекарей. Москва: Школьная библиотека.

Toʻxliyev, B., Karimov, B., Usmonova, K. 2017. Adabiyot. Oʻrta taʼlim muassasalarining 10-sinfi va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarining oʻquvchilari uchun darslik-majmua. 2-qism. Toshkent: "Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. www.ziyo.uzcom kutubxonasi.

Factors of development of reading culture

Saodat Kambarova¹

Abstrakt

Increasing interest in reading is a global trend and many countries are implementing their strategies and programmes in this regard. They are looking for effective ways to tackle it, because reading plays an important role in the development of any country. However, in different countries, the participating institutions use different instruments to determine the nature of the objectives, the scope and the content of the tasks. In our republic, the measures

¹ **Kambarova Saodat Irkinovna** — Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD), dotsent of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoiʼi.

E-pochta: saodatkambarova73@mail.com

ORCID: 0000-0002-9700-0685

For citation: Kambarova, S. 2024. "Factors of development of reading culture". Uzbekistan: Language and Culture. 4[2]: 93—101.

defined in accordance with the decisions on improving the reading culture of the population are a large-scale and blind process, and the result is measured by the level of adult readers. After all, the activity of reading grandparents, parents or reading brothers and sisters is a lesson in this respect. This article, dedicated to this issue, talks about the content of getting students interested in reading.

Key words: *artistic work, author, reading culture, reading activity, reading model, reading, reader, word art.*

References

- Альбеткова, Р.И. 1991. Активные формы преподавания литературы. Москва: Просвещение.
- Айзерман, Л.С. 1990. "С углубленным изучением литературы". Педагогика и психология 11: 80—85.
- Беленкий, Г.И. 1990. Приобщение к искусству слова: (Раздумья о преподавании лит. в shk.). Москва: Просвещение.
- Доманский, В.А. 2002. "Литература и культура. Культурологический подход к изучению". Словесности в школе 4: 82—91.
- Кабачек, О.Л. 2003. "Влияние новых информационных технологий на читательскую культуру дошкольника". Детский сад от А до Я 1: 90—93.
- Карсалова, Е.В., Леденов А.В., Шапавлова Ю.М. 1996. Серебряный век русской поэзии. Москва: Новая школа.
- Лихачев, Д.С. 1997. Концептосфера русского языка // Русская словесности к структуре текста. Москва: Академия.
- Ниёзметова, Р.Х. 2007. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. Тошкент: ФАН.
- Плотников, С.Н. 1999. Чтение и экология культуры. Москва: Дом интеллектуальной книги.
- Қўшжонов, М. 1982. Адабий портретлар. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Тихомирова, И.И. 2004. Психология детского чтения от, А до Я: Методический словарь-справочник для библиотекарей. Москва: Школьная библиотека.
- To'xliyev, B., Karimov, B., Usmonova, K. 2017. Adabiyot. O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. 2-qism. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. www.ziyo.uzcom kutubxonasi.

**ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINING “ЛИТЕРАТУРА” DARSLIKLARIDA
AKS ETISHI**Iroda Ishonxanova¹**Annotatsiya**

Alisher Navoiy buyuk shoir, mutafakkir, davlat arbobi sifatida butun dunyoga mashhur shaxsdir. Uning hayot yo'li hamda adabiy merosini o'rganish masalasi hamma zamonlarda ham eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan. Shu jumladan, yurtimizdagi ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda ham Alisher Navoiy shaxsiyatini o'rganishga alohida e'tibor beriladi. Ushbu maqolada ta'lim rus tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablarining adabiyot darsliklari ko'rib chiqilgan. Bu darsliklardagi Alisher Navoiyga taalluqli bo'lgan mavzular borasida fikr-mulohazalar bildirilgan. Shoir ijodidan keltirilgan namunalarning janr, mavzu ko'lamini hamda o'quvchilar o'rganishidagi samaradorlik masalalariga e'tibor berilgan. Shu bilan birga, Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'qitish yuzasidan shaxsiy tavsiyalar ham berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *darslik, o'quv mashg'uloti, ruboiy, g'azal, hikmatli so'z, doston, fard.*

Kirish

Alisher Navoiy shaxsiyati nafaqat Sharq she'riy olami, balki jahon madaniyati va adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan ijodkordir. Uning asarlari dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilinishi bilan birga, turli davlat olimlari tomonidan Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatiga doir ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Bunday izlanishlar bugungi kunda ham qizg'in davom etmoqda. Shuningdek, dunyoning ko'plab mamlakatlarida ta'lim tizimining turli bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatiga oid manbalar o'rganiladi. Ushbu mavzularni o'rganish uchun ma'lum soatlar ajratilgan. Shu jumladan, O'zbekistondagi ta'lim rus tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablarining “Литература” darsliklarida ham g'azal mulkining sultoniga tegishli ma'lumotlar aks etgan.

Asosiy qism

Keyingi yillarda jamiyat hayotida katta o'zgarishlar yuz bermoqda: yangicha texnologiyalar ko'plab sohalarning isloh qilinishiga zamin bo'lib xizmat qilmoqda. Bunday islohotlar, o'z navbatida, ta'lim tizimida ham yangilanishlarni boshlab bermoqda. Turli yillarda nashr etilgan darsliklarni ko'zdan kechirganimizda, oxirgi yillardagi nusxalari avvalgilaridan ancha farq qilishini kuzatamiz. Ayniqsa, adabiyot darsliklarida sezilarli o'zgarishlar bo'ldi. Badiiy adabiyotning ma'naviyatga, tafakkurga, madaniyatga, nutq boyligiga qanchalik samarali ta'sir ko'rsatishi umumiy o'rta ta'lim maktabi darsliklarida aks ettirildi. Bu holat adabiyot o'quv mashg'ulotlarining qiziqarli hamda mazmunli o'tishida juda muhim ahamiyatga ega.

Biz o'z mavzumiz doirasida, ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarning “Adabiyot” (“Литература”) darsliklarini ko'rib chiqdik. Rusiy zabon o'quvchilarga Alisher Navoiy haqida ma'lumot berish 6-sinf darsligidan boshlanadi. Darslikda Alisher Navoiy shoir, musiqachi, rassom va davlat arbobi sifatida tanishtiriladi. Uning o'ziga xos xususiyati sifatida o'zbek

¹ **Ishonxanova Iroda Abduvaxitovna** — Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-pochta: irodaishonxanova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-1761-8408

Iqtibos uchun: Ishonxanova, I. 2024. “Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi”. O'zbekiston: til va madaniyat. 4[2]: 102—110.

she'riyati quyoshi hamda o'zbek adabiy tilining asoschisi ekanligi aytib o'tiladi. Shu o'rinda darslikda "zullisonayn" so'zining qo'llanishi hamda izohi berilishi diqqatga sazovordir. Chunki bu so'z umumiy o'rta ta'lim tizimida juda kam ishlatiladi va ko'p o'quvchilar ma'nosi haqida ma'lumotga ega emas. Darslikda Alisher Navoiyning sevimli janrlaridan biri ruboiy bo'lganligi aytib o'tilgan hamda ruboiylardan namunalar keltirilgan.

Здесь розы нет, а мне о ней твердят!
 Пройти б у сада — вдоль его оград —
 Пусть прелесть розы очи не узрят,
 Зато вдохну чудесный аромат!
 (Gul zikrin eshiturmen-u, yo'q guldin asar,
 Bu bog' eshigidin istaram oncha guzar.
 Kim, topmasa gul jamolidin bahra nazar,
 Bore isidin yetsa dimog'img'a xabar.)

Кто службой шаху добывает хлеб,
 Тот может быть и хром, и глух, и слеп.
 Но тайну скрыть и быть немым, что склеп, -
 Труднейшая из всех земных судеб.
 (Kim istasa saltanat, saxodur anga shart,
 Har va'daki aylasa vafodur anga shart.
 Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart,
 Ollig'a nekim kelsa, rizodur anga shart.)
 Ruboiylar matnidan so'ng topshiriqlar berilgan:

1. Tajriba o'tkazing: ko'zingizni yuming va atirgulni tasavvur qiling — u qanday rang bo'lishi mumkin? Qo'l bilan ushlashingizni tasavvur qilib ko'ring. Uning hidini his qiling.
2. Ruboiy satrlarni tahlil qilib, daftaringizga jadval chizing. Shoir g'oyasini ko'rsating, ushbu fikrga qo'shilasizmi yoki yo'qmi, fikringizni asoslab bering:

Alisher Navoiy ruboiylaridan bayt	Muallifning g'oyasi	+/-	Fikringizni asoslang
Kim istasa saltanat, saxodur anga shart, Har va'daki aylasa vafodur anga shart.			
Gul zikrin eshiturmen-u, yo'q guldin asar, Bu bog' eshigidin istaram oncha guzar.			

Agar birinchi topshiriq atirgul haqidagi birinchi ruboiyga tegishli bo'lsa, ikkinchi topshiriq barcha ruboiylarga tegishli.

Yana shu o'rinda "Burime" o'yini ham beriladi. Bunda bir-biriga qofiyadosh so'zlar beriladi. O'quvchilar ular yordamida ikki misra she'r to'qishlari kerak bo'ladi. Bu o'quvchilar-dagi ijodkorlik hamda hozirjavoblikni oshiradi. Bunday topshiriqli o'yinning Alisher Navoiy ruboiylaridan so'ng berilishi ham ayni muddao, nazarimizda.

Rusiyzabon o'quvchilarga Alisher Navoiy haqida ma'lumot berish 7-sinf darsligida davom etadi. «Алишер Навои. Афоризмы» mavzusida aforizmlar haqida nazariy ma'lumotlar berilgan, mashhur kishilarning mutolaa va tafakkur haqidagi hikmatli so'zlaridan namunalar keltirilgan. So'ng Alisher Navoiyning hikmatli so'zlari berilgan. Masalan:

Язык является духовной сокровищницей замком, а слово — к этому замку ключом.
(Ko'ngil hazinasining qulfi — til; u hazinaning kalitini — so'z bil.)

Посеешь горечь — горек плод,
От сладких зёрен — сладкое взойдет.
(Kishi xanzal eksa, achig' bar topar,
Va gar nayshakar eksa, shakkar topar.)

Твори добро и не болтай о том,
Хороших дел не порти хвастовством.
(Qil yaxshilig-u demakni doxil qilma,
Minnat bila yaxshilikni botil qilma.)

Терпенье одолеет все дела,
А спешка лишь к беде всегда вела.
(Sabr bila ko'p bog'liq ish ochilur,
Ishda oshiqqan ko'p toyilur.)

Hikmatli so'zlardan so'ng shunday amaliy topshiriqlar berilgan:

1. Alisher Navoiyning o'zingizga yoqqan aforizmini tanlang va sxema bo'yicha tahlil qiling:

Muallif ni ta'kidlaydi / rad etadi / isbotlaydi.

Muallif quyidagi xususiyatlarga e'tibor qaratadi:

- Muallif vani qiyoslaydi.

- Muallifning ma'nosini ifodalaydi.

2. Alisher Navoiyning ko'rsatilgan aforizmlaridan o'z hayotingizda sodir bo'lgan voqea bilan bog'liq uchtasini tanlang. Ular haqida so'zlab bering.

Topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi hamda o'z mulohazalarini erkin bayon eta olishiga asoslangan. Bunda bola hikmatli so'zlar mazmunini chuqurroq tushunishga harakat qiladi. O'z fe'l-atvorida qanday xususiyatlarni jamlashi kerakligi haqida fikr yuritadi. O'z hayotidagi voqea bilan qiyoslash ham juda qiziqarli topshiriq. O'quvchi chiqargan xulosasi orqali Alisher Navoiyning naqadar bilimdon inson ekaniga amin bo'ladi. Shu bilan birga, necha asr oldin aytilgan fikrning bugungi kunda ham dolzarbligi sababli, ulug' shoirga bo'lgan hurmati ortadi.

Yana shu darslikda Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidan parcha berilgan.

Я славлю жемчуг слова! Ведь оно
Жемчужницею сердца рождено.
Четыре перла мирозданья — в нём,
Всех звезд семи небес блистанье — в нём...

Ведь слово — дух, что в звуке воплощён,
Тот словом жив, кто духом облачён...
С булатным ты язык сравнил клинком,
С алмазным слово я сравню сверлом.

Речь — лепесток тюльпана в цветнике,
Слова же — капли рос на лепестке.

Ведь словом исторгается душа,
Но словом очищается душа.

(So'z guharig'a erur oncha sharaf,
Kim bo'la olmas anga gavhar sadaf.
To'rt sadaf gavharining durji ul,
Yetti falak axtarining burji ul.

Jon o'lub ul, run aning qolibi,
Kim tanida ruh, aning tolibi.
Gar xud erur xanjari po'lod til,
Suftidog'i injulari so'zni bil.

Til bu chamanning varaqi lolasi,
So'z duraridin bo'lubon jolasi.
So'zdin o'lukning tanida ruhi pok,
Ruh dog'i tan aro so'zdin halok.)

Darslikda fard haqida nazariy ma'lumot berilgan va Alisher Navoiy fardi namuna sifatida keltirilgan.

Друг обвинит — молчи; он хочет, чтоб в зеркало упал твой взгляд,
Коль мутно в зеркале, не думай, что в этом друг твой виноват.

Ushbu fard shoirning

Kishi aybing desa, dam urmag'ilkim, ul erur ko'zgu,
Chu ko'zgu tiyra bo'ldi, o'zga aybing zohir aylarmu?

fardi tarjimasidir. Mazmuni: Aybingni aytgan kishini yoqtirmaslik hammaga xos. Lekin bu bilan o'ziga zarar qilayotganini hazrati Navoiyning ushbu fardi kishiga juda tushunarli va ta'sirli qilib yetkazib beradi. Chindan ham dam urilsa, ya'ni nafas tegsa, ko'zgu xiralashadi. Shu kabi to'g'ri gapga chidamay jirillash ham keyingi safar aybingning aytilmasligiga olib keladi. Ya'ni ma'naviy ko'zguni xiralashtiradi. Fardda payg'ambarimizning: «Musulmon musulmonga ko'zgu», degan hadislar shoir tomonidan o'ziga xos tarzda badiiy shaklga solingan.

Lekin biz rus tilidagi (Vsevolod Rojdestvenskiy tarjimasi) variantini ko'rib chiqsak, mazmuni biroz farq qiladi: Do'sting ayblasa — sukut saqla, u nigohing ko'zguga tushishini xohlaydi. Agar ko'zgu xiralashsa, bunda do'stingni aybdor deb o'ylama.

Mantiqan olib qaralganda, tarjima mazmuni ham farddagi g'oya ifodasiga xizmat qiladi. Chunki ko'zgu xira bo'lsa, ya'ni aybini ko'rsatmasa, do'st aybdor bo'lmaydi. Aybini eshitgisi kelmayotgan kishi aybdor, chunki u ko'zguni o'z nafasi orqali xiralashtiradi.

Darslikda keltirilgan bu fard 7-sinf o'quvchilari yoshi hamda fikrlash doirasiga mos deb hisoblaymiz.

Shuningdek, Oybekning "Navoiy" romanidan parchani ham ushbu darslikda o'qish mumkin. Ijodga berilib ketgan Navoiy o'zining birinchi qor munosabati bilan ziyafatga taklif etilganini ham unutadi. Natijada, turkiy tildagi go'zal ijod namunalari yaratiladi. Matndan so'ng savollar berilgan. Bunda matnda keltirilgan Navoiyning "Час размышления лучше, чем год благочестия" (Bir soat fikr yuritish bir yillik taqvodan afzaldir) hikmatli so'ziga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari "Hayrat ul-abror" dostonidan keltirilgan parchadan "so'z" tushunchasining gullagan bog' bilan qiyoslash o'rinlarini topish vazifasi berilgan. Bu jarayon o'quvchining so'z qadrini his qilishiga yordam beradi.

Ta'lim rus tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf adabiyot darsligida Alisher Navoiy hayot yo'liga keng o'rin berilgan. Mashhur shoirimiz Hamid Olim-

jonning Alisher Navoiy haqidagi she’ri epigraf sifatida qo’llanib, so’z mulkingning sultoni hayot yo’li haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shoirning bolalik, o’smirlik, ta’lim yillari haqida gapirilar ekan, she’r yozishni mashq qila boshlagani aytib o’tilgan. O’z taxalluslarining mazmunini orqali tilga bo’lgan munosabatini bildirgani ta’kidlangan. (Поэтические произведения, написанные на узбекском языке, Алишер подписывает «Навои»(мелодичный), а под стихами, созданные на фарси, ставит подпись «Фани»(бранный, смертный). В этих псевдонимах четко проглядывается отношение поэта к данным языкам.) Keyinchalik saroyda muhrdor, vazir lavozimlarida ishlagani, madrasa, hammom, masjid, kasalxona kabi binolar qurdirgani, ijod ahliga homiylik qilgani sanab o’tilgan. Shuningdek, turkiy tilning rivojlanishi va taraqqiyotida Alisher Navoiyning xizmati beqiyos ekanligi alohida ta’kidlab o’tilgan. Bundan tashqari, Alisher Navoiyning ko’plab asarlari haqida ma’lumot berilgan. Jumladan, “Muhokamat ul-lug’atayn”, “Xazoyin ul-maoniy”, “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub” asarlari tarkibi hamda mazmuni aytib o’tilgan. Shuningdek, Alisher Navoiy eski o’zbek adabiy tilining rivojini o’z hayot maqsadi qilib olganligi va g’azallari orqali turkiy tilni yuksak darajaga olib chiqqani ta’kidlanadi. “Xamsa” dostonlarini ham birinchi bo’lib turkiy tilda yozganligi o’z iqtidorini to’la namoyish qilganligini anglatadi.

8-sinf darsligiga Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidan parchalar kiritilgan.

Не два понадобилось слова ей, —

Пять слов служило тут основой ей:

«Фирак» — разлука. «Ах» — стений звук,

«Рашк» ревность, корень самых горьких мук,

«Хаджр» — расставанье. «Дард» печали яд.

Сложи пять первых букв, прочтешь: «Фархад».

(Anga farzona Farhod ism qo’ydi,

Hurufi ma’xazin besh qism qo’ydi.

Firoqu rashku hajru oh ila dard,

Birar harf ibtidodin aylabon fard.)

Agar Farhod ismidagi harflarning ketma-ketligini kuzatsak, rus tilidagi tarjimada biroz o’zgarishni ko’ramiz. Arab tilidagi “alif” harfining “o” va “a” unlilarini ifodalashi haqidagi ma’lumotni qabul qilish rus kitobxonlariga qiyinchilik tug’dirmasligi uchun shu ko’rinish ma’qul ko’rilgan deb hisoblaymiz. Ushbu tarjima 1968-yilda O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tomonidan chop etilgan Alisher Navoiyning rus tilidagi 10 tomlik asarlarining 4-tomidan o’rin olgan.

Darslikda berilgan boblarda Farhodning bolaligi, uning zehri o’tkir va bilimli bo’lib yetishgani, xotirasi kuchliligi, “Qur’on”ni juda qisqa muddatda yod olgani haqida hikoya qilinadi. Bu holatlar 8-sinf o’quvchilari uchun namuna vazifasini o’taydi, ular Farhoddan ibrat oladilar.

Ayniqsa, Farhodning iqtidorlari sanab o’tilgan parchalarga alohida e’tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz. Masalan:

Фархад особенным ребенком рос:

Как муравей питаюсь, львенком рос.

В год — у него тверда была нога,

В три — не слова низал, а жемчуга,

И речь его не речью ты зови, -

Зови ее поэмою любви.

В три года он, как в десять, возмужал,

Все взоры этим чудом поражал...

(Icharda mo’rdin o’ksuk g’izosi,

Topib qut onchakim, arslon bolosi.

Bu yanglig’ chun bir o’ldi yoshi oning,

Sharaf durrig'a yetti boshi oning.
Qadam urdiyu tarki mahd qildi,
Qo'yub emgak yururga jahd qildi.
Chu uch yoshig'a chekti davri aflok,
Takallum qildi andoqkim duri pok.
Ajabdur uch yoshida ko'zga atfol,
Nechukkim o'n yoshida o'zga atfol.)

Yuqoridagi misralarda Farhodning boshqalarga o'xshamaydigan xususiyatlari haqida gapiriladi. Dostonda bunday o'rinlar juda ko'p. Xususan, Farhodning tez savod chiqargani, "Qur'on"ni yod olgani haqidagi misralar ustida ishlansa, o'quvchilarga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Тот день был первым днем его побед, -
Он в первый день освоил весь абджед.
Умом пытлив и прилежаньем рьян,
Он через год знал наизусть Коран.
Знал все построчно, постранично он,
Ни слова не читал вторично он.
Но, раз прочтя, все закрепит в мозгу,
Как бы резцом наносит на доску...

(Ham avval kunda berdi sarvi gulxad
Atog'a hadyai ta'limi abjad
Uchunchi oy ravon bo'ldi savodi,
Burung'i yilda Qur'on bo'ldi yodi.
Agar bir qatla ko'rdi har sabaqni,
Yana ochmoq yo'q erdi ul varaqni.
Ne so'znikim o'qub ko'ngliga yozib,
Dema ko'ngliki, jon lavhiga qozib.)

Parchalardan so'ng quyidagi savol va topshiriqlar berilgan:

1. Farhod nega taxtni qabul qilmadi, deb o'ylaysiz? Uning rad etish sabablarini tushuntiring.

2. Farhod saroydan yashirincha chiqib ketadi va tog'ni teshib, kanal qurilishini davom ettirishga qaror qiladi. Nima uchun?

3. She'rdan Farhodning olijanob siymosini ochib beruvchi parchani yodlang; uni sinfda o'qib bering.

4. "Shirin uni go'zalligi bilan maftun etdi" mavzusida uy inshosi yozing.

Yuqoridagi savol va topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlari hamda asar yuzasidan taassurotlarini bilishga xizmat qiladi. Uy inshosi nutq boyligi hamda ijodkorlikni tarbiyalaydi.

Shu o'rinda bir mulohazani aytib o'tishni joiz deb bilamiz. Darslikda berilgan parchalar Farhod va Shirinning o'limi bilan yakunlanadi:

В парче, в шелках желанный гость лежал,
Как будто сон сладчайший он вкушал...
Залюбовавшись гостя чудным сном,
Столь сладостным и не пробудным сном,
Ширин глядела — и хотелось ей
Таким же сном забыться поскорей,
И с милым другом ложе разделить,
И жажду смерти так же утолить.
(Bu yanglig' uyqu ko'rgach sarvi cholok,
Anga hamxobaliq qildi havasnok.
Qo'yubon ro'y-barro', do'sh-bardo'sh,

Bo'lub o'z bedili birla hamog'ush.
Ko'nguldin shu'laliq ohe chiqordi,
Ko'zi hamxobadek uyqug'a bordi.)

Bu darslikda berilgan parchaning oxirgi misralari. Unda Shirinning jonsiz Farhodni ko'rganda o'zi ham o'lishni istagani aks etgan. Sevgi yo'lida o'zlarini halok qilganlar haqidagi hikoyat maktab o'quvchilariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli Farhod va Shirinning o'limi bilan bog'liq parchalarni darslikka kiritmaslik ma'qul bo'lardi.

Rus sinflarining 9-sinf adabiyot darsligida Alisher Navoiy shaxsiyatiga alohida to'xtab o'tilmagan bo'lsa ham, g'azal haqida nazariy ma'lumot keltirilganida, shoirning g'azali misol tariqasida keltirilgan.

Сиянием твоего лица, его огнем обожжены, -
Черны и брови, и глаза твои, и родинки твои черны.
Из раны сердца моего ты вылетел, мой скорбный вздох,
И опалил моей тоской сердца людские всей страны.
О сердце, как ошиблось ты, запутавшись в ее кудрях!
Тебе отныне лишь обман, лишь тьма и горе суждены...
Палас печали надо мной ты распростер, о небосвод!
Но твой атлас не нужен мне, хоть краскам дивным нет цены.
Беда и скорбь! Небытию скорей предайте Навои:
Он от печали изнемог, он жаждет вечной тишины.

G'azaldagi quyosh, oy, gul, qimmatbaho tosh kabi timsollarga sevikli yorning xususiyatlarini qiyoslagan shoir betakror obraz yaratganining guvohi bo'lamiz. Birinchi baytning mazmuni shunday: yuzing shu'lasi shunchalik o'tkirki, uning olovidan kuygani uchun yorning qoshi, ko'zi va xoli qop-qoradir. Qizning yuzi nurli hamda qosh-ko'zlari qoraligiga shoir va oshiq shunday izoh beryapti. “Husni ta'lil”ga keltirilgan bu chiroyli namuna o'quvchilarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb o'ylaymiz.

Yuqorida sanab o'tilgan darsliklarda Alisher Navoiyning hikmatli so'zlari, ruboiylari, bir g'azali, bir fardi, “Hayrat ul-abror” hamda “Farhod va Shirin” dostonlaridan olingan parchalar mavjudligini ko'rib chiqdik. Nazarimizda, biz Navoiyni ko'proq g'azal janri ustasi deb bilganimiz sababli rus sinflarida ham shoir g'azallariga alohida soat ajratilishini maqsadga muvofiq deb bilamiz. Rusiy zabon o'quvchilar ham Alisher Navoiyning dunyoga mashhur g'azallaridan namunalar yod olishlari zarur. Chunki har yili respublika miqyosida “G'azalxon yoshligim”, “Navoiy vorislari” kabi ko'rik-tanlovlar o'tkaziladi.

Shu o'rinda yana bir mulohazani aytib o'tish zarur deb hisoblaymiz. Alisher Navoiy haqida xalq orasida ma'lum va mashhur bo'lgan rivoyatlar “El desa Navoiyni” nomi bilan chop etilgan. Odatda, adabiyot fani o'qituvchilari ushbu to'plamdan unumli foydalanadilar. Rusiy zabon o'quvchilarni ham bunday rivoyatlardan bahramand etish foydadan xoli bo'lmaydi, nazarimizda.

Xulosa

So'z mulkining sultoni hazrat Alisher Navoiyning ijodi o'zining jozibasi bilan butun dunyoni o'ziga jalb qilgan. Uning asarlari dunyoning turli tomonlarida sevib o'qiladi hamda tadqiq qilinadi. Shu jumladan, yurtimizdagi ta'lim rus tilida olib boriladigan ta'lim muassasalarida ham bunga alohida e'tibor qaratilgan. Yuqorida rus sinflarining adabiyot fani darsliklarini ko'rib chiqdik. Shu narsaga amin bo'ldikki, rusiy zabon sinflarda ham so'z dahosi hayoti va ijodiga ma'lum soatlar ajratilgan. Alisher Navoiyning turli janrdagi asarlaridan namunalar keltirilgan. Ularni tushunish, tahlil qilish hamda fikr-mulohazalar bildirish uchun turli savol va topshiriqlar ham berilgan. Agar fan o'qituvchisi ulardan unumli foydalansa hamda o'zi ham boshqa qo'shimcha ma'lumotlarni o'quvchilar diqqatiga havola qilsa, o'quv mashg'ulotlari samarali va qiziqarli bo'ladi. Yana bir diqqatga sazovor joyi shundaki, ba'zi darsliklarda Alisher Navoiy o'quvchilarga

musiqachi, rassom sifatida tanishtirilgan o'rinlari bor. Bu ma'lumotlar Alisher Navoiy shaxsini yuksaltirish bilan birga, o'quvchilarning unga bo'lgan qiziqishini orttiradi.

Adabiyotlar

Navoiy Alisher. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 6-jild. Hayrat ul-abror. Farhod va Shirin. — Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2013. — 812b.

Варфоломеев И.П., Миркурбанов Н.М. Литература: учебник для 8-класса в двух частях для школ общ. средн. образов. с рус. яз. обуч., II часть. — Ташкент: «Узбекистан», 2019. — 240 с.

Камилова С.Э., Ротанов А.Н. Литература: учебник для 6-класса. — Ташкент: Республиканский центр образования, 2022. — 224 с.

Каминская Е.М., Балтаева А.М. Литература: учебник для 7-класса. — Ташкент: Республиканский центр образования, 2022. — 224 с.

Навоий Алишер. Махбуб ул-қулуб. — Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1983. — 112б.

Навоий Алишер. Хазойин ул-маоний. — Тошкент: “Тамаддун” нашриёти, 2011. — 732б.

Навоий Алишер. Ҳайратул-аброр. — Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1974. — 145б.

Навоий Алишер. Ҳикматлар. — Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2013. — 256б.

Петрухина Н.М., Гарипова Г.Т. Литература: учебник для 9-класса в двух частях для школ общ. средн. образов. С рус.яз.обуч., II часть. — Ташкент: «Узбекистан», 2019. — 240 с.

<http://slovo.nx.uz/alisher-navoi>

<https://tafakkur.net/kishi-aybing-desa/alisher-navoiy.uz>

Reflection of Alisher Navoi's life and work in «Literature» textbooks

Iroda Ishonxanova¹

Abstract

Alisher Navoi is a world-famous person as a great poet, thinker, statesman. The issue of studying his life path and literary heritage has always been one of the most relevant topics. In addition, special attention is paid to the study of Alisher Navoi's personality in schools in our country where education is conducted in other languages. This article examines literature textbooks of general secondary schools where education is conducted in the Russian language. Opinions are expressed on the topics related to Alisher Navoi in these textbooks. Attention has been paid to the issues of genre, subject scope, and effectiveness in student learning of the samples from the poet's work. At the same time, personal recommendations on the teaching of Alisher Navoi's life and work were given.

Key words: *textbook, training, rubai, ghazal, wise word, epic, fard.*

¹ **Ishonkhanova Iroda Abduvakhitovna** - Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD), Teacher of the Department of Uzbek literature education, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

Email: irodaishonxanova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-1761-8408

For citation: Iroda Ishonkhanova 2022. "Reflection of Alisher Navoi's life and work in "Literature" textbooks". *Uzbekistan: language and culture*. 4[2]: 102—110.

References

Navoiy Alisher. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 6-jild. Hayrat ul-abror. Farhod va Shirin. — Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2013. — 812b.

Варфоломеев И.П., Миркурбанов Н.М. Литература: учебник для 8-класса в двух частях для школ общ. средн. образов. с рус. яз. обуч., II часть. — Ташкент: «Узбекистан», 2019. — 240 с.

Камилова С.Э., Ротанов А.Н. Литература: учебник для 6-класса. — Ташкент: Республиканский центр образования, 2022. — 224 с.

Каминская Е.М., Балтаева А.М. Литература: учебник для 7-класса. — Ташкент: Республиканский центр образования, 2022. — 224 с.

Навоий Алишер. Махбуб ул-қулуб. — Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1983. — 112б.

Навоий Алишер. Хазойин ул-маоний. — Тошкент: “Тамаддун” нашриёти, 2011. — 732б.

Навоий Алишер. Ҳайратул-аброр. — Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1974. — 145б.

Навоий Алишер. Ҳикматлар. — Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2013. — 256б.

Петрухина Н.М., Гарипова Г.Т. Литература: учебник для 9-класса в двух частях для школ общ. средн. образов. С рус.яз.обуч., II часть. — Ташкент: «Узбекистан», 2019. — 240 с.

<http://slovo.nx.uz/alisher-navoi>

<https://tafakkur.net/kishi-aybing-desa/alisher-navoiy.uz>

ADABIY TA'LIMDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Oysuluv Musurmonkulova¹**Annotatsiya**

Maqolada umumta'lim maktablarida adabiyot fani o'qitishda lateral-kreativ yondashuv asosida o'quvchilarning fikrlarini qo'llab-quvvatlash, xarakter munosabatlari, hayotiy muammolarga yechim topish va istiqbolli g'oyalar tanlashga yo'naltirish haqida so'z boradi. Bu yondashuv asar g'oyasi asosida fikrlashga o'rgatish, anglagan fazilatlariga ergashish, asar qiyamatini tushuntirishga yo'naltiradi. Adabiy ta'limda o'qib tushunish, mazmunini anglash, adabiy tahlil, tanqidiy baholash degan tushunchalar anjuman, konferensiya tadqiqotlarda ko'p gapiriladi. Ammo, dars davomida o'quvchilar fikrlamasa, xarakterlaridagi ijobiy o'zgarishlar kuzatilmasa, yuqorida ta'kidlangan gaplar samarasizdir. Lateral fikrlashga yo'naltirilgan yondashuv o'quvchilarni tanqidiy qarashdan tashqari, yangi g'oyalarni o'zi yarata olishga ishonch uyg'otadi. Ayniqsa, PIZA tadqiqotlari yo'nalishida o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirishda bu yondashuvning qulayliklari ko'rsatilgan O'quvchilarning his-tuyg'ularini aql bilan moslashtirish, bilimlarini hayotiy ko'nikmalarga uyg'unlashtirish, fikrlash doirasini kengaytirish o'qituvchi kasbiy faoliyatining eng muhim qismidir.

Shuningdek, maqolada mavzular asosida lateral yondashuv asosida o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish yuzasidan tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *go'zallik, xarakter, baholash, qaysar, qo'rs, anglash, lateral, kreativ, fikrlash, usul, metodika, shaxsiy, axborot, g'oya, muammo, ma'rifat, ma'naviyat, ko'nikma.*

Kirish

"Texnika asri" jamiyat mafkurasini o'zgartirdi, inson tafakkuri, ma'naviy saviyasini boyitdi. Ayniqsa, barkamol shaxs tarbiyasi yo'lida katta burilish yasadi. Davlat qonunlari [O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining PF-5847-son 8.10.2019., "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PQ-54 02.02.2024-yil] ijrosida shaxs ustuvorligi ortdi. Bundan maqsad yurt tayanchi bo'lgan yoshlarni raqobatbardosh, har tomonlama savodxon qilib tayyorlash, jamiyatning "ma'naviy olami"ni yaratish, yurtimizning rivojlangan davlatlar qatorida o'z o'rniga ega bo'lishdir.

Bu strategik rejalarda adabiyot fani yetakchilik qilmoqda. Darhaqiqat, insonlar ezgulikka qanchalik intilsalar, go'zallik, ma'naviyat olamiga muhtojlik shunchalik kuchli bo'ladi. Bu go'zalliklar insonda hayajon, quvonch va nekinlik tuyg'ularini uyg'otadi. Xususan, bu har qanday shaxsni ijodkorlikka undaydi. Ijodkor, teran fikrlovchi shaxslargina yurt kelajagiga yarata oladilar.

Yurt kelajagi bunyodkorlarining "Uchinchi Renessans" poydevorini qo'yishdek ezgu maqsadlari yo'lida yoshlarga ko'maklashish va ularning kelgusi rejalari, orzulari, ilg'or fikrlarini qo'llab-quvvatlash lozim.

Umumta'lim muassasalari uchun rivojlangan davlatlar o'quv dasturlariga mos ravishda o'quv dasturlar, yangi darsliklar, metodik qo'llanmalar ishlab chiqildi hamda pedagogik tafakkur tamoyillari, adabiy ta'lim konsepsiyalari yaratildi.

¹ **Musurmonkulova Oysuluv Yulbekovna** — Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi.

E-pochta: oysuluv.musurmonkulova@gmail.com

ORCID ID: 0009-0009-5992-5300

Iqtibos uchun: Musurmonkulova O.Y. 2024. "Adabiy ta'limda zamonaviy yondashuvlar". O'zbekiston: til va madaniyat. 4[2]: 111—119.

Shuningdek, adabiyot o'qitish metodikasi bo'yicha qator yirik tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, Q.Yo'ldoshev "Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari", Q.Husanboyeva "Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari", R.Niyozmetova "Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganishning nazariy va metodik asoslari", S.Matchanov "Umumta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish", M.Mirqosimova "O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari", V.Qodirov "Umumta'lim maktablarida o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o'qitishning metodik-ilmiy asoslari", S.Kambarova "Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish texnologiyasi" kabi tadqiqot ishlarida yoshlarning adabiy mavzulari orqali qahramonlarning xarakterini tushunish, nafrat va faxr tuyg'usini his qilish, fazilatlariga qarab o'zini anglash yuzasidan tavsiyalar keltirilgan, mavzuni yetkazishda nimalarga ahamiyat berish yuzasidan metodik yondashuvlar, pedagogik qarashlari bayon etilgan.

Jumladan, metodist, professorlardan Q.Husanboyeva o'zining tadqiqot ishida ta'limda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, o'z fikriga ega insonlar kelgusidagi muammoga to'g'ri yondasha olishlari ta'kidlansa, R. Niyozmetovanning ishida, adabiy matn shunchaki o'quv materiali emasligi, hayotiy masalalar, ular bilan bog'liq badiiy obrazlar asosida rusiyzabon o'quvchilarni tanishtirish, eng keraklilarini ajratish katta mas'uliyat ekanligini ifodalangan.

Binobarin, ma'rifatni anglash, ta'lim sifatini ko'tarish ustuvorligi ortgan davrida, adabiyot fani, markazda turib yoshlarning har tomonlama savodxonligini oshirish, murakkab ziddiyatlarni anglash, kasbiy cho'qqilarida duch keladigan ilmiy to'siqlarga potensial yechimlarni topishda muhim ahamiyat kasb etadi. Allomalar ta'kidlaganidek, "adabiyot" dunyo haqidagi haqiqatni yetkazish san'atidir.

Zero, O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"[Mirziyoyev Sh.M, 2017.] degan fikrlari har bir ta'limga daxldor shaxslar uchun dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qism

Ta'lim tizimi tubdan o'zgardi. Tizimida yaratilayotgan sharoitga mos ravishda fan maqsadlarni to'g'ri belgilash, pedagoglar kompetentligini hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonlarining natijaviyligini oshirish, o'quv dasturlarini xorij davlatlarining o'quv dasturlari bilan optimallashtirish ishlari muhim vazifalardan biriga aylandi. Ta'lim muassasalarida o'qituvchilar o'quvchilarning o'rganayotgan bilimlari qaysi nuqtada ekanligini bilish, hayotda qo'llashga undash ustuvorligi ortdi.

Inson ehtiyoji bo'lgan: fikrlash, so'zlashish, qaror qabul qilish, moslashish, chidamlilik, hamkorlik qilish, muomala qilish, ijodkor bo'lish, stressni boshqarish kabi hayotiy ko'nikmalari noma'lum qonuniyat asosida bir — birlari bilan o'zaro bog'liqdir.

Hayotiy ko'nikmalar, asosan, inson hayotida duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarga oqilona yechim topa olishdir. Ba'zi muammolarning shakli bir xil bo'lishi mumkin, ammo uning ildizlari turlicha bo'ladi. Shuning uchun yoshlarni maktab partasidayoq adabiyot fani o'quv dasturlarida bu tarbiya ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratilgan.

Xo'sh, ijodkorlik, ijodiy fikrlash so'zlari o'zaro yaqin bo'lsa-da, ayrim nuqtalarda farqlarini kuzatish mumkin. Adabiyotdan xabardor bo'lmagan har qanday shaxsning insoniylikni anglashi qiyin kechadi...

D.B.Elkonin ijodkorlikni "Insonning ongi va xulq-atvoridagi o'zgarishlar, shuningdek, u tomonidan yaratilgan va boshqalarga beradigan mahsulotlar sifatida tushunish mumkin bo'lgan yangi narsalarni yaratish" deb hisoblaydi.

Ijodiy fikrlash ijodkorlik uchun muhim bo'lishi bilan birga muammoni hal qilish uchun ham zaruriy mahoratdir. Ijodiy fikrlash iste'dod emas, bu o'rganish va rivojlantirish mumkin bo'lgan qobiliyatdir.

Binobarin, inson fikrlari, tafakkuri, dunyoqarashi ildamlansa ijodiy fikrlashi tanqidiy, kognitiv, kreativ qarashlari asosida tasavvurlari o'zgarib va aniqlik kasb etib boradi. Ya'ni ko'proq kitob o'qish emas, o'qiganlarini amalda qo'llash, fikrlash muhimdir. Jumladan, sizni qoyil qoldirgan donolik foydalanilmasa, o'z-o'zidan unutilishi tabiiy. Buning donoligi ahamiyatsiz narsadan farq qolmaydi. Agar o'quvchilar obrazlardagi fazilatga ergashsa, fikrlarida ezgulik sezilsa, o'zgalarni bunga chorlasa, buni, o'qituvchi uchun "natija" deb baholash mumkin.

O'qituvchi har qanday yondashuvda o'quvchilarning xarakteriga mos shaklda ish tutadi. Ma'lumki, "munosabat" kategoriyasi xarakterini tushuntirishda asosiy hisoblanadi. Ya'ni shaxsdagi psixologik, subyektiv munosabatlar majmuyiki, ular uning borliqqa, odamlarga, o'z-o'ziga munosabatini ifodalaydi. Bu ko'proq oilada shakllanadi. "Farzandning dastlab chiqqan shirin tili ota-ona uchun umr giyohidir. Birinchi nojo'ya xatti-harakati esa ular nozik qalblarining darz ketishidir" — deganlaridek, ota-ona ilk so'zlari uchun quvonishadi, ammo, yomon harakatiga "hali yosh nimani biladi" qabilida e'tiborsiz bo'lishadi. Maktabda aynan, shu ichki dunyosini o'rganish va o'zgartirish metodikaning asosini tashkil etadi.

Shu bois "o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy yetish" [Usmonov R, 1995. 245] lozim.

Munosabatlarning xarakterdagi o'rni xususida fikrlar ekan, V.S.Merlin ularning mazmunida ikki komponentni ajratadi:

a) emotsional — kognitiv — borliq muhitning turli tomonlarini shaxs qanday his qilishi va o'zida shu olamning emotsional manzarasini yaratishi;

b) motivatsion — irodaviy — ma'lum harakatlar va xulqni amalga oshirishga undovchi kuchlar.

Bu haqda, mashhur rus olimi, psixologiya fanining metodologiyasini yaratgan S.L. Rubinshteyn shaxsning o'ziga xosligini uchta asosiy yo'nalishda ekanligini ta'kidlaydi:

1. Munosabatlar va yo'nalish shaxsdagi asosiy ko'rinishlar sifatida — bu shaxsning hayotdan nimani kutishi va nimani xohlashi.

2. Qobiliyat istaklarni amalga oshirish imkoniyati sifatida — bu odamning nimalarga qodir ekanligi.

3. Xarakter imkoniyatlardan foydalanish, ularni kengaytirishga qaratilgan turg'un va barqaror tendensiyalar, ya'ni bu odamning kim ekanligi.

Xarakterning boshqa individual psixologik xususiyatlardan farqi shuki, bu xususiyatlar ancha o'zgaruvchan va dinamik, orttirilgandir. Shuning uchun ham maktabda o'qituvchilar bu xarakterni ijobiy o'zgarishlariga sababchi bo'la oladilar.

Demak, xarakterning psixologik-metodologik tizimi tahlil qilinganda, shaxsning borliqqa nisbatan tanlovchan munosabatining aks etishidir. Bunday yo'nalish turli shakllarda namoyon bo'ladi: beparvolik, qiziquvchanlik kabi. Xarakter xususiyatlarining nimalarda namoyon bo'lishi, ularning belgilari masalasi ham amaliy jihatdan muhimdir. Jumladan:

➤ Mehnat faoliyatida namoyon bo'ladigan xarakterologik xususiyatlar — mehnatsevarlik, mehnatkashlik, tashabbuskorlik, ishga layoqat, ishga qobillik, mas'uliyat, dangasalik kabi.

➤ Insonlarga nisbatan bo'lgan munosabatlarda namoyon bo'ladigan xarakterologik sifatlar — odoblilik, mehribonlik, jonsaraklik, dilgirlik, muloqotga kirishuvchanlik kabi.

➤ O'z-o'ziga munosabatga aloqador xarakterologik sifatlar — kamtarlik, kamsuqumlilik, mag'rurlik, kibr, o'z o'zini tanqid, ibo-hayo kabi.

➤ Narsalar va hodisalarga munosabatlarda namoyon bo'ladigan xususiyatlar — tartiblilik, oqillik, saranjom-sarishtalik, qo'li ochiqlik, ziqnalik, tejamkorlik, pokizalik va boshqalar.

Avvalo xarakter insonning xatti-harakatlari va amallarida yaqqol ko'zga tashlanar ekan, uning kim ekanligidan darak beradi.

Ta'lim dargohlarida ustozlar yaxshi fazilatlarga erishish qiyin kechadigan mashaqqatli jarayonda mehnat qilishadi. "Yaxshi fazilatlarga erishmoqchi bo'lgan odam, yaxshi xislatlarga qarshi turgan, o'zidagi illatlarni yo'q qilishga intilishi zarur. Odam faqat illatlardan forig' bo'lgandan so'nggina yaxshi fazilatlarga erisha oladi.[Forobiy Abu Nasr, 2004. 65].

Xarakter insonni turli yo'lga chorlashi mumkin. Uni ijobiy sifatlarga to'yintirgandagina, o'zgaruvchan dunyoda o'z o'rnini egallashga yordam beradi. Buning uchun ham fikrlash, al-lomalarimiz ta'biricha, oqni qoradan ajratish muhim sanaladi.

"Ta'limning turli bosqichlarida bolaning yosh xususiyatlarigina emas, hatto asarning janri, uslubi ham uni o'qitish, o'rganishda o'ziga xos yondashuvlar bo'lishini taqozo etadi" [B.To'xliyev, 2010. 14]

Adabiy ta'limda turli usullar orqali o'quvchilarning bilimlarini ko'nikmaga aylantirish-da fikrlashning turli shakllaridan keng foydalanish samarali va natijaviyligi yuqori bo'lishi kuzatilmoqda. Ma'lumki, chiziqli fikrlashda mantiqdan chiqmaslik, tanqidiy fikrlashda tanqidiy qarashlari asosida yondashish, analitik fikrlashda asosli faktlarni kuzatish, strategik fikrlashda kelgusi yo'llarni bashoratlash, laterial fikrlashda butunlay qolipdan chiqish muhim sanaladi.

Ayniqsa, laterial fikrlash ijodkorlikka yo'naltiruvchi sifatida adabiy ta'limda qo'llashning afzalliklari mavjud. Doktor Edvard de Bono «qutidan tashqari fikrlash» tushunchasining yaratuvchisidir.

Bu asosan, umidsiz, yechimi mushkul, boshi berk muammolarda qo'l keladi. Xatolardan qo'rmaslikni o'rgatadi.

Lateral fikrlash ko'nikmalarga ega bo'lishda samaralidir. Tadqiqotchi Edvard de Bono laterial fikrlash zarurati maksimal xotira tizimi sifatida ongning cheklangan imkoniyatlari tufayli yuzaga kelganligini ta'kidlaydi. Masalan, tanqidiy, analitik kabi fikrlashlarda mantiq markazda tursa, laterial fikrlash bundan farqlidir. Tadqiqotchi, Lateral fikrlash yordamida muammoni hal qilishning 3 bosqichi quyidagicha tavsiflaydi:

Fokus tanlash

Vazifa joylashgan faoliyat sohasida mavjud g'oyani tanlashingiz kerak. Fokus qanchalik tor bo'lsa, yangi narsalarni yaratish osonroq bo'ladi.

Lateral bo'shliq

Belgilangan naqshni buzgan holda, tanlangan g'oyaning mantig'ini buzish kerak. Bunga yordam beradigan bir nechta asosiy usullar mavjud:

- qo'shimcha;
- istisno;
- giperbolizatsiya;
- almashtirish;
- tartibni o'zgartirish.

Lateral tanaffusdan kelib chiqadigan g'oyalarni o'z-o'zidan haqiqatda qo'llash mumkin emas. Ushbu bosqichning vazifasi muammoni hal qilish uchun imkon qadar ko'proq vaqtinchalik yechimlarni taqdim etishdir.

Aloqalarni amalga oshirish

Oldingi bosqichda taqdim etilgan, ko'pincha bema'ni bo'lgan yechimlarda, yangi mantiqiy g'oya shaklida shakllantirilishi kerak bo'lgan asosiy tamoyil ajralib turadi. Keyinchalik, ushbu g'oya va haqiqat o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishingiz kerak: g'oyadan foydalanishning afzalliklari shaklida ijobiy tomonlarini toping, odatdagi harakat usulidan farqlarni aniqlang. Topilgan farqlardan yangi tushuncha shakllanadi.

Keling, lateral yondashuvni biror mavzu asosida ko'rib chiqadigan bo'lsak, 8-sinfni olaylik. 8-sinfda o'quvchilarining xarakterlarida ancha qo'rslik, jizzakilik, qaysarlik illatlari kuchayib qoladi. Shuning uchun bu yoshdagi o'quvilar fiziologik o'tish yoshida bo'lganligini nazarda tutib, o'quvchilarda kuzatiladigan illatdan forig' bo'lishga yo'naltirish muhimdir. O'qituvchi dars davomida jamiyatdagi zo'rovonlik va unga qarshi kurashish yo'llarini anglash kerak ya'ni, o'zaro kelishmovchilikdan kelib chiqadigan janjallarga barham berish, stressni boshqara olish haqida tushuntirish lozim.

Jumladan, 8-sinf o'quv dasturida berilgan Shukur Xolmirzayevning "Omon ovchining o'limi" hikoyasida bunga ishoralar mavjud.

Matn:

U o'zi ham o'lishini o'ylamasdi. U o'ldirishni... hayvonlarni, parrandalarni, xullas, Olatog'-da ov qilishga arzirli o'lja borki, u qo'liga miltiqni olishi bilan o'zi anglamagan holda, ulardan nimanidir otish- o'ldirishni o'ylardi.

... Mabodo ovdan qo'li quruq qaytsa- bunday voqea juda kam bo'lardi-u bamisoli otasi o'lgandek aza tutar, qovog'i ochilmas, shunda xotini ko'ziga yomon ko'rinib, bechora biron-bir yetishmovchiligidan zorlansa, u "Jonga tegdin-ku sen ham!" deb miltig'ini qo'lga olardi".

O'quvchilar matn bilan tanisharkanlar, oilaviy muhit, Omonning hammani jonidan o'tadigan darajada azoblashi, sigirni panshaxa bilan urishi, xotini sigirning o'lib qolishidan qo'rqishi, bolasining shamollash holatlari o'quvchini tushunarsiz kayfiyatga solib qo'yishi tabiiy. O'quvchilarning merganligini oqlash, o'ta jahldorligini qoralash bilan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Hikoya matndagi asosiy g'oyani va qahramonlarning motivlarini tushunish uchun tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Ya'ni, fikrlash, anglash va tahlil qilish asosida har kim muhimlarini ajrata oladi, baholaydi. Adabiy tahlil badiiy kompozitsiyalarni o'qish, ya'ni tanqidiy fikrlash, voqealarni kuzatish bilan bog'liq bo'lgan malakalardir.

Edvard De Bono tafakkurda idrok etish jarayoni mavhumlikda qolmaslikka chaqiradi.

O'qituvchi darsda "Sinektik hujum" [Uilyam Gordon,1950] usulidan foydalanish tavsiya etiladi. Sinektika [Gordon ta'kidlaganidek, «sinektika» so'zi yunoncha kelib chiqishi va turli, ba'zan hatto bir-biriga mos kelmaydigan elementlarning birikmasini anglatadi] — muammolarni qo'yish va hal qilish jarayonida turli xil va bir-biriga mos kelmaydigan elementlarning kombinatsiyasi. Bu usul, Eduard de Bononing so'zlariga ko'ra, fikrning harakati-ni rag'batlantiradi, yangi g'oyalar tug'ilishiga olib keladi.

"Sinektik hujum" usulini qo'llanish tartibi:

- To'g'ridan-to'g'ri [bu holda shunga o'xshash muammolarni hal qilishda ilgari olingan tajribadan foydalanadi].

- Shaxsiy [bu holda o'quvchi qahramoning o'rniga qo'yish, muammoni uning ko'zlari bilan his qilishga harakat qilish].

- Umumlashtirish [bu holda muammoni «konsentratsiya qilish», uni ikki so'z bilan tasvirlash].

- Ramziy [bu holda ma'lum bir tarixiy xarakter berilgan muammoni qanday hal qilishini ko'rib chiqish. Uning haqiqiy yoki xayoliy ekanligi muhim emas].

Topshiriq har bir guruhga alohida berilgan.

Muammoga yondashuv	1-guruhga topshiriq: Omonning o'limini muallif nega bunchalik ayanchli tasvirlagan, Nima deb o'ylaysiz?	2-guruhga topshiriq: Omonning hech narsani o'ylamay gapirishiga, xarakteri og'ir, qahrli, mehrsiz bo'lishiga nima sabab bo'lishi mumkinmi?	3-guruhga topshiriq: Muallif, Omonning o'ljasini tomosha qilib o'tirish voqealaridan nimani anglatmoqchi deb o'ylaysiz?
To'g'ridan-to'g'ri	Inson nima qilsa o'ziga qaytishi ma'nosi ifodalangan	Miltiq bergan otasi sababchi	Achinish tuyg'usini shu orqali ifodalagan
Shaxsiy	Shunday bo'lishi fakt	Atrofidagilar	Taqdiriga o'zi sababchi
Umumlashtirish	Zor	Nafs	Nadomat
Ramziy	Qor oqlik belgisi	Yashash formulasi	Xayollari qirrasiz

O'qituvchi adabiy ta'limning didaktik jarayonni amalga oshirishda o'qitishning samarali shakllaridan foydalana olishi, tashkiliy shakllari uchun vaqt yo'qotmasligi kerak.

Misol uchun, o'quvchilar umumlashtirish, ramziy talabida ozroq ko'mak kerak bo'lishi mumkin, ammo aslo namunaga berilmaslik kerak. Bunday holatda o'quvchi namuna atrofidan chiqqa olmaydi. O'zlariga to'g'ri tushuntirilsa, guruhlar qaror qilishi uchun qancha so'zni tahlil qilishadi. Aqlga kelgan hamma narsa qoralashi yoki aksincha ma'qul topishi mumkin.

Umumlashtirish tartibida muammoni ma'lum vaqt doirasida bir muncha tez va yuqori sa-viyada yecha oladigan fikrlarga murojaat qilishadi. Adabiy jarayonda umumlashtirishdagi "zor" so'zini olsak, o'quvchi nimani o'ylagan bo'lishi mumkin. Bu yondashuvda asosiy omil — o'quvchilarning ma'lum qaror qabul qilish tezligi oshadi, tafakkuri ortadi. Shuningdek, ramziy talabida "hayollari qirrasiz" yechimi berilgan. Bu so'zni mantiqiy ko'rilganda, mavzudan ancha uzoqda, o'quvchi fikrini so'rash asosida almashtirish, o'zgartirish va fikrlashga yo'naltirishdan iborat. Bu yondashuv orqali tajribali o'qituvchilar to'g'ri va unumli foydalana olsalargina, asar-dagi muallif nazarda tutmagan ma'nolarni yetkaza oladi. O'quvchilarga bu yondashuv ancha qulayliklar yaratishi bilan birga ularda chetdan baholashni o'rganishlariga imkon yaratiladi.

Binobarin, mavzudan chetda fikrlash, mantiqsiz bo'lsa ham yechim topish muhim. Bu yangicha fikr, yangicha tasavvur va tafakkurning uyg'unlashuvi hosilasidir.

Ustoz adabiy jarayon haqida, "o'rganilgan bir asar yuzasidan sinfdagi o'quvchilar turli-cha xulosaga kelishi mumkin, chunki, ilmiy haqiqat bir qiyofali bo'lgani holda, badiiy haqiqat ko'p qiyofalidir" deya bejizga ta'kidlamagan [<https://dialog.guide/latieralnoie-myshlienii-e-die-bono/>].

O'qituvchi pedagogik tizimning tarkibiy elementi sifatida didaktik jarayon [o'quv — fikrlash faoliyati]ni amalga oshirish talablari to'g'ri tushuntira olishlari lozim. Bu usulning aqliy hujumdan farqi shundaki, aqliy hujum mantiqqa asoslansa, sinektik hujum mantiqdan uzoq yuradi.

O'qituvchi davlat buyurtmasiga mos keladigan ta'lim-tarbiya maqsadini aniq va ravshan belgilashi kerakki, natijada ma'lum vaqt ichida unga erishishni ta'minlaydigan didaktik ja-rayonni tuzish va joriy etish to'g'risida xulosa qilish mumkin bo'lsin.

Adabiy jarayonda tarbiyaviy ahamiyatga molik so'zlar emas, maqsad, fikr, qaror muhim sanaladi. Lateral fikrlashga asoslangan bunday usullarni qo'llashni samarali o'tkazish uchun o'qituvchi darsni quyidagi bosqichlar bo'yicha olib borishi kerak: o'qish, tushunish, muhoka-malar orqali o'qiganligini aniqlash, kontekstni o'rnatish, qiziqish uyg'otish asosiy vazifalardir.

Munozaralar: O'quvchilar guruhlarga bo'linadi va muhokama qilish uchun umumiy bitta topshiriq berilishi ham mumkin. Adabiyot darsi qaysi mavzu bo'lmasin o'z maqsadiga erishganda o'quvchilarga chinakam estetik zavq bag'ishlaydi.

Zero, muayyan badiiy asarlar hamda ulardagi badiiy-estetik, ijtimoiy-g'oyaviy konsepsiyalar zahirida belgilovchi falsafiy ta'limot yotibdi. Adabiyot ilmi oldidagi dolzarb vazifalardan biri ham mavjud turli-tuman qarashlarning eng xarakterlilarini sintezlashtirib, badiiyatning umumiy qonuniyatlari va estetik tamoyillarini belgilash va shu asosda adabiy tanqid metodologiyasining hurfiylikka asoslangan konsepsiyalarini yaratishdan iboratdir.

Xulosa

Adabiy ta'limda o'quvchi shaxsining lateral yondashuv asosida adabiy tahlil kompetensiyalarini rivojlantirish va o'qituvchilarga amaliy ko'rsatmalar berishga qaratilgan. Lateral fikrlash ijodiy fikrlash yaqin bo'lganligi sababli, unga qo'shimcha vaqt kerak bo'ladi. Shuningdek, «bitta to'g'ri yechim» ni kafolatlay olmaydi, chunki uning maqsadi eng yaxshisini emas, balki original yondashuvni topishga yordam berishdir.

O'quvchilarni asar voqealari orqali his-tuyg'ularini aql bilan moslashtirishga va ularning yaxshilik doirasini kengaytirishga o'rgatish orqali darslarning samaradorligini o'zlashtirish darajasini oshirishga erishishimiz mumkin.

Ma'nau yetuk shaxsni tarbiyalash uchun ta'lim tizimda o'qituvchilar ham maqsadli aniq rejalar asosida o'quvchilarga muammolarni yechish yo'llari yuzasidan tadqiq ishlarini olib borishmoqda

O'qituvchi o'quvchilar fanni qanday o'zlashtirishidan qat'iy nazar, o'ziga yaqin tutishi, unga doimo ishonishi ta'lim berishning eng samarali usulidir. Chunki, ishonchsizlik ortidan hech kim ergashmaydi. Bolaning xatosini kechirmas, tushuntirmas, to'g'ri yo'naltira olmas ekanmiz, fikrlashga yo'naltirish mushkul sanaladi. Rim faylasufi Seneka "O'qitayotgan ikki marta o'qiydi" [L.Dehqonova, 2013.10], deganida nechog'lik haqdir. O'quvchilarga kitobxonlik madaniyatini singdirish orqali ham ularda ezgullikka chorlash muhimdir.

Manbalarda, "Kitob o'qishda uch xil mutolaa bor: birinchisi — o'qib tushunmaslik; ikkinchisi — o'qib tushunish; uchinchisi — o'qiganda hatto yozuvchi yozmagan yoki yoza olmagan narsalarni ham anglab yetish" [A. Abdurahmonov, 2018. 62] O'qituvchilar o'quvchilarni aynan, yozilmagan jihatlariga urg'u berish va lateral yondashuv asosida adabiy tahlil o'tkazishlari maqsadga muvofiqdir.

Yoshlar tarbiyasiga katta xavf solayotgan va butun jahonda avj olgan xurujlarni tanqid qilishning o'zi yetarli emas, balki adabiy asarlardagi asl g'oyalarni tushuntirish, ezgu fazilatlarga yo'naltirish asosida o'quvchilarning ong-u tafakkurini o'zgartirish, ma'naviy bo'shliqlarning oldini olish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash aynan adabiyot fanining asosiy maqsadi sanaladi.

Shuningdek, bugun axborotlar oqimi shiddat bilan kuchayib borayotgan, kompyuter va umuman, texnika olami inson hayotida tobora kengroq va mustahkamroq o'rin olib borayotgan bir zamonda adabiyot o'qish, kitobxonlik muammosining yanada dolzarblik kasb etishi sir emas. Zero, kitob va kitobxonlik inson ma'naviy olamining ajralmas qismi ekan, badiiy adabiyot o'qishni o'rganish, kitobxon ma'naviyatini shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonidagi eng asosiy vazifa bo'lib qolaveradi. Shuning uchun adabiyot fani o'qituvchilaridan bu bo'shliqlarning oldini olishda katta mas'uliyat talab etiladi.

Yoshlarni tarbiyalashda biz uchun qadrli bo'lgan milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz, o'chmas merosimizga mehr-muhabbat, undagi fazilatlarni ulashishga ishtiyoqini uyg'otsak, adabiyot o'z maqsadlariga erishdi, deb hisoblash mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviyatni asos deb bilsak, yosh avlodning kasbiy ilm cho'qqilarini mukammal egallashga, moddiy hayot taraqqiyotini, ma'naviy-siyosiy kamoloti-

ni rivojlantirishga, o'z taqdirini o'zi belgilaydigan qilib tarbiyalashga, yurtimizdagi barqaror tinchlikni qadrlash va uni mustahkamlashga hissa qo'shishga, shuningdek, ajdodlarimizga munosib voris bo'lish hissini anglashlariga ko'maklashgan bo'lamiz.

Darhaqiqat, kelajagi buyuk davlatni qurayotgan kishilarning tafakkuri, yangi iqtisodiy munosabatlarni tiklashga, Vatanni yuksaltirishga, ma'naviy merosimizni asrashga, ajdodlarini ulug'lashga astoydil kirishib doimo yonib yashash hissi bilan sug'orilgan bo'lishi lozim.

Adabiyotlar

Mirziyoyev Sh.M. 2017. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". — Toshkent: "O'zbekiston".

Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. 2019. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. — Toshkent: "G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijod uyi".

Abdurahmonov A. 2003. "Saodatga eltuvchi bilim" — Toshkent, "Movarounnahr".

Gordon U. 1961. "Synectics: The Development of the Creative Imagination".

To'xliyev B. 2010. "Adabiyot o'qitish metodikasi" — Toshkent, "Yangi asr avlodi".

Forobiy. 2004. "Abu Nasr. Fozil odamlar shahri". — Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti.

Usmonov R. 1995. "Saodatnoma". Toshkent. "O'qituvchi".

Yo'ldoshev Q. 2023. "Jilovlanmagan tafakkur mahsuli". — Toshkent: "Tafakkur"

Dehqonova L. 2018. "Pedagogik innovatsiya amaliyotiga" — Toshkent: "Muharrir nashriyoti"

<https://dialog.guide/latieralnoie-myshlieniiie-die-bono>

Modern approaches in literary education

Oysuluv Musurmonkulova¹

Abstract

The article talks about supporting students' opinions, character attitude, finding solutions to real problems and choosing promising ideas based on the lateral-creative approach in teaching literature in secondary schools. It is important for teachers to teach thinking based on the idea of the work, to observe the realized qualities, and to explain the value of the work. In literary education, the concepts of reading comprehension, understanding the content, literary analysis, and critical evaluation are often discussed in conferences. However, if the students do not contemplate during the lesson, and positive changes in their character are not observed, the above-mentioned statements are ineffective. An approach focused on lateral thinking gives students the confidence to create new ideas on their own in addition to critical thinking. Especially in the PISA research, the advantage of this approach in improving the reading literacy of students is significant. The most important part of a teacher's professional job is to match the feelings of students with intelligence, to combine their knowledge with life skills, and to expand their outlook.

Thinking builds a perspective that allows students to understand their strengths, weaknesses, and notice their successes. It helps them to think about what they can do to improve

¹ **Musurmonkulova Oysuluv Yulbekovna** — Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature. Department of Uzbek language and Literature education

E-pochta: oysuluv.musurmonkulova@gmail.com

ORCID ID: 0009-0009-5992-5300

For citation: Musurmonkulova O.Y. 2024. "Modern approaches in literary education". *Uzbekistan: Language and Culture*. 4[2]: 111—119.

their work when solving a problem. The article contains recommendations on the development of students' life skills based on the lateral approach.

Key words: *beauty, character, evaluation, stubborn, blind, awareness, lateral, creative, thinking, method, methodology, personal, information, idea, problem, enlightenment, spirituality, skill.*

References

- Mirziyoyev Sh.M. 2017. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". — Toshkent: "O'zbekiston".
- Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. 2019. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. — Toshkent: "G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijod uyi".
- Abdurahmonov A. 2003. "Saodatga eltuvchi bilim" — Toshkent, "Movarounnahr".
- Gordon U. 1961. "Synectics: The Development of the Creative Imagination".
- To'xliyev B. 2010. "Adabiyot o'qitish metodikasi" — Toshkent, "Yangi asr avlodi".
- Forobiy. 2004. "Abu Nasr. Fozil odamlar shahri". — Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti.
- Usmonov R. 1995. "Saodatnoma". Toshkent. "O'qituvchi".
- Yo'ldoshev Q. 2023. "Jilovlanmagan tafakkur mahsuli". — Toshkent: "Tafakkur"
- Dehqonova L. 2018. "Pedagogik innovatsiya amaliyotiga" — Toshkent: "Muharrir nashriyoti"
- <https://dialog.guide/latieralnoie-myshlieniiie-die-bono>

O'ZBEK NASRIDA ONA OBRAZINING GENEZISI VA TADRIJI

Gulhayo Isabayeva¹**Annotatsiya**

Ona — muqaddas, aziz inson. Uning o'rnini hech kim bosa olmaydigan mo'tabar zotdir. Shu sababdan ham ona obrazining ildizi tarixiy, qadimiydir. Biz ushbu maqolada mustaqillik davri va ushbu davrgacha bo'lgan vaqt oralig'ida yaratilgan ona obrazlarini tadqiq etamiz. Tarixiy manbalar, xalq og'zaki ijodi namunalari, Alisher Navoiy asarlaridagi ona obrazning mustaqillik davrida yaratilgan qissalardagi ona obrazlari bilan mushtaraklik va o'ziga xoslikni aniqlaymiz.

Kalit so'zlar: *Qur'oni karim, Hayrat ul-abror, ona, obraz, xarakter, qissa, doston, janr, motiv, muallif.*

Kirish

Adabiyot inson ruhiyatini tarbiyalovchi, dunyoqarashini kengaytiruvchi kuchdir. Adabiyotning qudrati dunyo paydo bo'lgandan to bugunga qadar bosib o'tilgan tarixni, o'zgarishlarni turli xil obrazlar orqali badiiy shakllarda namoyon etishda ko'rinadi. Asarlar va undagi qahramonlar orqali insonlarga qadriyatlar, milliy an'ana va urf-odatlar yetkaziladi, singdiriladi. Mana shunday qadriyatlarni qadrlashni, asrab-avaylashini o'rgatadigan, insonlarga bir-biriga mehr-oqibatli, sadoqatli bo'lishni uqtiradigan asarlar shubhasiz, ona obrazi yaratilgan asarlardir. Bugungi kunda Ona kabi aziz, mo'tabar, ulug' zot haqida asarlar yaratish va ushbu asarlarni jamiyatning har bir a'zosi mutolaa qilishi o'ta muhimdir. Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng jamiyatimizda ayollarga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi, bu esa yurtimizda yashayotgan har bir ayolning qadr-qimmatini, obro'sini yuksakka ko'tarishga xizmat qildi. Adabiyotimizda ona, ayol obrazi aks etgan turli janrlarda yaratilgan asarlarning salmog'i ortishi va kitobxonlar tomonidan sevib o'qilishi fikrimizning yaqqol dalilidir. Ona haqida yaratilgan asarlarni o'qish insonga ayniqsa, yosh avlodga juda zarurdir. Zero, Ona bu har birimiz uchun namuna bo'la oladigan insondir. Biz undan tarbiya, ta'lim, saboq olamiz. Kitobxon ushbu asarlarni o'qib ona sabr-bardoshi, sadoqati, matonati, jasorati, mehriga tan beradi. Ularga munosib farzand bo'lishga, ularni tiriklik chog'ida qadrlashga, asrab-avaylashga harakat qiladi. Ona obrazi haqida yaratilgan asarlar mana shunday faqat va faqat ezgulikni targ'ib qilishi, bugungi kunda yo'qolib borayotgan oliyjanob fazilatlarining saqlanib qolishi uchun xizmat qilishi bilan qimmatlidir.

Ona — inson naslining bunyodkori. Uning butun umidlari o'z farzandi arjumandi bilan bog'liq. U kelajakka ishonch nazari bilan boqadi. Bu jo'n ilinjli nigoh yoxud umidvor tilak emas, balki har nafasda o'zlikdan kechish va fidokorlikka yo'g'rilgan hayot tarzi, "o'zga"ga baxshida etilgan umrdir. Ona — beg'araz, beta'ma va fidoyi inson. Shu bois, bu ulug' zot hami-sha mo'tabar va mukarram.

Inson hayotning kundalik quvonch-tashvishlari girdobida qolib, aksariyat hollarda, o'zining farzandlik burchini ko'ngildagidek uddalashga yetarli vaqt ajrata olmaydi. Bizga hayot abadiydek, jonfido bir vujud, fidokor bir qalb hamisha hamdamu hamrozdek tuyuladi.

¹ *Gulhayo Isabayeva Farhod qizi* — tayanch doktorant. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: *gulhayofarhodovna94@gmail.com*

ORCID ID: 0000-0001-6337-4358

Iqtibos uchun: Isabayeva, G.F. 2024. "O'zbek nasrida ona obrazining genezisi va tadriji". *O'zbekiston: til va madaniyat*. 4[2]: 120—127.

Ammo har bir nafas hisoblik, diydor g'animat... Afsuski bu hayot haqiqati ko'pincha kechikib anglanadi. Ulkan yo'qotish butun ko'lami va zalvari bilan fikran anglanib, ruhan his etilgach burchdorlik, qarzidorlik, armon kabi fikr—tuyg'ular ko'ngilda iztirob uyg'otadi. Tinchlik bermaydi. Ijodkor inson borki, bunday kezlarda aziz xotiraga aylanib ulgurgan shirin damlar yodi bilan qalbida paydo bo'lgan bo'shliqni to'ldirishga, o'z yolg'izligini yengib taskin topishga intiladi. Nazarimizda, aynan shu lahzalarda ona siymosi qalbdan qog'ozga, qog'ozdan kechinmadosh kitobxonlar ko'ngliga ko'chadi. Kechinilgan tuyg'ularning nechog'lik samimiy va ishonchli ekani, badiiy mahoratning darajasiga ko'ra Ona obrazi qarshimizda qad rostlaydi. Aniqroq aytganda, ona siymosi yozuvchining ong-shuuri, ko'ngil prizmasi orqali adabiyotga ko'chadi. Agar, obrazga qanchalik hayotiylik, ishonchlilik, samimiyat ato etilgan bo'lsa, u shunchalik yashovchan va dillarga yaqin bo'ladi. Hayot va ijod psixologiyasi bilan bog'liq yuqorida ta'kidlangan haqiqatlar Ona obrazi yaratilgan turfa janr (shakl) va mazmundagi aksariyat asarlarning yuzaga kelish va yashab qolish mexanizmiga daxldor. Binobarin, hayotiy va badiiy haqiqat mutanosibligi, u yoxud bu ijodkor poetik mahorati, konkret asardagi yoki bir janrga mansub bir necha adib qalamiga mansub asarlardagi Ona obrazi va uning ishonchlilik darajasi, muammoning tarixiy-qiyosiy, tarixiy-tipologik jihatlari, yozuvchi va kitobxon, kitobxon va yozuvchi o'rtasidagi kommunikativ muloqot (fikr-tuyg'ular dialogi) singari ko'plab muammolar tegrasida fikr-mulohaza yuritish imkonini beradi. Shu tariqa hayot, badiiy adabiyot va adabiy tanqid munosabatlaridagi uzviylik hamda uzluksizlik ta'minlanadi. Mustaqillik davri o'zbek qissachiligida yuzaga kelgan O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari", Isajon Sultonning "Onaizorim", Guljahon Mardonovaning "Quyoshim — enam" kabi qissalarida ham Ona obrazi yoritilgan bo'lib ushbu obraz ham shajaraviy-genetik kodlari bilan olis tarix bilan chambarchas bog'lanadi. Inson tafakkuri har daqiqa yangi ma'lumotlarni qabul qilsa-da, lekin o'z yaratilish muddaosini yodidan ko'tarmaydi. Insonning makoni o'zgarishi, boshqa bir jamiyatda yashashi hayot, tiriklik haqidagi tasavvurlariga ta'sir o'tkazmasligi, u doim kuzatilayotgani va sinalayotganini unutmazligi lozim. Shu nuqtayi nazardan qissalar qahramoni, mavzusi yangilansa ham mohiyatan yaqinlik saqlanib turadi. Hayotda haqni botildan farqlash, yaxshilikni yomonlikdan ustun bilish har bir davr kishilari uchun zarur qonuniyatlardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism

Istiqlol arafasi va mustaqillik yillarida yaratilgan O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari", Isajon Sultonning "Onaizorim", Guljahon Mardonovaning "Quyoshim — enam" kabi bir qator qissalaridagi bosh qahramon ona obrazi ijodkorlar asarlariga alohida bir mehr, chinakam ehtirom orqali kirib kelgan obraz hisoblanadi.

Tadqiqot obyektimiz bo'lgan qissalarning turkiy bitiktoshlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, Alisher Navoiy asarlaridagi ona obrazining quyidagi jihatlarda mushtaraklik kuzatiladi: Buddizm g'oyalaridan oziqlangan "Oltin yorug'"da Umay ona "qayta tug'iladigan"larni muhofaza qiluvchi iloh deb talqin qilinadi. "Oltin yorug'" dostonidagi "Shahzoda va bars" afsonasida ham malika — Ona siymosida gavdalanadi. Qahramonda onalarga xos bo'lgan onalik mehri, onalik tuyg'ulari ustunlik qiladi. Och barslarga aqidalariga ko'ra o'zini qurbon qilgan shahzodaning o'limi malikaga dahshatli tush orqali ishoralar beradi. Tushning ta'bi-ri o'laroq, burgut chang solib olib ketgan polaponni kichik o'g'lim, deya dod solib vayron bo'lgan yurakning qop-qora rangiga onaning oppoq suti ham dosh bera olmaydi. Vujudidagi adoqsiz dod-faryod, isyon ona ko'krigidan oq sut o'rniga qora qonning sizib chiqishiga olib keladi [Rahmonov N, Boltaboyev, 2003 — 85, 89]. Ming yilliklar qa'ridan kelayotgan bu nidolar Onalar qalbi yaralgandan boshlab bolam, deya talpinishlarini tasdiqlash barobarida davrlar o'tishi bilan insonning ong-u tafakkuri takomillashib yuksalib boraverishi mumkinligini, lekin qalbi, tuyg'ulari har doim ham asl holicha qolishini isbotlaydi. Shu sababdan ham

adabiyot, eng avvalo, insonning qalbini tasvirlashga ehtiyoj sezadi. Badiiy adabiyot boqiyli-
gining sir-siroati ham shundandi.

“Oltin yorugʻ” dostoni “Shahzoda va bars” afsonasidagi shahzoda oʻgʻilning ayanchli
taqdiri onaning tushlarida ayon bergani kabi Oʻtkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qis-
sasida onaning farzandidan tashvishlanishi farzand tushlarida namoyon boʻladi. Masalan,
qissadagi bir hikoyaning nomi ham “Tush”. Hikoyada ona vafotidan soʻng ham farzandidan
xavotir oladi, uni turli xil koʻngilsizliklardan ogohlantirish maqsadida “Koʻzingga qara, bo-
lam, chuqur bor”, — deya farzand tushlariga onasi chiroq koʻtargan holda kiradi.

“Quyoshim enam” qissasida enaning Neʼmatilla ismli oʻgʻli Oliy taʼlim vazirligi tavsiyasi
bilan Moskva avtomobil yoʻllari institutiga oʻqishga yuboriladigan boʻladi. Bu xabarni eshit-
gan ona quvonchidan hech bir soʻz deymay, farzandlarini bir-bir bagʻriga bosib chiqadi.
“Neʼmatillaning balan tovgʻa chixayotganini tushimda koʻruvdim, shuni bildirganakan” [Mar-
donova, 2021. 132], — deydi ona. Demak, farzandi kamoloti, uning xayrli ish boshida turgani
onaning tushlarida nayomon boʻlgan.

Mumtoz adabiyot namunalaridan biz ona obrazini Alisher Navoiyning epik dostonlari-
da, lirik asarlarida uchratamiz. Alisher Navoiy asarlarida ona ruhiyatining qavat-qavat sirlari
ochilgan, Sharqning buyuk shoiri tomonidan badiiy psixologizmning xilma-xil usul va vosita-
lari qoʻllangan. Alisher Navoiy ijodiy merosida biz Alanquva, Zoli zar, Halima ona, Xadichabe-
gim, Fotima, Ummi Muhammadiya, Bibi Munajjima, Bonu singari ism-shariflari keltirilgan
yoxud umuman Ona deb taʼriflangan koʻplab moʻtabar ayollar obrazi orqali ulugʻ shoir oʻzi-
ning tarbiya, tanbeh va ogohnomalari — ona roziligi va uning koʻngli shodligi har narsadan
afzalligi haqidagi hadisi sharifga tayaniluvchi konseptual qarashlarini poetik ifodaga koʻchir-
ganining guvohi boʻlamiz.

Alisher Navoiy ijodida ona obrazining tasvirlanishi va asarlarida ota-onaga boʻlgan mu-
nosabatlarga alohida eʼtibor qaratganligini boisi shundaki, Navoiy ijodining poydevori Islom
dini ahkomlaridir. Muqaddas kitobimiz boʻlmish “Qurʼoni Karim” oyatlarida va hadisi sharif-
larda ota-onani hurmat qilish, ularga ogʻrinmasdan xizmat qilish haqida bot-bot uqtiriladi.
Buyuk mutafakkir muqaddas kitoblarimizni oʻqib, uqqan hamda oʻz asarlarida ham bayon
etgan. Masalan, “Qurʼoni Karim” ning bir qancha suralariga eʼtiborimizni qaratsak, muqad-
das kitobimiz oyatlarida Alloh biz bandalarini Oʻzining ibodatiga amr qilib, soʻngra ota-onaga
yaxshilik qilishga buyurib, onaning baʼzi bir mehnatlari, mashaqqatlarini ham bayon qilgan.
Masalan, Qurʼoni Karimning Ahqof surasining 15-oyatida Alloh taolo shunday marhamat
qiladi: *“Biz insonni ota-onasiga yaxshilik qilishga buyurdik. Onasi uni qornida qiynalib koʻtarib
yurgan va uni qiynalib tuqqandir”* [Shayx Abdulaziz Mansur, 2023. 508].

Luqmon surasining 14-oyatida esa, Alloh taolo bunday degan: *“Biz insonga ota-onasini rozi
qilishni buyurdik. Onasi uni zaiflik ustiga zaiflik bilan qornida koʻtarib yurdi”* [Shayx Abdulaziz
Mansur, 2023. 412]. Muqaddas kitobimiz boʻlmish “Qurʼoni Karim”dagi ushbu oyatlarni oʻqir
ekanmiz, unda ota-onani ulugʻlash, ularga hurmat bilan munosabat koʻrsatish, ularga munosib
xizmat qilish eng avvalo, Allohning biz bandalariga bergan amri ekanligini anglaymiz.

Navoiy Xamsasining “Hayrat ul-abror” dostonida ham ota-ona xizmatini muhabbat bilan
ado etish insonning burchi ekanligi taʼkidlanadi.

Biri erur makrumati volidayn,
Bilki munung qilmogʻidur farzi ayn.
Bu ikining xizmatini bir bil,
Har necha ifrot esa, taqsir bil.
Boshni fido ayla ato qoshigʻa,
Jismni qil sadqa ano boshigʻa.
Ikki jahoninggʻa tilarsen fazo,
Hosil et ushbu ikisidin rizo.

Tun-kunungg'a aylagali nur fosh,
Birini oy angla, birisin quyosh.
So'zlaridin chekma qalam tashqari,
Xatlaridin qo'yma qadam tashqari.
Bo'lsun adab birla bori xizmating,
Xam qil adab "dol"i kibi qomating

[Alisher Navoiy, 2016. 116].

Alisher Navoiy ushbu dostonning 6-maqolatida Qur'oni karim oyatlari hamda hadisi shariflarda berilgan pand-nasihatlarini lirik ko'rinishda badiiy ifodalaydi. Misralarda ota-onani hurmat qilish ham go'zal tarbiyaning bir ko'rinishidir deyiladi. Navoiy farzand ota-onasining xizmatini birdek ado etishi, qancha ko'p xizmat qilsa ham, kam deb bilishi darkorligini uqtiradi. Otang uchun boshingni fido qilsang, onang uchun butun jismingni sadqa qilsang ham arziydi deya onani mavqeyini baland qo'yadi. Inson ikki dunyoda ham saodat topmoqni istasa, ikki odamning ya'ni, ota-onaning rizosiga erishmoq kerakligini, ular xizmatini qilishda "adab" so'zidagi "dol" kabi qomati egik bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.

Alisher Navoiyning diniy mavzuda yozgan asarlaridan biri "Arbain" asaridir. Ushbu asar musulmonlar uchun zaruriy qo'llanma va tarbiyaviy ahamiyati yuqori bo'lgan manba hadislar sharhiga bag'ishlangan. "Arba'in" uchun tanlangan hadislar asosan sahih hadislar bo'lib, hazrat Alisher Navoiy birorta ham mavzuda to'qima hadisdan foydalanmagan. Asarning 37-hadisi "Al-jannatu tahta aqdomi ummahati" deb nomlangan bo'lib, hadisda o'zbekning tabiatini, o'zaro munosabatlardagi xulqini to'laqonli ifodalagan.

Onalarning oyog'i ostidadur
Ravzai jannatu jinon bog'i.
Ravza bog'i visolin istar esang,
Bo'l onaning oyog'i tufrog'i

[Alisher Navoiy, 2011. 586—594].

Alisher Navoiy "Al-jannatu tahta aqdomi ummahati" hadisi asosida bitilgan misralarda jannat onalarning oyog'i ostidaligi, kimki Ravzai jannat visoliga yetishni istasa, ona yonida uning oyog'i ostidagi tuprog' kabi bo'lib, uning roziligini olish darkorligi haqida so'z yuritadi. Shoir hadis mazmunini dastlabki ikki misradayoq ifoda etib bo'lgan edi. Keyingi satrlarni hadisning she'riy sharhi, deyishimiz mumkin. Bu sharh hadisi sharif mazmunini o'quvchi qalbiga chuqur joylagan. Hadis matniga o'ziga xos yondashuv, san'atkorona ifoda, poetik mukammallik har ikki buyuk shoir qit'asining badiiy-estetik qimmatini oshirgan.

Biz tadqiq etayotgan "Dunyoning ishlari", "Onaizorim", "Quyoshim-enam" qissalarining ham g'oyasi, mualliflar maqsadi ota-ona mashaqqatlari, mehnatlari, sabr-bardoshlari haqida farzandlarga so'zlashdir. Qissalar mazmuni jafokash, mehnatkash, mehribon, farzandi uchun borini nafaqat borini balki jonini ham ayamaydigan onalarimizni e'zozlashimiz, qadrlashimiz lozimligi uqtiriladi. Qissalarda onalar tomonidan qilinadigan yumushlar va bu yumushlardan, farzandlar tashvishlaridan aslo nolimaslik, boriga shukur, sabr va qanoat qilishlik tasvirlarini kuzatamiz.

Xalq og'zaki ijodi namunalarijumladan, "Alpomish", "Kuntug'mish" "Rustamxon", "To'maris" kabi rivoyat va dostonlarida esa, jasoratli, vatanparvar, qasoskor, fidokor, ona obrazlari tasvirlangan.

To'maris — masagget xalqining jasoratli onasi. U o'g'lining asir tushib, o'z joniga qasd qilganiga ham qaramay ayol bo'la turib, xalqini dushmanlardan himoya qiladi. To'maris o'g'li hamda dushman qo'lida ezilgan xalqi uchun o'ch olish maqsadida ayol bo'lishiga qaramay jangga kiradi. Qonga to'ymagan dushman Kir II ning boshini qonga to'ldirilgan mesh ichiga solib, dushman yovuzligiga munosib javob qaytaradi. Jigarbandidan ayrilsada, qalbidan o'tayotgan iztirobni dushmanga sezdirmaydi, qasos olish hamda xalqni ozod etish orqali

qalbidagi olovni o'chiradi. To'marisning mardligi, jasurligi haqida xalq dostonlari, rivoyatlar to'qilgan. Keyinchalik ushbu rivoyatlar asosida o'zbek yozuvchisi Mirkarim Osim "To'maris" qissasini, Ibroyim Yusupov "To'maris" dostonini yozgan. Ushbu asarlarda To'maris vatanparvar ayol, jonkuyar va qasoskor ona sifatida tasvirlanadi.

"Kuntug'mish" dostonida Xolbeka obrazi ikki o'g'li dorga osilish arafasida turganda, ularning tirik qolishi uchun, hattoki og'ochga nola qilishdan ham toymaydigan fidokor va jonkuyar ona obrazida namoyon bo'ladi. "Rustamxon" dostonidagi Huroyim farzandini el-yurtga nafi tegadigan, xalq dardi bilan yashaydigan inson qilib tarbiyalaganligi bilan yuqori martabada turadi va barcha onalarga namuna bo'ladi. Onaning jasorati, adolati, shijoati haqida Alisher Navoiy asarlarida ham bayon etilgan.

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonining uchinchi maqolati adolatli sultonlar to'g'risida so'z boradi. Maqolatdan so'ng Shoh G'oziy hamda "Tilla kampir" haqida hikoyat beriladi. Hikoya g'oyasi shariat qoidalariga amal qiluvchi, adolatli podshoh haqida bo'lib, podshoh adolati "Tilla kampir" obrazi orqali ochib beriladi. Hikoyada bir beva kampir, ya'ni farzand dog'ida kuygan ona podshoh ustidan shunday arz qiladi: "Shoh qazoqlik qilib ko'chib yurarkan, tig' solib, har yoqqa askar tortardi. Men tulning birgina jigarim bor edi, u jigarim ekinzorining yagona boshog'i edi. U bog'imda bitgan qomati raso sarv, yana to'g'rirog'i qurigan shohimning mevasi edi. Shoh qilichi bilan ko'ksimni yorib, jigarporamni halok etdi. U tig'i bilan jigarimni kesib, jigarim qonini yerga oqizdi" [Alisher Navoiy, 2022. 92-93]. Ushbu satrlardan shuni anglashimiz mumkinki, Shoh G'oziyning yurishlaridan birida mamlakatda yashayotgan bir kampirning yolg'iz og'li shahid bo'ladi. Ona farzandini qomati raso sarv daraxtiga, qurigan shohining mevasiga o'xshatadi. Farzandim mening jigarim edi, shoh sabab jigarporam halok bo'ldi, — deya nola qiladi. Navoiy ushbu hikoyada asosiy urg'uni adolatparvar shohga qaratgan bo'lsa-da, onaning ruhiy holatini, alam-iztiroblarini, jasoratini ham tasvirlay olgan. Shohning amri bilan o'tkazilgan taftishlardan so'ng kampir haq bo'lib chiqadi. Shoh kampir qo'liga tig' berib, xohlasang jonimni ol, xohlasang oltin-u kumushlardan ol, deb taklif bildiradi. Podshohning bunday adolatparvarligi kampirga qattiq ta'sir qiladi va shunday deydi: " E yulduzlarcha askarga ega bo'lgan podshoh! Agar bolam sening yo'lingda qurbon bo'lgan bo'lsa, men qariya ham senga jonimni berishga tayyorman. Agar seni iztirobga solgan bo'lsam, yaxshilikcha kechir, men yengildim", — deydi onaizor. Podshoh shu ondayoq kampirga tilla-yu, kumushlar beradi. Ushbu voqeadan so'ng xalq kampirni "Tilla kampir" nomi bilan ataydi. Hikoyada Navoiy nafaqat adolatli podshoh balki jangda vafot etgan farzand onasining mardligi, sabri, sadoqatini ham tasvirlagan. Demak, Alisher Navoiy ayollarga xos jisman zaifalik, jabrdiydalik, o'ta mehribonlik va sadoqatlilik xislatlarini mohirona tasvirlab, voqealarning tub burilishi va muallif g'oyasini dalillashda jonlilikni ta'minlaydi [Jabborova, 2024.173].

Guljahon Mardonovaning "Quyoshim — enam" qissasida ham farzand dog'ida kuygan ona tasvirlari bor. Ona o'ttiz besh yoshni qoralagan Ne'matilla ismli og'lining vafotidan qattiq iztirob chekadi, lekin buni hech kimga hattoki, farzandlariga ham bildirmaslikka harakat qiladi. Farzandlarini "umrlaring uzoq bo'lsin, orqamizda qolinglar", deya duo qiladi. "Bolalarimning dog'ini qaytib ko'rsatma Egam", deb Allohdan so'raydi. O'g'il vafotidan so'ng uning uyini soxta hujjatlar bilan tortib olmoqchi bo'lishadi. Ushbu voqealar ketma-ketligida enaning xarakteridagi haqiqatgo'ylik, shijoat, jasorat yaqqol namoyon bo'ladi. Ona adolat istab birinchi prezidentimiz I.A.Karimovga hasrat, alam bilan maktub yozadi. Maktub prezident devoniga topshiriladi, ish o'rganiladi. Viloyat hokimi yo'llagan vakillar onaga shunday savol beradi:

— Xolajon, siz nima istaysiz?

— Bolamning bolalari ko'chada qomasin. Ular otasidan qolgan uyni vatan qisin. Shuni xohlayman, ulim, — deya javob beradi ona. Masala adolatli hal etiladi. Onaning dadilligi, tadbirliligi, jasorati bilan vafot etgan farzandi or-nomusini himoya qiladi, nabiralarining uysiz qolib ketmasligi uchun kurashadi.

Isajon Sultonning “Onaizorim” qissasida yosh go’dagidan ayrilib bag’ri qon bo’lgan onaizorning iztiroblari qizaloq Ra’no tilidan bayon etiladi. Muallif ona chekayotgan iztiroblarni Ra’no qizaloq va uning suhbatdoshi ariqcha orqali kitobxonga yetkazadi. Onaizor otaning yengiga osilib bolamni oldiga boraman, qora yerlarda yotaveradimi bolam?, — deya yig’laydi onaizor. Muallif qissada ona iztiroblarini goh dialoglarda goh qahramon monologlarida namoyon etadi.

Xamsaning “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandarning onasi — Bonuga Navoiy Bonuyi iffatpanoh deb ta’rif beradi. U zamonasini oqilasi, aql bobida haloyiqning ustozini deya ulug’lanadi. Onaning siyratidagi sabr, rizo kabi komil fazilatlarini biz Aflotun, Suqrot, Balinos, Buqrot, Xurmus Farfunyus, Arastu kabi hakimlar bilan bo’lgan muloqotidan anglaymiz. Hikoyatlarida vaqt, o’rin, harakat birligi yagona maqsad — Ona mulozamatiga, ona roziligiga qaratiladi. Iskandarning o’limi oldidan xatolarini anglab, o’zini “ozurdae” deb bilib, onasiga yozgan mashhur vasiyat-maktubida dunyo tashvishlariga andarmon bo’lib, bu mukarram zot rizosini ololmagan farzand iztiroblari, afsus-nadomatlarini aks etadi.

Darhaqiqat, Navoiy ona diydorining lazzati, ona mulozamatining zavqi va talabi, ona roziligining barakotidan farzand ne-ne balo-qazolardan omonda bo’lishi haqida juda ta’sirli, ibratli fikr yuritadi.

O’tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasida ham farzandning pushaymonlari, armonlari, onasi oldida ado etilmagan burchlari, iqrorlari ruhiy holati tasvirlari bor. Qissaning “Surat” nomli hikoyasida ona farzandi ko’zlariga ma’yus termilib, suratga tushaylik, yaqinda men o’laman degan so’zlariga bee’tibor qaragan farzand oradan ikki hafta o’tgandan so’ng o’zini shunday koyiydi: “Kechalari uyg’onib ketaman, o’ylayman. O’ylayman: sen nomard, sen ahmoq nimaga, nimaga o’shanda kulding? Suratga tushishga vaqting yo’qmiydi? Kerak bo’lsa topasan-ku! Kitob uchun, jurnal uchun, ish ustida, bog’da, ko’chada... Nima, sen kinoyulduzmisan? Jahonshumul shaxsmisan? Ana, bir dasta surating yotibdi. Har xil. Har yerda... Faqat... Onang bilan tushgan surating yo’q!” [Hoshimov, 2018. 31] Muallif o’z hissiy kechinmalarini, afsus, armonlarini qog’ozga tushiradi. Qissaning “Iltijo” hikoyasida ham yozuvchi o’g’il ona qabri ustida ko’z yosh to’kadi, onasini, u bilan o’tgan kunlarini xotirlaydi: “Esingizdami, oyi, siz bir marta, atigi bir marta, o’shandayam hazillashib: “Meniyam kitob qilib yozsang-chi, o’g’lim”, degandingiz. Men: “Sizning nimangizni kitob qilaman, oyi?” degan edim. Xafa bo’lmang, men hazillashgan edim. Mana o’sha kitob” [Hoshimov, 2018. 226]. Demak, ota-onasiga o’ylamay, noo’rin gapirib qo’yib, ularning diliga ozor berib qo’yuvchi farzandlar har zamonda har vaqt topilar ekan. Lekin onaga xos kechirimlilik, farzandi har ne qilsa ham uning haqqiga doimo duoda bo’lish, faqatgina onaga berilgan betakror onalik tuyg’usidir.

Ayni paytda, bu qissalar zamonaviy realistik adabiyot namunasi sifatida avtobiografik asar ekanligi, qissalardagi personajlarning protatiplari mavjudligi va qissalar ularga bag’ishlab yozilganligi, badiiy bo’yoqdorlik ko’pligi, tasviriylilik kuchli ekanligi, onalarga xos bo’lgan umumiy fazilatlar turli ko’rinishlarda ochib berilganligi, milliy urf-odat, an’analarga alohida e’tibor berilganligi, milliy urf-odatlar, marosimlar turli viloyatlarda turlicha ekanligi onalar orqali yoritilib berilganlik jihatlari bilan o’ziga xoslik kasb etadi.

O’tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari” qissasini yozib o’zbek adabiyotiga yangicha nafas olib kirdi. O’tkir Hoshimovgacha o’zbek adabiyotida hech kim ona obraziga bu qadar keng va batafsil to’xtalmagan edi. Adib aytganidek, qissadagi bosh qahramon ona obrazi hamda qissadagi boshqa qahramonlarning protatiplari mavjud. Muallif Poshsha xola obrazi ya’ni onasi orqali o’zbek onalarining timsolini yaratadi.

Isajon Sulton “Onaizorim” qissasi bir qissada uch avlod onalarini ulardagi o’zgarmas tuyg’ularni tasvirlaganligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Guljahon Mardonova “Quyoshim — enam” qissasida ena dunyoviy ilmning ahamiyatini chuqur anglagan, farzandlarini ilmi bo'lishi uchun ahd qilgan ona obraziligi bilan alohidalikka ega.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, vaqtlar o'tadi, zamonlar o'zgaradi, dunyo o'zgaradi, insonlar o'zgaradi lekin birgina tuyg'u ya'ni onaning farzandiga bo'lgan muhabbati o'zgarmasdir. Onalarning ming azob-uqubat bilan fazrand dunyoga keltirishi, uni avaylab-asrab ulg'aytirishi, farzandiga bo'lgan mehri-muhabbati berishi, sadoqat ko'rsatishi hamma davr onalari uchun xos bo'lgan jarayondir. Biz tadqiq etayotgan qissalardagi onalarning imon-e'tiqodi mustahkamligi, jasurligi, qahramonligi, shijoati, badihago'yiligi, farzand kamoloti uchun harakat qilishi kabi fazilatlar bilan Qur'on qissalari, xalq og'zaki ijodining turli janrlarda yaratilgan asarlar, Alisher Navoiy asarlari va undan keyingi davrlarda yaratilgan asarlardagi ona obrazi bilan mushtaraklik kuzatiladi. Ona obrazi o'zbek nasrida janrdan janrga, asardan asarga ko'chib takomillashib, badiiylashib borgan. Turli davrlarda, turli janrlarda yaratilgan adabiyot namunalari ushbu obrazga xos umumiy, go'zal vazilatlar turlicha yondashuvlar bilan tasvirlangan.

Ushbu qissalarga tarixiy, nazariy, zamonaviy aspektda qarar ekanmiz, bunday qarashlar qorishiq holda bir-birini to'ldirib keladi. Demak, mustaqillik davrida Ona haqida yaratilgan ushbu qissalar o'zbek adabiyotida tarixiy mavzudagi obrazning takomili tarzida namoyon bo'ldi.

Adabiyotlar

Shayx Abdulaziz Mansur. 2023. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri — T.: “Book Media Shop” MChJ qoshidagi “Munir” nashriyoti.

Alisher Navoiy, 2011. Arba'in. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. O'ninchi jild. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot — matbaa ijodiy uyi.

Alisher Navoiy. 2016. Xamsa “Hayrat ul-abror” dostoni. G'G'ulom nomidagi nashriyot — matbaa ijodiy uyi.

Alisher Navoiy. 2016. Xamsa “Saddi Iskandariy” dostoni. G'G'ulom nomidagi nashriyot — matbaa ijodiy uyi.

Rahmonov N., Boltaboyev H. 2003. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-jild. — Toshkent: Fan.

Hoshimov O'. 2019. Dunyoning ishlari. — Toshkent: Yangi asr avlodi.

Sultonov, 2014. Onaizorim. // “Sharq yulduzi” jurnali, 2—3—sonlar.

Mardonova, 2021. “Quyoshim—enam” “Sharq” nashriyot — matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.

Jabborova M. 2024. “Hayrat ul-abror”da xotin-qizlar obrazi // “Til va adabiyot ta'limi” jurnali, 2-son.

The Genesis and Development of the Image of the Mother in Uzbek Prose

Gulhayo Isabayeva¹

Abstract

A mother is a holy, dear person. She is an honorable person who cannot be replaced by anyone. Therefore, the root of the image of mother is historical, ancient. In this article we will study the images of mothers created during the period of independence and before. Historical sources, examples of folklore, the similarity and uniqueness of the image of the mother in the works of Alisher Navoi with the images of the mother in the stories created during the period of independence.

Key words: *Holy Qur'an, Hayrat ul—Abrar, mother, image, character, story, epic, genre, motif, author.*

References:

Shayx Abdulaziz Mansur. 2023. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri — T.: "Book Media Shop" MChJ qoshidagi "Munir" nashriyoti.

Alisher Navoiy, 2011. Arba'in. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. O'ninchi jild. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot — matbaa ijodiy uyi.

Alisher Navoiy. 2016. Xamsa "Hayrat ul-abror" dostoni. G'G'ulom nomidagi nashriyot — matbaa ijodiy uyi.

Alisher Navoiy. 2016. Xamsa "Saddi Iskandariy" dostoni. G'G'ulom nomidagi nashriyot — matbaa ijodiy uyi.

Rahmonov N., Boltaboyev H. 2003. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-jild. — Toshkent: Fan.

Hoshimov O'. 2019. Dunyoning ishlari. — Toshkent: Yangi asr avlodi.

Sultonov, 2014. Onaizorim. // "Sharq yulduzi" jurnali, 2—3—sonlar.

Mardonova, 2021. "Quyoshim—enam" "Sharq" nashriyot — matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.

Jabborova M. 2024. "Hayrat ul-abror"da xotin-qizlar obrazi // "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 2-son.

¹ **Gulhayo Isabayeva Farhod qizi** — tayanch doktorant. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: gulhayofarhodovna94@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-6337-4358

Iqtibos uchun: Isabayeva, G.F. 2024. O'zbek nasrida ona obrazining genezisi va tadriji. *Uzbekistan: language and culture*. 4[2]: 120—127.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) — jurnalining “Metodika” seriyasi global ta'limda yuz berayotgan yangilanishlar, til va adabiyot o'qitish muammolari, ta'lim va tarbiya nazariyasi, uzluksiz ta'limdagi zamonaviy yondashuvlarni qamrab olgan ilmiy-metodik jurnaldir. “Metodika” seriyasi munozarali, zamonaviy, innovatsion, texnologik yondashuv asosida konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal ta'lim va tabiya nazariyasi, til va adabiyot o'qitish masalalari, gumanitar fanlarning metodik asoslariga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochta yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000—5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100—150 so'zdan iborat abstrakt (annotatsiya) va 5—10 so'zdan kam bo'lmagan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi — normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi — to'q bo'yoqda, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda “tarjima muallifniki” shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.
Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

V.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

VII.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida va *boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174—184. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*. Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mamatov 2018, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

VII.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 — 8.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI — bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx>.

doi.org/ manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 — 253. doi: 10.36078/1596780051.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Aminov 2018, 248]

VII.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazeta-sida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. "Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi". *UZA: O'zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско — русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko — russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16th Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 103-uy.

Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 12.03.2024-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 70x100_{1/16}, Ofset bosma. "Cambria" garniturasini. Shartli b.t. 7,75. Nashr b.t. 8,25.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida tayyorlandi va sahifalandi.

"Ildiz nashriyoti" bosmaxonasida chop etildi.

Adadi 300 nusxa. Buyurtma №2.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qoraqamish 2/4, 5-uy.